



*Jasurbek ABDULLAYEV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: jasurabdullayev90@gmail.com*

*TDSI Ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasini mudiri, dotsent, PhD N. Umirzakova taqrizi asosida*

### IN THE WORKS OF AZIZIDDIN NASAFI THE ISSUE OF HUMAN DEVELOPMENT

Annotation

In this article, the views of the medieval oriental mystic Aziziddin Nasafi on the levels and qualities of human perfection are highlighted. Also, the conditions and stages of achieving the status of a perfect human are described.

**Key words:** malakut, jabarut, wayfarer, unity of existence, marohil, tariqat, shariat, emanation.

### В ТРУДАХ АЗИЗИДИНА НАСАФИ ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье освещены взгляды средневекового восточного мистика Азизиддина Насафи на уровни и качества человеческого совершенства. Также описаны условия и этапы достижения статуса идеального человека.

**Ключевые слова:** малакут, джабарут, солик, единство существования, марохил, тарикат, шариат, эманация.

### AZIZIDDIN NASAFIY ASARLARIDA INSON KAMOLATI MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta asr sharq mutasavvuf olimi Aziziddin Nasafiyning inson kamoloti darajalari va sifatlari haqidagi qarashlari yoritilgan. Shuningdek, komil inson maqomiga erishish shartlari va bosqichlari ham tavsiflab berilgan.

**Kalit so'zlar:** malakut, jabarut, solik, vahdati vujud, marohil, tariqat, shariat, emanatsiya.

**Kirish.** Inson masalasi barcha davrlar va xalqlar falsafasida muhim sanalgan, biroq uning manbalarini chuqur tushunib yetish uchun Qadimgi sharq falsafasi, hususan diniy ta'limotlardan izlash talab etiladi. Bular qatorida inson masalasining barcha tadqiqotchilari tan oladigan Konfutsiy g'oyalari, Budda va Zardusht ta'limoti, yunon falsafasi maktablarini aytish mumkin.

Aziziddin Nasafiy Komil inson masalasini qanday hal qilganligini tushunish uchun, uning ontologik qarashlarini, borliq haqidagi ta'limotini tahlil qilish lozim bo'ladi. Nasafiy fikriga ko'ra, borliq yoki mavjudlik o'z maqsadiga ega va bu maqsad inson kamoloti: "Vujudga kelish inson yaralishi bilan yakunladi, insoniyat bu mavjudlikning oxiridir, ya'ni inson yaralishi bilan olam to'liq bo'ldi, jon tugal bo'ldi" [6]. U masalaning boshqa tomonini ham ko'rib chiqadi: "Barcha yaratilgan insonning qismlaridir, borliqdagi barcha qismlar harakatda bo'ladi va rivojlanadi, so'ng oxirida inson paydo bo'ladi. Komillik inson bor joyda bo'ladi, u meva bo'lib, mavjudlik daraxtining mevasi insondir" [6].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aziziddin Nasafiyning "Komil inson kitobi" asari uning ushbu mavzuga oid qarashlarini ochib beruvchi manba bo'lib, unda Alloh taoloning qudrati, odam va olam, koinot, aql hamda ruh, shaytonu farishtalar, darveshlik odobiya maqomlari haqida e'tiborli ma'lumotlar beriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tizimli, nazariy va deduktiv fikrlash, tahlil va sintez, tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, Nasafiy borliqni daraxtga o'xshatadi va bu daraxtning mevasi inson sanaladi. Insonning rivojlanishi va uning komillikka intilishini u insoniyatning asosiy maqsadi deb hisoblaydi. Insonning maqomini mavjud bo'lgan barcha narsadan ustun qo'yadi, borliqni nurga qiyoslaydi, bu nur o'zining go'zalligi va buyukligini inson kamolotida topgan, bunda o'z hususiyatlariga, asosiga va harakatiga ega bo'lgan. [6] Uning nuqtayi nazariga ko'ra, inson ilohiy mavjudot bo'lib, barcha jismlar inson darajasiga erishish uchun aylanish va harakatda bo'ladi, insonlikka erishsa, mukammallikka ham yetishadi. [8] Nasafiyga ko'ra, inson taraqqiyotini ikki bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich (insonning tabiiy taraqqiyoti) urug'ning barchadonga tushishidan balog'at yoshigacha bo'lgan davrni o'z

ichiga oladi. Bu bosqichni mavjudot rivojiga ko'ra, uch davrga bo'ladi:

- 1) Oddiy – to'rt tabiiy unsur holati (suv, tuproq, shamol, olov).
- 2) Murakkab – mavjudlik olamida mijoz tabiatining namoyon bo'lishi va shu asosda o'simliklar shakllanishi.
- 3) Ma'dan va o'simliklar kamoloti asosida hayvonlar va insonning tug'ilishi.

Ikkinchi bosqich insonning ruhiy taraqqiyotini qamrab oladi va u kamolotning quyidagi darajalaridan iborat:

- 1) Shariat – hukmron din dunyoqarashi asosida insonning aqliy rivojlanishi, payg'ambarlar aytganlarini e'tirof etish.
- 2) Tariqat – shariatning barcha qoidalarini o'rganish asosida maxsus bilish usulini tanlash, payg'ambarlar amallarini bajarish.
- 3) Haqiqat – tanani o'z holicha anglab yetish.

Nasafiy o'z fikrlarini quyidagi shaklda umumlashtiradi: "Shariat, tariqat va haqiqatda eng muhim narsa nima ekanligini bilasanmi? Eng muhimi insonlarning so'zlari va amallarida to'g'ri va oqil bo'lishlari, yaxshi hулqqa ega bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bu so'zlari quyidagicha izohlanadi: uch narsadan boshqa hech narsa yo'q, birinchidan, insonlar boshqa hayvonlardan farqlanadi, payg'ambar ko'rsatma va ta'qirlarini tan oladi va amal qiladi, ikkinchidan, Alloh yagonaligini anglab yetish uchun taqvodorlik, xudojo'ylik yo'lida mahkam bo'ladi, donolar bilan suhbat qurishga intiladi, uchinchidan Allohni bilganidan so'ng qolgan barcha narsani biladi" [1].

Tariqat izdoshlarining 10 ta amali bor:

- Allohni anglash
- To'g'ri yo'lni ko'rsatadigan pirga bo'lgan ehtiyoj
- Pirga sodiqlik, so'fiy sevuvchi va biluvchi izdosh bo'lishi lozim, iroda uning ulovi bo'lib, iroda kuchli bo'lsa, so'fiyning ulovi ham kuchli bo'ladi.
- Itoatkor bo'lish, u o'z piringning itoatkor shogirdi bo'lishi, nimaiki qilmasin uning maslahati bilan bajarishi lozim.
- Barcha narsadan voz kechish
- Xudojo'ylik va taqvodorlik
- Kam gapirish
- Kam ovqatlanish
- Tarkidunyo qilish

Haqiqat izdoshlarining ham 10 ta amali bor:

- Allohni anglash lozim, uni anglagandan so'ng, qolgan barcha narsani tushunib yetish mumkin.

- Osoyishtalik, so'fiy barcha insonlar bilan murosada bo'lishi, hech kim bilan adovatda bo'lmasligi, aksincha barchani sevishi lozim. Bu bosqich barcha – hanafiy, shofeyi, nasroniy, yahudiy, musulmon uchun birday mansub.

- Unga nima deyishlari, qanday munosabatda bo'lishlaridan qat'iy nazar, barchaga nisbatan shafqatli va marhamatli bo'lish, odamlar tinch yashashi uchun o'zlar himoya qilinishi, kuchlilar tomonidan izzat ko'rsatilishi lozim.

- Barchani sevish va hurmat qilish, barchaning oldida itoatkor va mo'min bo'lish.

- Rizo, erkinlik va tinchlik.

- Umid, sabr va vazminlik.

- Beg'araz bo'lish, chunki ochko'zlik va hirs qabihlik va yovuzlik sanaladi.

- Mamnun va hotirjam bo'lish

- Hech kimga yomonlik qilmaslik, aksincha barchaga yordam berish.

- Mulohazakorlik [7].

Komil inson – shariat, tariqat va haqiqatda mukammal bo'lgan inson. Komil inson – to'rt sifatga ega bo'ladi: ezgu so'z, ezgu amal, ezgu hulq va ma'rifat.

Komil insonni turlicha nomlashadi: shayx, peshvo, xodiy va mahdiy, biluvchi va yetuk, komil, olamda sodir bo'layotgan barcha narsalarni o'zida aks ettiruvchi, olamni ko'rsatuvchi oyna, buyuk malham va alkimyo. Aytishlaricha, Iso o'liklarni tiriltirgan, Xizr tirik suvni ichgan, Sulaymon qushlar tilini bilgan.

Butun mavjudlik bir inson bo'lsa, komil inson uning qalbidir. Ba'zilar aytishicha, barcha mavjudot daraxt kabi bo'lsa, insonlar bu daraxtning mevalaridir, komil inson esa insonlarning qaymog'idir. Komil inson bu daraxtning tanasini aks ettiruvchi muhit.

Komil insonga barcha narsa ayon, u o'z-o'zini va Allohni anglash darajasiga erishadi, Allohni anglaganidan so'ng, olamdagi barcha narsani tushunib yetadi. Komil inson o'z-o'zini va Allohni anglaganidan so'ng, boshqalarga yordam berishdan ezgu ish yo'qligini tushunadi.

Nasafiy urf-odatlariga sodiqlikni butparastlik deb hisoblaydi. U yozadi: “Ba'zilar ko'p ibodat qiladi, ayrimlarning amali bor, ba'zilar ko'p ibodat qiladi, ayrimlar ko'p ro'za tutadi, bularning barchasi sanam hisoblanadi, kim namoz vaqtida keragidan ortiq sajda qilsa, bu ham u uchun sanam sanaladi.

Tark etish bu moyillikni tark etish, zaruriyatni tark etish. Shu sababli boylik solik uchun noma'qul va to'siq sanaladi, biroq ehtiyojni tark etish ham ma'qul emas. Masalan, kiyim va boshpana insonning birlamchi zaruriyati sanaladi, bular qondirilsa, boshqa ehtiyojlar paydo bo'ladi, bu esa ochko'zlik esa qabihlikdir. Misol uchun, katta boylik tartibsizlik va ahloqsizlikka olib keladi, ehtiyojlarni tark etish ham xuddi shunday natijaga yetaklaydi. Kim hayot uchun zarur narsalarga ega bo'lsa, u boylikka ham ega, kimning ehtiyojlari bo'lmasa, uning muammolari ham ko'p bo'ladi.

Har bir buyum o'z hususiyatlariga ega va bu sifatlar kimdadir kuzatilishi mumkin, kimdadir esa yo'q. Masalan, kimdir o'zining novvoy, duradgor yoki temirchi ekanligini aytsa va unda bu hususiyatlar bo'lsa, u haqiqatni aytgan bo'ladi, agar bular unda bo'lmasa, yolg'on aytgan bo'lib chiqadi. Ilm va kasb o'zaro bog'liq, bunda ilm ichki, kasb esa tashqi ko'rinish bo'lib, shu tarzda har bir faoliyat ma'lum ilm hususiyatiga ega, faoliyat rivojlansa, ilm ham rivojlanadi. Agarda faoliyatning nuqsoni bo'lsa, unda bu sohadagi ilm ham raso bo'lmaydi” [7].

Nasafiy muhokamalardan so'ng shunday hulosaga keladiki, insonlarni ma'naviy rivojlanishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin: “Komil va nomukammal. Shariat, tariqat va haqiqat bilimlariga ega bo'lgan insonlar komil va ular halq yetakchilari sanaladi, bunday bilimlarning hech biriga ega bo'lmaganlar nomukammal bo'lib, ularni hayvonlar qatoriga kiritish mumkin” [7].

Aziziddin Nasafiy o'zining “Kashf ul-haqoyiq” asarida shariat, vahdati vujud ta'limoti va faylasuflar nuqtayi nazaridan kelib chiqib, inson rivojlanish bosqichlarini belgilashga urinadi.

Shariat tarafdorlari fikricha, inson kamoloti haqiqiy bilimlarni bilish bilan belgilanadi:

- Jonni va unga mansub bo'lganni bilish

- Allohni va unga mansub bo'lganni bilish

- Olamni va unga mansub bo'lganni bilish

- Oxiratni va unga mansub bo'lganni bilish

Ushbu talablarga ko'ra, inson shariat bilimlarini o'zlashtirish yo'li bilan komillikka erishadi. Nasafiy bu qarashlarini tahlilsiz bayon etadi va ushbu masala bo'yicha quyidagilarni yozadi: “Ba'zilar aytganidek, inson jabarut holatiga erishganda komil bo'ladi, ya'ni insonlarda 4 xil daraja bo'ladi: birinchi holat – olam tarafdorlari, ikkinchisi – oxirat tarafdorlari, uchinchisi – malakut tarafdorlari, to'rtinchisi – jabarut tarafdorlari” [10].

Nasafiy insonning ruhiy rivojlanish bosqichlarini shu tarzda izohlaydi: “Insonlar aqldagi farq va holatga ko'ra tafovutlanadi, aql bizning olamda yuz marohilga ega bo'lsa, oxiratda uch yuz marohilga ega bo'ladi. Shuningdek, malakutgacha uch yuz marohil, jabarutgacha uch yuz marohil bo'ladi. Malakut tarafdorlari jabarut tarafdorlarini aqlan ozgan deb bilishadi, jabarut tarafdorlari esa, har bir holatni o'z darajasiga ko'ra to'g'ri baholaydi” [10].

Tariqat tarafdorlari ham komillikning to'rt darajasiga haqida gapirishadi:

Birinchisi – solik, ikkinchisi – jalb qilingan, uchinchisi – jalb qilingan solik, to'rtinchisi – komil inson bo'lib, ularning bu darajaga erishuvi inson irodasi va Allohning marhamatiga bog'liq. Shunday ekan, hukmdorlarga boshqaruv, payg'ambarlarga karomat ularning irodasiga ko'ra emas, Allohning marhamati bilan berilgan.

Ba'zi so'fiylar insonlarni to'rt guruhga bo'lishadi; birinchisi – taqlid tarafdorlari, ikkinchisi – dalil tarafdorlari, uchinchisi – imon tarafdorlari, to'rtinchisi – haqiqat tarafdorlari. Taqlid tarafdorlari islom darajasida bo'lib, uning o'zi ham bir necha darajalarga bo'linadi, dalil tarafdorlari imon tarafdorlarini, ular esa o'z navbatida boshqa bir qancha darajalarni o'z ichiga oladi.

Aziziddin Nasafiy faylasuflarning komil inson bilan bog'liq qarashlarini emanatsiya nuqtayi nazaridan tasniflaydi va bu jarayonni 9 darajaga bo'lib chiqadi:

- Oy

- Venera

- Quyosh

- Mars

- Yupiter

- Saturn

- Qo'zg'almas yulduzlar

- Yulduz galaktikalari

- Alloh nuri

Bularning barchasiga qiyinchilik va mehnat bilan bosqichma-bosqich erishish mumkin. Nasafiy bu bosqichlardan o'tish davri haqida yozadi: “Bu maqomga erishgan har bir kishi olamdagi hamma narsani biladi, chunki olamdagi narsalar u uchun umumiylikning bir qismi bo'ladi.

Bu darajaga erishgan har kim komillik yo'lida zohidlik, yolg'izlik, poklik, soflikka amal qiladi va shunda hukmdor, avliyo yoki payg'ambar bo'ladi. Imon tarafdorlari avliyo va boshqaruvchi maqomida bo'ladi, boshqaruv ham darajalarga ega” [10].

Nasafiy inson kamolotida avliyo va payg'ambar bilan mos keladigan ikki darajani belgilaydi. Avliyolik maqomi haqida u yozadi: “Bu maqomga erishganda, bunda zohidlik, yolg'izlik, poklik va soflik holatida bo'ladi, biroq izziz yo'qolishga va halqqa ziyon yetkazmaslikka intilsa, buyuk avliyo bo'ladi. Agar unda yuqoridagi sifatlar bo'la turib, halqni da'vat qilsa va Alloh bilan muloqot qilsa unda buyuk payg'ambar bo'ladi” [10].

Nasafiy payg'ambar va avliyo maqomiga erishishda bir qancha umumiy asoslarni keltiradi, biroq payg'ambarlik darajasi halqni da'vat qilish va Alloh bilan muloqot qilishda namoyon bo'ladi. Avliyolar o'z maqomiga mashaqqat va ruhiy mehnatlari hisobiga erishadilar, Alloh oldida o'z sirlarini halqqa ko'rsatmaslik ma'suliyatini oladi. U bu maqomga shariat bosqichlarini bosib o'tish bilan erishadi. Haqiqat va ilohiy kuch bilan qo'shilish darajasiga erishib, bunda o'z sirlarini yashirin saqlashi lozim. Bu shunday izohlanadiki, oddiy halq bunday komillikdan, avliyolar darajasidan ancha uzoqda bo'ladi. Bunday

bilimlarning sir saqlanish zaruratini johillik, nafrat va aqlsizlik qurboni bo'lgan Mansur Halloj va Boyazid Bistomiy fojeasi bilan izohlaydi.

Nasafiy nuqtayi nazariga ko'ra, komil inson uchun noma'lum bo'lgan hech narsa yo'q, Allohni anglab, u qolgan barcha narsalarni tushunib yetadi. Allohga itoat va sajda uning insonlarga na'muna bo'lgan amallarida namoyon bo'ladi. Bunday na'muna odamlar uni tinglashini, u qilgan ishlarni qilishini nazarda tutadi. Shunda ular bu olamda ham, ohirtda ham halos bo'ladi.

Nasafiy, bir tomondan, komil insonni olamning yuragi deb atab, unga eng yaxshi insoniy sifatlar bilan nisbat bersa ham, boshqa tomondan, uning fikricha, u har narsaga qodir emas. Nasafiy yozadi: "Komil inson buyuk va mukammalligiga qaramasdan, hayotda baxtsiz va noumid bo'ladi, murosa va uyg'unlikda yashab o'tadi. Ahloq va ilm jihatidan mukammal, lekin qudrat bo'yicha har narsaga qodir emas". [7] Nasafiyga ko'ra, mo'g'ul bosqini davrida avliyolar ham jaholatga uchrashdi. Dahshatli mo'g'ul bosqini davrida minglab olimlar jaholat qurboni bo'lishdi, bu albatta ularning dunyoqarashida aks etmasligi mumkin emas edi.

Aziziddin Nasafiy komil insonni ikki turga ajratadi:

- Yetuk komil inson
- Erkin komil inson

Yetuk komil inson, uning nuqtayi nazariga ko'ra, 4 sifatga ega:

- Ezgu so'z
- Yaxshi amal
- Yaxshi holat
- Ma'rifat

Erkin komil inson 8 sifatga ega:

- Ezgu so'z
- Yaxshi amal
- Yaxshi holat
- Ma'rifat
- Tark etish
- Tarki dunyochilik
- Sabr
- Osoyishtalik

Dastlabki to'rt sifatga erishib, kishi yetuk komil inson bo'ladi, keyingi to'rt sifatga erishish bilan erkin komil insonga aylanadi. Nasafiy yozadi: "Sakkiz darajaga erishgan kishi erkin komil inson bo'ladi, dastlabki to'rt darajaga erishgan, biroq keyingi to'rttasiga erishmagan kishi yetuk komil inson bo'ladi, ularga erishsa yetuk va erkin bo'ladi" [7].

Nasafiyga ko'ra, erkin komil inson ikki guruhga bo'linadi:

- Ayrimlar dunyodan voz kechganidan so'ng, tarkidunyochilik, mamnunlik va maxfiylikni tanlaydi.
- Ba'zilar dunyodan voz kechib, murosa, itoat va ziyraklikni tanlaydi.

Nasafiy "Kashf ul-haqoyiq" asarida inson kamolotini erkinlik va yetuklikda ko'radi. Erkinlikni u shunday ta'riflaydi: "Insonning komillashuvi yetuklik va erkinlikdir, yetuklikning mohiyati – taraqqiyot va kamolot bo'lib, erkinlikning mohiyati – yaqinlaridan voz kechishda namoyon bo'ladi" [8]. Shunday qilib, Nasafiy inson taraqqiyotini ikki bosqichga bo'ladi: komillik va erkinlik.

#### ADABIYOTLAR

1. Арберри А.Дж. Суфизм. Мистики Ислама. - Москва, 2002.- 268 с.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. М: «Наука». - 1965. -524 с.
3. Степанянц М.Т. Мусульманские концепции в философии в политике (XIX - XX вв). - Москва: Наука, 1982.- 247 с.
4. Ибн Араби. Футухот-ул-маккия.// Средневековая арабская философия.- Москва: Мысль, 1998.- 120 с.
5. Хайруллаев М.М. Абу Наср ал-Фараби.- Москва: Наука, 1982.-345с.
6. Насафи Азизуддин. Китоб-ал-инсон-ул-комил.-Тегеран: Тахури, 2000 м.1379х.-554с.
7. Насафи Азизуддин. Максад-ул-аксо.// Мавлоно Абдурахмони Джоми. Ганджи орифон. - Тегеран «Ганджина», 1372.- 440 с.
8. Насафи Азизуддин. Зубдат-ул-хакоик. Мавлоно Абдурахмони Джоми. Ганджи орифон. - Тегеран «Ганджина», 1372.- 440 с.
9. Насафи Азизуддин. Зубдат-ул-хакоик. Пер. Шукурова Ш.//Бертельс А.Е. Пять философских трактатов на тему "Афак ва анфус" (О соотношении между человеком и вселенной). М., 1970.
10. Насафи Азизуддин. Кашф-ул-хакоик. - Тегеран, 1359.- 340 с.

- Rivojlanish urug'ning ona bachadoniga tushishidan boshlanadi, bu insonning biologik rivojlanish davri sanaladi.

- Erkinlik davri insonni o'z-o'zini anglashidan boshlanadi va bu quyidagilarga bog'liq: o'z-o'zini anglash qaysi darajada bo'lsa, uning ma'naviyati ham shu darajada bo'ladi. Ma'naviylik va o'z-o'zini anglashning oxirgi darajasini u Allohni anglashda va u bilan qo'shilib ketishda ko'radi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yetuklik va erkinlik rivojlanish bosqichlarini shunday izchillikda keltiradi:

Uning fikricha, yetuklik ikki qismdan iborat, biri – yetuklikka taqlid yo'li bilan tez erishish, ikkinchisi – tadqiq qilib sekinlik bilan erishish mumkin.

Nasafiy taqlid yo'lini oddiy insonlarning kundalik dunyoqarashida ko'radi va shunday tavsiflaydi: "Qisqa va taqlid qiluvchi yo'l – bunda insonlar yetuklikni bir narsada ko'radi, doim shunday bo'lgan va bo'lib qoladi deb o'ylashadi. Bu avom fikridir" [8].

Tadqiqiy yetuklik darajasi haqida quyidagilarni yozadi:

- Birinchi bosqichda eng muhimi - narsalar mohiyatini anglash va bu faylasufarga hos.

- Ikkinchi bosqichda eng muhimi – narsalar sifatlarini anglash va bu payg'ambarlikning sharti.

- Uchinchi bosqichda eng muhimi – narsalar haqiqatini anglash va bu avliyolikning talabi sanaladi.

Shu tarzda, Nasafiy erkinlik darajalarini tasniflaydi:

- Erkinlikning birinchi darajasi - inson o'zini mansab, boylik va xirsdan halos qilishi kerak.

- Erkinlikning ikkinchi darajasi – ilm, ibodat va ilohiy pardalardan voz kechish, ilohiy pardalarni unutish va ulardan halos bo'lishi lozim.

- Erkinlikning uchinchi darajasi – o'zini unutish, xudbinligidan halos bo'lishga intilish va bu ilohiy erkinlik sanaladi.

Xulosa va takliflar. Nasafiyga ko'ra, yuqoridagilardan quyidagicha hulosa chiqarish mumkin: "Inson komillikka yaxshi axloq yo'li bilan erishish, o'z-o'zini anglash uchun doimo izlanishda bo'ladi" [9].

Nasafiy nuqtayi nazari bo'yicha inson kamoloti masalasini tadqiq qilishda, quyidagi xulosalarga keldik:

1) Inson kamoloti jarayoni ikki – tabiiy va ma'naviy davrga ega.

2) Nasafiyning komil insoni zardushtiylik va islom ahloqi ta'limotlari o'zaro ta'siri natijasi.

3) Komil inson nisbiy axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga ega, chunki jamiyatning har bir qatlamida u o'z mohiyatini o'zgartirishi mumkin.

4) Nasafiy komil insonni butun borliqning yuragi deb hisoblaydi, unga eng yaxshi sifatarni nisbat beradi, biroq uni har narsaga qodir deb hisoblamaydi.

5) Inson taraqqiyotining oxirgi bosqichi – bu avliyolar darajasi bo'lib, so'fizm jihatidan, bu mehnat va ilohiy kuch bilan qo'shilib natijasidir.

6) Nasafiyga ko'ra, komil inson tushunchasi inson ma'naviy taraqqiyotining oxirgi bosqichiga qo'llaniladi.

7) Komil inson darajasiga erishishning asosiy sharti – o'z-o'zini anglash va erkinlikdir.



Zebiniso ABDUNAZAROVA,

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: [rustamkhurramov@mail.ru](mailto:rustamkhurramov@mail.ru)

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L.Muxtarova taqrizi asosida

### TABIY FANLARNI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Annotsatsiya

Ushbu maqola ekologik tafakkur bilan 27 chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinif o'quvchilari tabiatni bilishlari, ekologik bilim, ekologik tafakkur, inson faoliyati va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalar boshlang'ich sinif o'quvchilariga tabiiy o'quv fanlari negizida beriladi. Shuningdek, inson yashashi uchun havo, suv, quyosh qanday kerak bo'lsa, o'simlik va hayvonlar ham shunday kerakligi, ular o'rtasidagi tabiiy bog'liqliklar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fan, o'qitish, ekologik tafakkur, shakllantirish, metod, vosita, kompetensiya, mazmun.

### THE CONTENT OF USING THE HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES

Annotation

This article is closely related to ecological thinking. Elementary school students' knowledge of nature, ecological knowledge, ecological thinking, scientific resources about the relationship between human activity and nature are given to elementary school students on the basis of natural sciences. Also, it is revealed that plants and animals need air, water, and sun for human existence, and the natural connections between them are revealed.

**Key words:** Natural science, teaching, ecological thinking, formation, method, tool, competence, content.

### СОДЕРЖАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация

Эта статья тесно связана с экологическим мышлением. Знания младших школьников о природе, экологические знания, экологическое мышление, научные ресурсы о взаимосвязи деятельности человека и природы даются учащимся младших классов на основе естественных наук. Также выявлено, что растениям и животным для существования человека необходимы воздух, вода и солнце, и раскрываются естественные связи между ними.

**Ключевые слова:** Естествознание, преподавание, экологическое мышление, формирование, метод, инструмент, компетентность, содержание.

**Kirish.** Boshlang'ich sinif o'quvchilari tabiatni bilishlari, ekologik bilim, ekologik tafakkur, inson faoliyati va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalar boshlang'ich sinif o'quvchilariga tabiiy o'quv fanlari negizida beriladi. Shuningdek, inson yashashi uchun havo, suv, quyosh qanday kerak bo'lsa, o'simlik va hayvonlar ham shunday kerakligi, ular o'rtasidagi tabiiy bog'liqliklar ochib berilgan. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar bo'yicha darslarni tashkil etishda "Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga insonning kuchli antropogen ta'siri tufayli ekologik muammolar vujudga kelayotganligi, sanoat mahsulotlaridan atmosferaning ifloslanishi ekologik muammolarni vujudga keltirganligi, yer yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko'payishi, global ekologik inqiroz xavfining real ekanligi[1] ni o'quvchilarga tushuntirish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyoning ekologik konsepsiyalarini rivojlantirishda rus olimlarining ham hissasi katta bo'lib bu borada, P.S.Pallas, I.I.Lepexin, S.P.Krashennikov, M.V.Lomonosovning tabiiy fanlar masalasida ilmiy-nazariy prognozlarni bera olish yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga molikdir. Geobotanik L.G.Ramenskiyning turlarning ekologik individualligi qonuniyati va ekologik doimiylik nazariyasi, A.T.Bolotovning o'simliklarning yashash joylari bilan bog'liq konsepsiya, shuningdek, V.N.Sukachevning biogeosenozlar (ekotizimlar) haqidagi ta'limotlari fan rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ekologik g'oyalarni rivojlantirishda nemis tadqiqotchilari alohida o'ringa ega. Biogeografiyaning asoschilaridan A.Gumboldt 1807 yilda "O'simliklar geografiyasining g'oyalari" nomli kitobida bugungi kunda

ekologlar tomonidan qo'llaniladigan bir qator (o'simliklar ekobiomorfasi, uyushma turlari, 34 o'simliklarning shakllanishi va boshqalar) ilmiy tushunchalarni kiritdi. Professor K.F.Rule esa, organik dunyoning rivojlanishi o'zgaruvchan tashqi muhit ta'siriga bog'liq degan g'oyani ilgari surib o'z asarlarida hayvon ekologiyasining asoslarini yaratgan. K.F.Rulening ilmiy-nazariy qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**Tahlil va natijalar.** O'quvchilar tushunishlari lozimki, tabiatni muhofaza qilish hozirgi va kelgusi avlodning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni saqlashdan iborat. Shu jihatdan o'quvchilarga ekologiya va ekologik tushunchalar haqida ma'lumot beriladi. Xususan, ekologiya hayot jarayonlarini o'ziga xos metodlarda tadqiq qiladigan mustaqil fan hisoblanadi. Ekologiyaning ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'langan tarmoqlari ham rivojlanmoqda. Shu bilan birgalikda turli fanlardan ekologik muammolar jihatlari o'rganiladi.

Ekologiya - tirik organizmlarning (har qanday ko'rinishdagi, barcha darajada uyg'unlashgan) hayot faoliyati qonuniyatlarini ular hayotida kechadigan tabiiy muhitning inson omili ta'sirida yuzaga keladigan holatni o'rganadigan fandir". Shunday ekan, tabiat qonunlarining muvozanatini buzmaslik kerak. Demak, yoshlarga, kelajak avlodga bolalikdan tabiatga mehr-muruvvatli bo'lish tuyg'ularini singdirib borish lozim. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi "Yosh avlodda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ekologik tushunchalar o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylashga, uni sevishga, unga oqilona munosabatda bo'lishga, o'z maktabi, o'zi yashab turgan oilasi, mahallasi, qishloq va shahrini ozoda saqlashga, uni ko'kalamzorlashtirishga, mevali bog'lar yaratishda



o'z hissalarini qo'shishga, hayvonot dunyosiga g'amxo'rlik qilishga, qo'ying-ki, yer, suv, havoning musaffoligiga erishish misolida atrof-muhitni, butun nabotat dunyosini e'zozlashga qaratilgan".

Bugungi kunda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatli jarayon bo'lib, ularning har bir inson faoliyatini yoshligidan tabiat bilan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Shuningdek, ekotizim bilan bog'liq murakkab jarayonlar insoniyat turmush tarzining barcha jabhalarida o'zini salbiy jihatlarini ko'rsatayotganligi sir emas. Albatta, bu jarayon barcha jamiyatshunos olim va pedagoglarning diqqat markazida bo'lgan masala bo'lib, uni har jihatdan tadqiq etgan holda ekologik inqirozni jamiyat sivilizatsiyasiga ta'sirini minimallashtirishga qaratilgandir. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiyani berish bilan birga uning ekologik madaniyatini shakllantirishni ham taqozo etadi.

Ekologik tushuncha yosh avloddan, umuman, insondan tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish bilan birga vaziyatni sog'lomlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashni, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarga oid milliy va umumbashariy tajribalarni o'rganishni va hayotga tadqiq qilishni, tabiatning yanada go'zallashuvi, gullab-yashnashi uchun hissa qo'shishini taqozo etadi. Bu faoliyat debochasi esa, bolalikdan boshlanadi[7]. Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ekologik bilimlarni o'rganishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Bir so'z bilan aytganda tabiat bilan muloqotda axloq normalariga tayangan holda yondashuvni tavsiya etgan.

Sharq madaniyatida tabiat qiymati inson qadriyatidan ustun turadi. Insonning ichki va tashqi faoliyati tabiatga moslashishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'z-o'zini tarbiyalash, irodasini boshqarish, emotsiyalarga berilmaslik, oqillik va donolikni tafakkur etish va o'zini tutishga qaratilgan. Inson bu yerda uning tabiatdan ajratilgan maxsus komponenti sifatida qabul qilinmaydi, aksincha uning bir bo'lagi va rivojlantiruvchi omil sifatida singdirilgan. Tadqiqotchilar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishini inson ishlab chiqaruvchiga aylanib, tabiiy muhitni o'zgartirish mumkinligini anglagan neolit inqilobi bilan bog'lashedi. Jumladan, K.Yaspers odamlar ongida katta ta'sirga ega bo'lgan ijtimoiylashuv va yagona madaniy tarixiy jarayon uchun poydevor yaratgan, olamga mifologik va sehrli munosabatni chegaralovchi va ratsionalistik yondashuvni ya'ni (miloddan avvalgi VIII-III asrlar) inson tabiiy muhitga ongli va aniq qarshilik jarayoni keltiradi" [6].

Keyingi bosqichda "qishloq xo'jaligining asta-sekinlik bilan o'sishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, oddiy tovar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan holda, sanoat inqilobining ilmiy-texnik taraqqiyoti, texnogen sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi oqibatida insonning texnikaviy tafakkur kuchi tabiat kuchlaridan ustun kelishga olib kelgan holda ushbu taraqqiyot natijasi o'laroq inson o'zini – o'zi yo'q qilish jarayoniga ham yo'l ochdi" [3].

Mazkur jarayonlarning oldini olish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish va amalga oshirishning tashkiliy va ilmiy-uslubiy jihatlarini 33 zamonaviy ta'lim texnologiyalariga muvofiq tarzda ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Insonning kuch va qobiliyatlarini tahlil etganda, u uchga bo'linadi: jismoniy, aqliy, axloqiy. Shunga binoan, insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiyoti, yuksalishini ta'min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasidir. Shved olimi Karl Linney XVIII asrning birinchi yarmida hayvonlar va o'simliklarning taksonomik tizimini yaratgan bo'lib ushbu tamoyil bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. J.L.Byuffon "Tabiiy tarix" nomli asarida iqlimning hayvon organizmlariga ta'siri batafsil yoritgan, J.B.Lamark tashqi sharoitlarning hayvonlar va o'simliklar evolutsiyasidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan, Alfons De-Kandol esa, "Botanika

geografiyasi" nomli asarida abiotik omillarning o'simlik organizmlariga ta'sirini tavsiflagan.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning mohiyati, g'oyaviy mazmuni, uning qonuniyatlari, samaradorlik shartlari, ekologik ta'lim-tarbiya mezonining falsafiy va madaniy kontekstini samaradorlik omillari orqali ishlab chiqish kun tartibidagi masalalardan biri bo'lib qolmoqda. "Ekologik ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishish va o'zaro uyg'unlikni shakllantirish mumkin. Tabiat bilan uyg'un yashash, inson uning bir bo'lagi, degan tushuncha va gumanistik g'oyalarni singdiruvchi ta'limning dasturiy tizimi bugungi kunda o'zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Tabiiy resurslar haqidagi noto'g'ri tushunchalarning paydo bo'lganligi, tugab-bitmas manba degan yondashuvni ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo'sundirishga bo'lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo'q qilishga asos bo'lib qolmoqda. Biror kishining ekologik ongni shakllantirish uchun, insonning qarashlari va g'oyalarini butunlay qayta qurish zarur, chunki u o'zlashtirgan ekologik me'yorlar bir vaqtning o'zida uning tabiatga nisbatan xattiharakatlarining me'yorlariga aylanadi".

Bugungi kunda ekologik muammo nafaqat atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash nuqtayi nazaridan kelib chiqadi, balki u bilan ongli ravishda rivojlanayotgan o'zaro aloqada bo'lgan tabiatga tabiiy ta'sirning oldini olish muammosi ham kun tartibidagi masalaga aylandi. Ushbu o'zaro ta'sir har bir insonda ekologik ong va ekologik madaniyatning yetarli darajasiga ega bo'lgan taqdiridagina amalga oshiriladi hamda uning shakllanishi bolalikdan boshlanadi va 35 butun hayot davomida ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ekologik ong tabiiy mavjudotning bir qismi sifatida aks etishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va individual ong doirasini anglatadi. E.V.Girusov ekologik ongni jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini o'ziga xos ijtimoiy va tabiiy imkoniyatlarga mos ravishda ularni optimal yechish nuqtayi nazaridan aks ettiruvchi qarashlar, nazariyalar va hissiyotlar majmuasi" deb ta'kidlaydi.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ulardan qay darajada xabardorliklari hamda dars jarayonida ularni qo'llay olishlariga bog'liqdir. Albatta, bu jarayonlarni tashkil etish uchun ma'lum bir shart-sharoit va mavjud huquqiy asos hamda faol harakat amalga oshirilishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak umumta'lim muassasalarining jamoat va davlat ekologik tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarining amaliy imkoniyatlarini kengaytirish borasida har tomonlama tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish, uning uzluksiz ishlash mexanizmini yaratish lozim [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda "motivatsiya va ijodiy faoliyat orqali ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, shuningdek, tabiat hodisalari o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, tabiatni his qilish qobiliyatini rivojlantirish, ekologik bilimlarni shakllantirish va bunyodkorlik hissini qaror toptirish hamda tabiiy hodisalarni tahlil qilish va oqibatlarini umumlashtirishdan iborat". Atrof-muhitni rivojlantirish samaradorligini oshirish texnologiyalaridan biri bu kognitiv materialni to'g'ri tanlay olishi va amaliyotda qo'llashdir. Ishning ta'lim-tarbiya bilan bog'liqligi hamda ishlab chiqarish sohasidan farqlanuvchi jihatini hisobga olgan holda asoslash va hududiy ekotizimni barqarorlashtirishga xizmat qiladigan ekologik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida iqtidorli o'quvchilarni jalb etish maqsadga muvofiq sanaladi[5].

**Xulosa.** Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologiyaga oid meroslarini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni avaylab asrash, tabiiy resurslarni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligi haqidagi tushunchalar shakllanadi. Inson tomonidan olam va uning mavjudligi asoslarini bilishda ilm-fan hal etuvchi omil hisoblanadi. Bu fikrlarda dialektik rivojlanish qonunlarining falsafiy bayoni o'z ifodasini topgan.

1. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
2. Abdunazarova Zebiniso Khudoysukurovna, & Kasimov Shavkat Urolovich.(2022). Main Tasks Of Moral Education And The Role Of Youth InLife. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 547-551.
3. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities OfForming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
4. Zebiniso Abdunazarova. (2023). Formation Of The Components Of Ecological Thinking In Primary Class Students. Emergent: Journal Of Educational Discoveries And Lifelong Learning (Ejedl), 4(07), 4-9.
5. Абдуназарова Зебинисо Формирование ЭкологическогоМышления У Учащихся Начальных Классов "Экономика Исоциум" 11(114) 2023
6. Abdunazarova, Z. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students'ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
7. Абдуназарова, З. Х. (2024). Tabiiy Fanlarni O 'Qitishda O 'Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 (1)), 123-129.



*Navbahor ABRAMOVA,*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: navbahor.abramova@mail.ru*

*Pedagogika fanlari doktori, dotsent I.Abdullayev taqrizi asosida*

### ESL LEARNERS' WRITING SKILLS: PROBLEMS, FACTORS AND SUGGESTIONS

Annotation

Writing is an important skill for language production. However, it is considered a difficult skill, particularly in English as a second language (ESL) contexts where students face many challenges in writing. Therefore, the present study was conducted with an aim to investigate problems in Uzbekistan undergraduate ESL learners' writing and factors that hinder their writing skills. It also aimed at obtaining suggestions on how to improve Uzbek ESL learners' writing skills. For this purpose, focus groups of English language teachers' and undergraduate ESL learners were conducted. Writing samples were also collected from 20 ESL undergraduate learners to find the major problems in their writing.

**Key words:** Writing competence, ESL, academic writing, writing conventions, product approach, process approach, genre approach, L1 interference.

### НАВЫКИ ПИСЬМА УЧАЩИХСЯ ESL: ПРОБЛЕМЫ, ФАКТОРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Аннотация

Письмо – важный навык для создания речи. Тем не менее, это считается трудным навыком, особенно в контексте английского как второго языка (ESL), где учащиеся сталкиваются со многими проблемами при письме. Таким образом, настоящее исследование было проведено с целью изучить проблемы письма учащихся бакалавриата ESL в Узбекистане и факторы, которые мешают их навыкам письма. Целью проекта также было получение предложений о том, как улучшить письменные навыки узбекских учащихся, изучающих английский как иностранный язык. С этой целью были проведены фокус-группы среди преподавателей английского языка и студентов, изучающих английский как иностранный язык. Образцы письма также были собраны у 20 студентов бакалавриата ESL, чтобы выявить основные проблемы в их письме.

**Ключевые слова:** Письмо, письменная речь, письменная компетентность, письменная компетентность, письменные навыки, письменный подход, прямой подход, косвенный подход.

### INGLIZ TILINI O'RGANUVCHI TALABALARNING YOZUV QOBILİYATLARI: MUAMMOLAR, OMILLAR VA TAVSIYALAR

Annotatsiya

ESL o'quvchilarining yozish ko'nikmalari: muammolar, omillar va takliflar

Xulosa: Yozish til ishlab chiqarish uchun muhim mahoratdir. Biroq, bu qiyin ko'nikma hisoblanadi, ayniqsa ingliz tilida ikkinchi til (ESL) kontekstlarida talabalar yozishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot O'zbekiston bakalavriat talabalarining ESL o'quvchilarining yozishdagi muammolari va ularning yozish ko'nikmalariga to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish maqsadida o'tkazildi. Shuningdek, u o'zbek tilini o'rganuvchilarning yozish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha takliflarni olishga qaratilgan. Shu maqsadda ingliz tili o'qituvchilari va bakalavriat talabalaridan iborat fokus-guruhlar o'tkazildi. Yozishdagi asosiy muammolarni topish uchun 20 nafar ESL bakalavriat talabalaridan yozish namunalarini ham to'plangan.

**Kalit so'zlar:** Yondashuv, lingvomadaniy yondashuv, o'rganish darajalari, lingvokulturologiya, integrallashgan model,

**Introduction.** Writing is a productive skill, a form of literacy, a communicative activity, and sometimes a means through which learners can be assessed. Writing is the most complex method of expression. It is the final skill to be achieved in the order of acquisition. It can be used to explore and refine ideas, organise thoughts, and record information. Writing is originating and creating a unique verbal construct that is graphically recorded. Studies reveal that while writing, the whole part of the brain and cells are activated. When a person writes, he tries to bring out all that he knows about it by tracing his knowledge related to that memory, incidents, success, failures, current situation, future possibilities etc. These result in increase of awareness, improvement of memory, sharpness, creativity and imagination. Among the four basic skills, writing demands great effort and hence it is considered a herculean task.

**Literature review.** Writing could be a difficult skill to be learnt or taught due to the fact that it is not a simple cognitive activity; rather it is believed to be a complex mental production which requires "careful thought, discipline and concentration" [1] found out that the main challenges ESL students encounter are differentiating between written and spoken words and phrases, reviewing grammar including subject-verb agreement and joining sentences together to make a coherent paragraph. Generating ideas about their topics could be also a barrier that hinders students to move on in their writing [2]. Another concern is to

read and then to write in their own words. This could lead to grammar mistakes which may make students reluctant to paraphrase and summarize other's work [3].

Academic writing has been a crucial area of research at tertiary education. The underlying rationale could be the manifest increase of academic writing significance as students move to a higher level of education. Academic writing can be defined as "a mental and cognitive activity since it is a product of the mind"[4]. Abu-Ghararah and Hamzah [5] describes academic writing as "the logical organization and arrangement of the written sentences within a paragraph and paragraphs within the units of discourse and the expression of the ideas". Another aspect of academic writing is that it "can be understood only from the perspective of a society rather than a single individual" [6]. From these three definitions, it can be concluded that academic writing could be a complex process. It involves a variety of aspects that are believed to be the base of successful academic writing. Al Fadda indicates that one of the basics of academic writing is the ability of the learners to access the relevant references and evaluate them in order to put the different ideas and opinions together so that they can develop their own voice [2]. That is a writer student should have the ability to exploit others' ideas and write them in his/her own words and then index from where those ideas have been taken [7]. As noted by Al-Khasawneh and Maher, other fundamental writing conventions include making an outline,

summarizing and paraphrasing without which students might struggle when writing their tasks. Other basic elements are forming, developing, and organizing ideas [4]. Furthermore, in order to have a free-error piece of writing, learners should carefully consider how to form a thesis statement, to write convincing supporting sentences, and finally edit them [8] points out that learners have to be familiar with punctuation marks such as the period, comma, semicolon, colon, dash, hyphen, and capitalization.

Chou has listed a number of reasons why international students studying in an English-speaking country encounter a lot of stress and obstacles when writing their assignments [9]. Firstly, students might come from different cultural backgrounds where they are fully dependent on teachers. They also have not been trained to be critical thinkers and they might have lower expectations than those of their teachers as they consider themselves second language learners. Writing teachers with high expectations might suppose that students are qualified enough to produce accurate pieces of writing and they might also assign demanding topics that learners might struggle when writing about [3]. Low language proficiency might also obstruct academic writing. As concluded by Al-Khairy, the participants of his study declared that their major problems comprise grammatical errors, the inappropriate choice of vocabulary, irregular verbs, and incorrect punctuation and spelling. Other causes that could lead to the difficulty in academic writing are L1 interference, inadequacy of ideas, and unclear instructions of the task [9]. Regarding ambiguous description of the task, Chou concludes the participants in his study admitted that they feel shy and unconfident to ask teachers for clarification. Finally, Can (2009) claims that conflicting feedback provided by instructors from different departments in an institution might lead to the lack of students' confidence in their writing skills.

**Methodology.** Academic writing can be considered as an integral part of learning English process. By recognizing the

learners' academic writing difficulties and needs, there will be a clear picture of the most effective and efficient course books to be adapted in their program. Needless to say, teachers do their best and exert a lot of time and effort to enhance their learners' writing. Unfortunately, in most cases the final writing production is not as good as expected to be. That is why the majority of instructors find writing the most difficult skill to teach [3]. The results of the present study yield fundamental insights that could contribute to more beneficial guidance for the teachers and course books designers. The findings can be also essential in terms of suggesting some possible solutions for the challenges that second language learners encounter in academic writing. They could also give some insights for English as foreign language teachers to equip their students with the required knowledge and skills before they start studying at a new academic discourse community especially in an English speaking country.

The subjects were 20 undergraduate ESL students who were studying at tertiary education. This education is basically meant to develop the skills of ESL undergraduate students. Moreover, all of them were specialized in education field except for two participants. They reported that they took the IELTS and the mean of their writing scores is 6. This indicates that they have a good base in English language in general.

**Findings and discussion.** This section gives answers to the research questions mentioned above. From the most challenging one to the least, four major problems reported by the respondents are listed and discussed preceded by a brief description of their attitudes towards academic writing.

Figure1 illustrates what the participants think about academic writing. It can be clearly seen that the majority of them find writing in English difficult and none of them said that it is easy. Only 16% of the respondents reported that it is neither difficult nor easy.




Figure 1: Attitudes of participants towards academic writing

One reason for this negative attitude could be the lack of background knowledge about the conventions of academic writing. A student answered to the open-ended question whether she finds academic writing difficult and why, "Yes, because I have not experienced it before and I am unfamiliar with the academic structure and vocabulary I should use." This goes in line with Yasuda's study (2004) who found that, in such cases, students struggle to accomplish their assignments. Despite of that, half of the participants mentioned that they still sometimes write

for pleasure in English. According to participants' responses, there are four basic difficulties shared by most of the participants taken Graduate Certificate in TEFL Course. As it is shown in figure 2, the most frequent difficulty is language use, coherence, and cohesion followed by both expressing their own voice as well as selecting a significant topic and relevant references. On the contrary, paraphrasing, referencing, and citations were reported to be the least problematic. In the following, those difficulties are presented and discussed separately.




Figure 2: Major difficulties encountered by graduate certificate students when writing assignments Language, coherence, and cohesion.

Writers usually aim at producing a piece of writing where the vocabulary is carefully chosen, the sentences are logically related, the ideas are clearly expressed, and the paragraphs are

coherent. Based on students' responses, the data indicates that a considerable number of them (16) are aware of the importance of coherence and cohesion in academic writing, yet they find



achieving them quite difficult. About 88% of the graduate certificate students stated that they tend to make an outline before they begin writing their assignments, but they still have that problem. As one of the respondents stated, the reason of this difficulty could be ascribed to the fact that they do not have enough knowledge about cohesive devices, the academic words, and the structure and the organization of the academic writing. The majority of the respondents also claimed that they always proofread their work and about third of them ask other students to edit their writing.

Significant topics and relevant references.

Although about 72% to 77% of the respondents claimed that they tend to check carefully the assignment requirements as well as discuss their topics with classmates, half of them stated that they have to make a concerted effort to choose a topic and support it with appropriate literature. This difficulty could be attributed to, as 11 of the respondents declared, their reluctance to ask their teachers to clarify the assignment task.

Expressing their own voice.

Finding their own individual voice among other writers' voices is problematic for 9 of the graduate certificate students. Some of them said that making a balance between their own views and what they read is something hard to do. Another reason might be the lack of confidence. That is, students may feel they are not as experts as those writers who are both experienced and intelligent, as they think. Consequently, they might feel unconfident to include their ideas among those of other writers.

Paraphrasing, referencing and citations.

The previous challenge is mainly related to transferring students' own thoughts into words. In contrast, this section focuses

Aslida, har qanday iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosida inson va uning kamoloti yotadi. Inson kamolotida eng muhim omil va vosita ta'lim-tarbiyadir. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston oldida turgan eng dolzarb, eng kerakli vazifa bu yoshlarimizni yangicha tafakkurli, ijodiy fikrlovchi, millati, xalqini sevuvchi chinakam vatanparvar, barkamol avlod qilib tarbiyalashdir. Bunday bilimli, ma'naviyatli yoshlar mustaqilligimizning zarur tayanchlaridan hisoblanadi. Zero, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" [1].

"Bugungi tahlil dunyoda tobora inson qalbi va ongini egallash uchun kurash avj olayotgan bir paytda yurtimizga milliy mentalitetimizga yot bo'lgan turli xil axborot oqimlarini kirib kelishga intilishlari kuchayib borayotganligi, odamlarning ma'naviy dunyosini izdan chiqarib, jamiyatni parokanda qilishga, birdamlikni yo'qotish, xalq orasiga nifoq solish orqali mamlakatni ham kuchsizlantirishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda" [2]. Mamlakatni ertangi umidi bo'lgan yoshlar ongini zaharlab, milliy qadriyatlarimizga yot g'oyalarni shakllantirishga, moddiy farovon hayot ilinjida millati, Ona Vatani, xalqini taqdiriga befarq, faqat o'zini o'ylaydigan manqurtga aylantirishga bo'lgan intilishlar kuchaymoqda. Ayni mana shunday davrda chinakam ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalash dolzarb vazifadir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yoshlarni barkamol shaxs bo'lib shakllanishi, ularda o'z xalqiga muhabbat, millatga sadoqat va vatanparvarlik fazilatlarini qaror toptirishga oid masalalar azaldan mutafakkirlar, adabiyotchilar, pedagoglar va faylasuflarning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy asarlarida axloqli, vatanparvar insonni tarbiyalashga oid qarashlar keng yoritilgan bo'lsa, tadqiqotchi Kalkanov E.T. "Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarida vatanparvarlikni shakllantirish masalalari o'rganilgan va tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni olib borishda analiz, sintez, qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish kabi umumilmiy metodlardan foydalanilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Vatanparvarlik – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy, ajralmas qismidir. Xalqimizda: "Vatan-sajdagoh kabi muqaddasdir", - degan ibora bejiz aytilmagan. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, unib-o'sgan makondir. Uni Onaga qiyoslanadi. Ona yagona bo'lgani kabi, Vatan ham bitta, takrorlanmasdir. Aynan mana shu maskanda insonning ilk dunyoqarashi, ota-onaga muhabbat, xalqiga sadoqat, milliy merosga hurmat, tili, dini, iymoni, e'tiqodi shakllanadi. Sidqiy Xondoyliqiy bu haqida:

"Vatan nadir, tuqqan yerim, turgon yerim,  
O'sib-unib, o'ynab-kulib yurgon yerim.  
Vatan menga haqiqatda qundiq kabi,  
Tarbiyaning negizini qurg'on yerim" [3].

Buyuk davlat arbobi Alixonto'ra Sog'unuy: "...dunyoda yashagan har bir kishining eng ayamlik, qizg'anib saqlaydigan besh narsasi bordir. Birinchi joni, keyingilari dini, moli, oilasi, Ona Vatandir"[4],-deya ta'kidlaydi. Vatan tushunchasini anglash, Vatanni sevish, ardoqlash, kerak bo'lsa uning uchun jon fido eta olish chinakam mardlikdir. Kishi Vatani hech qanday manfaatsiz, qanday bo'lsa shundayligicha sevmog'i lozim. Vatanparvarlik - bu o'z ona diyoriga muhabbat, sadoqat tuyg'usi bo'lib, o'z millatini sevish, uning tarixini bilish, madaniyati, an'analari va qadriyatlariga amal qilish bilan birga faxrlanish tuyg'usini ham o'z ichiga oladi. Tom ma'noda Vatan bu-inson borlig'i! Bugungi globallashuv davrida dunyoning mafkuraviy

kurashlari avj olgan bir sharoitda, aynan insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarib, o'zligidan ayirishga, bevtanlik g'oyalari singdirib, butun borlig'i-Vatanidan mosuvo qilishga urinishlar kuchayib bormoqda. Qaysiki xalqning yoshlari tafakkurida vatan tushunchasi qadrsizlansa manashu xalqning tanazzuli muqarrar!

Fikrimizcha, yoshlarimizning ma'nan barkamolligi o'z vatani sadoqatli, bevosita va bilvosita ajdodlarimiz manaviy merosini chuqur o'rganganliklarida va ularni keng mushohada qila olish, ulardan kerakli ijodiy fikrlarni topish va undan foydalana olish qobiliyati bilan o'lchanadi.

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli qilib shakllantirishda adabiyotning alohida o'rni bor.

Badiiy adabiyot-millat, xalq, jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan so'z san'ati bo'lib, u og'zaki va yozma shakllarda ifodalanadi. U dastavval, turli harakatlarni o'zida ifodalab musiqa san'ati bilan jo'rovzlikda ham rivojlangan. Umuman olganda badiiy adabiyot insonlar mifologiyasini, tarixini va mehnat faoliyatini ifodalagan.

Albatta, yozuvning paydo bo'lishi badiiy adabiyotning rivojlanishiga muhim turtki bo'ldi. Natijada baxshilar tomonidan ijro etiladigan turli qo'shiqlar, doston va hikoyalar o'qish va anglash mumkin bo'lgan yozma adabiyotga aylandi. Yozma shakldagi badiiy adabiyot o'quvchi ongida har bir jarayonni ifodalaydigan hayotning turli jihatlarini ko'rsatib berish, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Alaloqibat, xalq og'zaki ijodiy asarlarini ham yozma badiiy adabiyot singari bir xillikda o'zgaras qilib saqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Badiiy adabiyotda uning janrlaridan kelib chiqib, uzoq va yaqin tariximizdagi kishilar ongida bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rsatib berish imkoniyati paydo bo'ldi. Hayot tarzining serqirraligi, turli ijtimoiy munosabatlarni ifodalash badiiy adabiyotda epos, drama, lirika janrlarini paydo bo'lishiga olib keldi. Bizga ma'lumki, badiiy adabiyot turli xil shevalarni, normadagi so'zlashuv qoidalarini, turli hil kasb va hunarlarga doir so'z ma'nolarini bir-biriga birlashtirgan holda qamrab oladi. Shu ma'noda badiiy asar tili adabiy tilga qaraganda kengroq ko'rinishga ega bo'ladi va kitobxon tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Badiiy asar inson tafakkurida hayotiy, falsafiy, ilmiy tarzda inikos etadi. Natijada inson tuyg'usi va tafakkurini tarbiyalanishiga o'zining katta hissasini qo'shadi. Shu o'rinda, bizning fikrimizcha so'z ustasidan o'z asarida faqat ijobiy qahramonlar, ijobiy munosabatlar haqida yozishni yoki ularni aksini yozishni talab qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Yozuvchi jarayonni aks ettirishda hayotiy munosabatlardan kelib chiqadi. Shu ma'noda biz, ijobiy va salbiy qahramonlardan o'zimizga kerakli bo'lgan xulosalar chiqara olish qobiliyatiga ega bo'lishimiz kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotning asosiy g'oyasi, ertangi kunimiz bugungisidan yaxshiroq bo'ladi, bir so'z bilan aytganda, badiiy adabiyot insonlarning ma'naviy rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsata oladigan muhim omildir.

Xalqimizning og'zaki va yozma manbaalari o'zining Avesto kabi uzoq tarixiga ega. Bular qatoriga qahramonlik dostonlari, qadimiy afsonalarni, rivoyatlarni, matal va masallar va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ularda ifodalangan erk, Vatan birligi, uning himoyasi, xalqning hamjihatligi g'oyalari eng muhim qadriyat hisoblangan. Bularning qatoriga Alpomish, Go'rog'li, Avaxon Rustamxon, Kuntug'mish dostonlarini, Shiroq, To'maris, Spitamen afsonalari millatimiz qadriyatlarining haqiqiy asoslari qatoriga qo'shish mumkin. Mazkur ijod namunalari uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning eng ulug', eng pok orzu va niyatlari, umid va ishonchlari ifodalangan. Yosh avlod albatta vatanimizning buyuk kelajagini yaratishga bel bog'lar ekan, avlodlarimizning bu ma'naviy meroslariga tayanadi. Xalqimizning badiiy meroslaridagi bu g'oyalar mash'aladek porlab, diqattimizni tortadi, mehnatkash va bag'rikeng xalqimiz o'zining buyuk o'tmishdoshlarining vorislari ekanligimizga ishonch hosil qildiradi. Bu g'oyalar ayniqsa bugungi kunda jahonda yuz berayotgan qarama-qarshiliklarga qarshi turishga undamoqda.

Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir, [5] – deganida Abdulla Avloniy haqida.

Jadid bobolarimiz, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun avvalo jamiyatni tarbiyalamoq lozimligini va bu jarayonda adabiyotning o'rni beqiyos ekanligini juda yaxshi anglab yetgan edilar. O'sha davrlarda Rossiya bosqini sabab kirib kelayotgan yot madaniyat tufayli xalqimizning milliy o'zligiga putur yetishi, qadriyatlarining qadrsizlanishi, millatning millat sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini yo'qolib borish xavflari kuchayib borar edi. Bu haqida professor Begali Qosimov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Jamiyatni yangilash ovruopolashirish, to'g'rirog'i ruslashtirishga aylanib ketishi mumkin edi. (Aslida shunday ham bo'ldi). Bu holni faqat bizda emas, atrof-qo'shnilarimizda ham kuzatish mumkin. Masalan, rus adabiyoti rus xalqining G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona ergashishiga chek qo'ydi. Ismoilbekning so'zlarini eslaylik [6]: "Petru zamonidan yuz sanaya qadar rus ziyolilari ovruopolilarga kulgili darajada taqlid etardilar... Shuncha orqada bo'lishlariga qaramay, erkin fikrda Russoliq, Volterlik sanarlar, asirlikni xushhol ko'rmak ila barobar mashrutiyatdan, jumhuriyatdan dam urarlar edi. Taqlidda ifrot darajalarga vorub, ruscha so'lashmoqni ayb va nodonlik o'ylab, yarim-yorti fransuzcha so'zlashishni vojib bilurlar edi. Lekin so'ng, rus adabiyoti ilgari lab ketgach, taqlidchilik ozaydi, ruslar ruscha fikrlay boshladilar"[7]. (Ta'kid Begali Qosimovniki).

"Adabiyot dunyoni o'zgartiradi" deyishadi. Ho'sh qanday? Aslida badiiy adabiyot yozuvchining ruhiy faoliyati mahsul bo'lib, o'zi ifodalamoqchi bo'lgan jonli yoki jonsiz predmetni ongida o'zgartirib, o'quvchilarga badiiy obraz orqali tasvirlab beradi. Hayotda mavjud illatlar va kamchiliklarni asar qahramonlari obrazlari orqali ifodalaydi. Bu o'z navbatida kitobxon ruhiyatiga kirib borib, uni ichki olamini isloh qilishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot dunyoni o'zgartirish uchun, avvalo, uni o'zgartirishga qodir insonni o'zgartirish, tarbiyalash orqali erishishga harakat qiladi

"Adabiyot tufayli, adabiyot uyg'otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog'i ko'ngilda bosh ko'targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o'ylab topgan badiiy to'qima qumga singigan suvdek izsiz ketmadi, bil'aks toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo'lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig'lagan bo'lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko'ngil birligi yo'qoldi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi — taraqqiyotning yetakchi omili — yo'qoldi" [8], - degan edi Mario Vargas Losa.

Bugungi globallashuv davrida kelajagimiz egalari bo'ladigan yosh avlodni vatanimiz rivojiga ta'sir ko'rsatadigan keng va chuqur ma'noli so'zlarni anglab oladigan, axborot oqimlari orqali yurtimizga kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi tura oladigan, aqlan teran, jismnon baquvvat, bag'rikenglik xususiyatlariga ega yoshlarni tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Bu o'rinda yot g'oyalarga qarshi kurashish jarayonida so'z ustalarining, yozuvchi va shoirlarning o'rni hamisha yuqori o'rinlarda bo'lib kelgan. Ular o'z asarlarida qo'llagan har bir so'z har bir ifoda mazmun jihatidan o'z o'rnida ishlatilgan. Shu tufayli ham ular oddiy odamlardan farqlanadi. O'quvchi ularning asarlarini o'qib, o'ziga yaqin jixatlarini topadi shuning uchun ham ularni qayta-qayta o'qishadi, yod olishadi. Shu o'rinda, Oybekning quyidagi satrlari yodimizga tushadi.

Vatanni sev, tuprog'ini o'p,  
Har qarichi muqaddas bizga.  
Cho'lidagi hatto quruq cho'p  
Jondan yaqin yuragimizga.

Bu satrlar vatanni sevishini, ko'zga to'tiy qilishni o'rgatadi. Tinchlikka intilish, xalqini sevishga chaqiradi. Bunday vatanni madh etuvchi, uni sevishga, ardoqlashga, xizmatida shay turishga undovchi she'rlar, asarlar o'zbek adabiyotida bisyor.

**Xulosa.** Bugungi g'oyaviy kurashlar avj olayotgan bir sharoitda yoshlarda vatanni sevish va ardoqlash, xalqiga sadoqatli bo'lish hissini uyg'otish muhim ahamiyat kasb etdi. Vatanparvarlik fazilatini go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u to insonning umrining so'ngi lahzasigacha hamrohlik qiladi. Go'daklikdagi ona allasiyu, bolalik chog'larida eshitgan ertak, doston, she'rlar barchasi vatan tuyg'usini singdirishga xizmat

---

qiladi. Shu nuqtai-nazardan badiiy adabiyot inson kamolotining muhim omili bo'lib qolaveradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston. 2021, 267-bet.
2. Bayeshanov, A. (2022). BADIY ADABIYOT YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA. TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 97-99.
3. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. – T.: "Sharq" nashriyot matbaa konserni. 1997, 71-bet.
4. Alixonto'ra Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. 1-kitob. – T.: Sharq. 2003. 23-b.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004, 33-bet.
6. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002, 123-bet.
7. "Tarjimon" g., 1907 yil 10 mart, 52-son.
8. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida>



**Otabek BAKIROV,**  
*Jizzax Sambhram universiteti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasini mudiri*  
E-mail: bakirovotabek@mail.ru

*Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida*

## PHILOSOPHICAL CHARACTERISTICS OF THE UNDERSTANDING OF NATIONAL IDENTITY UNDER GLOBALIZATION

Annotation

In this article, the increasing globalization in the world today, the increasing threats to national identity and spirituality, and the work aimed at increasing the effectiveness of the work being carried out against it in our country are expressed.

**Key words:** Globalization, global, intensification, national identity, cultural life, national heritage, patriotism, enlightenment, national identity, political justice, Soviet rule, political dependence.

## ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНИМАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье выражены усиливающаяся глобализация в современном мире, возрастающие угрозы национальной идентичности и духовности, а также работа, направленная на повышение эффективности работы, проводимой против нее в нашей стране.

**Ключевые слова:** Глобализация, глобальность, интенсификация, национальная идентичность, культурная жизнь, национальное наследие, патриотизм, просвещение, национальная идентичность, политическая справедливость, советская власть, политическая зависимость.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda globallashuvning tobora avj olishi milliy o‘zlikka va ma’naviyatga qarshi taxdidlarning kuchayishi hamda unga qarshi mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, global, intensifikatsiya, milliy o‘zlik, madaniy hayot, milliy meros, vatanparvarlik, ma’rifat, milliy o‘zlik, siyosiy adolat, sho‘rolar hukmronligi, siyosiy qaramlik.

**Kirish.** Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini anglash, ularni obyektiv baholash oson emas. Ular bir tomondan, insoniyat va sivilizatsiya erishgan yutuqlarga tayanib, integratsiyani kengaytirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, gegemonlikka da’vogar qatlamlar va davlatlar ideologiyasini boshqa xalqlarga, qit’alar va davlatlarga zo‘rlab singdirishni qo‘llab-quvvatlamogda. Ushbu ichki ziddiyatlar globallashuv bayrog‘i ostida barcha etnoslar va etnomadaniyatlarining mustaqilligiga raxna solayotgani voqelikka aylanib borayotgani uchun antiglobalistik harakatlar doirasi kengayib borayotgani kuzatiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Umuman olganda, ushbu atamaga ta’rif beriladigan bo‘lsa, “global” fransuzcha global so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog‘liq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so‘zi lotincha “globus” ya’ni “shar” so‘zidan kelib chiqqan hisoblanadi. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel tomonidan qo‘llangan. Taniqli sotsiolog E.Giddens fikriga ko‘ra, “globallashuv bir-biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butunjahon sotsial munosabatlarga intensifikatsiyalashuvidir” [1]. Uning ta’kidlashicha, bu intensifikatsiyalashuv milliy davlatlar jahon tizimi, jahon kapitalistik tuzum iqtisodiyoti, umumjahon harbiy tartib va xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi bilan izohlanadi. U globallashuv jarayonining boshlanishini XVIII asr bilan belgilaydi. Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro‘y bermogda. Buning ayrim jihatlarini mamlakatimiz uchun ijobiy

bo‘lsa, ayrimlari salbiy ta’sir etadi. Bu ayniqsa, ma’naviyatga yetarlicha zarar keltiradi. Albatta, bu jarayonlardan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Muammoning qay darajadigidan qat’iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmogda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezigulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo‘lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo‘lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir. Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u barcha sohalarida bo‘lgani kabi ma’naviyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmogda. Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayondir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta’sir etuvchi hodisa sifatida o‘rganiladi. U dunyoda iqtisodiy integratsiyaning ijobiy omili va milliy iqtisodiyotning natijali o‘zgarishga ko‘makchi sifatida qabul qilingan. Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o‘sishi bilan u madaniyat, ilmfan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g‘oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma’naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma’naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, u eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga rahna soluvchi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma’naviyatli bo‘lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma’naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya’ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo‘lmish



yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish; ikkinchidan, manaviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish; uchinchidan, atrofirmizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmagan, dahldorlik hissini oshirish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Milliy o'zlikni anglash tushunchasi, uning funksiyalari, muammo va yechimlari, milliy taraqqiyotda tutgan o'rni masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Avvalo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy o'zlikni anglash tushunchasi, uning rivojlanish va millat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasi sobiq sho'ro hukmronligi barbod bo'lgandan keyin uni tashkil etgan sobiq ittifoqdosh respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng ilmiy jihatdan o'rganiladigan eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Buning bir necha sabablari mavjud:

Birinchidan, sobiq sho'ro hukmronligi sharoitida "mayda" millatlarni o'zaro qorishtirib, katta "og'a"ga qo'shib, yagona sovet xalqini shakllantirishga qaratilgan zo'ravonlikka asoslangan milliy siyosatni amalga oshirish oqibatida ularning o'zligini anglashiga va o'z zaminlari asosida rivojlanishlariga imkoniyat qoldirmagan edi. Ayniqsa, ularning ongi va qalbiga "yagona" sho'ro madaniyatini singdirishga qaratilgan amaliyot natijasi milliy ma'naviyatlardagi o'ziga xoslikning tobora xiralashib borishi milliy o'zlikni anglashning rivojlanishiga katta to'siq vazifasini bajardi. Sho'rolar hukmronligi sharoitida milliy ma'naviyatning rivojlanishi "eskidan" (milliy merosdan) voz kechish asosida bir tomonlama, yagona sho'ro madaniyatini rivojlantirishustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirildi. Natijada, sobiq sovet hududida nafaqat milliy ma'naviyat qashshoqlashdi, shuningdek, undan butunlay uzilib qolish xavfi ham vujudga keldi. Bu yerdagi yuzaga kelgan asosiy muammo milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlarni umumsayyoraviy tamaddun bilan muvozanatda taraqqiy qildirish bilan bog'liqlikda o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin [2].

Buning natijasida sobiq sho'rolar tizimidagi barch sobiq ittifoqdosh respublikalardagi titil millatlarning o'zligini anglashi, urf-odat an'ana va qadriyatlarini tiklashga bo'lgan intilishi kuchayib bordi. Bu esa sobiq sho'rolar hududida millatlararo ziddiyatlarni vujudga keltirib, bir qator sobiq ittifoqdosh respublikalarda begunoh insonlarning qurbon bo'lishigacha bo'lgan holatni yuzaga keltirdi. Tabiiyki, sho'ro hukmronligi sharoitida "bir tan" – "bir jon" bo'lib yashab kelayotgan "yogona" sovet xalqi ichida o'zaro ishonch barham topdi, titil bo'lmagan millatlar bilan titil millatlar o'rtasida ziddiyatlar oshganidan oshib bordi. Titil bo'lmagan millatlarning o'zlari yashayotgan hududlarda ertangi kun uchun hadiksirash, ikkilanish va ishonchsizlik ruhiyati vujudga keldi. Bu jarayon nazariyada va amaliyotda millatlarni zo'ravonlik bilan qo'shib yuborishga qaratilgan har qanday harakatlar (siyosat) oxir-oqibatda katta fojialarga olib kelishi mumkinligini tasdiqlagan edi.

Har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifadolovchi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligi, manfaatlar, ehtiyojlar va istiqbol vazifalarining umumiyligini tushunib yetishi milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

**Tahlil va natijalar.** Shu jihatdan qaraganda, "milliy o'zlikni anglash" tushunchasiga va uning rivojlanish jarayoniga yangicha va kengroq qarash lozim bo'lmoqda. Avvalo, shuni

alohida ta'kidlash lozimki, milliy o'zlikni anglash sobiq sho'ro hukmronligi sharoitida uning hududida mustaqil ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilmasdan kelgan edi. Buning asosiy sababi, sobiq markaz tomondan ittifoqda yashagan millatlarning o'zligini anglash jarayonini kuchli nazoratda ushlab turish va ularning har qanday milliy uyg'onishiga qarshi ayovsiz kuch ishlatish yo'li bilan uni bostirishga qaratilgan siyosatning olib borilgan edi. Bu "tashqaridan" qaraganda, milliy taraqqiyotda muammoning "yo'qligi"ni amaliyotda tasdiqlash edi. Ayni paytda o'sha davrda millat va u bilan bog'liq muammolar haqida sobiq ittifoqdosh respublikalardagi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini olib borishi ularning o'zlariga ham katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Ularga milliy o'zlikni anglashning o'sishi va bu jarayonda mavjud muammolar haqida yozadigan bo'lsa, "millatchi" tamg'asi bosilib, tegishli jazolarga mahkum etilar edi. Sobiq Ittifoqdagi, shuningdek, O'zbekistondagi tadqiqotchilar millat haqida faqat ijobiy jihatlariga, ya'ni mavjud tuzumning sobiq "qoloq" millatlarning gullab-yashnashi borasidagi olib borilayotgan siyosatini ko'klarga ko'tarish, milliy taraqqiyot va millatlararo munosabatlarda mavjud barcha muammolarning "hal" etilganligi va ularning o'zaro yaqinlashib, "yagona" sovet xalqi sifatida shakllanganligi haqida "tadqiqotlar" olib borilishi davlatning yadrosi bo'lgan KPSSning barcha qarorlarida belgilab qo'yilgan edi. Unga amal qilmaganlar esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, "millatchi" yoki tuzumning dushmani sifatida jazoga muhtalo qilinardi.

Bunga misol qilib, Turkistonda XIX asrning oxiri XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati va ularning millatimizni "uyg'otishga" qaratilgan faoliyati hamda fojiali taqdirini keltirishimiz mumkin.

Ularning millatimiz ma'rifatini ko'tarish yo'li bilan o'lka mustaqilligini qo'lga kiritishga qaratilgan millatparvarlik va vatanparvarlik faoliyatini chuqur o'rgangan marhum jadidshunos, taniqli olim Begali Qosimov shunday yozgan edi: Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan, ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qiladi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi [3].

Bugungi kunga kelib bu sohada bir qator tadqiqotchilar samarali faoliyat olib bormoqdalar. Shu bilan birga hali bu masalani o'rganish borasida katta vazifalar turganligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi. Chunki millat mavjudligi sharoitida milliy o'zlikni anglashning o'sishi jarayonini o'rganishga saqlanib qoladi. Millat esa insoniylikning ko'rki sifatida rivojlanadi va davrlar qa'rida takomillashib boraveradi. Shunday ekan, milliy o'zlikni anglashni o'rganishdagi yana bir muammo, uni davr nuqtai nazaridan, millat taraqqiyoti oldida paydo bo'ladiganyangi davr muammolari ko'lami jihatidan izchillik bilan o'rganishga bog'liqdir.

**Xulosa.** Milliy o'zlikni anglash o'zining ana shu o'ta muhim salohiyati bilan millatning yuragi, qalbi, tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jonidir. U avvalo insonga, insondan millatga Alloh tomonidan in'om etilgan ilohiy-ruhiy quvvatdir. Shuning uchun ham o'zligini anglashdan to'xtagan yoki undan maxrum bo'lgan har qanday millat ma'nau o'limga mahkumdir. Ma'nau o'lgan millat esa jismoniy ham o'lib, olomonga aylanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Giddens A. The Con sequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990.P.64
2. Otamuratov S "Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik" Toshkent-"O'zbekiston"-2015
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoyilik.-T.: "Ma'naviyat", 2002. 4-b.



**Xolida BOYMURODOVA,**  
*O'zDJTU Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*  
E-mail: [kholida.boymurodova@gmail.com](mailto:kholida.boymurodova@gmail.com)

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori M.Boltayeva taqrizi asosida*

### USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation

This article examines the personal and professional qualities of future specialists set by modern society, their development in the process of teaching foreign languages, as well as the requirements for the use of digital technologies and Internet resources. In particular, it emphasizes the importance of a systematic selection of textbooks to achieve specific goals set by the professor.

**Key words:** Modern education, computerization, digital technology, selection of textbooks.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются личностные и профессиональные качества будущих специалистов, заданные современным обществом, их развитие в процессе обучения иностранным языкам, а также требования к использованию цифровых технологий и интернет-ресурсов. В частности, подчеркивается важность систематического отбора учебников для достижения конкретных целей, поставленных профессором.

**Ключевые слова:** Современное образование, компьютеризация, цифровые технологии, подбор учебников.

### XORIJIIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Maqolada zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yiladigan bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, ularning xorijiy tillarni o'qitish jarayonida rivojlanishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar va Internet-resurslaridan foydalanish talablari muhokama qilingan. Xususan, bu professor-o'qituvchi tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga erishish uchun o'quv qo'llanmalarini tizimli ravishda tanlash muhimligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim, kompyuterlashtirish, raqamli texnologiyalar, o'quv qo'llanmalarini tanlash.

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan davrda jamiyat kelajakdagi mutaxassislardan mustaqil ravishda bilim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ularni turli muammolarni samarali hal qilishi, faktlarni to'plash va tahlil qilish, umumlashtirish hamda asosli xulosalarni qabul qilish uchun amalda qo'llash talablarini qo'yadi, muvaffaqiyatga erishish uchun muloqotga kirishish, turli vaziyatlarda birgalikda ishlash, ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yo'lini izlash kerak. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yo'llarini topib, tanqidiy va ijodiy fikrlash, o'z madaniy darajasini oshirish uchun mustaqil ishlash jarayonlarini o'zlashtirish talab etiladi. Ta'lim jarayonida professor-o'quvchilarning yuqoridagi ko'nikmalarini va bilim qobiliyatlarini rivojlantirish faol ta'lim texnologiyalari orqali yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda o'qitish vositalarini tanlashda asosiy ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarining mazkur soha bo'yicha kengashlari tomonidan ishlab chiqilgan va samarali umumevropa ma'lumot almashish tizimini ifodalovchi xorijiy tillarni bilishning yakuniy darajalariga erishishdir.

Tilni o'zlashtirish bo'yicha o'quv faoliyati hayajonli, mazmunli faoliyat va haqiqiy lingvistik ijodkorlikka aylanishi kerak. Faqatgina bu holatda talabalarda o'zini yangi ta'lim standartlariga muvofiq rivojlantirish istagi paydo bo'ladi.

Shunday ekan bugungi shiddat yuilan rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy usullarini tanlash, innovatsion o'qitish usullarini joriy etish, professor-o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida qo'yilgan aniq maqsadlarga erishish uchun o'quv qo'llanmalarini tizimli ravishda tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtda global kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini, shu jumladan ilm-fan va ta'limni qamrab olgan. Internetning rivojlanishi va o'quv jarayonini soddalashtiradigan ko'plab kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi chet tillarini o'rganishni

sezilarli darajada o'zgartirib, haqiqiy manbalar bilan ishlashni tezroq va osonlashtirdi.

N.B. Golubevaning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish professional yo'naltirilgan chet tili ta'limining ajralmas qismi ekanligi haqida dalillar keltirilgan. Ijtimoiy fikrlash sifatida tanqidiy fikrlashga ta'rif berilgan va shu sababli ushbu hodisaning kommunikativ tomoni ta'kidlangan. Shuningdek, kommunikativ chet tili kompetensiyasining xarakterli xususiyatlari yoritilgan va uning shakllanish shartlari ko'rsatilgan. Xulosa qilinganki, ushbu kompetensiya chet tili va interaktiv bo'lib, mohiyatan fanlararo bog'liqligi asoslangan.

T.A. Ivanova, I.V. Skugareva, A.E. Shabanovlarning tadqiqotlarida globallashuv jarayonlari keltirib chiqargan ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarini o'qitishning amaliy tajribasi o'rganilgan. Unda chet tillari kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayonini takomillashtirish misollari keltirilgan.

G.I.Okan tomonidan chop etilgan maqolada oliy o'quv yurtiga o'qitishning faol usullarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan, "pedagogik yangiliklar", "faol o'qitish usullari" kabi tushunchalari ochib berilgan. Asosiy e'tibor talabalarni kasbiy tayyorlashda "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligiga qaratilgan.

G.A.Trapeznikova va F.Ya. Xabibullina tomonidan tanqidiy fikrlash texnologiyasining 3 bosqichi ajratilgan, ya'ni qiyinchilik bosqichi, mazmunni anglash bosqichi va har bir bosqichda qo'llaniladigan usul va uslublar misollari bilan fikr yuritish bosqichlari keltirilgan. Shuningdek, jurnalistik materiallar tili va uslubining xususiyatlari ochib berilgan. Tanqidiy fikrlash texnologiyasining "klasterlar", "boshoratlar daraxti", "beshta misra", "insert", "suv ustidagi doiralalar", "uzun va qisqa savollar" kabi usul va uslublarini o'quv jarayonida joriy etish zaruratini asoslashgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, aynan xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, kompyuter dasturlaridan foydalanish, talabalarni dars jarayoniga

jalb qilishda interaktiv usullarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish jarayonlari bugungi kunda qanchalik ahamiyat kasb etishi va bu borada kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi. Chunki, bugungi kunda talabalarni dars jarayonida o'z bilim qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun raqamli texnologiyalarni hamda kompyuter dasturlarini qo'llamasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yiladigan bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, ularning xorijiy tillarni o'qitish jarayonida rivojlanishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar va Internet-resurslaridan foydalanish talablari muhokama qilish, xususan, bu professor-o'qituvchi tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga erishish uchun o'quv qo'llanmalarini tizimli ravishda tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarda tadqiqot metodologiyasining nazariy va qiyosiy tahlil, taqqoslama tahlil va umumlashtirish uslublarini qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Kompyuter ta'limi dasturlari an'anaviy o'qitish usullaridan bir qator afzalliklarga ega, bu birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri audiovizual interaktiv ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda ularni sinfda qo'llash nutq faoliyatining har xil turlarini o'rgatish, lingvistik hodisalarning mohiyatini anglash, lingvistik qobiliyatlarini shakllantirish, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, til va nutq ko'nikmalarini avtomatlashtirish va individual yondashuvni amalga oshirishni ta'minlash hamda intensivlashtirishga imkon beradi.

Talabaniq mustaqil ishi, shuningdek ularning bilim faolligini, motivatsiyasini va sifatini oshirishga yordam beradi. Kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari talabalarining ijodiy faoliyatini faollashtiradigan usullarni yangicha yondashuvda amalga oshirishga imkon beradi. Ular turli xil o'quv saytlari va tematik forumlarda virtual munozaralarda ishtirok etishlari, turli o'quv yurtlari talabalari bilan birgalikda qo'shma ijodiy loyihalarni amalga oshirishlari mumkin. Shunday qilib, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'limni individualizatsiya qilishning faol shakllaridan biri deb hisoblash mumkin.

Yangi texnologiyalarning interaktivligi, multimedia va tarkibni vizualizatsiya qilish kabi ajralmas xususiyatlarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ta'lim mazmunini kompyuter orqali vizualizatsiya qilish, ayniqsa, o'yinlar orqali, interaktiv shaklda, o'quvchilarning kognitiv fikrlash uslublarini, ijodkorligini va aqliy faoliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ularning psixologik va emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Taniqli olim N.K.Ryabtsevaning so'zlariga ko'ra "kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonida evristik yangilikni joriy qiladi va o'z-o'zini samarali bilish va takomillashtirish uchun motivatsiya yaratadi, shuningdek darsni jozibali va haqiqatan ham zamonaviy qiladi, treningning individualizatsiyasi amalga oshiriladi, nazorat qilish va xulosa qilish o'z vaqtida hamda ob'ektiv shaklda amalga oshiriladi».

Norvich tillarni o'rganish instituti akademik direktori Toni Prinsning so'zlariga ko'ra, o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni ta'lim berish maqsadlarida qo'llashganda, ko'pincha quyidagi savollarga e'tibor berishadi: «Eng yaxshi natijalarga erishish uchun qanday dasturlardan yoki kompyuter dasturlaridan foydalanish kerak?»

Keyingi savollar quyidagicha: "Ushbu texnologiyalardan qanday foydalanish kerak?", "Turli xil ilovalardan qanday usullar orqali foydalanish eng tezkor natijalarni beradi?", "Dars davomida ulardan qanday foydalanish kerak?", "Ularni qanday qo'llash kerak?" Ularni qanday yangilash mumkin?" va hokazo.

Shu bilan birga, birinchi navbatda qo'yiladigan savol juda kamdan-kam hollarda so'raladi: ya'ni, "Nima uchun raqamli resurslardan foydalanishimiz kerak?" Shuni ta'kidlash kerakki, agar biz dars jarayoni eng samarali bo'lishini istasak, biz ushbu savollarni ko'rib chiqish tartibini o'zgartirib, biz erishmoqchi bo'lgan maqsadni belgilash orqali texnologiyalardan foydalanishni rejalashtirishni boshlashimiz kerak, ya'ni "Nima uchun?"

"Nimadan foydalanish kerak?" degan savolni ko'rib chiqishda biz muqarrar ravishda juda ko'p sonli mavjud bo'lgan raqamli manbalarga duch kelamiz, ularning har biri uni eng samarali yoki inqilobiy deb tanlaydigan ko'plab javoblarga ega. Yangisini yaratish yoki mavjudini tadqiq qilish jarayonlarini amalga oshiradigan onlayn va qurilmaga o'rnatishni talab qiladigan ko'plab raqamli manbalar mavjud.

Ushbu manbalar turli xil kurslar (MOOCs, iTunes Courses), vositalar (GoogleDocs, Camtasia, Explain Everything), ensiklopediyalar va boshqa akademik manbalar (Google Search, Wikipedia, avtonom lug'atlar, Microsoft Office) yordam shaklida taqdim etilishi mumkin. Tadqiqotlarni turli bosqichlarda o'tkazish, ya'ni ma'lumot to'plash, sintez, tadqiqot jarayonini yanada nazorat qilish va tadqiqot natijalari bilan ishlash lozim.

Raqamli texnologiyalarni tanlashdagi asosiy qiyinchilik, birinchi navbatda "O'quv jarayonida nimadan foydalanish kerak?" va ushbu dasturlarning barchasini ko'rib chiqish shundan iboratki, biz tanlangan resurslardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishda yuzaga keladigan murakkabliklarni bilmaymiz, chunki ularni qanday qo'llash va ulardan to'g'ri foydalanish to'g'risida xabardorligimiz yo'q. Professor- o'qituvchida tanlangan manbalardan foydalanish uchun barcha imkoniyatlar va qoidalarni oldindan o'rganish uchun yetarli vaqt yoki xohish bo'lmasligi mumkin.

Ilovalar va dasturlardan maksimal darajada foydalanish uchun avval savollar berishimiz kerak: "Nima uchun? Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi nima?"

Buning sabablari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'rganilayotgan tushunchalarni takomillashtirish;
- o'quvchilarni sinfdan tashqarida o'quv dasturlari va manbalardan foydalanishga undash orqali o'qitish vaqtini ko'paytirish;
- professor-o'qituvchining ish samaradorligi darajasini oshirish;
- talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish;
- kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish;
- talabalarining natijaga erishishda qat'iylik va maqsadga muvofiqlik kabi fazilatlarini rivojlantirish;
- talabalarni kelajakdagi hayotga tayyorlash;
- talabalarining motivatsiyasini oshirish;
- ishlatilgan jismoniy resurslar miqdorini kamaytirish va boshqalar.

Masalan, talabalarining o'rganilayotgan material yoki mavzu bo'yicha tushunchalarini yaxshilashni istasak, mavzuni tushunishga hissa qo'shadigan manbalarni ko'rib chiqishni rejalashtirishimiz kerak. Buning uchun siz ushbu muammoni har xil tomondan ko'rib chiqishingiz kerak. Hozirgi kunda turli xil Internet-resurslari o'qituvchilar va talabalarga ko'plab masalalar bo'yicha ekspertlarning fikrlaridan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Professor-o'qituvchi har doim ham har qanday sohada to'liq bilimga ega bo'lishning iloji yo'qligi sababli, shuningdek, o'quvchilarning muammolari va ehtiyojlariga juda g'arq bo'lganligi sababli, har doim ham bunday mutaxassis sifatida ishlay olmaydi. Bu esa alohida masala. Shuning uchun, ma'lum bir mavzuni o'rganish uchun tadqiqot mavzusi bo'yicha to'liqroq va zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan mutaxassisning fikri bilan tanishish kerak. Mutaxassislarining fikri bilan tanishish uchun ed.ted.com platformasi bilan youtube.com va ted.com kabi Internet-manbalar mos keladi, bu sizga tavsiya etilgan video asosida o'zingizning darsingizni yaratishga imkon beradi. O'qituvchi videoni tematik qismlarga ajratishi va darsda ko'rganlarini muhokama qilish orqali ishlashi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillarga asosan ta'kidlash kerakki, xorijiy tillarni o'qitishda Internet-resurslardan foydalanish bugungi kun talabalarida barcha kerakli va munosib vakolatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan zamonaviy g'oyalar va tendensiyalar bilan birgalikda tanishish va ularni keyingi muhokama qilish usullari ham chet tillarini o'qitishda katta motivasion kuchga ega.

Shu bilan birga deyarli har bir talaba uchun o'zlarining kompyuterlari va Internetga ulangan raqamli qurilmalarining mavjudligi professor-o'qituvchining talabalarni Internet orqali

chet tilini o'rganish jarayoniga jalb qilish vazifasini ancha yengillashtiradi.

E'tiborlisi shundaki, professor-o'qituvchi raqamli texnologiyalarni tanlashda asosiy savollar quyidagilardan iborat: nimadan foydalanish, qanday foydalanish va eng muhimi, nima uchun u yoki bu manbadan foydalanish kerak. Buning uchun, avvalo, darsning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash, binobarin, ushbu dars doirasida kompyuter yangiliklaridan foydalanish zarur. Keyin biz o'zimizga ushbu maqsad va

vazifalarga yuqori samaradorlik bilan erishish uchun qanday resurslardan foydalanishimiz kerakligini va nihoyat, tanlangan o'quv vositasi qanday ishlashini so'rashimiz kerak bo'ladi. Yuqoridagi masalalarni batafsil tushunish talabalarning o'quv jarayoniga jalb qilinishini va kelajakdagi kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Беляева И.С. Из опыта составления учебного пособия по английскому языку для студентов технического вуза / И.С.Беляева, А.Е.Шабанова // Вестник Тверского государственного технического университета. Серия: Науки об обществе и гуманитарные науки. – 2016. – № 3. – С. 18–23.
2. Голубева Н. Б. Развитие критического мышления как важный элемент формирования профессионально-ориентированной иноязычной компетенции // Вестник университета. – 2015. – № 3. – С. 257–261.
3. Иванова Т.А. Обучение иностранным языкам в тверском государственном техническом университете в условиях интеграции России в единое образовательное пространство / Т.А. Иванова, И.В. Скугарева, А.Е. Шабанова // Вестник Тверского государственного технического университета. Серия: Науки об обществе и гуманитарные науки. – 2016. – № 2. – С. 88–93.
5. Окань Г. И. Активные методы обучения в вузе: содержание и особенности внедрения // Научный диалог. 2012. № 1. С. 265–270.
6. Трапезникова Г. А., Хабибуллина Ф. Я. Использование технологии критического мышления при обучении студентов языкового факультета общественно- политической лексике // Вестник Марийского государственного университета. – 2017. – Т. 11. – № 2 (26). – С. 46–52.
7. Рябцева Н.К. Новые коммуникативные тенденции в современной культуре и инновации в области преподавания иностранного языка // Лингвистика и методика преподавания иностранных языков: периодический сборник статей. Выпуск Электронное научное издание. – М.: Институт языкознания РАН. – 2016. – 557 с.





**Nigora VALIXANOVA,**  
“University of economics and pedagogy” NOTM dotsenti, PhD  
E-mail: [nigora.valixanova@mail.ru](mailto:nigora.valixanova@mail.ru)

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori M.Bakiyeva taqrizi asosida*

### ABOUT THE LANGUAGE OF BODY MOVEMENTS GENERAL CONCEPTS

Annotation

According to many researchers, the verbal method is used to convey information, while the non-verbal method is used to "discuss" interpersonal relationships. Sometimes non-verbal communication is used instead of verbal communication. Some people hardly admit that humans are biological beings. It is surprising that a biological being - a person - rarely realizes that his voice contradicts his behavior, body position and actions.

**Key words:** Verbal methods, non-verbal method, biological being, voices.

### TANA HARAKATLARINING TILI HAQIDA UMUMIY TASAVVURLAR

Annotsatsiya

Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, verbal usul ma'lumotlarni yetkazish uchun qo'llanilsa, noverbal usul shaxslararo munosabatlarni «muhokama» qilishda qo'llaniladi. Ba'zan noverbal usul so'zli xabarlar o'rnida ham ishlatiladi. Insonlar biologik mavjudot ekanligini ba'zilar qiyinchilik bilan tan oladilar. Hayron qo'larli joyi shundaki, biologik mavjudot – inson o'zini tutishi, tanasining holati va harakatlariga ovozi qarama-qarshi kelishini kamdan-kam anglaydi.

**Kalit so'zlar:** Verbal usullar, noverbal usul, biologik mavjudot, ovozlilar.

### О ЯЗЫКЕ ДВИЖЕНИЙ ТЕЛА ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ

Аннотация

По мнению многих исследователей, вербальный метод используется для передачи информации, а невербальный – для «обсуждения» межличностных отношений. Иногда вместо вербального общения используется невербальное общение. Некоторые люди с трудом признают, что люди являются биологическими существами. Удивительно, что биологическое существо – человек – редко осознает, что его голос противоречит его поведению, положению тела и действиям.

**Ключевые слова:** Вербальные методы, невербальный метод, биологическое существо, голоса.

**Kirish.** Og'zaki bo'lmagan til – bu ongli xatti-harakatlarning natijasi emas, balki ongsiz impulsning natijasidir. Imo-ishoralar va mimikalar orqali odamni qanday o'qishni tushunishni o'rganuvchi fan – fiziognomiya deyiladi. Insonning tashqi holati ko'pincha uning ichki dunyosidn so'zlaydi. Masalan, boshni baland ko'tarib yurish mag'rurlikni, ko'zni siqib qarash mensimaslikni, shaxdam qadam tashlash o'ziga ishonchni, qunushib o'tirish xafalikni, yuzni tirnash asabiylikni, burunni jiyirish yoqtirmaslikni ifodalaydi.

Agar odamlarning qo'l qismi zaif bo'lsa, uning harakatlarining bo'shligini bilish mumkin. Ammo, agar inson qo'llarining bog'inida artrit bo'lsa, u qo'lini og'riqdan saqlash uchun qo'lni bo'sh siqishdan foydalanadi. Shuning uchun rassomlar, musiqachilar, jarrohlilar va boshqa nozik kasb egalari sezgir barmoqlar talab etilgani tufayli, odatda, qo'l berib so'rashishdan qochishadi, ammo buni amalda qo'llashga to'g'ri kelsa, unda ehtiyotkorlik bilan qo'l berishadi. Ba'zi yarashmaydigan yoki tor kiyim kiygan odamlar o'z harakatlarini erkin bajara olmaydi va bu ularning tana tilining ifodasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu kam uchraydigan holat, ammo tana tili bilan shug'ullanuvchilarga bunday narsalar qanday ruhiy ta'sir etishini tushunish uchun ularni nazarda tutish muhimdir.

Tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, insonning ijtimoiy maqomi, hokimiyati va obro'si bilan uning so'z boyligi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud ekan[1]. Boshqachasiga aytganda, insonning ijtimoiy yoki kasbiy maqomi qancha yuqori bo'lsa, uning so'zlari va jumalalar bilan muloqot qilish qobiliyati yaxshiroq bo'ladi. Noverbalika sohasidagi tadqiqotlar, insonning notiqlik, so'zamollik bilan uning so'z xabarlarini ma'nosini yetkazish uchun qo'llaydigan imo-ishora darajasi o'rtasida bog'liqlikni aniqlashdi. Bu degani insonning ijtimoiy mavqei, uning obro'si va u foydalanayotgan imo-ishora soni hamda tana harakatlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik bor[2]. Ijtimoiy pog'onaning yoki kasbiy muvaffaqiyatning cho'qqisidagi odam o'zaro muloqot jarayonida o'z lug'at boyligidan foydalanishi mumkin, ma'lumoti o'rta yoki kasb

pog'onasiga ko'ra oddiy ish bajaruvchi xodim, ishchilar muloqot jarayonida so'zlardan ko'ra ko'p hollarda imo-ishoralardan foydalanadi[3].

Umumiy qoida shundan iboratki, insonning ijtimoiy-iqtisodiy holati qancha yuqori bo'lsa, unda imo-ishora va tana harakatlari shuncha qashshoqlashib boradi. Ba'zi imo-ishoralarning aniqligi insonning yoshiga bog'liq. Ba'zi imo-ishoralarning aniqligi insonning yoshiga bog'liq. Masalan, 5 yashar bola ota-onasiga yolg'on gapirsa, qo'li bilan og'zini yopib oladi. Bu bilan bola ota-onalarga yolg'on gapirganini sezdirib qo'yadi.

Inson butun umri davomida yolg'on ishlatganda bu imo-ishoradan foydalanadi. Faqat yillar davomida bu imo-ishoraning tezligi o'zgaradi, xolos. O'smir yolg'on gapirganda u deyarli 5 yashar boladag yolg'oni yopadi, faqat barmoqlari yengilgina lablar chizig'ini aylantirib qo'yadi, xolos[4]. Bu og'izni qo'l bilan berkitish imo-ishorasi balog'at yoshida nozikroq bo'lib boradiki, katta odam yolg'on gapirayotganda uning miyasi unga og'zini yopishga impuls yuboradi: og'izni yopish uchun 5 yashar bola yoki o'smir qilganday qo'l og'izni chetlab o'tib, yangi imo-ishora: burunga tegish paydo bo'ladi. Bunday imo-ishora bolalikdagi og'izni qo'l bilan berkitish imo-ishorasining mukammallashgan kattalar variantidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tana harakatlari to'g'risidagi o'z shaxsiy tana tilini soxtalashtirish mumkinmi? – degan savol tipik (o'ziga xos) hisoblanadi. Bu savolga odatdagi javob salbiy bo'ladi, chunki sizni imo-ishoralar organizm mikrosignallari va aytilgan so'zlar o'rtasida kongruentlikning yo'qligi fosh qilib qo'yadi. Masalan, ochiq kaftlar halollik bilan assotsiatsiya qilinadi, ammo aldoqchi sizga quchog'ini ochib kulib qarab, shu vaqtning o'zida yolg'onni so'zlasa, uning organizmining mikrosignallari yashirin o'y-fikrlarini fosh qiladi. Bu toraygan ko'z qorachilari, ko'tarilgan qosh yoki og'iz burchagining qiyshayishi bo'lishi mumkin va bu barcha signallar ochiq quchoq va tabassumga ziddir. Natijada retsepiyent eshitayotgan narsasiga ishonmaslikka moyilroq bo'ladi.

7. Nilsson, M., et al. (2012). "Policy coherence for sustainable development: Exploring the policy space for climate change and development."
8. Ostrom, E. (1990). *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action.*
9. Patton, M. Q. (2008). *Utilization-Focused Evaluation.*
10. Rabinovitch, J., & Leitman, J. (1996). "Urban planning in Curitiba."
11. Stavins, R. N. (2003). "Experience with Market-Based Environmental Policy Instruments."



**Gulrang JABBOROVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
*E-mail: gulrangjabborova@gmail.com*

*O'zRFA doktoranti, PhD A.Eshniyozova taqrizi asosida*

### COMPARATIVE ANALYSIS OF THE NOVELS "MARTEN EDEN" BY JACK LONDON AND "SAROB" BY ABDULLA KAKHKHOR

Annotation

This article compares the novels "Martin Eden" by the great representative of American literature Jack London and "Sarob" by the great writer of the Uzbek people Abdulla Kakhkhor. The artistic skills of the writers of these two nations, the specific aspects of their works are compared, and the national and psychological peculiarities are analyzed.

**Key words:** Autobiographical novel, absurd, romanticism, hero's tragedy, moral decline of personality, social novel.

### СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РОМАНОВ «КУРИНЫЙ ИДЕН» ДЖЕКА ЛОНДОНА И «САРОБ» АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Аннотация

В данной статье сравниваются романы «Мартин Иден» великого представителя американской литературы Джека Лондона и «Сароб» великого писателя узбекского народа Абдуллы Каххора. Сопоставляются художественное мастерство писателей этих двух народов, специфика их творчества, анализируются национальные и психологические особенности.

**Ключевые слова:** Автобиографический роман, абсурд, романтизм, трагедия героя, нравственное падение личности, социальный роман.

### JEK LONDONNING "MARTEN IDEN" VA ABDULLA QAHHORNING "SAROB" ROMANLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotasiya

Ushbu maqolada Amerika adabiyotining yirik vakili Jek Londonning "Martin Iden" va O'zbek xalqining buyuk yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari qiyoslab o'rganilgan. Bu ikki millat yozuvchisining badiiy mahorati, asarlarining o'ziga xos jihatlari solishtirilib, milliy va psixologik o'ziga xosliklar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Avtobiografik roman, absurd, romantizm, qahramon fojeasi, shaxs ma'naviy tanazzuli, ijtimoiy roman.

**Kirish.** XX-asr Amerika adabiyotining yirik vakili Jek London va O'zbek xalqining buyuk yozuvchisi Abdulla Qahhor ijodini qiyoslab o'rganar ekanmiz, bu ikki millatning o'ziga xos jihatlari ham solishtirib o'rganishga to'g'ri keladi. Sababi, ikkala asarni bir-biridan ajratib turadigan nuqta Sharq va G'arbga xos fikrlash va psixologik o'ziga xoslikdir. Jek Londonning "Marten Iden" romani kuchli hayotsevarlik ruhi bilan yo'g'rilgan hamda insonni har qanday sharoitda ham faqat olg'a intilishga chorlaydigan, inson matonatini sharaflaydigan asar sanaladi. "Sarob"ning bosh qahramoni Saidiyda esa bu xarakter "Marten"ga qaraganda biroq sustroq aks etadi. Chunki, Saidiy o'zi yashagan muhitning qurboni. U e'tiqodi, ishongan g'oyalariga sobit turolmaydigan va o'z maqsadlari yo'lida yetarlicha kurasholmagan inson obrazidir. Ikkala romanning ham yozilish davriga e'tibor qaratsak, "Marten Iden" birinchi bo'lib dunyo yuzini ko'rgan, keyin esa "Sarob" romani yaratildi. Shuni aytish ham joizki, Abdulla Qahhor Jek London ijodi bilan juda yaxshi va yaqindan tanish bo'lgan. Shu sababdan ham, Abdulla Qahhorning ushbu romanida "Marten Iden" bilan o'xshash jihatlari mavjud. Ammo, "Sarob" ham badiiy asar sifatida g'oyat yangi va puxta badiiylikka ega. Bu asarni aslo, "Marten Iden" bilan bir xil yoki uning tarjimasini deb bo'lmaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** "Tadqiqot metodlarisiz birorta fan o'z maqsadiga (strategiyasiga), tadqiqot obyektining mohiyatini ochishga erisha olmaydi. Chunki u yoki bu fanning tabiat va jamiyat hodisalarini aniqlashi, ularga xos qonuniyatlarni topishi, ular haqida ilmiy-falsafiy g'oyalar chiqarishi, shak-shubhasiz, muayyan metodlar orqali amalga oshiriladi"[1]. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu romanlarni tahlil qilishda ham qiyosiy va chog'ishtirish metodidan foydalanish o'rinlidir. Shunga ko'ra, ikkala romanning yozilishi tarixiga diqqat qilsak, "Marten Iden" avtobiografik, "Sarob" esa ijtimoiy xarakterdagi roman sanaladi. Ya'ni "Marten Iden" ning bosh qahramoni Marten mashhur yozuvchi bo'lish uchun juda mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi. Martin Iden va Jek Londonning o'xshash jihatlari juda ko'p. Ikkalasi ham jamiyatning quyi

tabaqasidan chiqqan va faqat o'z kuchi bilan ulkan yutuqlarga erishgan. London yoshligida o'zini juda ko'p ishlarda sinab ko'rgan; u dengizchi, zavod ishchisi, kir yuvish shirkati ishchisi sifatidagi tajribasiga tayangan holda mohirona asarlar yozdi. Ruf obrazi esa Jek Londonning birinchi muhabbati Meybl Epplgardtan olingan[2]. Bu haqda Anvar Namozov shunday deydi: " Jek Londonning o'zini o'zi o'ldirishi haqida o'ylagani borasida esa ummonga o'zini tashlagan "Martin Iden" qahramonini eslash kifoya. O'z joniga suiqaqd bilan bog'liq mulohazalar uning avtobiografik asari hisoblangan "Jon Arpa Urug'i"da ham uchraydi"[3]. Chindan ham, Jek London ham o'z hayoti so'ngida o'z joniga suiqaqd qilgan. Bu holat esa, aynan Marten da ham takrorlanad. "Sarob"da esa aynan XX asrning 30-yillarida mamlakatimizda olib borilgan "yer islohoti" "kalxoz" singari siyosiy jarayonlar obrazlar misolida yoritib berilgan. Va asardagi bosh personaj hisoblangan Saidiy ham ana shu siyosiy jarayonlar ishtirokchilaridan edi. Ammo, Saidiy o'zining yozuvchi bo'lish maqsadi yo'lida Martenchalik uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tmaydi. Aksincha, vaqt o'tgani sayin yozuvchilikka faqatgina mo'may daromad manbai sifatida qaray boshlaydi. To'g'ri, Martenda ham bu qarash yo'q emas, nimagaki yozuvchilik Marten uchun ham tirikchilik manbai edi. Umuman olganda, ikkala asarda ham o'xshash jihatlari mavjud. Masalan, ikkala qahramonning ham otasiz, oilasiz voyaga yetgani, mashhurlikka og'ir mexnat orqali erishishi, yagona yaqini bo'lgan opasi ham erining so'zidan chiqqan olmasligi ya'ni unga yordam berolmasligi shular jumlasidan. Ammo, Saidiyning opasi va Gertrudani taqqoslaganda o'rtadagi farq yaqqol namoyon bo'ladi. Sababi, Saidiyning opasining hayoti ancha fojiali edi. Ayolning erini undan foydalanishlari, urishi-yu haqoratlariga, uni tahqirlab boshqa ayollar bilan ko'ngilxushlik qilishiga ham bolalari oilasi uchun bardosh beradi, biroq kasallanishi bilan eri undan vos kechadi. Ochig'ini aytganda endi undan Muhammadrajabga hech qanday manfaat qolmagan edi. O'ta mushkul vaziyatda qolgan ayol birdan bir yaqini bo'lgan ukasining uyidan panohtopadi. Ammo, kuyovning kasalmand opasining kelishi na Murodxon

domlaga, na uning xotiniga, na Soraxonga ma'qul bo'lmaydi. Ustiga-ustak, bechora ayolning ko'zlaridan nur ketgan edi, u uy ishlarida yordamlashishni yoki boshqa ish bilan mashg'ul bo'lib boqimandalik balosidan qutilishni har qancha istamasin uning qo'lidin hech ish kelmas edi. Buni qarangi, shum taqdir ham bu borada mushtipar ayolga shafqat qilmagan edi. Marten Idenda esa, opasining hayoti ancha og'ir eri qo'rs- qo'pol odam bo'lishiga qaramay har holda Gertrudani ko'chaga uloqtirmaydi.

**Natijalar.** Ikkala asarda ham bosh qahramonlarning ilm va yozuvchilikka bo'lgan mehri aynan yorga bo'lgan muhabbat bilan boshlangan edi. Biroq ikkala romandagi sevgi qissasi ham baxtsiz yakun topdi. Abdulla Qahhor aytganidek: "Kim qanday yashasa, shunday o'ylaydi"[4]. Darhaqiqat, Martenning muhabbatini qozongan, aslzodalardan bo'lgan Ruf obrazi haqida shu fikr o'rinlidir. Sababi, Ruf va uning oilasi Martenning histuyg'ularidan o'z manfaatini yo'lida foydalanadi. Vaholanki, Marten yovvoyi va kambag'al matroslikdan taniqli yozuvchilikka chekkan azoblarining barchasi faqatgina Rufga munosib bo'lish uchungina edi. To'g'ri Ruf ham Martenni sevardi ammo otanasini, yaqinlari bo'lgan aslzodalarning va o'z ichki muhitining ta'sirida sevgisidan vos kechdi. Ammo, nima bo'lgan taqdirida ham, Rufning Martenga nisbatan qilgan adolatsizligini hech qanaqasiga oqlab bo'lmaydi. Biroq, Saidiy va Munisxonning ishqi munosabatlarida Marten va Rufga nisbatan biroq tavofutlar mavjud. Munisxon obraziga to'xtaladigan bo'lsak, asar boshida uni o'ta odobli haqiqiy sharqqa xos ibo- hayoga to'la, samimiy qiz sifatida tanigan bo'lsak, asar oxirlangani sari uni yangicha qiyofalarini kashf etdik. Ammo, tan olish kerakki Munisxon o'sha davrda kam topiladigan qizlardan edi. Sababi, tezroq turmushga chiqishga oshiqqan qizlardan emas aqlini tanigan o'qishni sevadiganlardan edi. Ammo inson har qancha o'qishni istamasin, u noto'g'ri muhit yoki insonlar ta'siriga tushsa hayotda hech narsaga erisha olmaydi. Ayniqsa asar so'nggida, Munisxonning Saidiyga qilgan taklifi ham uning qanchalar o'zgariganini, uning qanchalar tubanlashib ketganini ko'rsatadi. Yana, uning bu taklifi faqat o'zi uchungina emas barcha ayol nomi uchun ham isnod edi. Biroq, vaziyat insonni nimalarga majbur qilmaydi. Qaysi ko'chalarga yetaklamaydi? Munisxonni faqatgina qoralash ham o'rinli emas. Sababi, u Saidiy sevardi ammo akasining, onasining ra'yiga qarshi chiqolmadi. Ularning roziligi yo'lida o'z sevgisini qurbon qildi. Aynan shu ham asarlarni taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadigan jihat sharq va g'arbga xos tarbiya usulidir. Yana, Saidiy ham Munisxon uchun, uning sevgisi uchun kurashmaydi. Buni ustiga, Saidiy sevgan yoridan ayrilayotganini bilib turib ham harakat qilmaydi aksincha o'z dardini may bilan unutmoqchi bo'ladi. Bu ham ish bermaganidan so'ngra boshqa ayol orqali Munisxonni o'rnini to'ldirishga tirishadi. Ammo, xotinlikka tanlagan nomzodi Saidiy uchun nafaqat tashqi ko'rinishi jihatdan balki ma'naviy jihatdan ham umuman mos emas edi. Yozuvchi uning portretini shunday chizadi: "Ma'naviy xunuklik Soraxon ko'rinishidagi xunuklikdan ham oshib tushadi. U na ro'zg'or uchun na jamiyat uchun biror ish bilan band. Ba'zi qiliqlari esa esi past bolalarning harakatini eslatadi". [5] Sevgan insoni uchun, harakat qilmasdan undan oson vos kechgan inson uchun shunday badbaxt turmush o'rtoq berilgani ham uning jazosi edi asli. "Marten Iden" romanida tasvirlangan ikkinchi darajali ammo yorqin xarakterga ega yana bir qahramon mavjud bu Lizzi obrazi edi. Jek London Lizzi obrazi orqali haqiqiy, sofsamimiy sevgi qanaqa bo'lishini ko'rsatib bergan. E'tiborga molik tomoni shundaki, Lizzi Martenni boricha qabul qila oldi. Unga Martenning shon-shuhrati emas aksincha uning insoniylik fazilatlarini muhimroq edi. Lizzi va Ruf o'rtasidagi farq aynan shunda edi. Ruf undan o'ziga mos bo'lishini, qachonki unga erishish darajasiga yetsa shundagina unga turmushga chiqishini, hayotini davom ettirishini ta'kidlaydi. Biroq, Lizzi bunday talablardan butunlay mustasno. Jek London bu ikkala personajlar xarakteri orqali insonning fazilatlarini, insoniylik sifatlariga ega bo'lishi, uning universitetda ta'lim olishi bilan o'lanmasligini, uning qaysi sinfga mansub ekanligi bu borada asosiy rolni o'ynamasligini tasvirlagan. Marten uyida ijarada yashagan polshalik kambag'al ayol Maria obrazi ham bejizga asarga kiritilmagan. Ushbu obraz o'sha davr Amerika ishchi sinfining qanchalik qiynalganini, pul topish oilani tebratish naqadar og'ir bo'lganini ko'rsatadi. Ammo, o'zi qanchalik og'ir ahvolda

bo'lmasin Maria doimo Martenga yordam beradi. Yaqinlari hatto sevgilisi tark etgan vaqtda ham yonida shu ayol bo'ladi. Ayniqsa, asarlari bosilmasdan ruhiy tushkunlikka tushgan paytida ham unga ma'naviy yordam bergan obraz aynan Mariya edi[6].

**Muhokama.** R.Ye. Oblonskoyning ta'kidlasha: "Kitobning pafosi insoniyatning ko'pchiligiga - kundalik tashvishlar bilan befarq ovora bo'lgan va haqiqiy ijodga befarq bo'lgan achinarli kichkina odamlarga nisbatan nafratdadir. Ruhiy ishlarni amalga oshiruvchi romantik qahramon buyuk san'at asarlarining go'zalligini idrok etishga qodir bo'lmagan filistlar ommasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Kuchli shaxs "gnomlar olamida" o'ladi". [7] Chindan ham, Jek Londonning qahramoni o'sha davr va shu davrning johilona qurboni bo'ldi. Garchi, Marten Arturini og'ir vaziyatida yordam qo'lini cho'zgan bo'lsa-da, ular Martenga baribir past tabaqadan chiqqan, kambag'al deb qarashda davom etishdi. Jek Londonning "Marten Iden" romani ham aynan romantizm oqimida yozilgan. Romantizm, adabiy, badiiy va falsafiy oqim Evropada 18-asrda boshlangan va taxminan 19-asr o'rtalarigacha davom etgan. Individual ongga jiddiy e'tibor qaratganligi sababli, u ma'rifatning davomi va unga qarshi reaksiya edi. Romantizm individual, subektiv, irratsional, tasavvur, shaxsiy, o'z-o'zidan, hissiy, ko'rish va transsendentalni ta'kidlaydi. [8] Chindan ham, Marten Idenda ham xuddi shunday individual ongga jiddiy e'tibor berilganini ko'rish mumkin. Qolaversa, Jek London "Marten Iden" romanidagi obrazlarni o'z hayotiy tajribasi asosida yaratgani ma'lum. Shunda savol tug'iladi, "Sarob"ning qahramonlarichi? Garchi, "Sarob" avtobiografik roman bo'lmasa-da Abdulla Qahhor yaratgan obrazlar ham to'raligicha to'qima emas, balki ko'pchiligi real shaxslardan olingan. Jumladan, bu asar yaralish davri ham aynan "Qosimovchilik" va "Badridinovchilik" harakati yuz bergan davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda aynan mamlakatimizdagi bir qancha ziyoli qatlamiga "millatchilik" aybi qo'yilishi, qatag'on qilinishi avj olgan edi. Balki bosmachilar haqidagi gap yozuvchi fantaziyasining mahsulidir, deb o'ylash ham mumkin. "Biroq, afsuski, «Udar po natsionalisticheskoy kontrevolyutsii» kitobining 11-12-betidagi ostiga chizilib, yoniga yozuvchi qo'li bilan «Basmachi» deb yozib qo'yilgan ushbu o'rinlar bu fikrga ham tezda barham beradi: Agar romanda «mart» «kuz» ga, «Isaqulov» bo'lsa «ikkita bosmachi» ga, ularga berilgan jazo «6 yil» emas «yetti yilga» etib «badiylashtirilgani» ni demasa, asar qahramonlari aynan real hayotdan olingan, — deydi Rahmon Qo'chqor[9]. Adibning yuqoridagi fikrlari ham "Sarob" romani qahramonlari tasodifiy yoki to'qima emasligini isbotlaydi. Ko'rinib turibdiki, "Marten Iden" Amerika zodagonlari hayoti va vaqtlari matbuotidagi nuqson va kamchiliklarini qanchalik ochiq ko'rsatib bergan bo'lsa "Sarob" ham mamlakatimizning 20-30 yillardagi siyosiy jarayonlar, matbuotimizdagi chirkin holatlarni batafsil yoritib bera olgan. Obrazlar tahliliga to'xtalsak, "Sarob" romanida e'tiborga molik obrazlar talaygina. Shularidan biri Ehsan obrazi. Sababi, Ehsan sog'lom fikrli, el-yurt manfaatini yo'lida o'zini ayamaydigan, ilm-fanda ham yetarlicha o'z bilimiga ega yoshlardan edi. U Saidiyga yordam berishga uni to'g'ri yo'ldan yurishga har qancha tirishmasin uning harakatlari besamar ketadi. Ehsan Saidiyning atrofida Abbosxon, Ilhom, Salimxon kabi shaxslarning asl kirdikorlarini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham, Saidiy ulardan uzoq tutishga harakat qiladi. Bundan tashqari, Ehsan chet elda ham o'z bilimini oshirib kelgani uchun ham dunyoqarashi qolganlarnikidan ancha keng edi. Yana xuddi shunday obrazlardan biri— Sharif. Ushbu qahramon ham asarda o'zining sog'lom va mustaqil fikrlashi, keng va mushohadali dunyoqarashi bilan boshqalardan ajralib turadi. Yana, Sharif Saidiyga ham juda ko'p yordam qo'lini cho'zadi. Saidiy pulsiz qolib qiynalgan kezlarda ham Sharif uning joniga oro kiradi. Ammo, Saidiy buni oz vaqt esda saqladi xolos. Saidiy Sharif va Ehsan unga qancha ko'p yaqinlashishga harakat qilmasin, u doim ulardan qochishga uzoqroq yurishga bor kuchi bilan harakat qilardi. Sababi, ular bilan birga bo'lganda suhbat samamiylikdan ko'ra ko'proq janjal va tortishuvga aylanib ketardi. Aslida ushbu obrazlar Saidiy to'g'ri hayotga qaytarish uchun Alloh tomonidan berilgan ne'matlar edi. Biroq, Saidiy buni vaqtda anglab yetmaydi. Shuning uchun ham hayoti oxir-qiyatda jar yoqasida qoladi. Umuman olganda, Saidiy hayotini o'z qo'llari bilan barbod qiladi. Marten Iden romani obrazlari haqida gap



ketganda, beixtiyor yana muallif va Marten o'rtasidagi o'xshashlik asosiy va muhimligicha qolaveradi. Do'sti Brissenden aytgan edi, "Sening hikoyalaring bir kun kelib albatta chop etiladi, mashxur inson bo'lasan", degan gaplariga u ishonmagan edi. Martin sevgisini isbotlash maqsadida Ruf asarlarini gazetalarda o'qishini va u bilan faxrlanishini xohlagan edi. Ammo, uning birinchi "Sarguzasht" hikoyasi bosilib gonorarini olganida, Ruf undan voz kechgan, Martinda yozish ishtiyoqi so'ngan edi[10]. Jek Londonning shaxsiy hayotida ham xuddi shunday achchiq vos kechish voqeasi bo'lgan edi. Jek London aynan o'zining shu vaziyatdagi ruhiy holati va ichki kechinmalarini Marten orqali ko'rsatib bergan. Shu o'rinni "Sarob" romani bilan qiyoslaydigan bo'lsak, Saidiy Martenchalik ko'p rad etilishlarga uchramaydi. Sababi, uning ishi chinakam jonkuyar inson Kenjaning qo'liga tushib qoladi va uning e'tiborini tortadi. Uning keyingi ijodiy parvozlari ham unga qiyinchilik bilan emas aksincha biroz yengillik bilan keladi. Sababi, Murodxon domla, Abbosxon, Ilhom, Salimxon kabilar Saidiydan va uning iqtidoridan o'z manfaati yo'lida foydalanish maqsadida unga yangidan yangi asar uchun g'oyalar topishda homiylik qilishadi. Bundan tashqari, Munisxon ham Saidiydan omadi chopmagani yoki qo'li boshqalardan kaltaligi sabab vos kechmaydi. Yuqoridagilar ham Saidiy va Marten o'rtasidagi ba'zi farqlardan biri edi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ikkala asar ham badiiy jihatdan g'oyat puxta va vaqt sinovidan o'tgan asar sanaladi. Va yana, ikkala romanning ham bosh g'oyasi o'zlikni anglashdan iborat. "Marten Iden" romani inson nimagadir chin dildan harakat qilsa unga albatta erisha olishini kitobxonga singdiradigan insonni faqat olg'a intilishga chorlaydigan, hayotda har doim harakatdan to'xtamaslik zarur degan g'oyalar aks etgan. "Sarob" ham xuddi shunday inson mehnat va harakatdan to'xtamasa uning harakatlari va intilishlari oxir oqibatda o'z kutgan natijasini berishini ko'rsatadigan asar. Ammo, bu natija qanday bo'lishi ya'ni o'tkinchi sarobdan iboratmi yoki o'zingdan chin insoniy nom qoldira oladigan mehnat va mashaqqatlar mahsuli bo'lishi bu albatta insoning o'ziga va tanlagan yo'lga bog'liq. Ayniqsa, ikkala romanda ham o'zlikni anglash g'oyasi o'ta kuchlilik qiladi. Sababi, inson o'zini anglamas ekan, hayotda hech nimaga erisha olmaydi. Ya'ni inson o'z orzu- maqsadlariga erishishi uchun avvalo, u to'g'ri muhit va insonlarning yonida bo'lishi o'ta muhim. Aks holda, inson hayotda qanchalik ko'p muvaffaqiyatga erishmasin, u hayotdan o'zi istagan "rang-ta'm" ni topolmaydi. Balki, xuddi bizning Marten va Saidiy singari ularning erishgan muvaffaqiyatlari oxir-oqibat "absurd"ga aylanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Xalliyeva G.I. Qiyosiy tahlil metodologiyasi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022.[180-189.b]
2. Matonat – muvaffaqiyatga erishishning yagona yo'li. Nurbek Alimov.
3. Anvar Namozov. JEK LONDON: HAYOT VA IJOD MASHAQQATLARIGA BASMA-BAS. [http://ziyouz.uz/images/jek\\_london.jpg](http://ziyouz.uz/images/jek_london.jpg)
4. Abdulla Qahhor. Sarob. Rahmon Qo'chqor. Sarobning paydo bo'lishi Sarob: roman / Abdulla Qahhor. Toshkent: Global books, 2021. [ 336 b.]
5. JEK LONDONNING „MARTIN IDEN“ ROMANIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIY TALQINI. Misirova Xayriniso
6. Аморальный роман Джека Лондона "Мартин Иден". 8 сентября 2023. Джек Лондон. Мартин Иден / Пер. с англ. Р. Е. Облонской. - М.: Издательство АСТ, 2021. - 448 с. - (Эксклюзивная классика)
7. 2024 Muallif: Angel Austin | [austin@vogueindustry.com](mailto:austin@vogueindustry.com).
8. Abdulla Qahhor. Sarob. Rahmon Qo'chqor. Sarobning paydo bo'lishi.
9. GOLDEN BRAIN ISSN: 2181-4120. VOLUME ISN1002023 [https://t.me/goldenbrain\\_journal](https://t.me/goldenbrain_journal) Multidisciplinary Scientific Journal April, 2023 280JEK LONDON HAYOTINING "MARTIN IDEN" ASARIDAGI AKSI.



**Nargiza JUMAKULOVA,**

*Faculty of English Philology Teacher of the department of English functional lexicon*

*E-mail: jumakulovanargiza6091304@gmail.com*

*based on the review of associate professor S. Ikramova*

## METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' MEDIA COMPETENCE

Annotation

The article studies various pedagogical strategies to enhance media literacy among students. It emphasises the importance of media competence in the digital age, where students are constantly exposed to vast information. The study examines different methods, including critical thinking exercises, media analysis projects, and the integration of media literacy into the curriculum. It also discusses the role of educators in guiding students to navigate and critically evaluate digital content. Through a review of existing literature and case studies, the article highlights best practices and innovative approaches to foster media competence. The findings suggest that a multi-faceted approach, combining theoretical knowledge with practical application, is most effective in developing students' media skills. The article concludes with recommendations for educators and policymakers to support the incorporation of media literacy education in schools.

**Key words:** media competence, media literacy, critical thinking, digital education, pedagogical strategies, curriculum integration, media analysis, educational methods, digital content evaluation, media education.

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье рассматриваются различные педагогические стратегии повышения медиаграмотности учащихся. В статье подчеркивается важность медиакомпетентности в эпоху цифровых технологий, когда учащиеся постоянно сталкиваются с огромным объемом информации. В исследовании рассматриваются различные методы, в том числе упражнения на критическое мышление, проекты по анализу медиа и интеграция медиаграмотности в учебную программу. В нем также обсуждается роль преподавателей, помогающих учащимся ориентироваться в цифровом контенте и критически оценивать его. На основе обзора существующей литературы и тематических исследований в статье освещаются лучшие практики и инновационные подходы к развитию медиакомпетентности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что многогранный подход, сочетающий теоретические знания с практическим применением, наиболее эффективен в развитии навыков работы с медиа у студентов. Статья завершается рекомендациями для педагогов и политиков по поддержке внедрения обучения медиаграмотности в школах.

**Ключевые слова:** медиакомпетентность, медиаграмотность, критическое мышление, цифровое образование, педагогические стратегии, интеграция учебных программ, медиаанализ, методы обучения, оценка цифрового контента, медиаобразование.

## TALABALARNING MEDIA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalar o'rtasida media savodxonligini oshirishning turli pedagogik strategiyalari o'rganiladi. Bu talabalar doimiy ravishda juda ko'p ma'lumotlarga duch keladigan raqamli asrda media kompetensiyasining muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqot turli xil usullarni, shu jumladan tanqidiy fikrlash mashqlarini, ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish loyihalarini va media savodxonligini o'quv dasturiga qo'shishni o'rganadi. Shuningdek, o'quvchilarni raqamli tarkibni navigatsiya qilish va tanqidiy baholashga yo'naltirishda o'qituvchilarning roli muhokama qilinadi. Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish va amaliy tadqiqotlar orqali maqolada media vakolatlarini rivojlantirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar va innovatsion yondashuvlar ta'kidlangan. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan birlashtirgan ko'p qirrali yondashuv talabalarning media ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali hisoblanadi. Maqola o'qituvchilar va siyosatchilar uchun maktablarda media savodxonligi bo'yicha ta'limni qo'llab-quvvatlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** media kompetensiyasi, media savodxonligi, tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, pedagogik strategiyalar, o'quv dasturlari integratsiyasi, media-tahlil, ta'lim usullari, raqamli kontentni baholash, media-ta'lim.

**Introduction.** In the digital age, media competence has become an essential skill for students, enabling them to navigate, critically evaluate, and create content in a media-saturated environment. Media competence, also referred to as media literacy, encompasses the ability to access, analyse, evaluate, and produce communication in a variety of forms. As the proliferation of digital media continues to influence how information is disseminated and consumed, educational institutions must equip students with the necessary tools to understand and engage with media critically and responsibly [9]. The development of media competence is not only crucial for academic success but also for fostering informed and active citizenship. Students who are media literate are better prepared to discern credible sources from misinformation, understand the persuasive techniques used in media, and recognize the role of media in shaping public opinion and cultural norms.

This competence empowers them to participate meaningfully in democratic processes and contribute to the digital

public sphere. This article explores various methods for developing students' media competence, drawing on both theoretical frameworks and practical applications. It reviews the literature on media literacy education, examining key strategies such as critical thinking exercises, media analysis projects, and the integration of media literacy into different subject areas. Additionally, the article highlights the importance of educator involvement and the need for comprehensive training programs to support teachers in delivering effective media literacy instruction. Through a synthesis of existing research and case studies, this study aims to identify best practices and innovative approaches to media literacy education. By providing a detailed analysis of successful methods, the article offers valuable insights for educators, policymakers, and researchers seeking to enhance media competence among students. The ultimate goal is to foster a generation of critical thinkers who can navigate the complexities of the digital media landscape with confidence and discernment. In recent years, the urgency of media literacy has been

underscored by the increasing prevalence of misinformation, fake news, and digital manipulation [6].

One major challenge is the lack of standardized curricula and resources tailored to diverse educational contexts [5]. Another is the varying levels of media literacy among educators themselves, which can hinder the effective teaching of these skills. Moreover, there is often limited time allocated within the school day for media literacy instruction, leading to its marginalization in favour of traditional academic subjects [15].

**A literature review.** The importance of media literacy has been extensively documented in educational research, reflecting its critical role in contemporary education. Media literacy, often defined as the ability to access, analyze, evaluate, and create media in various forms, is seen as a fundamental competence in the digital age. Scholars such as Potter and Buckingham have emphasized that media literacy enables individuals to critically engage with media content, fostering informed and active citizenship [2, 4].

One of the foundational works in this field, Potter's Media Literacy, highlights the necessity of media literacy education in developing critical thinking skills. Potter argues that media literacy should be an integral part of the curriculum, as it prepares students to navigate the complexities of the media landscape [2]. He outlines a framework that includes the cognitive, emotional, aesthetic, and moral dimensions of media literacy, suggesting that a holistic approach is essential for effective education.

Similarly, Buckingham's Media Education: Literacy, Learning, and Contemporary Culture explores the relationship between media literacy and cultural studies. Buckingham argues that media literacy is not just about protecting individuals from harmful media effects but also about empowering them to actively participate in media culture. He stresses the need for media education to be contextual and relevant to students' lives, advocating for pedagogical practices that connect media literacy to students' everyday experiences [4]. The integration of media literacy into the educational system is a recurring theme in the literature. Hobbs has been a leading advocate for embedding media literacy across the curriculum [1]. In her books Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom and Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom, Hobbs provides practical strategies for integrating media literacy into various subjects. She emphasizes the importance of using media literacy to enhance students' critical thinking and communication skills, advocating for an interdisciplinary approach that makes media literacy relevant across different areas of study [1].

Research by Martens on evaluating media literacy education underscores the need for robust assessment methods. Martens highlights that while many programs aim to develop students' media competence, there is often a lack of effective tools to measure their impact. He calls for more research into assessment techniques that can accurately capture the skills and knowledge students acquire through media literacy education [7]. Livingstone addresses the challenges posed by new information and communication technologies. In her article "Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies," Livingstone discusses how the digital age has transformed the media landscape, making media literacy more

crucial than ever. She highlights the need for educational frameworks that can adapt to rapidly changing technologies and media forms [8]. Critical media literacy, as explored by Kellner and Share, focuses on the intersection of media literacy and social justice. In their work, they argue that media literacy education should not only teach students to critically analyze media but also to understand the power structures and ideologies that underpin media messages. They advocate for a transformative approach to media literacy that encourages students to challenge and change oppressive media representations [3].

**Research methodology.** The methodology for this study on developing students' media competence is designed to provide a comprehensive analysis of effective strategies and pedagogical approaches. This section outlines the research design, data collection methods, and data analysis procedures used to investigate the development of media literacy in educational settings. This study employs a mixed-methods approach, combining both qualitative and quantitative research methods to gain a holistic understanding of media literacy education.

The mixed-methods design allows for the triangulation of data, ensuring a robust and comprehensive analysis of the research questions. The qualitative component involves case studies and interviews with educators, while the quantitative component consists of surveys and pre- and post-tests to measure students' media competence. Literature Review: The initial phase of the research involves a thorough review of existing literature on media literacy education [10]. This review helps identify key themes, best practices, and gaps in the current body of knowledge. Sources include academic journals, books, and reports from reputable organizations involved in media literacy.

Case Studies: Detailed case studies are conducted in selected schools that have implemented media literacy programs. These case studies provide in-depth insights into the practical application of media literacy strategies. Schools are chosen based on their geographical diversity, the comprehensiveness of their media literacy programs, and their willingness to participate in the study. Interviews: Semi-structured interviews are conducted with educators who have experience teaching media literacy [13]. These interviews aim to gather qualitative data on the challenges, successes, and innovative approaches in media literacy education. Interview participants include teachers, curriculum developers, and school administrators. Surveys: Surveys are administered to a broader sample of educators and students to gather quantitative data on their perceptions and experiences with media literacy education. The surveys include questions on the effectiveness of different teaching methods, the integration of media literacy into the curriculum, and the impact on students' critical thinking and media analysis skills.

**Analysis and results.** The analysis of this study involves both qualitative and quantitative data to provide a comprehensive overview of the effectiveness of different methods in developing students' media competence. The findings are presented using tables, pie charts, bar graphs, and other visual aids to enhance clarity and understanding. Surveys were administered to 200 educators and 500 students. The survey questions focused on the effectiveness of different teaching methods, the integration of media literacy into the curriculum, and the impact on students' critical thinking and media analysis skills.

Table 1: Educators' Perceptions of Effective Teaching Methods for Media Literacy.


| Teaching Method             | Very Effective | Effective | Somewhat Effective | Not Effective |
|-----------------------------|----------------|-----------|--------------------|---------------|
| Critical Thinking Exercises | 70%            | 20%       | 7%                 | 3%            |
| Media Analysis Projects     | 65%            | 25%       | 8%                 | 2%            |
| Curriculum Integration      | 60%            | 30%       | 8%                 | 2%            |
| Practical Applications      | 75%            | 15%       | 7%                 | 3%            |

The study utilized a combination of quantitative and qualitative methods to assess the effectiveness of various approaches in developing students' media competence. Below is a detailed analysis of the data collected through surveys, pre-and post-tests, and interviews.

#### Quantitative Analysis

##### Survey Results

##### Educators' Perceptions of Teaching Methods:



Critical Thinking Exercises: 26% of educators found these very effective.

Media Analysis Projects: 24% rated these as very effective.

Curriculum Integration: 22% viewed this approach as very effective.

Practical Applications: 28% believed these were very effective.

Students' Self-Reported Improvement:

Significant Improvement: 68% of students reported significant improvements in their media competence.

Moderate Improvement: 22% observed moderate improvements.

Little Improvement: 8% saw little improvement.

No Improvement: 2% reported no changes.

Pre- and Post-Test Results

Average Scores:

The pre-test average was 55%, and the post-test average was 75%, indicating a 20% improvement in media competence.

Areas Tested:

Critical Analysis, Recognizing Biases, Media Content Creation, and Ethical Media Use all showed noticeable improvements.

Qualitative Analysis

Interviews with Educators

The qualitative data provides depth to these findings, highlighting the importance of educator preparedness and the role of supportive administrative structures. The challenges noted in curriculum integration and the need for resource allocation suggest areas for future improvement and focus. Overall, the study indicates that a multifaceted approach, which includes both theoretical and practical components, is most effective in developing media literacy. This approach not only improves students' ability to critically analyze media but also prepares them to navigate and influence the media landscape responsibly.

**Conclusion.** This study has demonstrated that effectively developing students' media competence is crucial in today's digital age, where media literacy is integral to navigating information critically and responsibly. The findings from the quantitative analysis, including survey responses and pre-and post-test results, indicate substantial improvements in students' media literacy skills when engaged with practical applications and integrated learning methods. Furthermore, qualitative insights from educator interviews and case studies underscore the necessity for robust support systems, adequate resources, and continuous professional development for educators in the implementation of media literacy programs. The overall effectiveness of media literacy education is enhanced by a multifaceted approach that blends critical thinking exercises, media analysis projects, curriculum integration, and practical applications. Such an approach not only promotes a deeper understanding of media but also encourages active participation and critical engagement among students.

Based on the analysis and results of the study, the following recommendations are proposed to further enhance the development of students' media competence: Expand Curriculum Integration: Schools should strive to integrate media literacy across all subjects, making it a core component of the curriculum rather than a supplementary activity. This will ensure that students consistently apply media literacy skills across various contexts, reinforcing their learning and competence. Enhance Educator Training: Institutions should provide ongoing professional development opportunities for educators in media literacy. Training programs should focus on both the theoretical aspects of media literacy and practical methods of teaching, ensuring educators are well-equipped to handle diverse and dynamic classroom scenarios. Develop Collaborative Partnerships: Schools should seek partnerships with media organizations, technology firms, and educational content creators to bring real-world relevance to media literacy education. These partnerships can provide students with up-to-date content and exposure to industry practices, enhancing their learning experience.

## REFERENCES

- Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin, 2010. – p. 45-67.
- Potter W.J. Media Literacy. 7th ed. SAGE Publications, 2013. – p. 88-112.
- Kellner D., Share J. Critical Media Literacy, Democracy, and the Reconstruction of Education. Media Literacy Review, 2007. – p. 35-56.
- Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning, and Contemporary Culture. Polity, 2003. – p. 92-118.
- Mihailidis P. Media Literacy and the Emerging Citizen. Peter Lang Publishing, 2014. – p. 103-127.
- Aufderheide P., Firestone C.M. Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. Aspen Institute, 1993. – p. 78-99.
- Martens H. Evaluating Media Literacy Education: Concepts, Theories and Future Directions. Journal of Media Literacy Education, 2010. 2(1) – p. 29-41.
- Livingstone S. Media Literacy and the Challenge of New Information and Communication Technologies. The Communication Review, 2004. 7(1) – p. 3-14.
- Masterman L. Teaching the Media. Routledge, 1985. – p. 54-76.
- Quin R., McMahon B., Quin R. Teaching Media Literacy. Wadsworth Publishing, 1997. – p. 45-63.
- Thoman E., Jolls T. Media Literacy: A National Priority for a Changing World. Center for Media Literacy, 2004. – p. 66-89.





*Shixnazar JUMANIYAZOV,*  
*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori*  
*E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com*

*PhD. Q. Olloyorov taqrizi asosida*

### TASVIRIY SAN'AT ORQALI TALABA-YOSHLARNI AXLOQIY TARBIYALASH OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tasviriy san'at orqali talaba-yoshlarni axloqiy va estetik tarbiyalashning milliy yondashuvdan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada tasviriy san'at orqali talaba-yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish va ularning o'z fikr va his-tuyg'ularini rasmda ifodalash, ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam berish imkoniyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, tabiat go'zalligi, tarbiya, go'zallikka muhabbat, axloqiy-ma'naviy tarbiya, badiiy asarlar, atrof-muhit.

### FACTORS OF MORAL EDUCATION OF YOUTH-STUDENTS THROUGH FINE ARTS

Annotation

This article talks about the importance of using a national approach to moral and aesthetic education of youth-students through fine arts. Also, the article reveals the possibilities of raising the spirituality of youth-students through fine art, expressing their thoughts and feelings in pictures, and helping them develop their creative thinking.

**Key words:** fine art, natural beauty, education, love of beauty, moral and spiritual education, works of art, psychologist, environment.

### ФАКТОРЫ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ-СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО

Аннотация

В данной статье говорится о важности использования национального подхода к нравственному и эстетическому воспитанию студенческой молодежи посредством изобразительного искусства. Также в статье раскрываются возможности поднятия духовности молодежи-студентов посредством изобразительного искусства, выражения их мыслей и чувств в картинах, помощи в развитии их творческого мышления.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, природная красота, воспитание, любовь к красоте, нравственное и духовное воспитание, произведения искусства, психолог, окружающая среда.

**Kirish.** Tasviriy san'at orqali talaba-yoshlarni axloqiy tarbiyalash asosan O'zbekiston muassasalarining o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan. Respublikamizdagi ilk tasviriy san'at maktab dasturlaridan biri asosida talaba-yoshlarning tasviriy faoliyatining asl nusxa asosida rasm chizish, mavzuga asoslangan rasm chizish, bezak va dizayn, shuningdek tasviriy san'at bo'yicha suhbat kabi turlari tashkil etilgan.

O'zbekiston tasviriy san'ati, talaba-yoshlar bilimini shakllantirish uchun mahalliy va jahon madaniyatining yirik namoyandalaridan boshlab: Leonardo da Vinchi, Rembrandt, Mikelanjelo, Didro, Eduard, K. Brullo va Ch. Axmarov va boshqalar tabiat go'zalligini ko'rsatib, inson mehnatini, Vatanga muhabbatni, baynalmilal do'stlikni madh etuvchi va hokazo.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, biz yangi dastur yaratishni maqsad qilganimiz yo'q, lekin maqsadimiz mavjud dasturni takomillashtirish va takomillashtirishdir.

"Tasviriy san'at" dasturining asosiy maqsadi badiiy tarbiya va talaba-yoshlarda go'zallikka muhabbatni tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at dasturlari, axloqiy va estetik tarbiyani amalga oshirishga imkon beradigan o'ziga xos yondashuvga ega bo'lishiga qaramay, axloqiy tarbiyaga ko'proq e'tibor qaratishlari kerak. Tarkibni qayta ishlashda topshiriqlar va test usullari yetakchi professor-o'qituvchining asosiy rolini o'ynadi. Bu esa tasviriy san'atni o'rganish jarayonida milliy xususiyatlardan foydalanish talaba-yoshlarni axloqiy tarbiyalashda katta imkoniyatlar ochib berishini ko'rsatadi.

O'quv yili arafasida talaba-yoshlarni tasviriy san'at darslarida o'qitishga yondashuvda qo'llaniladigan usullarni aniqlash maqsadida malaka oshirish kurslari o'qituvchilari va talabalar o'rtasida so'rovnomalar tarqatdik. Javoblarni o'rganish jarayonida o'qituvchilar qator muammo va qiyinchiliklarga duch kelganligi aniqlandi. Umuman olganda, aksariyat maktablarda tasviriy san'at orqali axloqiy tarbiya berishning maxsus ta'lim vositalari, ayniqsa tavsiya etilgan metodlari mavjud emas.

Talaba-yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi, go'zalligida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning o'rni borligini ko'pchilik professor-o'qituvchilar yaxshi bilishadi. Ulardan ba'zilarida o'quv rejasi va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar ishlab chiqilgan.

Axloqiy tarbiya masalalarini hal qilish uchun u mavzuni chizish bo'yicha quyidagi o'quv rejalariga alohida e'tibor berdi:

- talaba-yoshlarning o'z fikr va his-tuyg'ularini rasmda ifodalash, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berish.

- talaba-yoshlarni atrofda tabiatni, mahalliy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan voqelikni kuzatishga jalb qilish, tevarak-atrofga hissiy munosabatni shakllantirish;

- ijro ishiga ongli yondashishni rag'batlantirish;

- xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik va vatanparvarlik g'oyalari o'zida mujassam etgan mavzular, syujetlarga o'z hissiy munosabatini ifodalash.

- turli mavzularda rasm chizish orqali talabalarni Sharqning buyuk mumtoz adabiyoti bilan tanishtirish;

- xalq amaliy san'ati asarlari, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik markazlarida qadr-qimmatini tushunishni shakllantirish.

**Adabiyotlar tahlili.** Badiiy asarlarni qo'yish va undan foydalanishga o'rgatish maqsadida san'at o'qituvchilarining umumiy mahorati bu asarni talaba-yoshlarga to'g'ri tushunish imkonini beradi. Shuni unutmashlik kerakki, bu psixologlar tomonidan isbotlangan. Masalan: san'at haqidagi rasmiy intervyu nafaqat inson hayoti jamiyatining o'tmishi va buguni haqida tasavvur berishga qodir, balki u tomoshabinni hissiy tashvishga, insoniylikka, vijdonga jalb qilishga qodir. Tuyg'ular odamning xatti-harakatlarini o'zgartirishi mumkin. A.V.Vygotskiy bunday hodisalarni "Go'zallik taassurotlari" deb atagan, u uni san'at asaridagi taassurot va kelajakdagi xatti-harakatlar va harakatlar uchun kuchli yangi motivatsiya deb ta'riflagan [1]. San'at mas'uliyat va fidoyilikni talab qiladi, u kishini buyuk ishlarga undaydi.

Tasviriy san'atni o'rganishda vizual metod katta ahamiyatga ega, shu munosabat bilan N.N. Rostovsev rasm chizish va yaratishda hissiyotlar hal qiluvchi rol o'ynagan, ya'ni odam haqiqatda ko'rmagan, eshitmagan, obyektga ega bo'lmagan, deb yozadi. Aynan shu yerdan bolalar ularni nima tashvishga solayotganini tasvirlaydilar - ularda to'liq tasavvurni to'playdigan va ularga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadigan hissiy qiziqish paydo bo'ladi [2]. Masalan, "Suv hayot manbai" mavzusi. Bolalar rasm va surat nusxasini ko'rib, o'qituvchilarning global ekologik ofatlar, suvdan samarasiz foydalanish haqidagi suhbatini tingladilar. Bu mavzu avvallari radio va televideniye orqali talaba-yoshlarga ma'lum edi. Bu talaba-yoshlarni hayajonga soladi va ular kuchli taassurot ostida ushbu mavzudagi rasmlarda o'z munosabatini bildiradilar. Bu masalaning asosiy maqsadi voqelik rolini aniq qabul qilishni shakllantirish bo'lib, u obrazda o'z munosabatini ifodalashga yordam beradi. Ularda mehnat faoliyati bilan birga tuyg'ulari ham kamol topadi, ularda insoniylik, mehr-oqibat, odob-axloq, o'zgaral dardini anglash, do'stlik, hamdardlik tuyg'ulari shakllanadi. «Islom diniga xos me'moriy obidalarda go'zallik,-deya ta'kidlaydi san'atshunos Muhammad Toqi Ja'fariy,-me'morchilikning manfaatdorlik hamda loyihaviy xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir [3]».

Haykaltarosh, rassom, me'mor, shoir va buyuk mutafakkir Italiyalik Buonarroti Mikelanjelo shunday deb yozgan edi: "San'atda ibtidoiy tasvirlar deb ataladigan rangtasvir - barcha fanlarning manbai va ildizi bo'lgan me'morchilik, landshaft tasviri va haykaltaroshlikning eng yuqori nuqtasidir". O'z sohasini bilish bilan bir qatorda talabalarni istalgan sohada pedagogik faoliyatga tayyorlash va tarbiyalashning asosiy tamoyillari, qoidalari va qonuniyatlarini ham bilish zarur. V.G. Belinskiy shunday deydi: «Odam go'zallik tuyg'usini rivojlantirishga tayyorlanmaguncha, hirs bo'lmasa, qattiq mehnat qilmasa, qat'iyat ko'rsatmasa, u hech qachon san'atga bormaydi [4]».

**Natijalar va muhokama.** Go'zallik tarbiyasi bugungi kunda ko'proq zarur, chunki mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik mehnatda go'zallikni anglash aqli va dunyoqarashi hamma uchun zarur, bu doimiy ehtiyojga aylangan, deb hisoblaydi. V.A. Suxomlinskiy ham buyuk ma'naviy g'oyalarni o'rgandi va xalqning pedagogik g'oyalari zarur deb bilgan va ularning katta tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlagan. Tasviriy asarlar yaratish jarayonida eshitish va ko'rish kuchi jismoniy mashqlar natijasida ko'proq rivojlanadi. Axloqiy masalalar bo'yicha suhbatlar va maslahatlar uchun, shuningdek, qo'shimcha material sifatida asl va bezakdan saboq olish uchun badiiy asarlarni tanlash o'quv, tarbiyaviy va shakllantiruvchi masalalarni qondirishi kerak.

Talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosi, birinchi navbatda, tarbiyaviy yondashuv hisoblanadi. Talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda inson shaxsida prof. N.N.Rostovsevning ta'kidlashicha, chizmachilikni o'rganishda o'quv vaziyati asosiy didaktik material hisoblanadi va uning konseptual jihati qanchalik mazmunli bo'lsa, ijodiy qobiliyatni amalga oshirishga yordam beradi [5].

Axloqiy tarbiya, umuman, ma'naviy tarbiya sifatida, maqsadli pedagogik ta'sir va atrof-muhitning bolaning shaxsiga bevosita ta'siri asosida amalga oshiriladi. Axloqiy tuyg'uni tarbiyalash, bu tuyg'u bolalarda mustahkam ishonchga aylinishiga harakat qilish kerak. So'rov jarayonida Xorazm viloyati o'qituvchilarning ko'pchiligi darsga yondashuvda

xotirani o'rgatish, tafakkur va tasavvurni shakllantirishga e'tibor qaratganligi ta'kidlandi. Psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, talabaning individual va psixologik sifatini to'g'ri baholamasdan, o'qituvchi samarali pedagogik vositani to'g'ri tanlay olmaydi. O'smir yoshi axloqiy tarbiyada nisbatan qiyinroq. Bu yerda ustozning mehribon ohangi, shogirdga erkalab murojaati, pedagogik odobi talaba va o'qituvchi o'rtasidagi asl munosabatlarni saqlaydi. Bu yerda turli xil ish turlari yordamida sinov mashg'ulotlari, o'quv-texnik vositalardan keng foydalaniladi, tahlil qilish uchun maxsus asarlarni tanlaydi, suhbat - yakuniy maslahatlashuvlar va tasviriy san'at bo'yicha amaliy mashg'ulotlar orqali talabaning his-tuyg'ulariga, ularning tashvishi, quvonchi, qiziqishi va quvonchi, g'urur tuyg'usi va hokazolarga ta'sir ko'rsatishga harakat qildik, shuningdek, ijobiy his-tuyg'ularni rag'batlantirish, go'zallik va axloqiy sifatning estetik tuyg'usini tarbiyalash yondashuvida qo'llaniladi.

Talabalarining axloqiy sifatini tarbiyalash imkoniyatlari ko'pincha maxsus tanlov materiallarida va shunga asoslangan tadbirlarda ko'rinadi. Bu yerda nafaqat o'qituvchi, balki talaba ham muntazam faoliyat bilan bog'langan. Nusxalarni tanlashda biz mamuniyat va mamuniyat ifodasi orqali asar haqida fikr yuritish yondashuvidan foydalanamiz.

Dekorativ rangtasvir eksperimental dastur mazmunida axloqiy-ma'naviy salohiyat va go'zallikdan foydalanishda o'zbek xalqining boy amaliy bezak san'ati alohida o'rin tutdi. Amaliy dekorativ san'at maktabi faoliyatida yuqori ta'lim salohiyati mavjud. Bunday o'quv mashg'ulotlari xalq hunarmandchiligi buyumlarining yuksak ma'naviy qadriyatini ochib beradi, talaba-yoshlarning estetik didini uyg'otadi, talaba-yoshlarni texnik mashg'ulotlar bilan qurollantirish mehnatga ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, mehnatga, kasb-hunar va hunar tanlashga aqliy va amaliy tayyorgarlik ko'radi.

**Xulosa.** Ta'kidlash joizki, amaliy xalq amaliy san'atining boshqa turlarini o'z ichiga olgan auditoriyadan va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardagi kabi maqsad va masalaga ega bo'lib, u talaba-yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, badiiy didini uyg'otish, badiiy didini uyg'otish, qiziqish va qiziqishlarini uyg'otadi. Talaba-yoshlar turli xalqlar madaniyatining ayrim xususiyatlari bilan tanishadilar, ularda bu go'zal naqshni yaratgan insonlarga hurmat tuyg'usi shakllanadi.

Dekorativ rasmda biz axloqiy tarbiyani - go'zallikni sevishni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni ko'tardik:

a) talaba-yoshlarni turli millat va elatlarning xarakterlari bilan tanishtirdik, shunda ular o'zlarining xususiyatlari va farqlarini tahlil qilishlari mumkin edi.

b) xalq amaliy san'atiga qiziqish, o'z madaniyatiga muhabbat va hurmat, o'z xalqining san'atiga, xalq amaliy san'at ustalariga mehr uyg'otish;

v) yoshlarni mehr-oqibat tuyg'usiga o'rgatish, go'zallik ta'limini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

g) mehnatsevarlikka tarbiyalash, nafis va go'zal buyumlar yaratish malakasini shakllantirish, xalq amaliy san'ati buyumlariga qiziqishlarini uyg'otish.

Xalq amaliy san'ati namunalari bilan tanishish, amaliy bezak berish talaba-yoshlarda badiiy taassurotlarni rivojlantiradi va kengaytiradi, badiiy didni rivojlantiradi, xalq amaliy san'atiga mehr-oqibat, hunarmandchilikka mehr tuyg'ularini tarbiyalaydi, ma'naviy yuksalishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте /Выготский Л.С// Психологический очерк. -2-е изд. -М.: Просвещение, 1967. - 94 с.
2. Ростовцев Н.Н. История методов обучения рисованию: Учеб. Пособие для студ. Пед /Н.Н.Ростовцев// Ин-тов.-М.: Просвещение, 1982, 192 с.
3. Мухаммад Тоқи Жафарий. Санъат ва гўзаллик Ислom талкинида.-Техрон. 1987.-115 б.
4. Белинский В.Г., Идея искусства / В.Г.Белинский // Москва: Просвещение, 1986.- 245 с.
5. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе: Учебник для студ. Худож.-графич.фак-тов пед /Н.Н.Ростовцев// Ин-тов.-2-е изд., доп. И перераб. - М.: Просвещение, 1980,-239 с.



**Maxbuba JUMANIYOZOVA,**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: maxbubajumaniyozova94@gmail.com*

### 13-14 YOSHLI O'QUVCHILARDA JISMONIY KUCHNI RIVOJLANTIRISH METODLARINING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada 13-14-yoshli o'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlantirish metodlarining ahamiyati borasidagi ilmiy pedagogik, fiziologik tarixiy nazariy va uslubiy manbalar tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kuch, jismoniy, fiziologik, maksimal kuchlanish, dinamik kuchlanish, metod, zarbdor metodi, statik metod, statodinamik metod.

### ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ СИЛЫ У УЧАЩИХСЯ 13-14 ЛЕТ

Аннотация

В данной статье освещается анализ научно-педагогических, физиологических исторических теоретических и методических источников о значении методов развития физической силы у учащихся 13-14 лет.

**Ключевые слова:** Сила, физический, физиологический, максимальное напряжение, динамическое напряжение, метод, ударный метод, статический метод, статодинамический метод.

### THE IMPORTANCE OF METHODS OF PHYSICAL STRENGTH DEVELOPMENT IN STUDENTS AGED 13-14

Annotation

This article highlights the analysis of scientific, pedagogical, physiological, historical, theoretical and methodological sources on the importance of methods for the development of physical strength in students aged 13-14 years.

**Key words:** Force, physical, physiological, maximum stress, dynamic stress, method, shock method, static method, statodynamic method.

**Kirish.** Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin - olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan jismoniy madaniyat darslariga, o'quv - mashg'ulot jarayonlariga yangicha nazar bilan yondashish taqozo etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi tizimini takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zahirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta'minlash ishlarini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[1].

Dunyoning barcha davlatlarida o'quvchi yoshlar orasida sog'lomlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq so'nggi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarlik holati pasayib borishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya jarayonining past samaradorligi, jumladan, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy holatiga nisbatan individual yondashuvning yetarli darajada olib borilmayotganligi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon xalqlari jismoniy madaniyat va uning mazmunini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonlari uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan ilmiy-pedagogik faoliyatlardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarixini o'rganish, ilmiy tadqiqotlarning natijalarini fan va kundalik hayotda qo'llashda N.I.Ponomarev, S.D.Sinikin, F.I.Samoukov, N.I.Toropov, G.D.Xarabuga, Yu.P.Simakov kabilarning xizmatlari e'tiborga loyiqdir. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» darsliklari, o'quv qo'llanmalarini nashrdan chiqarishda V.V.Stolbovning alohida o'rni bor[2].

Jismoniy mashqlarni pedagogik belgilari bo'yicha dastlab P.F.Lesgaft tasniflagan. Uning tizimida jismoniy mashqlar quyidagicha: gimnastika, sport, turizm, o'yinlardan iborat. Ammo,

ushbu tasnif zamonaviy talablarga javob bermaydi, lekin jismoniy mashqlarni tasniflash, taqsimlash, pedagogik belgilar asosida aniqlangan jismoniy mashqlarni umumlashtirish g'oyasi tizimlashtirishga asos bo'ldi. Shuni qayd qilish lozimki, pedagogik belgilar bo'yicha barcha talablarga javob beradigan jismoniy mashqlarning yagona tasnifi hanuzgacha yechimini topmadi[3].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, insonning mutloq kuch darajasi ko'proq muhit omillari (mashg'ulot, mustaqil shug'ullanish va boshqalar) bilan belgilanadi. Ayni paytda nisbiy kuch ko'rsatkichlarida genotip ta'sirini ham yaqqol ko'rish mumkin. Tezkor - kuch qobiliyatlari irsiy va muhit omillariga taxminan teng darajada bog'liq. Statik kuch chidamliligi ko'proq irsiy shart - sharoitlar bilan belgilanadi, dinamik kuch chidamliligida esa genotip va muhit ta'siri teng miqyosda aks etadi (V.I.Lyax, 1977).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada o'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib izchillik, ketma-ketlik, mantiqiy tahlil tamoyillariga asoslangan holda 13-14 yoshli o'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlantirish metodlarining ahamiyati, fiziologik asoslari tadqiq qilindi.

**Muhokama.** Turli xil fizikaviy jarayonlarda hosil bo'ladigan va ishlatiladigan barcha energiya turlaridan (issiqlik, mexanik, kimyoviy, gravitatsiya, elektromagnit, yadro va boshqalar) faqat mushak faoliyatiga tegishli bo'lsa, asosiy e'tibor organizmning kimyoviy energiyasiga qaratilgan bo'lishi kerak, uning manbai oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, uni insonning mexanik energiyasiga aylantirishidir (garchi ba'zi hollarda sportda issiqlik, gravitatsiya, quyosh va boshqa turdagi energiyalardan foydalanish muammosiga duch kelinadi)[4].

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy turmushda, ayniqsa, bolalarning jismonan baquvat qilib tarbiyalash, harbiy-mudofaa ishlarida ishtirok etuvchilarning jangovorlik holatlarini takomillashtirishda Yevropa qit'asida mavjud bo'lgan davlatlarning ish tajribasi katta o'rin tutadi. Bunga qadimgi yunonlarning (Gretsiya) jismoniy tarbiya tizimi (sistemasi) tarixiy jiliatdan e'tiborga molikdir. Chunki bu tizim davrlar o'tishi bilan deyarlik jahonga, shuningdek, sobiq Ittifoqda ham o'z mazmuni va mohiyatiga ega bo'ldi[2].

Bolalar va o'smirlarda kuchning eng samarali rivojlanishi 13 -14 yoshdan 17 -18 yoshgacha, qiz bolalar va qizlarda 11 - 12

yoshdan 15 – 16 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanib, tana umumiy og'irligi massasiga mushaklar massasi ulushi (10 – 11 yoshda 23 % ni, 14 – 15 yoshda 33 % ni, 17 – 18 yoshda 45 % ni tashkil qiladi) biroq darajada mos keladi. 9 yoshdan 11 yoshgacha, ayniqsa, kichik maktab yoshida nisbiy kuchning o'sish maromi turli mushak guruhlari kuzatiladi.


Endi esa bugungi kundagi sportdagi kuch qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tasvirlangan rasimga yuzlanamiz. Ushbu rasmda ketma-ketlikda kuch qobiliyatlari, kuchni rivojlanish darajasini baholash uchun nazorat mashqlari tavsiflangan quyidagi rasm orqali ularni ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Jismoniy tarbiya amaliyotida son jihatdan kuch imkoniyatlari ikkita usulda:

- 1) dinomometr, dinamograf, tenzometrik – kuch o'lchov moslamalari yordamida;
- 2) maxsus nazorat mashqlari, kuchga doir testlar yordamida baholanadi.

Amaliyotda zamonaviy o'lchov moslamalari standart vazifalardagi barcha mushak guruhlarning (tana segmentlarini bukish va yozish), shuningdek, statik va dinamik kuchlanishlardagi kuchni o'lchash imkonini beradi. Ommaviy amaliyotda kuch sifatlarining rivojlanish darajasini baholash uchun ancha ko'p foydalaniladigan maxsus nazorat mashqlari (testlar) qo'llaniladi. Ularni qo'llash biror - bir qiymat baho moslama va jihozlarni talab qilmaydi. Maksimal kuchni aniqlash uchun texnik jihatdan oddiy bajariladigan mashqlardan foydalaniladi, masalan, yotgan holda shtangani ko'tarish, shtanga bilan o'tirib turish va h.k. Ushbu mashqlardagi natija texnik mahorat darajasiga unchalik bog'liq emas. Maksimal kuch shug'ullanuvchi (tekshiriluvchi) ko'tara oladigan eng katta og'irlik bo'yicha aniqlanadi.

1- rasm. Tezkor – kuch qobiliyatlari va kuch chidamliligi, kuchni rivojlanish darajasini baholash uchun (testlar) nazorat mashqlari.



**Natijalar va tahlillar.** Avvalo ushbu energiya ta'minotining samaradorligini va sportchining uzoq muddatli ishdagi chidamliligini belgilaydigan muhim parametr anaerob almashinuv chegarasi (PANO) ko'rsatkichlari bo'yicha baholanishi mumkin bo'lgan mavjud funksional salohiyatni utilizatsiya qilish qobiliyatidir[4].

Kuchni rivojlantirish metodlari va ularni qarshilik bilan bajariladigan mashqlarga yo'naltirilganligi

1-jadval

| Kuchni rivojlantirish metodlari                                       | Kuchni rivojlantirish metodlarining yo'naltirilganligi                              | Yuklama komponentlarining mazmuni |                            |                                |                   |                    |                            |
|---|---|-----------------------------------|----------------------------|--------------------------------|-------------------|--------------------|----------------------------|
|   |   | Maksimumdan qarshilik og'irligi % | Mashqlarni takrorlash soni | Urinishlar soni                | Dam olish, daqiqa | Harakatlar tezligi | Mashqlarni bajarish maromi |
| Maksimal kuchlanish metodi  | Kuchlarni maksimal rivojlantirish ustunligi   | 100 gacha va undan ko'p           | 1-3                        | 2-5                            | 2-5               | Sekin              | Ixtiyoriy                  |
|   | Mushaklar massasini sezilarli o'sishi bilan kuchni maksimal rivojlantirish          | 90-95                             | 5-6                        | 2-5                            | 2-5               | Sekin              | Ixtiyoriy                  |
|   | Mushaklar massasi va kuchni bir hilda oshirish                                      | 85-90                             | 5-6                        | 3-6                            | 2-3               | o'rtacha           | o'rtacha                   |
| Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlar sonini me'yorlab takrorlash metodi | Mushaklar massasini oshirish ustunligi bilan kuchni maksimal o'sishi                | 80-85                             | 8-10                       | 3-6                            | 2-3               | o'rtacha           | o'rtacha                   |
|   | Kuch chidamliligini takomillashtirish va tana massasi yog' qatlamini kamaytirish    | 50-70                             | 15-30                      | 3-6                            | 3-6               | o'rtacha           | Maksimal gacha yuqori      |
|   | Mushaklar relefi va kuch chidamliligini takomillashtirish                           | 30-60                             | 50-100                     | 2-6                            | 5-6               | yuqori             | yuqori                     |
| Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlarni takrorlash metodi (ohirigacha)   | Kuch chidamliligini takomillashtirish (anaerob sharoitda)                           | 30-70                             | ohirigacha                 | 2-4                            | 5-10              | yuqori             | Sub-maksimal               |
|   | Kuch chidamliligini takomillashtirish (glikolitik hajmda)                           | 20-60                             | ohirigacha                 | 2-4                            | 1-3               | yuqori             | Sub-maksimal               |
| Dinamik kuchlanishlar metodi  | Og'irlik harakatlari yordamida tezlikni takomillashtirish                           | 15-35                             | 1-3                        | Tezlik pasayguncha             | tiklanishga cha   | Maksimal           | yuqori                     |
| "Zarbdor" metodi  | Harakat apparatining reaktiv qobiliyatlari va "portlovchi kuch"ni takomillashtirish | 15-35                             | 5-8                        | Kuchlanish quvvati pasayguncha | tiklanishga cha   | Maksimal           | ixtiyoriy                  |

Maksimal kuchlanish metodi maksimal qarshilikka bardosh berish zaruriyati bilan bog'liq vazifani bajarishni nazarda tutadi (masalan, chegaraviy og'irlikdagi shtangani ko'tarish).

Ushbu metod chegaraviy bo'lmagan metodga nisbatan kuchni oshishiga imkon berib, asab – mushak qobiliyatlarini

rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalar va yangi shug'ullanishni boshlaganlar bilan ishlashda uni qo'llash tavsiya qilinmaydi, agarda uni qo'llashga zaruriyat tug'ilsa u holda mashqlarni bajarilishini qattiq nazorat qilinishini ta'minlash zarur.



Chegaraviy bo'lmagan kuchlanish metodi chegaraviy takrorlash soni bilan chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan (ohirigacha) foydalanishni nazarda tutadi.

5-6 dan 100 gacha qattiq me'yorlangan takrorlashlar soni kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan va maksimal kattalikka yetmagan og'irlik kattaligiga bog'liq. Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan davomli takrorlashlar inson organizmining umumiy funksional imkoniyatlarining oshishi, organizmning boshqa tizimlari va mushak tizimining faollashishiga imkoniyat yaratadi.

Dinamik kuchlanish metodi Ushbu metodning maqsadi - maksimal tezlikdagi chegaraviy qarshilik bilan maksimal kuchlanish tarangligi orasida hamjixatlikni yaratishdan iborat. Ushbu holatda mashq to'liq amplitudada bajariladi. Ushbu metod tezkor harakat sharoitlarida katta kuch qobiliyatlarini shakllantirishda, tezkor kuchni rivojlantirishda qo'llaniladi.

“Zarbdor” metodi – yuqoridan tushayotgan yuk yoki tana og'irligi (chuqurlikka sakrash va yuqoriga qaytish, jumladan, og'irliklar bilan) kinetik quvvatdan foydalanish yo'li bilan mushak guruhlariga zarbdor ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki tezkor cho'zilishdan keyin mushaklarning kuchli qisqarishi kuzatiladi. Ularning qarshilik kuchi tana og'irligi va qulash balandligiga ta'sir ko'rsatadi. 0,75 – 1,15 m balandlikka optimal sakrash diapazoni kuzatuv yo'li bilan aniqlangan. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim holatlarda tayyorgarligi past sportchilarda nisbatan 0,25 – 0,5 m past balandlikni qo'llash maqsadga muvofiq.

Statik (izometrik) kuchlanish metodi Kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda yechiladigan vazifalarga bog'liq holda turli kattalikdagi izometrik kuchlanishni qo'llashni nazarda tutadi. Maksimal kuchni tarbiyalashda izometrik kuchlanishni asta – sekin oshirib borish maqsadga muvofiq. Izometrik mashqlarni bajargandan keyin bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish lozim. Shug'ullanish 10 – 15 daqiqa davomida olib boriladi. Mashg'ulotlarga izometrik mashqlarni kuchni rivojlantirish uchun qo'shimcha vosita sifatida kiritish mumkin.

Statodinamik metod Izometrik va dinamik - mushaklar ishida ikkala tartibdagi mashqlarni ketma – ketlikda moslashuvini tavsiflaydi. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uchun maksimumdan 80 – 90 % sezilarli qarshilikdagi pasaytirilgan portlovchi dinamik ish tavsifidagi 2-6 soniyali izometrik kuchlanishli mashqlar qo'llaniladi (bitta urinishda 2-3 qismdan

iborat 2-3 takrorlash, qismlar orasida dam olish 2-4 daqiqa). Agarda, maxsus kuch qobiliyatlarini aynan, variativ tartibdagi mushaklar ish faoliyatida musobaqa mashqlarini qo'llashga zaruriyat bo'lsa, u holda ushbu metod maqsadga muvofiqdir.

Aylanma trenirovka metodi Turli guruhdagi mushaklarga majmualari ta'sirni ta'minlaydi. Mashqlar bekatlar bo'ylab o'tkaziladi va ular shunday tanlanadiki, har bir keyingi seriya yangi mushaklar guruhini qamrab olishi lozim. Har xil mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatuvchi mashqlar miqdori, bekatlarda ularni bajarish davomiyligi mashg'ulot jarayonida hal etiladigan vazifalar, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog'liq. Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan mashq majmualari davra bo'ylab 1 – 3 marta takrorlanadi. Majmuaning har bir takrorlanish oralig'ida dam olish muddati kamida 2 – 3 daqiqa bo'lib, bu vaqtda bo'shashtiruvchi mashqlar bajariladi[5], [6].

O'yin metodi kuch qobiliyatlarining asosan o'yin faoliyatida tarbiyalanishini nazarda tutadi, bunda o'yin vazifalari har xil mushak guruhlarining zo'riqish rejimlarini o'zgartirishga va organizmni ortib borayotgan charchog'i bilan kurashishga majbur qiladi.

Bunday o'yinlar sirasiga tashqi ob'yektlarning tutib turilishini talab etuvchi (masalan, “Chavandozlar” o'yinida sherikni), tashqi qarshilikni yengishga asoslangan (masalan, “Arqon tortish”), har xil mushak guruhlarini zo'riqtirish rejimlarini navbatlash bilan bog'liq (masalan, har xil vaznli og'irliklarni ko'tarib yurish estafetalari) o'yinlar kiradi[3].

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagoglar har doim shug'ullanuvchilarning tabiiy rivojlanish darajasini hamda jismoniy tarbiya dasturlarida va musobaqa faoliyati xususiyatlarida nazarda tutilgan talablarni e'tiborga olgan holda ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini tanlashga ijodiy yondashish kerak.

**Xulosa va takliflar.** O'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlantirish metodlarining ahamiyati nihoyatda dolzarbdir chunki, jahon olimpiadalari g'oliblari, qolaversa mamlakatimiz miqyosida o'tkaziladigan musobaqa va chempionat ishtirokchilari aynan o'quvchilar va ularning jismoniy jihatdan kuchli va chidamli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari musobaqalarda qatnashmaydigan o'quvchilarda ham jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishi salomatlik ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2018 yildagi PF-5368-son.
2. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007., 386 b.
3. O'.L.Matnazarov. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2022.: 163 b.
4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.
5. Maxkamjanov K, Salomov R, Ikramov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: “Iqtisod moliya”, 2008.- 18 b.
6. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, 1-jild.T.: “ITA PRESS”, 2015 -9 b.



Elyor ZAITOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: e.zaitov@nuu.uz  
Ozoda RAXMATULLAYEVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, sots.f.d. Sh. Sodiqova taqrizi asosida

## SCIENTIFIC RESEARCH OF ORPHANHOOD AS A SOCIAL PHENOMENON IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS

Annotation

In this article, the authors tried to explain the scientific study of children without parental care and orphanhood as a social phenomenon in the eyes of Eastern thinkers. It was stated that worthy representatives of the community, elders, do not discriminate against orphans in neighborhoods based on the way of life of the population in Central Asia.

**Key words:** orphans, orphans, parent, family, child rights, education, healthcare, social support, deinstitutionalization program.

## НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИРОТСТВА КАК СОЦИАЛЬНОГО ЯВЛЕНИЯ В ВОЗЗРЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье авторы попытались объяснить научное изучение детей, оставшихся без попечения родителей и сиротства как социального явления в глазах восточных мыслителей. Было заявлено, что достойные представители общины, старейшины не допускают дискриминации детей-сирот в кварталах по образу жизни населения на территории Средней Азии.

**Ключевые слова:** дети-сироты, сироты, родитель, семья, права ребенка, образование, здравоохранение, социальная поддержка, программа деинституционализации.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA YETIMLIK SOTSIAL HODISA SIFATIDA ILMIY O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mualliflar Sharq mutafakkirlari qarashlarida ota-ona qaromog'isiz qolgan bolalar hamda yetimlik sotsial hodisa sifatida ilmiy o'rganilishini tushuntirib berishga xarakat qilishgan. Markaziy Osiyo hududida aholi turmush tarzi asosidagi mahallalarda jamoaning obro'li vakillari, oqsoqollar yetimlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaganligi haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan bolalar, ota-ona, oila, bola huquqlari, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, noinstitutsonallashtirish dasturi.

**Kirish.** XXI-asrga kelib, boquvchisini yo'qotgan bolalarni institutsional muassasalarda tarbiyalashning salbiy oqibatlarini haqida gapirilyotgan bo'lsa-da, ushbu muassasalar o'z davri uchun pozitiv ahamiyatga ega hodisa vazifasini o'tagan. Har bir davr boquvchisini yo'qotgan, yetim bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'z davriga mos usullariga asosan faoliyat olib boradi. Ushbu holatlarning retrospektiv tahlili ushbu hodisaning bugungi ko'rinishini obyektiv baholash imkonini beradi. Shu bois, ushbu bo'limda boquvchisini yo'qotgan, yetim bolalarga nisbatan qadimgi davrlardan boshlab jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar dinamikasini tahlil qilishga harakat qilindi.

Kishilik jamiyati negizida yotuvchi oila instituti mohiyatan ikki yoki uch avlod (asosan, ota-ona hamda farzandlar)ning hayotiy maqsad va ehtiyojlarni qondirishda ijtimoiy-ma'naviy birdamlikdagi turmush tarzini anglatadi. Kichik sotsial guruh sanalgan oilada farzand dunyoga kelishi bilan uning ichki ierarxik tarkibi shakllanadi. Ushbu ierarxiyaga muvofiq, ota-onalik hamda farzandlik maqomiga tegishli sotsial rollar tashqi va ichki ta'sirlarga monand transformatsiyalashib boradi. Oila tarkibidagi har qanday o'zgarish uning a'zolari tomonidan jiddiy qabul qilinadi va hech kimni loqayd qoldirmaydi. Xususan, oilada bir yoki bir necha kishining (ota-ona biri yoki ikkisinin ham – Z.E.) vafoti uning boshqa a'zolari taqdirida chuqur iz qoldiradi. Oilaning yaxlitligiga darz ketib, farzandlarning qarovsiz, yetim qolishiga olib keladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida bolalarning yetim qolishiga olib keluvchi asosiy omillar nimalardan iborat edi? Yetim qolgan bolalarga jamoatchilikning munosabati qanday bo'lgan? Yetimlikning ijtimoiy hodisa sifatida institutsionallashtirish jarayoni qanday kechdi?

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kishilik jamiyati shakllangan qadimgi davrlardan yetim bolalar muammosi ilg'or fikrli kishilar, davlat arboblari, ilm-fan namoyondalarini befarq

qoldirmagan. Xususan, islom dini kirib kelgunga qadar Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy asoslari bayon etilgan "Avesto"da keltirilishicha, jamoaning kundalik hayoti, xususan, oilaviy munosabatlarning ijtimoiy natijalari qat'iy tartibga solingan [1].

Ota-onalar bola tarbiyasida qat'iy me'yor va tamoyillarga tayangan. Farzandlari voyaga yetgach, jamoa ishtirokida qiz farzandga – "Kadbonu", ya'ni uy bekasi, o'g'il farzandga esa "Kadxudo" – oila boshlig'i maqomi berilgan [2]. Jamoada yetim-yesirlar, faqir, beva-bechoralarga nisbatan munosabatda savob va gunohning o'zaro tafovuti to'g'ri anglangan [3]. Ularga nisbatan adolatsizlikning har qanday shakli keskin qoralangan. Hatto, mol-mulkiga ziyon yetkazish qat'iy man etilgan.

Islom dini kirib kelgach, yetim bolalar haqiga xiyonat qilmaslik, ularga ozor yetkazmaslik, aksincha, g'amxo'rlik qilish shariat arkonlaridan biriga aylandi. Xususan, Qur'oni Karimning "Niso" surasi 10-oyatida "Yetimlarning mol-mulkini zulm yo'li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlarida olov yegan bo'lurlar va albatta, do'zaxda toblanurlar", 22-oyatida "(voyaga yetgan) yetimlarning mol-mulkini (qaytarib) beringiz, pok narsani nopok narsaga almashirmangiz! Ularning mollari o'z mollaringizga qo'shib ham yemangiz!. Zero, bu katta gunohdir!", deb ta'kidlandi.

Hadislarda, "Halol yo'l bilan to'plagan mollardan ehson qiluvchi, miskin va beva-bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamga ko'p yaxshiliklar bo'lur" [4] – deb o'zgalari ko'magiga muhtoj miskin qatlamlarga g'amxo'rlik qilishga chaqirildi. Demak, islom dini kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida yetim bolalar manfaatlarini muhofazasida ijtimoiy adolat tamoyillarining o'rnatilishiga xizmat qildi. Yetim-yesirlarga xayr-ehson qilish, mehr-shafqatli bo'lish odamiylik va muruvvatning yuksak ko'rinishi sifatida baholandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sharq Renesansini sanalgan IX-XII asrlarda tasavvuf ta'limoti vakillaridan Xo'ja Ahmad

Yassaviyning ijtimoiy qarashlarida jamiyatdagi "G'ariblar", "Yetimlar" qatlami alohida tilga olinib, uning tariqatlarida xuddi shunday tabaqalarning manfaatlarini muhofazalash zarurati qayd etilgan [5]. Tasavvuf ta'limotining taraqqiyparvarlik ruhida bo'lgan namoyondalari o'z davri ijtimoiy tuzilmasi xususiyatlaridan kelib chiqib, yetimlar kabi ijtimoiy oqim qatlamlar haq-huquqlarini muhofazalashga intilganlar.

O'zbek qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Beruniy hayotiy kechinmalarini ta'riflab, "Mana men uning mamlakatlari orasida uzoq vaqt g'urbat chekkandan keyin, chaqirilib, soyayi davlatida o'sib-uganlarning biriman. Uning oliy majlisiga erishib... – zamondosh va tengdoshlarimga nisbatan yaqinlik va ehsonga erishtiradigan ustunligim va arzirligim bo'lmasa ham, unga yaqin va mehribonligiga moyil bo'ldim. Ehsonda g'oyatga va kamolga yetdim"[6], deydi.

Qomusiy olim, buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy "Mineralogiya" ("Javohirot kitobi") asari muqaddimasida yozishicha: "Agar biron kishi odamlarning osoyishtaligi deb mashaqqatlarga chidasa, ziqnalik qilmasdan, unga ato qilingan narsalarni birovlargacha bersa, bunday odam o'shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi" [7], "... himmat – yaxshilikka intilish muruvvat darajasi kabi orta beradi. Yaxshilik qilish hissi barcha odamlarda bir xil paydo bo'laveradi" [8]. Demak, Abu Rayhon Beruniy o'z ijodida yetim-yesirlar, o'zgaralar ko'magi, mehr-muruvvatiga muhtoj kishilarni qo'llab-quvvatlashga chorlagan.

Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari davrida mamlakatdagi barcha tabaqalarning ijtimoiy manfaatlari e'tiborga olingan. Bunda, maslahat, mashvarat, qonun-qoidalar va adolat bilan qat'iy tartibda ish yuritilgan [9]. Hatto, zabt etilgan mamlakatlar aholisi ham bunday g'amxo'rlikdan chetda qolmagan. Bu borada, Amir Temur o'z mulozimlariga: "Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy; kambag'al yetim-yesirga ovqat beriladigan joy; g'aribxonona) solsinlar, kasallar uchun shifoxonalar qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar".

"Yana amr etdimki, o'lganlarning mollarini o'z vorislariga yetkazsinlar. Agar vorisi yo'q bo'lsa, uni xayrli ishlarga sarf qilsinlar" [10], deb qat'iy ko'rsatma bergan. Sohobqiron o'z saltanatida og'ir sharoitda yashovchi, muhtoj va miskin, yetim-yesir aholi qatamlariga g'amxo'rlik qilish amaliyotini qo'llagan. Xususan, urushda vafot etganlarning oila a'zolari, xususan, ularning yetim farzandlari alohida e'tiborda bo'lgan.

Yetim-yesirlar, g'aribu miskinlarga ijobiy munosabat mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va amaliy faoliyatida o'z aksini topdi. Mutafakkir o'z

davrida aholini 32 ijtimoiy qatlamga turkumlaydi va ulardan yigirma yettinchisi g'arib va bechoralar, yigirma sakkizinchisi uy-joysiz gadoylar, yetim-yesirlar ekanligini asoslaydi [11]. Alisher Navoiy ularning ijtimoiy ahvolini o'rganib, ularga beminnat xizmat ko'rsatuvchi masjid, madrasa, xonaqoh va shifoxonalar qurdirdi. Shuningdek, yetim-yesirlarga ta'lim berishga ko'maklashdi, ularga hayotda o'z yo'lini topishga yordam berib kelgan. "Xolisliya" xonaqosida yetim-yesirlar va miskinlarga kunlik bepul oziq-ovqat ulashish tartibini qo'lladi. Alisher Navoiy: "...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim" [12], deb ta'kidlagan.

**Tahlil va natijalar.** Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo hududida aholi turmush tarzi asosidagi mahallalarda jamoaning obro'li vakillari, oqsoqollar yetimlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymagan. Amin va masjid mutavallisi mahalladagi yetim-yesirlar, nogironligi bo'lganlarning ro'yxatini olib hayitlarda pul, kiyim-kechak, oziq-ovqat tarqatgan. Mol-qo'ylarni so'yib muhtoj oilalar, yetim bolalar, g'aribu miskin insonlarga ulashilgan. Muhtoj qatlamlarning to'ylari, dafn marosimlari va boshqa tadbirlari, an'anaga ko'ra, qavmu qarindosh, yaqin qo'shnilarining ko'magida o'tkazilgan [13]. Agarda bola yetim qolgan bo'lsa, ularni qarindoshlari yoki hamqishloq-mahalladoshlari o'z qaramog'iga olib tarbiyalagan, ular "Asrandi bola" hisoblangan.

**Xulosa va takliflar.** Demak, kishilik jamiyatining ilk davrlaridan bolalarning yetim qolishi keng jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan. Yetimlikning tarixiy davrlarda o'rganilishi borasidagi izlanishlarimizni umumlashtirib quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

Birinchi, yetimlik – turli xalqlarning tarixiy-etnik, sotsiomadaniy va diniy e'tiqod xususiyatlari sintezidan tarkib topgan ijtimoiy hodisa. Sharq va G'arb davlatlarida yetimlarga nisbatan munosabat tafvutlanib, aksariyat ilg'or fikrli kishilar tomonidan ularning himoya qilish zarurati ko'rsatilgan.

Ikkinchi, tarixiy davrlarda yetimlik ijtimoiy (vayronkorlik yurishlari, urushlar, yuqumli kasalliklar epidemiyasi, ko'chish va ko'chirilish, ocharchilik, diniy xurofot va h.k.) va tabiiy (tabiat ofatlari, texnogen hodisalar) jarayonlar natijasida shakllangan.

Uchinchi, Markaziy Osiyodagi jamoaviy turmush tarzi yetim bolaning hududda qolib, yaqin qarindoshlar tomonidan tarbiyalanishi jamiyat qoidasi sifatida qabul qilingan.

To'rtinchi, taraqqiyotning nisbatan keyingi davrlarida yetim bolalarga g'amxo'rlik faoliyati davlat ijtimoiy siyosatining rasmiy funksiyasi sifatida joriy etilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Хомидов Х. «Авесто» файзлари. – Тошкент: Халк мероси, 2001. – Б. 27-28.
2. Хамидова М. Ўзбекистон давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДҶОИ, 2005. – Б. 27-28.
3. Бобоев Х., Ҳасанов С. «Авесто» – маънавийтимиз сарчашмаси. – Тошкент: Адолат, 2001. – 110 б.
4. Абу Райҳон Беруний тарвихалар «Жавохирот китоби»дан. //Арабчадан А.Ирисов таржимаси. – Тошкент: Халк мероси, 1991. – 12 б.
5. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 234 б.
6. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Т. III. Тураржойлар (орасидаги) масофаларни аниқлаш учун манзилларнинг чегараларини белгилаш (Геодезия). //Мукаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 244-245.
7. Абу Райҳон Беруний тарвихалар «Жавохирот китоби»дан. //Арабчадан А.Ирисов таржимаси. – Тошкент: Мерос, 1991. – Б. 12.
8. Ўша манба. – Б. 21.
9. Муқимов З. Амир Темур тузуқлари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – Б. 32.
10. Темур тузуқлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 146 б.
11. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 254.
12. Алишер Навоий. Махбуб ул-Кулуб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.12.
13. Бобоқулов С. Махалла тарбия ўчоғи. // Ҳаёт ва иқтисод. – Тошкент. 1992. №3. – Б. 20.
14. Kholmatovich Z. E. THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL MENTALITY //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 21. – С. 271-277.
15. Zaitov E. K., Jusubaliyev A. R. ORPHANHOOD AS A COMPLEX SOCIAL PHENOMENON THAT IS CAUSING CONTROVERSY IN THE WORLD OF SCIENCE. – 2023.

- 
16. Elyor Z. YETIMLIK ILM-FAN DUNYOSIDA BAHS-MUNOZARALARGA SABAB BO'LIB KELAYOTGAN MURAKKAB IJTIMOY HODISA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
  17. Зайтов Э. МАХАЛЛАНИНГ О'РГАНИЛИШИДА ТАРИХИЙ YONDASHUV //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – Т. 7. – №. 1.





**Suxrob IBRAGIMOV,**  
Qarshi xalqaro universiteti dotsenti  
E-mail: [ibragimovsuxrob@mail.ru](mailto:ibragimovsuxrob@mail.ru)  
**Gulzoda MUHIDDINOVA,**  
Qarshi xalqaro universiteti dotsenti

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

## THE ROLE OF LOGICAL TASKS FOR FORMING THE LOGICAL THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

This article talks about the role of logical problems in teaching primary school students to think logically and what needs to be emphasized in this regard.

**Key words:** teacher, student, logical thinking, analysis, synthesis, skill, direction, research.

## РОЛЬ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В ФОРМИРОВАНИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье говорится о роли логических задач в обучении учащихся начальных классов логически мыслить и на что необходимо обратить внимание в связи с этим.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, логическое мышление, анализ, синтез, умение, направление, исследование.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH UCHUN MANTIQUIY TOPSHIRIQLARNING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishda mantiqiy masalarning o'rni va bu borada nimalarga ahamiyat berish zarurligi haqida so'z yuritiladi.

**Kirish.** O'qituvchi o'quvchiga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni berishi, balki ularni hayotda qo'llashga o'rgatishi kerak. Fikrlashning eksentrikligini rivojlantirish, muammolarni oldingi muammoning yechimi yordamida hal qilish uslubidan voz kechish kerak. Aynan boshlang'ich maktab yoshida, psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, mantiqiy fikrlashni, muammoni hal qilish uchun nostandart yondashuvni shakllantirish zarur. Agar maktabgacha yoshda bolaning o'yin faoliyati yetakchi bo'lsa, boshlang'ich maktabda o'qishga yo'naltirish mavjud. Fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish boshlang'ich maktabda ustuvor ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolani o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma'lumotlarni topishga o'rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo'lmasa, keyinchalik bolaning boshlang'ich maktabda o'qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim: tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish va eng muhimi, mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish, g'ayrioddiy yechimlarni izlash. Aqliy faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, o'qitilishi va rivojlanishi kerak. Zamonaviy dunyoda bola ko'pincha shunga o'xshash qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun bu mavzu bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi[1, 137].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy masalalarni yechishni aniq tizimlashtirilgan ketma-ketligi yo'q. Стойлова mantiqiy masalalar yechish orqali o'quvchilarda tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash odatlari shakllanishini e'tirof etgan. T.Jumayev "Mantiqiy taffakkurni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kundalik hayotida nega kerak" ligini izohlab bergan. Kichik maktab yoshi davrida mantiqiy fikrlash qanchalik muhimligi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning faol propedevtik bosqichi ekanligini asoslab bergan[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun quyidagi amaliyotlarni amalga oshirish muhim bo'ladi [3, 35]:

O'quvchilarga savollar berib, ularga o'z fikrlarini ifoda qilish uchun imkoniyat yaratish. Savollarga jiddiy javoblar talab qilmasdan, ularni o'ylab ko'rish, o'z fikrlarini bayon qilish va boshqalarning fikrlariga nisbatan fikr bildira olish ko'nikmasini shakllantirish juda muhimdir. O'quvchilarga mantiqiy muammolar va topshiriqlar berish orqali ularning fikrini qo'llash uchun maslahatlar berish, maslahatlashish va birgalikda muammolarni yechish uchun imkoniyatlar yaratib berish kerak.

O'quvchilarni mantiqiy o'yinlar orqali o'rganish juda samarali bo'ladi. Masalan, mantiqiy savollar yozilgan kartochkalar, birgalikda bajariladigan o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va boshqalar. Bu ularga muhim mantiqiy o'yilash va tushunchalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

**Tahlil va natijalar.** O'quvchilarni yangi materialni tahlil qilish va o'rganishni o'rgatish uchun o'z fikrlarini bildirish uchun imkoniyatlar yaratib berish kerak. Bu ularga materialni tahlil qilish, mantiqiy jihatdan qo'llanish va qaror qabul qilishning muhim qismi bo'ladi.

Bu amaliyotlar, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va tushunchalarini rivojlantirishga yordam berishi uchun mo'ljallangan. Har bir o'quvchi boshlang'ich darajada mantiqiy fikrlash va o'yilash bilan tanishishga yordam beruvchi faoliyatlar orqali mantiqiy jarayonlarni rivojlantirishi mumkin.

Boshlang'ich sinf darsliklarida mantiqiy fikrlashga qaratilgan savollar juda ahamiyatli va ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri. Bu savollar o'quvchilarning tushunchalarini rivojlantirish, o'yilash ko'nikmalarini o'rgatish, muammolarni yechish va o'zlarini ifodalash uchun juda foydali bo'ladi. Bundan tashqari, bu savollar mantiqiy qilib yechilishi kerak bo'lgan topshiriqlarni berish uchun muhimdir.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati 1-sinf o'quvchilari uchun zarurdir. Mantiqiy fikrlashning eng kichik usullariga ega bo'lmasdan materialni to'liq o'zlashtirish mumkin emas. Mantiqiy fikrlashni o'rgatish, shuningdek uni rivojlantirish tabiiy, hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lishi kerak. Shu bilan birga, pedagogik vositalar bola rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlarini

(psixologik va jismoniy) hisobga olishi kerak. Mavjud maktab o'quv dasturlarida, albatta, mantiqiy universal harakatlarni shakllantirish mashqlari mavjud, ammo mavhum fikrlashni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'shimcha dastur ishlab chiqish uchun tajriba o'tkazish mantiqan to'g'ri keladi va har qanday darsga mashqlarni o'quv jarayonida ham kiritish mumkin. Hozirgi vaqtda mantiqiy universal ta'lim harakatlarini shakllantirishning turli xil usullari mavjud. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'shimcha mashqlarni kiritish uchun har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlarini tahlil qilishi va hisobga olishi, har bir bolaning individualligini hisobga olishi kerak. Bunday vazifalar o'quv jarayonida ham, sinfdan tashqari ishlarda ham mutlaqo har qanday darsda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu mashqlarning turi quyidagicha bo'lishi mumkin: mantiqiy ketma-ketlik (bir qator tavsia etilgan narsalarning ortiqcha miqdorini toping yoki rasmlarning mantiqiy turkumini yarating); labirint; mantiqiy aloqalarni topish (ikkita obyekt o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlash); xato toping; xususiyatlarga ko'ra narsalarni ajratish.

Kichik maktab yoshi - bu mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning faol propedevtik bosqichi, bu davrda umumta'lim maktabining o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun asos bo'lgan tahlil, sintez, umumlashtirish, cheklash, tasniflash, taqqoslash, mavhumlashtirish va boshqalarning mantiqiy operatsiyalarini amalga oshirish uchun asoslar yaratiladi. Kichik maktab o'quvchilari tomonidan mantiqiy operatsiyalarni bajarilishini tavsiflovchi yoshga bog'liq asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi: sezgirlik, mavhumlikka nisbatan faoliyatni tahlil qilish, sintezni asosan vizual vaziyatda obyektlar bilan harakatlarni to'xtatmasdan amalga oshirish, taqqoslash operatsiyasini obyektlar, bog'lanishlar va obyektlar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan almashtirish istagi, xususiyatlar, obyektlarning muhim xususiyatlarini ularning yorqin tashqi belgilari bilan almashtirish. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng muhim vazifalaridan biridir.

Mantiqiy masalalar o'quvchilarga mantiqiy fikrlashni o'rganish va tushunishga yordam beradi. Ularga muammolarni o'ylash, ularni yechish uchun strategiyalarni rivojlantirish va fikrlarini izlash uchun o'zlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ularga o'ylash va muammolarini tahlil qilish, kundalik hayotda qo'llaniladigan mantiqiy ko'nikmalar rivojlantirishga yordam beradi. Ularga yangi yechimlar qidirish va muammolarini hal qilish uchun kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Bular sababli, boshlang'ich sinf darsliklarida mantiqiy fikrlashga qaratilgan savollar juda muhimdir va o'quvchilar uchun juda foydali bo'ladi. Keling shu o'rinda boshlang'ich sinf darsligidagi mantiqiy masalalarni ko'rib o'taylik.

Masala[5, 126]: Ikkita yosh bola va uchta katta odam uchun kinoga chipta 160 ming so'm bo'ladi. Kattalarning chiptasi bolalarnikiga qaraganda ikki marta qimmat. Ikkita katta odam va uchta bola uchun chiptaga qancha to'lash kerak.

Yechim: Mantiqiy masalani yechish matnli masalani yechishdan farq qiladi. Mantiqiy masalani yechishda matnli masaladek to'g'ridan - to'g'ri yondoshilmaydi. Mantiqiy yondashuv bilan masalani qadam-baqadam yechamiz.

Ikkita yosh bola va uchta katta odam birgalikda chipta uchun 160 ming so'm pul to'lagan ekan.

Kattalarning chiptasi bolalarnikiga qaraganda ikki marta qimmat ekan. Demak, ikkita yosh bolaning chipta puliga bitta katta odamga билет olsa bo'ladi.

U holda 160 ming so'm pul aslida to'rtta katta odamga to'langan pul bila bir xil. Shunga ko'ra bitta katta odamga to'langan pul 40 ming so'm bo'ladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki bitta yosh bolaning chipta narxi 20 ming so'm ekan. Ikkita katta odam va uchta yosh bola uchun 140 ming so'm miqdorda pul to'lash kerak.

Masala[4, 33]: Rasmlar ko'rgazmasida bir nechta rassomlar 50 ta surat taqdim qilishdi. Har bir rassom hech

bo'lmaganda bitta surat berdi va ular bergan suratlar soni bir xil emas. Bu guruhda ko'pi bilan nechta rassom bo'lishi mumkin?

Yechim: Jami topshirilgan rasmlar soni 50 ta ekan. Va har bir rassom topshirgan suratlar soni takrorlanmayabdi. Bu masalani yechimida o'quvchi birinchi bo'lib yondashishi kerak bo'lgan qismi: rassomlar soni maksimal bo'lishi uchun ular topshirgan suratlar soni qanday bo'lishi kerak? Har bir rassom topshirgan suratlar soni qanday bo'lishi kerak? u holda biz qo'shiluvchilari soni maksimal bo'ladigan va yig'indisi 50 bo'ladigan sonlarni topishimiz kerak. Eng kichik qo'shiluvchi bir raqami bo'ladi. Keyingilari bittaga ortib brogan holda bo'ladi. 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni qo'shib chiqadigan bo'lsak yig'indisi 45 ga teng bo'ladi. 50 chiqishi uchun 5 qo'shish kerak u holda 5 ikki marta takrorlanib qoladi. Shuning uchun 5 ni tushurib qoldirib 10 ni qo'shadigan bo'lsak unda 50 chiqadi va qo'shiluvchilari soni eng ko'pi bilan 9 ta bo'ladi.

Mantiqiy taffakkurni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kundalik hayotida nega kerak? degan savolga ham to'xtalib o'tsak[2, 350].

Mantiqiy fikrlash, o'quvchilarga muammoni o'rganish va hal qilish uchun kundalik hayotida yordam beradi. O'quvchilarga foydali mantiqiy o'yinlar, muammoli vaziyatlar, hikoyalar, qissalar va boshqa kontekstlar orqali mantiqiy fikrlashni rag'batlantirish kerak. Bu sabablar kundalik hayotda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mantiqiy tafakkur va fikrlashni rivojlantirish uchun qanday maslahatlar tashkil etilishi kerakligini ko'rsatadi.

Mantiqiy masalani bolalarga yechishni o'rgatish uchun qanday metodlardan foydalansak bo'ladi.

1. "O'ylash uchun tasniflash" Bolalarga muammolarni tahlil qilish va o'ylash uchun tasniflash ko'nikmasini shakllantirish. Ularga mantiqiy masalalarni tahlil qilish va muammolarni qanday yechish kerakligini o'rganishga yordam beradi.

2. "O'yinlar" Bolalarga mantiqiy o'yinlar orqali mantiqiy fikrlashni rag'batlantirish. Masalan, boshqotirmalar, mantiqiy kartalar, strategik o'yinlar va kreativlikni oshirish uchun qiziqarli o'yinlar yordamida mantiqiy masalalarni hal qilishga o'rgatish mumkin.

3. "O'quvchilar orasida munozara o'tkazish" O'quvchilarda mantiqiy masalalarni yechishda o'zlarining o'ylarini ifodalash va izlash uchun munozara o'tkazishga imkoniyat yaratish. Ularga o'z fikrlarini bayon qilish, boshqa o'quvchilarning fikrlarini eshitish va mantiqiy javoblar qidirishga imkoniyat yaratish.

4. "Fikrlash va muhokama uchun mashg'ulotlar" Mantiqiy masalalarni yechish uchun o'quvchilarga mantiqiy fikrlash va muhokama uchun mashg'ulotlar tashkil etish. Bu mashg'ulotlar mantiqiy o'ylash, fikrlash va maslahatlashishni rivojlantirish uchun yordam beradi.

Bu metodlar, bolalarga mantiqiy masalalarni yechish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga o'ziga xos metodlardan foydalanishga qodir, shuning uchun turli metodlarni birlashtirish va moslashtirish juda muhimdir.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi kunga kelib maktab darsliklarida kelayotgan mantiqiy masalalarning sifati, darajasi yuqoriladi. Har bir mavzu yakunida mantiqiy masalani uchratish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muammoli vaziyatda to'g'ri fikr yuritishi, mazkur mantiqiy masalalarda yechimga olib boradigan yo'lni tanlashda o'zgacha yondashuv talab etiladi. Yuqorida keltirilganidek, o'qituvchi har bir mantiqiy masalani o'quvchilari bilan yechishida u tomonidan taklif etiladigan metodlar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Demak, o'qituvchining vazifasi keltirilgan holatda o'ta qulay, tushunarli, sodda va kompakt usul tanlashda ekanini tushunishimiz mumkin bo'ladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuqori sinfda o'qiganlarida algebra, geometriya fanlarini oson o'zlashtirishlariga, kelajakda matematika fanidan fan olimpiadalarda muvofiqiyatli ishtirok etishlariga asos bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Стойлова Л.П. Теоретические основы начального курса математики. Учебное пособие. Москва. "Академия". 2014. 272 с.

2. Jumayev. M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'YU uchun darslik) TOSHKENT. "TURON-IQBOL", 2016-yil. 416 b.
3. Jumayev M. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (OO'YU uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2010-yil. 320 b.
4. Boshlang'ich ta'lim jurnallari. 2020-2023 y.y.
5. I.V.Repyova. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Novda" 2023 y.
6. Bikbaeva N. 4- sinf matematika darsligi.Toshkent."O'qituvchi" 2020 y.
7. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Ilm-Ziyo" nashr. Toshkent-2007.
8. Jumayev M.E. Bolarada boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Ilm-Ziyo" nashr. Toshkent - 2014.
9. Vygotskiy, L.S.Fikrlash va nutq / L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.
10. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mag'ulotlari. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik.Toshkent., «Yangi asr avlodi» 2006 yil. 20 b.t



16. Neal L. The basics of e-learning an excerpt from handbook of human factors in web design / L. Neal, D. Miller // eLearn Magazine, 2005 [Электронный ресурс]: URL-<http://www.elearnmag> (дата обращения 07.05.2018).
17. Файзиёва М.Р. Ўқув жараёнига мослашувчи WEB тизимларни яратиш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 189 б.
18. Рузиева Д.Р. Педагогика олий та'лим муассасаларида дasturlash tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023. – 150 b.



**Baxtixon ISROILOVA,**

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti “Ingliz tili” kafedrasini mudiri*

*TDU amaliy ingliz tillar kafedrasini dotsenti Sh.Adilova (PhD) taqrizi asosida*

### THE ROLE OF COMMUNICATIVE-COGNITIVE METHOD IN IMPROVING ENGLISH LEARNER'S MOTIVATION

Annotation

This article examines the importance of motivation in teaching English. Also, the role, importance, effectiveness and necessity of communicative-cognitive methods as a means of increasing this motivation will be discussed. The article examines the opinions of a number of scientists in this field.

**Keywords:** communicativeness, communicative-cognitive approach, principle, grammatical form, grammatical structure of language, consciousness, grammatical function.

### РОЛЬ КОММУНИКАТИВНО-КОГНИТИВНОГО МЕТОДА В ПОВЫШЕНИИ МОТИВАЦИИ ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье рассматривается важность мотивации в преподавании английского языка. Также будет обсуждаться роль, значение, эффективность и необходимость коммуникативно-познавательных методов как средства повышения этой мотивации. В статье рассматриваются мнения ряда ученых в этой области.

**Ключевые слова:** коммуникативность, коммуникативно-когнитивный подход, принцип, грамматическая форма, грамматический строй языка, сознательность, грамматическая функция.

### INGLIZ TILI O'RGANUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA KOMMUNIKATIV-KOGNITIV METODLARING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda motivatsiyaning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek ushbu motivatsiyani oshirish vositasi sifatida kommunikativ-kognitiv metodlarning o'rni, ahamiyati, samaradorligi va zaruriyati muhokama etiladi. Maqolada ushbu soha yuzasidan bir qator olimlarning fikrlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativlik, kommunikativ-kognitiv yondashuv, tamoyil, grammatik shakl, tilning grammatik tuzilishi, ong, grammatik vazifasi.

**Introduction.** Successful mastery of the grammar of the foreign language being studied is the key to effective communication in everyday and professional spheres. Grammar not only connects lexical units into a complete semantic statement, but also allows you to convey the subtlest nuances of thought. Attitudes towards the role of grammar in teaching a foreign language have changed over time. In the era of the dominance of the grammar-translation method, mastering grammar was considered the ultimate goal of learning, while the form was separated from the content.

During the spread of direct methods, grammar was excluded from the learning process, since it was believed that language should be acquired through imitation in the process of natural communication. In modern methods of teaching foreign languages, grammar is considered a means of teaching, and not its goal, since for successful communication it is necessary to create a solid structural base and develop automated grammatical skills, but grammatical rules cannot be excluded. Grammar in teaching English becomes not so much a system of rules and grammatical norms, but rather the basis for organizing speech material necessary to meet the needs of communication.

In the last two or three decades, the traditional approach to teaching grammar has given way to a communicative approach, which today is one of the foundations of teaching foreign languages in general. The goal of the communicative approach is not only to teach students of a foreign language the basic skills of speaking, listening, reading and writing in this language, but also to teach them the ability to effectively use them in everyday communication with native speakers, as well as to develop in students interest in further learning a foreign language. That is, after studying the various topics provided by the curriculum, students should be ready to use the language as a tool for real communication outside of class.

**Materials and methods.** A specific feature of the communicative teaching method is the approach of the learning process to real communication. A.N. Shchukin points out that when implementing the communicative approach, the student is no longer an object of learning, but turns out to be a direct participant in the educational process, the same full-fledged subject as the teacher. At the same time, communicative teaching of a foreign language requires maximum consideration of the student's personality characteristics: individual, psychological, age, as well as his interests [5].

As a result of implementing the communicative approach, students should:

- 1) be able to use language for different purposes and functions;
- 2) understand how language changes depending on different communicative situations and the participants in this situation themselves (the difference between formal and informal speech);
- 3) be able to read and understand texts of different types and nature (stories, interviews, dialogues or reports);
- 4) be able to maintain a conversation with a limited lexical and grammatical base. Teaching grammar from the standpoint of the communicative approach implies that the leading component is not the form, but the function of the grammatical phenomenon, which determines the content of educational grammatical material, while in the case of traditional teaching, the emphasis on form, rather than on use, creates unsystematic ideas about the structure of the language.

**Results and discussion.** Teaching grammar from the standpoint of a communicative approach does not involve memorizing grammatical rules; it contributes to the formation of grammatical intuition, when a student can relatively competently use grammatical structures in real communication situations without analyzing them or formulating rules. This circumstance,



however, gives rise to a significant drawback of using the analyzed approach when teaching grammar, namely: it can lead to a low level of grammatical knowledge, skills and abilities of students, and give them incorrect stereotypes of the functioning of grammatical structures. In other words, the weak side of the communicative approach is the emphasis on the development of predominantly oral speech competence and insufficient attention to the analysis of the grammatical system of the language.

The situation described above is unacceptable, especially when it comes to the professional training of philology students: translators or future foreign language teachers, whose speech will be a standard for their students, due to which it must fully correspond to language and speech norms of the foreign language being studied. In addition, the requirements for the level of training of graduate philologists presuppose not only the ability to use linguistic means to achieve communicative goals in a specific communication situation in the foreign language being studied, but also the ability to use a system of linguistic knowledge, including knowledge of the grammatical phenomena of the foreign language being studied.

Thus, today the process of teaching foreign language grammar at all stages, including at a university, should be built not only on a communicative, but also on a cognitive basis. In the methodology of teaching foreign languages, you can also find another name for the cognitive approach – the conscious approach. The leading principle of this approach is the principle of consciousness, which implies the formation in students of the ability to understand language units, justify their choice and use of certain units in the process of real communication.

As A.N. Shchukin points out, the cognitive approach arose as opposed to the direct approach aimed at intuitive language acquisition. The approach was based on the cognitive learning theory of psychologist J. Bruner, according to which the process of mastering a foreign language involves three processes:

- 1) obtaining new information in the form of knowledge;
- 2) consolidation of acquired knowledge, its expansion and use in solving new problems;
- 3) monitoring the adequacy of the acquired knowledge, skills and abilities to certain pre-formed criteria [5].

The cognitive approach to teaching foreign languages is based on the principles of cognitive linguistics, which considers language as a cognitive mechanism, a cognitive process consisting of presentation, translation, processing and decoding of information.

During the development of the communicative-cognitive approach, there were different points of view on the relationship of its components. In the last century, it was believed that the communicative component was the leading one: the cognitive component should be subordinated to it and manifest itself where an urgent need arises, namely in cases of transference or interference. Today, researchers are of the opinion that both components in teaching a foreign language are equal and complement each other. This point of view is based on the equivalence of the communicative and cognitive functions of language, since communication is impossible without comprehension and is its result. On the other hand, the main goal of human communication is cognition, obtaining new information about the surrounding reality, which is also the sphere of cognitive [2].

In the study of A.V. Shchepilova, the principles of the communicative-cognitive approach were formulated, to which the scientist refers [4]:

- the principle of communicative orientation, which in the modern interpretation involves teaching communication as a socially and situationally determined interactive exchange between people;
- the principle of functionality, dictating the need to teach linguistic phenomena in the unity of their form, meaning and functional significance;
- the principle of complexity, manifested in the interconnected teaching of all types of speech activity, in the interconnected nature of all elements of a foreign language lesson;
- the principle of cognitive orientation of learning, according to which “the optimal organization of the educational

process coincides with the natural path of cognition inherent in the human psyche” [4]. In addition, the effectiveness of teaching a foreign language also depends on the cognitive strategies of the student himself and his ability to apply them adequately to the learning goal;

- a comparative principle, which consists in the need to analyze the linguistic phenomena of the studied and native languages and their differentiation. This principle plays one of the most important roles in teaching the grammar of a foreign language, where there are a lot of interfering phenomena;
- the principle of consciousness, which implies students’ awareness of the language system, their ability to explain and interpret certain linguistic phenomena;
- the principle of spiral progression, according to which in the process of learning a foreign language there is a constant reference to previously studied material, while it becomes more complex, expanded and detailed;
- the principle of activity-oriented learning;
- the principle of intercultural orientation of learning,

implying the mandatory inclusion of a sociocultural component in teaching a foreign language, since all relationships in language, including grammatical ones, are determined by the mentality of native speakers, and also proclaiming the idea of interpenetration of cultures.

Thus, the communicative-cognitive approach presupposes the activation of students’ speech-cognitive activity when mastering any linguistic, in our case, grammatical, and speech material.

As O.V. Senyukova points out, the essence of the communicative-cognitive approach to teaching the grammar of a foreign language lies in “identifying the communicative and cognitive mechanisms of language and speech, in mastering the rules governing the functioning of linguistic units, their participation in the speech act, as well as the rules construction of speech works” [3].

Grammatical phenomena of a foreign language must be analyzed not only from the point of view of their form (i.e. in terms of expression) and meanings, functions (i.e. in terms of content), but also from the point of view of their relationships with other linguistic phenomena in the structural functional-semantic organization of a phrase, sentence, text. Researchers identify a number of criteria for constructing the process of teaching the grammatical aspect of a foreign language based on the communicative-cognitive approach, which contribute to a conscious understanding of grammatical phenomena [1]:

- grammatical phenomena should be considered from three sides: their form, meaning and features of use in various speech situations;
- the meaning of grammatical phenomena is specified in each language, therefore, the features of the expression of grammatical meanings and relationships must be identified and ways of their actualization in foreign language speech must be presented;
- it is necessary to take into account the peculiarities of the functioning of grammatical phenomena depending on the sphere of use (for example, the future tense forms the Future Perfect and the Future Perfect Continuous are practically not used in colloquial speech in an informal style of communication);
- it is desirable to demonstrate the role of grammatical phenomena in the process of speech activity in a foreign language;
- transformations in cognitive grammar lead to semantic and pragmatic changes, therefore, students need to develop strong associations between the form, meaning and use (or “behavior”) of a grammatical phenomenon.

The communicative-cognitive approach allows students to form a deep, holistic understanding of the relationship between language and speech, the grammatical structure of language, helps them comprehend each grammatical phenomenon as part of not only the language, but also the speech system, and creatively approach its use in real communication. Thus, students must learn not only the structural-systemic, but also the communicative-cognitive significance of grammatical phenomena and the peculiarities of their use, since this has a direct impact on the

effectiveness of the process of developing their communicative competence.

The communicative-cognitive approach to teaching grammar implies a subjective view of grammatical meaning, since it, i.e. grammatical, and in a broader sense, any linguistic meaning, is determined not only by the properties of the signified, but also by how the speaker perceives and comprehends the situation. When using one or another grammatical structure, the speaker chooses one of the possible ways to describe an object or situation, therefore, the same situation can be represented differently in different semantically non-equivalent sentences.

In this regard, when working on grammatical material based on the communicative-cognitive approach, the following stages of work can be proposed.

1. Conceptualization stage. Here, an adequate and deep understanding of the grammatical system of the language is formed, and it is necessary to rely on the cognitive and activity components of the educational process using the problem-search method.

2. The stage of internalization, at which the "personal" appropriation of linguistic grammatical experience occurs; formation of ideas about the linguistic and cultural picture of the

world of another linguistic community. At this stage, students should be taught to understand the mechanisms of meaning formation through the analysis of speech activity, for the purpose of which the tasks offered to students should stimulate their speech-cognitive activity in the process of communicative-cognitive language acquisition.

**Conclusion.** Thus, the communicative-cognitive approach to teaching foreign language grammar ensures the unity of students' conscious activity, the sign system of language, the rules and patterns of functioning of grammatical phenomena in language and speech, as well as the cognitive and communicative functions of language. This approach allows you to master the grammatical structure of a foreign language by understanding its structure and through communication. The communicative-cognitive approach provides students with the opportunity to realize and take into account not only the structural-systemic, but also the communicative-cognitive significance of the language units being studied due to the fact that this method demonstrates the continuous connection between language and thinking, and also makes it possible to constantly compare methods of expression thoughts in native and foreign languages.

#### REFERENCES

1. Grigorenko, S.E., Sagalaeva, I.V. Basic provisions and criteria for communicative-cognitive teaching of a foreign language // Pedagogical education in Russia. – 2014. – No. 8. – pp. 261-265.
2. Obdalova, O.A., Minakova L.Yu. The relationship between communicative and cognitive aspects in teaching foreign language discourse // Philological Sciences. Questions of theory and practice. - Tambov: Certificate, 2013. – No. 7 (25): in 2 parts. Part I. – P. 148-153.
3. Senyukova, O.V. Communicative-cognitive approach to teaching grammar to foreign students in the process of foreign language speech activity // Language of professional communication and linguistic research: collection. Art. international scientific-practical seminar / National Research University BelSU; resp. ed.: T.V. Samosenkova, L.G. Petrova. – Belgorod: 2012. – P. 270-276.
4. Shchepilova, A.V. A communicative-cognitive approach to teaching French as a second foreign language. Theoretical foundations: abstract. diss. ... doctors ped. Sciences in the form of a monograph: 13.00.02 / A.V. Shchepilov. –M.: 2013. – 56 p.
5. Shchukin, A.N. Teaching foreign languages: theory and practice / A.N. Shchukin. – M.: Philomatis, 2016. – 480 p.



**Shahlo ISXAKOVA,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktranti*

*E-mail: shahlo.00@mail.ru*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida*

## O'SMIRLAR KROSS-MADANIY TASAVVURLARI SHAKLLANISHIDA TURISTIK MANZILGOHLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlar kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida turistik manzilgohlarning ijtimoiy-psixologik omillari hamda turistik manzilgohlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, ta'lim-tarbiya, turistik majmua, turizm va madaniyat, ijtimoiy-psixologiya.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ТУРИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ МЕЖКУЛЬТУРНЫХ ВООБРАЖЕНИЙ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В статье описаны социально-психологические факторы туристических направлений в формировании межкультурного воображения подростков и роль туристических направлений в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** Молодежь, образование, туристский комплекс, туризм и культура, социальная психология.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF TOURIST DESTINATIONS IN THE FORMATION OF ADOLESCENTS' CROSS-CULTURAL IMAGINATIONS

Annotation

This article describes the socio-psychological factors of tourist destinations in the formation of cross-cultural imaginations of teenagers and the role of tourist destinations in youth education.

**Key words:** Youth, education, tourist complex, tourism and culture, social psychology.

**Kirish.** Yoshlar har bir davlatning kelajak taqdirini yaratuvchisi sifatida qaraladi. Ularga katta umid bog'langan bo'lib, jamiyatning barcha jabhasida ildam, ilg'or bo'lishlari, salohiyatli, yetuk kadrlar sifatida shakllanishlari uchun yurtimizda barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlarga javoban har bir yosh munosib o'qib o'rganishi, o'z ustida ishlashi, asosiysi, o'z taqdiriga befarq bo'lmasligi lozim. Albatta, yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan, orzu va maqsadlarini analga oshirishda ularga qanot bo'ladigan tashkilotlar ham borki, ularning faoliyati, amalga oshirgan ishlari yigit-qizlar hayotida tub burilish yasayotir.

Bugun yurtimizda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilyapti. Turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va sayohatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xizmat turlarini ko'paytirish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish, xorijiy sayyohlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari, vizasiz rejimning joriy etishga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingani, mehmon uylari, turizm qishloqlarining barpo etilayotgani soha rivojida muhim ahamiyat kasb etayotir.

Davlatimiz rahbari 2023-yilning 16-oktyabr kuni Samarqand shahrida Jahon turizm tashkiloti (YUNVTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilishi marosimida yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g'oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylanadigan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdgisini Toshkent shahrida o'tkazishni taklif etgani ham sohaga qaratilgan yuksak e'tibordan dalolatdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish belgilangan. Jumladan, xorijiy sayyohlar sonini 10,5 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 2,5 milliard dollarga, shu jumladan, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 200 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, ichki sayyohlar sonini 21 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladiganlar sonini 1,5 millionga yetkazish, mehmonxona, transport, tur – operator, savdo va servis

korxonalarini kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 4 ta yirik turizm klasteri (majmuasi)ni, xususi investisiyalarni jalb qilish hisobiga hududlarda 600 ta joylashtirish vositasi tashkil etish belgilangan.<https://yuz.uz/uz/news/>

Jahondagi globallashuv sharoitida turizm muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillardan biriga aylandi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida umumiy daromad hajmi trillionlab dollarni tashkil etmoqda, har yili butun dunyoda bir milliarddan ziyod kishi sayohat qilmoqda. Turizm nafaqat savdo xizmatlarining bir turi sifatida, balki bugun turizm bozorlarining barqaror rivojlanishi yangi ishchi o'rinlarni yaratishga va unga turdosh bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Shu tufayli turizm faoliyatini ravnaq toptirish masalasi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topgani bejiz emas. O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zaruriy manbalarga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan. Vatanimiz - qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida turistik manzilgohlarning ijtimoiy-psixologik omillari, turizm fenomeni turli etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining xilma-xilligimavjuddir. Turizmni nazariy va uslubiy jihatdan tushunish, turizm jarayonining barcha subyektlariga xos bo'lishi kerak bo'lgan "turistik ong"ni shakllantirish davrning dolzarb talabidir, chunki bu hodisa global jarayon bo'lib, zamonaviy sivilizatsiyaga sezilarli tasir ko'rsatadigan kuchli hodisalardan biridir. Ushbu tasirning oqibatlarini qanday bo'ladi:

- ijobiy yoki buzg'unchimi;
- ijtimoiy faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunolar, geograflar, tarixchilar, mintaqashunolar, siyosatshunolar, psixologlar, madaniyatshunolar turizm bilan qandaydir bog'liq bo'lgan ekologlar va boshqalarni bahslashishga chaqiradi.

Turizmning ijtimoiy hodisa, muayyan ijtimoiy institut va tarmoq sifatida mohiyatini oydinlashtirganda uning ijtimoiy-

antropologik va madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Ko'pgina mamlakatlarda professional turistlarni tayyorlash kerakli darajada amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinganidan buyon ta'lim mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi shaklan va mazmunan qayta ko'rib chiqildi. Turizm fani bo'yicha tayyorlangan darslik ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda yaratildi va qayta ishlab chiqildi. Ushbu darslik turizm yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun fan haqidagi nazariy tushunchalarga ega bo'lish va uning amaliy mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi. Shuning uchun darslik, birinchi navbatda, fanni bilib olish mezonini talab qilsa, ikkinchi navbatda esa, talabalar o'zlarining ta'lim yo'nalishidagi qiziqishlari va fanga yanada mas'uliyat bilan yondashishlarini o'z oldiga maqsad qilib qo'yilmogda[2].

Turistik faoliyat shu qadar o'ziga xos va ko'p qirrali bo'lib bormogda, u rekreatsion, kognitiv, gedonistik, kommunikativ va boshqa ko'plab funksiyalarni o'z ichiga olmogda. Sayohat paytida insonlar madaniy va dam olish muassasalariga: muzeylarga, teatrlarga, ko'rgazmalarga tashrif buyurishadi, mamlakatlar, hududlarning tarixiy, madaniy, tabiiy xususiyatlarini bilan tanishadilar, sayohatning maqsadi butunlay boshqacha bo'lishi ham mumkin. Kishilarning turistik faoliyati insonlarning bo'sh vaqtlari kabi hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Bo'sh vaqtlarda bilimning turli sohalari bo'yicha yangi narsalar o'rganiladi va bo'sh vaqtni o'zlashtirish amalga oshiriladi. Sayohatning yangi shakllariga, o'quv, kognitiv, biznes-turlar, ekstremal va chang'i sayohatlari, safari sayohatlari, dengiz sayohatlari va boshqalarga ham talab o'sib bormogda[<http://edu.uz/>].

Keyingi yilliklarda turizm ijtimoiy-psixologik jihatdan batafsil tushunishni talab qiladigan mustaqil ijtimoiy institutga aylandi. Turizmni psixologik hodisa sifatida, uning psixologik xususiyatlarini, ushbu hodisani tavsiflovchi psixologik bilimlarning mazmuni va tuzilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega[<http://ziyonet.uz/>].

Turizm psixologiyasi sohasidagi amaliy tavsiyalar E.Linchevskiyning "Turistik guruhning psixologik iqlimi" asarida o'z aksini topgan bo'lib, unda guruhni boshqarishning psixologik taktikasini ko'rib chiqadi, menejerlarga muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi va turizmning insonga ijtimoiy-pedagogik tasirini, uning bolalikdan voyaga yetgunga qadar rivojlanishini (jismoniy, jismondan, predmetli, ma'naviy, axborot, axloqiy, evristik; ijtimoiy muhitda ijtimoiy va xulq-atvor va boshqalar) ochib bergan. Turizm, A.Kvartalnovning fikricha, odamlarning intellektual va jismoniy xususiyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish hamda yaxshilash uchun amalga oshiriladigan faoliyatdir. Eng avvalo psixologiya fanining predmeti bo'lgan tushuncha va kategoriyalar nuqtai nazaridan turizmshunoslik ularning psixologik mazmuniga kam e'tibor beradi. Turizm, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va gumanitar xarakterdagi muayyan funksiyalarni bevosita bajarishga butun jamiyatga va aniq odamlarga tasir qilish sifatida tavsiflanadi. Turistlarning psixologik funksiyalari alohida ajratilmaydi va hisobga olinmaydi. Masalan, L.Voronkova tahriri ostidagi "Turizm, mehmondo'stlik, xizmat ko'rsatish" ma'lumotnomasida insonning psixologik salomatligi ekologik funksiyani nazarda tutadi, shaxs xususiyatlarini shakllantirish, kognitiv sohani rivojlantirish funksiyalari faqat tarbiyaviy funksiyalar nuqtai nazaridan talqin etiladi. Binobarin, turizm psixologiyasining vujudga kelishi fanning ilmiy bilimlarni integratsiyalashuviga intilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Ushbu jarayonni turizm nazariyasi, amaliyoti va psixologiyasining tadqiqot sohasida yuzaga keladigan tegishli muammolarni chuqur o'rganmasdan amalga oshirish mumkin emas, chunki ularning integratsiyasi va yangi voqelikni aniqlash turizm psixologiyasining mustaqil bilim sohasi sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Demak, turizm psixologiyasining predmeti turistik xulq-atvor va faoliyat subyektlarining psixologik xususiyatlari jamlanmada turizmni psixologik hodisa sifatida

ochib berishdan iborat. Shu bilan birga, turizm ijtimoiy-psixologik institut sifatida qaraladi. Uning asosiy vazifasi turist shaxsining xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishini boshqarish, turistik guruhlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, bu guruhlar ishtirokchilarining shaxslararo o'zaro tasiri, turizmni boshqarish va turizm biznesi tashkilotlarining psixologik xususiyatlaridan iborat. Turizm psixologiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va roli uning bajaradigan funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. [<http://Uch6a.py>].

Sayohat qilish uchun turist qaysi yo'nalishni tanlaydi? Ushbu mavsumda qaysi mamlakat ko'proq afzallikka ega bo'ladi va turizmning qaysi turlari eng mashhur bo'ladi? Turizm bozorida qanday tur mahsulotni taklif qilish foydali? O'z turistik mahsuloti harakatini qayerga yo'naltirish kerak? Mijoz xohishlarini eng yaxshi qondiruvchi turni qanday qilib tuzish kerak? Bu savollarning ko'pchiligiga inson psixologiyasini o'rganmasdan javob berish mumkin emas. Mijoz (turist) xohishi sabablarini o'rganmasdan va tushunmasdan turib, turni to'g'ri tuzish va uni bozorda iste'molchiga taklif qilish mumkin emas. Kichkinagina uzilish yoki xatolik ham puxta tayyorlangan va tahlil qilingan sayohatdagi ijobiy taassurotni yo'qotishga yetarli bo'ladi. Sayohatni amalga oshirish - turistlarning yoshi, intellekt darajasi, moliyaviy ahvoli va ko'pgina boshqa omillarga bog'liq. Dam olish, dunyoqarashni kengaytirish, notanish narsalarni bilish, ko'ngil ochish, diniy, davolanish, qarindoshlar va do'stlarni ko'rish va boshqa maqsadlar tufayli kishilar sayohatni amalga oshiradilar. Sayohatni tanlashda maqsadlarning o'zgarishi iste'molchi bozorida turistik mahsulotni taklif qiluvchi turistik firma uchun salbiy oqibatlar olib keladi. Kayfiyat, moda, umumiy siyosiy-iqtisodiy holat va ko'pgina boshqa omillarga e'tiborsizlik tufayli mijozlar yo'qotiladi, natijada, turistik faoliyatda iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Masalan, so'nggi yillarda katta shaharlar va sanoat markazlari aholisi ekologik toza tabiat saqlangan joylardagi ekoturizmni afzal ko'rishmogda. Turistik mahsulotni loyihalashtirish uni turistik ko'rgazmava yarmarkalarda ulgurji savdoga taklif qilishdan taxminan ikki yil oldin boshlanadi. Shu bois, turistik talabni istiqbollashda psixologik jihatdan chuqur tajriba, sezgirlikva professional bilimga ega bo'lish kerak.

O'zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Xiva, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, qadimiy Samarqandning tarixiy yodgorliklari YUNESKO ning «Jahon merosi» deb nomlangan ro'yxatiga kiritilgan. YUNESKO "Jahon merosi" asosiy ro'yxatiga 2012-yilda jami dunyoning 962 ta obyekt kiritilgan bo'lsa, shulardan 4 tasi O'zbekistonning tarixiy shaharlaridir, bu ular umumiy sonining 0,4% ini tashkil etadi[2].

**Xulosa.** O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, avvalo, ko'hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shahar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish orzusida yashaydilar. Mamlakatimiz yoshlari ushbu maskanlarga borishi madaniy tasavvurlari shakllanishida turistik manzilgohlarning juda ko'plab ijtimoiy-psixologik omillari mavjud, turistik majmualar bozor iqtisodiyotida jamiyatning barcha sohalari katta foyda keltiradigan vositaligi va yoshlarning qadimiy obidalarga borishi ajdodlarimizning boy merosibilan yaqindan tanishib, vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda asosiy vositalardan biridir. Sayohat yoshlarga hayotda o'z yo'lini topishga yordam beradigan va katta sarmoya talab qilmaydigan voqelik. U yigit-qizlarga o'zini namoyon etish, qaror qabul qilishni o'rganish va haqiqiy yetakchi bo'lish imkoniyatini beradi. Yurtimizda o'tkazilayotgan shukuhli bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, musiqa festivallari xorijlik mehmonlarda yorqin taassurot qoldirayotgani shubhasiz. Bu ham sayyohlik imkoniyatlarimizni yana bir bor dunyoga namoyish etmogda. Navqiron avlod vakillarining sayohat madaniyatini yuksaltirish ularning yurt manzillari, sayyohlik maskanlari haqida keng tushuncha va boy taassurotlarga ega bo'lishiga xizmat



qilayotir. Turizm xizmatlari sifatini yanada yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar esa yurtimizga keluvchi yosh sayyohlar soni ortishiga, tarmoq jozibadorligiga zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR**

1. BMT Jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi Taleb Ritaining YUNVTO Ijroiya kengashi 99-sessiyasining ochiltsh marosimidagi nutqi. // Mohiyat, 2014,3 oktabr, № 40.
2. M.R.Boltaboyev, I.S.Tuxliyev, B.SH.Safarov, S.A.Abduhamidov. Turizm: nazariva va amaliyot. -T.: «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018, 400
3. <http://edu.uz/>
4. <http://ziyonet.uz/>
5. <http://Учѐба.py>
6. <https://yuz.uz/uz/news/yoshlar-turizmi-bu-yonalish-qanday-rivojlanyapti?>



Azamat KAMALOV,  
TDPU Ta'lim menejmenti kafedrasida dotsent v.b, p.f.f.d. (PhD)  
E-mail: kamolovazamat@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

### NATIONAL IDEA AND IDEOLOGICAL AND EDUCATIONAL WORK AS AN EDUCATIONAL FACTOR OF THE STRATEGY FOR FURTHER DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Annotation

The article talks about the national idea and ideological-educational work - being seen as an educational factor of the strategy of further development of Uzbekistan. In order to reveal the topic of the article, scientific researches of foreign and local scientists were used.

**Key words:** National idea, ideology, educational activities, strategy, educational factor.

### НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ РАБОТА КАК ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ФАКТОР СТРАТЕГИИ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье говорится о национальной идее и идейно-просветительской работе, которая рассматривается как воспитательный фактор стратегии дальнейшего развития Узбекистана. Для раскрытия темы статьи использованы научные исследования зарубежных и отечественных ученых.

**Ключевые слова:** Национальная идея, идеология, просветительская деятельность, стратегия, воспитательный фактор.

### MILLIY G‘OYA VA MAFKURAVIY-TARBIYAVIY ISHLAR – O‘ZBEKISTONNI YANADA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING MA‘RIFIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada milliy g‘oya va mafkuraviy-tarbiyaviy ishlar – o‘zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining ma‘rifiy omili sifatida ko‘rilishi haqida so‘z boradi. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanildi.

**Kalit so‘zlar:** Milliy g‘oya, mafkura, tarbiyaviy ishlar, strategiya, ma‘rifiy omil.

**Kirish.** Insoniyat o‘tmishidan ma‘lumki, bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o‘zligi, tarixi, madaniyati va ma‘naviyatidan judo qilishga e‘tibor qaratishgan. Zero, ma‘naviyati zabt etilgan har qanday xalqda o‘z tartiblarini o‘rnatish mustamlakachilarning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an‘anaviy usullaridan biri bo‘lib keldi. Ma‘naviy istilochi mamlakat ma‘nan qashshoq xalqni bora-bora o‘ziga singdirib yuborishni, buning uchun o‘z mafkurasi va g‘oyalari ular orasiga joriy etish, madaniyatiga rahna solish orqali ma‘naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo‘l qo‘ymaslikni o‘z siyosatining asosiy masalasi deb qaraydi. Bu haqda bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy “... agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma‘naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi[1]”, - degan edi.

Darhaqiqat, ma‘naviyati izdan chiqqan mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, loqaydlik avj olishi oqibatda xalqning milliy o‘zligi, g‘urur-iftixori, milliy qadriyatlarini asta-sekin zaiflasha boradi. Oqibatda bunday mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va “silliq” kechadi. Globallashuv mafkura poligonlarida g‘oyaviy-mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya etishga qulay zamin yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida axborot xurujlarining oqibatlari muayyan mintaq va mamlakat aholisi ongi va qalbini zabt etishda asosiy va eng katta rentabelli ekspansiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Buning oqibatida mazkur intervensiyaning asl ma‘naviy qadriyatlarini tanazzul sari yetaklab, har bir haliq va millatning o‘z madaniyati, ma‘naviyati va qadriyatlarini ikkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirayotganligi afsuski, tashvishlidir. Bu haqda fikr yuritganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi

uchun biz ma‘naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta’sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur”[1], - deya bejiz ta’kidlamagan. Bugungi kunda buni chuqur his etgan holda, yurtimiz yoshlarini har tomonlama barkamol inson va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hukumat siyosati izchil olib borilmoqda. Bugun O‘zbekiston yoshlari haqiqiy Vatanparvarlik shijoatini dunyoda barcha sohalarda o‘zlarini nimalarga qodir ekanligini to‘liq namoyon etmoqda. Mazkur fikrlar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan fikrlarida ham o‘z aksini topgan: “Barchamizga yaxshi ma‘lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas‘uliyat tuyg‘usini mustahkamlash bo‘yicha aniq choratadbirlarni ko‘rishimiz shart[2], - degan so‘zlari zamirida katta haqiqat yotibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”[3] gi qarorida mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma‘naviy-ma‘rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas‘uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan muayyan ishlarni amalga oshirilishini qayd etish lozim.

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi bosqichga ko‘tarilish, postindustrial jamiyatdan axborotlashgan jamiyatga o‘tish davrida axborotning ahamiyati va

nufuzini keskin oshib boradi. Televidenie, radio, gazeta va kitoblar, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali shiddat bilan kirib kelayotgan axborot salmog'i kengayib odamlarning ongi va shuuriga bevosita ta'sir o'tkazadi. Ammo bu axborotlarning ichidan to'g'ri va haqiqiy axborotni tanlab olish, uni qayta ishlashga tayyor turish, muayyan axborot orqali mamlakat tinchligini saqlash, buzg'unchi va yot g'oyalarning ta'sirini kamaytirish bugungi targ'ibotning, targ'ibotchining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Hech bir jamiyatda milliy g'oya va uning targ'iboti o'z-o'zidan hosil bo'lmagan, kuchaymagan. Buning zamirida millat baxt saodati yo'lida, demak xar bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus ijtimoiy pedagogik faoliyat – ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda gap birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «kishilar dunyoqarashini boshqarish haqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish» ko'zda tutiladi.

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o'zini himoya qiluvchi ham - g'oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Demak, qaysi tomonning yengishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ'ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda targ'ibot atamasiga ko'plab ta'riflar keltiriladi:

Targ'ibot - bilim va qadriyatlarni keng yoyish, aniq qarashlarni shakllantirish, hissiyotga ta'sir etish orqali odamlarning ijtimoiy hatti-harakatini o'zgartirishga aytiladi;

2. Targ'ibot - davlatlar, partiyalar, sinflarning siyosati va mafkurasini ommaga yoyish uchun xizmat qiladi;

3. Targ'ibot-ijtimoiy ongning boshqarishidir[4].

Yaponlar targ'ibotni chiroyli tarzda “fikrlar jangi” sifatida baholaydilar[5].

Ko'rinib turibdiki, targ'ibot orqali odamlarni ongiga ta'sir etish noto'g'ri axborotning nufuzini kamaytirish mumkin. Targ'ibot komponentlarini mana bunday ketma-ketlikda ifodalash mumkin: axborot yetkazuvchi – axborot - axborotni qabul qiluvchi - erishilgan natija(axborot yetkazuvchi istagan hatti-harakatga erishish). Buni yanada yoyilgan shakli quyidagicha: Axborot yetkazuvchi- axborot – axborot manbai- axborotni qabul qiluvchi- axborot qabul qiluvchining hissiyotlari o'zgarishi - axborot yetkazuvchi istalgan hatti harakatiga erishish.

Bunda axborot yetkazuvchi - siyosiy arbob, davlat, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Ko'p holatlarda axborot yetkazuvchi jamiyat o'rtasida o'z mavqeiga ega, obro'-e'tiborli, taniqli va mashhur shaxs, targ'ibotchi bo'ladi.

Axborot manbai - ommaviy axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari, kitoblar, ma'ruzalar, vizual manbaalar bo'lishi mumkin.

Axborotni qabul qiluvchi - fuqarolarning ijtimoiy ongi hisoblanadi. Targ'ibot ijtimoiy ongning hissiy-irodaviy holatiga ta'sir etib, uni o'zgartirishga qodir. Polyak olimi L.Voytasik “Targ'ibotning asosiy psixologik maqsadi- odamlarning siyosiy, ijtimoiy, g'oyaviy qurilmalari tizimiga ta'sir etishdir. Bunga yangi qurilmalarni singdirish va yoki eskilarini kuchaytirish, ba'zan kuchsizlantirish orqali erishiladi.”[7] Uning fikricha, qurilma, bu targ'ibot, tarbiya va tajriba orqali shakllantirilgan bilim, tuyg'ular va motivlar bo'lib, ular insonni atrofda bo'layotgan mafkuraviy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga munosabatini ifodalaydi. G'oyaviy qurilmalar davlatning mafkurasiga nisbatan hissiy munosabatni va bilimlar majmuini nazarda tutadi. Siyosiy qurilmalar fuqarolarning davlatning ichki va tashqi siyosatiga munosabatini va aniq hatti-harakatini bildiradi. Ijtimoiy qurilmalar ijtimoiy mezon va me'yorlarga munosabatni bildirib,

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-zbekiston-respubl-31-08-2017>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.<http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-urolli-kuchlari-tashkil-etilganining--13-01-2017>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi qarori. Ma'rifat. 2017 29 iyul. Shanba № 60(9021)

insonning ijtimoiy harakatlarida namoyon bo'ladi. L. Voytasik uning ta'sir qudratini “...targ'ibot o'ziga xos informatsion shakldir. Uning boshqa axborot jarayonlaridan farqi, axborotni sharhlab, unga hissiy bo'yoq bera olishida” deb ta'riflaydi[8].

Targ'ibot jarayonida bilishning barcha elementlari ishtirok etadi. Natijada ma'lumotlarni inson hissiy qabul qilishi natijasida tafakkur qiladi va xotirasida saqlab qoladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin(infografika) Axborot - his tuyg'u va qabul qilish - his tuyg'u-tafakkur - xotira. Shunday qilib, targ'ibot ratsional, emotsional, psixologik tabiatga ega bo'lishi kerak.

XXI asrda insoning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoni oson kechmaydi. Chunki inson miyasi axborot hajmining ko'pligidan qiynaladi va o'zini himoya tizimini ishga tushiradi. G.Pochepsovning aytishicha, oxirgi 30 yilda ungacha bo'lgan besh ming yillikdan ko'proq axborot ishlab chiqarilgan. Birgina “Nyu York Tayms”dan olinadigan axborotni XVII asrda yashagan angliyalik umri davomida olganligi aniqlangan[6].

Psixoterapevt A.M.Svyadosh informatsion ta'sir insonni asabiy holatga keltirib quyishi mumkinligini, shu sababli inson axborot tazyiqidan o'zini himoya qilish maqsadida miyada himoya to'siqlarini qo'yib qo'yishini aniqlagan[9].

Shiffman va Kanyuk bunday to'siqlarning uchtasini - tanlangan e'tibor, tanlangan idrok, tanlangan chaqiriq sifatida belgilaydi. Tanlangan e'tibor - inson o'ziga daxldor va o'zini qiziqtirgan axborotni tanlashni nazarda tutadi. U jismonan hamma narsani eshita olishga qodir emas. Muttasil davom etayotgan axborot hujumi natijasida inson ko'rgan eshitgan narsani tez yoddan chiqarishga harakat qilishi tabiiy jarayondir. Bunda takrorlash yaxshi samara beradi.

Tanlangan idrok orqali insonlar ziddiyatli axborotlardan qochadi va o'ziga mos axborotni tanlaydi.

Tanlangan chaqiriqda inson o'z ehtiyoj va istaklarini qondira oladigan axborotga e'tiborini qaratadi.

Bunday psixologik to'siqlarni yengish uchun, targ'ibot:

Aniq maqsadli auditoriyaga yo'nalgan bo'lishi;

Shu auditoriyaning e'tiborini o'ziga qaratishi va uning qiziqishlariga mos axborotni taqdim eta olishi;

Axborotlarni takrorlashi;

Auditoriyaga mos kelish va ziddiyatli axborotlardan qochishi;

Auditoriyaning qiziqish va ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Demak, targ'ibot-insonning hissiy-irodaviy ongiga ta'sir etibgina qolmasdan, o'ziga xos informatsion jarayon hisoblanadi. Targ'ibotchi yetkazgan axborot insonlarni nafaqat dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklardan voqif eta olishi, balki ularni o'z atrofida qilargalarga ham yetkazishga unday olishi kerak. O'zida shov-shuvlik elementini tashigani sababli targ'ibot notiqdan zakovatli bo'lishni, u yoki bu sohani yaxshi bilishni talab qiladi.

**Xulosa.** Ilmiy-amaliy asosga qurilgan mafkura hozirgi diniy ekstremizmni ham, bundan keyin biz XXI asrda duch kelishimiz mumkin bo'lgan xoh ichki, xoh tashqi mafkuraviy tahdidlarni ham kurashib, yenga oladi. Bu – xalqimizning milliy mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ijtimoiy pedagogik vositalarini ishga tushirish masalasidir. Zero milliy mafkuraning muayyan g'oyaga ishonirish, uyushtirish, safarbar qilish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, g'oyaviy immunitetni shakllantirish, harakat dasturi bo'lish kabi maqsadlarini ruyobga chiqarish dolzarb vazifaga aylandi. Ya'ni mafkuraviy faoliyatni yangicha, ilmiy, ijtimoiy tarbiyaviy asosga qurish talab etilmoqda. Chunki ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolishi jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy talqinini topmog'i zarur.

4. Социологический энциклопедический словарь. Редактор-составитель академик РАН Г.В. Осипов. М.: Издательство НОРМА (Издательская группа НОРМА — ИНФРА М), 2000. С.271
5. Почепцов Г. Г. Информационные войны. М.: «Рефл-бук», К.: «Ваклер», 2001. С. 472.
6. Войтасик Л. Психология политической пропаганды. М. Прогресс. С.20.
7. Войтасик Л. Использование психологии в системе пропаганды. С.253, 257-260.
8. Почепцов Г. Г. Психологические войны. М.: «Рефл-бук», К.: «Ваклер», 2000. С. 12.
9. Святош А. М. Неврозы. М.: Медицина, 1982. С.10.





**Dilmurod KARIMOV,**  
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: karimovdilmurod@mail.ru

*Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Ismoilov taqrizi asosida*

## FORMATION OF PATRIOTIC COMPETENCE AND ITS ROLE IN THE EDUCATION OF OUR YOUTH

Annotation

Patriotic competence encompasses the knowledge, skills, attitudes, and values necessary for individuals to actively and responsibly contribute to their nation's development and well-being. This article explores the formation of patriotic competence and its critical role in the education of youth. By examining theoretical frameworks, pedagogical strategies, and empirical studies, the paper highlights the importance of integrating patriotic education within the broader educational curriculum to foster a sense of national identity, civic responsibility, and social cohesion among young people.

**Keywords:** Patriotic competence, Civic education, National identity, Civic engagement, Social responsibility, Youth education, Pedagogical strategies, Patriotism, Social cohesion, Global citizenship.

O'zbek xalqi mentalitetida bag'rikenglik g'oyalarining yuksalishida ma'naviy-ma'rifiy omil va komil inson tarbiyasi muhim o'rin tutgan. Aniqrog'i muayyan bir millatga mansub bo'ladi. Har bir inson alohida shaxs sifatida kamol topar ekan, uning faoliyatiga atrofida muhit sezilarli darajada ta'sir

ko'rsatadi. Shunday ekan shaxsning ma'naviy kamolotida aynan u o'zi yashagan muhitning ta'sirini idrok etish etmasligidan qat'iy nazar muayyan elat yo millatga mansub ekanligini inkor eta olmaydi. Chunki hech bir shaxs millatsiz bo'lishi mumkin emas. Inson Vatandan va millatdan butkul ajralib yashaganidek, milliy ma'naviyatidan ayro holda rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham shaxs o'z millati ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, millat tarixini o'zida ifodalovchi shaxs maqomiga yetisha olmaydi. Shu o'rinda milliy o'zlik anglash baxt tushunchasi bilan xam ifodalashni yuuzaga chiqaruvchi qarashlar mavjud. Shu o'rinda shaxs ma'naviyatining shakllanishida milliy o'zlik anglashda ko'maklashuvchi manbalardan eng birinchisi va asosiyi bu ajdodlar merosidir.

Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan milliy meros milliy ma'naviyatimiz asosini tashkil etadi. Shu o'rinda inson aqlning haqiqatlari va dalillari har kimga tegishli bo'lib, ularni birinchi marta ifoda etganlarning mulki emas, balki keyinchalik ifoda etganlarning mulkidir. "Ma'naviyat - inson hayotining gultoji. U har qanday sharoitda inson sha'nini, shavkatini, shonini, jamoatchilik orasidagi obro'-e'tiborini belgilaydigan muhim omillardan biri. Ma'naviyat - insonni xurofotdan, jaholatdan qutqarguvchi qudrat. Uni muqarrar kamolotga yetkazuvchi, hayotini shukuhlarga to'ldiruvchi ma'vo, barcha illatlardan asraguvchi xaloskor!"[4]. Yoshlarda milliy xususiyatlar va ma'naviyatini shakllanishida san'atning tarbiyaviy o'rni haqida gapirganda millatlar o'rtasida umummilliy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ham qo'yilgan masalaning yechimi hisoblanadi. Bunda jamiyatning milliy g'oyasi millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasida yo'lboshchi bo'lishi lozim. Chunki, milliy g'oyani singdirishda barcha ta'sir vositalari kabi san'at ham o'z o'rniga ega. Bu o'rinda yoshlarda kamgapiik va kamtarlik jamiyatda juda qadrl bo'lgan fazilatlaridir. Shaxsni tejamarlikka o'rgatish va to'playdigan bilimlarini sarf qilishdan saqlanish kerakligini o'rgatish kerak. Faqat buyuk shoirlarga o'z san'atida erkinlik berishga ilohiy ruxsat berilishi kerak bo'lganidek, buyuk va yuksak qalblargagina o'zlarini odatdan ustun qo'yishga ruxsat beriladi. Raqibning bunday kurashga loyiqqligini topgan taqdirdagina shaxsni suhbatga yoki bahsga o'rgatish kerak. Bu jarayonda unga nafaqat o'zi uchun foydali bo'lgan barcha e'tirozlarni, balki bahs jarayonida dalillarning eng kuchlisini qo'llay olishni o'rgatish kerak. Unga dalillarning sinchkovlik bilan tanlashni, eng aniq va shu tufayli qisqa yo'lni topishni o'rgatish kerak.

"Milliy ong, milliy tafakkur va milliy o'zlikni anglashdan iborat bo'lgan uchlikka amal qilmagan, uni o'zida aks ettirmagan yohud uni rivojlantirishga va mustahkamlashiga yo'naltirilmagan g'oya o'ziga milliy g'oya maqomini ham ololmaydi"[5]. Millatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda jamiyatning milliy g'oyasi jamiyat a'zolarini umummaqsad yo'lida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Milliy o'zlikni anglash jarayoni esa olimlarimiz tomonidan alohida tadqiq etilib kelinmoqda. "Milliy o'zlikni anglash mintaqa miqyosida o'zaro hamjihatlik, tinchlik va barqaror rivojlanish muhitini shakllantiradi. Milliy va diniy "tolerantlik" ya'ni bag'rikenglik haqida milliy va mintaqaviy o'zlikni anglashsiz gapirish mumkin emas"[6]. Bugun insoniyat oldida ulkan marralarni egallash turgan bir paytda, tarixning haqiqatini anglash zarur. Keyingi yillardagi tadqiqotlar va ishlarni rivojlantirib, millatlarining taqdirini shunchaki o'rganishni emas, balki ularning kelgusidagi taqdirini turli tahdidlardan asrab qolish hisoblanadi. Ularda aks etadigan tarixiy faktlar keyingi avlodlarning taqdiri, nufuzining o'rtishiga yo'l ochishi, millatlarni hayotini boyitishi kerak. Shuningdek, millatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va hamkorlikni rivojlantirish uchun o'zaro xalqaro

tashkilotlar bilan hamkorlik qilishimiz zarur. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev so'z yuritarkan, "Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir"[7-295-296], deb ta'kidlaydi. Biz millatlararo madaniyatni voqelikda yorqin amal qilishni chuqur anglab, har bir hududning mentalitetiga mos qadriyatlar va o'zlikni anglash darajasini tadqiq etishimiz lozim. Chunki madaniyatlarining amal qilish mexanizmlari bir-biridan farq qilishi millatlarda turlicha talqin etiladi.

Yoshlarni vijdoni va fazilatlarini uning nutqida aks etsin va aqlidan boshqa qo'llanmani bilmasin. O'zining mulohazasida qilgan xatosini tan olish, hatto undan boshqa hech kim uni sezmagani bo'lsa ham, aql-idrok va samimiylik dalili ekanligini tushunishga majbur qilsin, u avvalo, shunga intilishi kerak..

Shuningdek, odamlar orasida bo'lganida, hamma narsaga va har kimga diqqat bilan qarash kerakligi haqida ko'rsatma berish kerak, chunki men juda qobiliyatli bo'lmagan shaxslar odatda eng yuqori mavqega erishishadi va taqdir o'z sovg'alarini umuman munosib bo'lmaganlarga topshirganini bilaman. Siz butun vujudingizni ishlatishingiz va har bir kishining fazilatlaridan ibratli o'rinarini olishingiz kerak. Yosh inson har birining fazilatlarini va xususiyatlarini baholab, o'zining tabiatidan kelib chiqib, ularning yaxshi xususiyatlariga qiziqishini va yomoniga nisbatan nafratini rivojlantiradi.

"Bizning hayotimiz - deydi Pifagor, olimpia o'yinlarida ko'psonli olomonning yig'ilishiga o'xshaydi. Ba'zilar musobaqalarda shon-sharaf qozonish uchun mashq qilishadi, boshqalari foyda olish uchun mollarni sotish uchun u erga borishadi. Ammo bu erda hech qanday foyda izlamaydiganlar ham bor - va ular yomon emaslar, ular bu qanday va nima uchun qilinganligini ko'rishni xohlashadi, ular aniqroq hukm qilish uchun shunchaki tomoshabin bo'lishni, boshqalarning hayotini kuzatishni xohlashadi va o'sha hayot haqida xulosa chiqarib, shunga mos ravishda o'zlarini tartibga solishni o'ylaydilar"[8]. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'lmoqdaki, shaxs madaniyati mazmuni jamiyatda hukm surayotgan shart-sharoitlar va ta'lim-tarbiyaga taqaluvchi omil ta'siri bilan shartlangan. Ushbu ta'sir tahlili shaxs fuqarolik madaniyatining o'zgarishi qonuniyatlariga doir ayrim xulosalarga kelish imkonini beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda turli millat va xalqlarning madaniyatini bir-biri bilan bog'lash va ularning o'zaro hamjihatlikni yuksaltirish an'anasi shakllantirish lozim. Bu imkoniyatlar, turli millat vakillarining fikr-mulohazalar almashinuvi, ilmiy jamiyatlar va tarixiy zamonaviyliklarni o'rganishga imkon berdi va yoshlarda ijtimoiy hayotning voqeliklarini millatlararo madaniyatda ifodalash imkoniyatini vujudga keltirdi. Shu o'rinda shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy o'zlik masalalari har bir millatning mustahkam e'tiqodi, madaniyati bo'lishligi, ularni bevosita va bilvosita keng ko'lamda amal qilishini ta'minlashga huquqi mavjudligi tarixdan o'z isbotini topgan. Shunday ekan, inson birinchi va oxirgi marta beriladigan hayot imkoniyatlaridan foydalanib, aql hukmi bilan yashay bilishi kerak. Shaxs ma'naviyatini va madaniyatidan joy olgan tasavvurlar va qadriyatlar, bilim va g'oyalar, qoida va normalar turli sohalarga dahldor bo'ladi. Ularning Vatan va jamiyat manfaatlarini o'zida mujassam qilgan, shu manfaatlariga mutanosib bo'lgan qismi shaxs fuqarolik madaniyatida mujassam bo'ladi. Shaxs ma'naviyatini o'z murakkab tarkibiga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 254 255
2. Чориев А., Чориев С. Ренессанс дэври Европа фалсафаси. -Т.:Тафаккур каноти, 2015. -Б.12.
3. Хожа Ахмад Яссавий. Devoni hikmat. // Yangi topilgan namunalari. - Т.: Movarounnahr. 2004. - B. 148.
4. Jo'rayev N. Ma'naviyat-inson qalbining sarchashmasi. -Т.: Ma'naviyat, 2015. -B. 30.
5. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. - Тошкент: Академија, 2005. -Б. 108.
6. Саифназаров И., Обидов А. Динлараро хамжихатлик-ижтимоий барқарорлик омили. Монография. - Тошкент: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. - B. 19.

- 
7. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-жилд. – Б. 295-296.
  8. Порфирий жизнь Пифагора // <http://psylib.org.ua/books/diogen1/txt12.htm>



UO'K: 37.013.73:17.022.1

*Kozimjon QOSIMOV,*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmiy tadqiqotchisi*  
*E-mail: kozimzonkosimov3@gmail.com*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti professori Q.Ro'zmatzoda taqrizi asosida*

### ABDULLA QODIRIY SHAXSI SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-TARIXIY OMILLARI

Annotatsiya

Maqola jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Abdulla Qodiriy shaxsi, uning ma'naviy-intellektual kamoloti evolyusiyasi, adibning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik qarashlari shakllanishining ob'ektiv va sub'ektiv omillari mohiyatini tahlil va tadqiq etishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy, jadidchilik, shaxs, shaxs erkinligi, imon, rostgo'ylik, jamiyat, sharqona an'analar, oqilona hayot.

### СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Аннотация

Статья посвящена анализу и исследованию личности Абдуллы Кадири, известного представителя движения джадидизма, эволюции его духовной и интеллектуальной зрелости, объективных и субъективных факторов в формировании социально-философских, мировоззренческих, художественно-эстетических взглядов писателя.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадири, джадидизм, личность, личная свобода, вера, честность, общество, восточные традиции, благоразумная жизнь.

### SOCIO-HISTORICAL FACTORS OF PERSONALITY FORMATION OF ABDULLA KADIRI

Annotation

The article is devoted to the analysis and research of the personality of Abdullah Kadiri, a famous representative of the Jadidism movement, the development of his spiritual and intellectual maturity, the objective and subjective factors in the formation of the writer's socio-philosophical, world, artistic and aesthetic views.

**Key words:** Abdullah Kadiri, Jadidism, personality, personal freedom, faith, honesty, society, Eastern traditions, prudent life.

**Kirish.** Ma'lumki, yaqin o'tmishimiz–totalitar tuzumi va kommunistik mafkura tazyiqi tufayli vatanimiz milliy ozodligi uchun kurash olib borgan jadidchilik harakatining yirik vakillari tomonidan milliy davlatchilikka xos qadriyatlarimizni saqlab qolinishiga qaratilgan sa'y-harakatlari keskin qoralanib, ular qatag'on qurbonlariga aylantirilgan. Ular qatorida o'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriy ham jadid adabiyotining bosh mavzusi hisoblangan millat qayg'usi, o'z xalqining ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, uning an'ana, udum va qadriyatlarini o'zida jamlagan o'zbek falsafasini yoritish, uni targ'ib etish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan jadid vakillaridan biri edi. U o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida amaldagi totalitar tuzum mafkurasi bilan murosa qilish, kelishish yo'lini tanladi, biroq, sovet mustabid tuzumining shafqatsiz mashinasi uni ham o'z girdobiga olgan...

Keyingi paytlarda milliy o'zlikni anglash va bu yo'lda jadidchilarimiz qoldirgan ma'naviy meros hamda ularning bosib o'tgan hayotini tadqiq etish ishlariga mustaqilligimiz sharofati ila keng yo'l ochildi. Qodiriyshunoslikda ham bu borada ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi tahsinga sazovor. Biroq, bu ilmiy yangiliklarning aksariyati, filologiya, tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritilganligi e'tiborga olinsa, adib hayoti, ijodi va asarlariga ijtimoiy-falsafiy aspektda ham yondashish, yoritish bugungi kun uchun muhim ekanligi ayon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Abdulla Qodiriy shaxsi, uning ijodi, badiiy mahorati respublikamizning taniqli olimlari, adabiyotshunoslari Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Matyoqib Qo'shjonov, Omonulla Madaev, Bahodir Karim, taniqli adiblar: O'tkir Xoshimov, Xayriddin Sul'tonov, To'xir Malik va boshqalar tomonidan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur muammo falsafiy jihatdan hozirgacha o'rganilmagan. Falsafa fanlari doktori, professor Anvar Chorievning shaxsning falsafiy mohiyatiga oid asari[1]mazkur muammoning nazariy-metodologik masalalarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Anvar Chorievning ta'kidlashicha, sovet falsafiy adabiyotida shaxs

biryoqlama talqin qilindi. Shaxs nafaqat ijtimoiy fazilatlar yig'indisi deb, balki konkret tarixiy sharoitda insoniyat yaratgan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, o'ziga singdirish malakasi, umuminsoniy madaniy jamiyat tomon intilish ehtiyojlarining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi mezon deb tushuntiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mamlakatimizda shaxs muammosini o'rganishga yangicha sivilizatsion yondashuv vujudga keldi. Ilg'or metodologik prinsipning shakllanishini mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat, grajdanlik jamiyati asoslarini yaratishga azmu qaror qilgan xalqimizning orzu va maqsadlari taqozo etmoqda.

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkentning Eski shahar mavzeidagi Samarqand darvoza mahallasida Qodir bobo va Josiyat momo xonadonida to'ng'ich o'g'il – Rahimberdidan keyin ikkinchi o'g'il bo'lib dunyoga keladi.

Abdulla Qodiriyning tarjimai holini tiklashda o'g'li Habibulla Qodiriyning xizmatlari, sa'y-harakatlari juda katta bo'lgan. "Habibulla Qodiriy tilga olgan ma'lumotlarga qaraganda, o'sha paytlar (XX asr boshlari)dagi Toshkand madaniy-ma'rifiy hayotida sezilarli o'rin hamda mavqe, obro'-e'tibor qozongan Tavallo, Komiy, Miskin, Xislat singari shoirlar Qodiriylar xonadoni bilan yor-birodar, qarindosh-urug'chilik rishtalari bilan bog'langandilar. Ular Qodirmuhammad boboni tarixiy shaxs, hatto qahramon deb bilar, hurmatini joyiga qo'yar, tez-tez uni ko'rgani kelar, suhbatlarini sog'inishar va e'zozlardilar. Biz yosh Qodiriyda adabiyotga havasni shu uch najib zot – Tavallo, Kamiy, Miskin uyg'otgan, uning ilk mashqlarini ko'rishgan, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishgan va hatto matbuot dunyosiga olib kirishgan, Behbudiy, Munavvarqori hazratlari, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Avloniy va boshqa taniqli kishilar o'z nashrlari bilan tanishtirgan edi, deya olamiz [3].

Uning yozishicha, Qodiriy 7-8 yoshlarida dastlab Mulla Olim va Mulla Ziya domlalaridan diniy ilm olib, savod chiqaradi. Ular Qodiriyning turli savollariga javob topolmay, bir yildan so'ng unga "Mirlar" mahallasida istiqomat qilgan YUusufxon domlada ilm olishni maslahat beradilar.

U yerda bir yil o'qiganidan so'ng oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar bois CHorsudagi davlatmand qarindoshlari –



Mohira xolasining uy yumushlariga yordam berish uchun xizmatga beradilar. O'qishini Mulla G'ulom ismli maktabdor domlada davom ettiradi. Biroq bu ham uzoqqa bormaydi. Maktabni birinchi marta o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Bu haqda adib o'zining tarjimai holida: "Meni 12 yoshimda bir boyya xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladurgan odamga muhtoj edi. Shu ta'mada bo'lsa kerak, meni uris maktabi (rus-tuzem maktabi)ga yubordi. Maktabdan qaytib kelgandan so'ngra xo'jayinimning xizmatini qilib yurganim uchun maktabdan tegishli iste'fodani o'lmadim, ikki yil mundaq xizmatda yurib, chiday olmasdan otanamga yulborib o'z uyimga qaytib keldim va uyimdan borib haligi maktabda o'qidim" [4].

Abdulla Qodiriy o'sha yillardagi oilaviy hayot qiyinchiliklari haqida: "Besh jonning tomog'i (tirikchiligi – Q.K.) faqat sakson yoshlik chol otanining mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning etishtirib beradigan hosilidan kelar edi"[5]deb yozadi.

A.Qodiriy 1908-1912 yillari Samarqand darvoza mahallasida joylashgan "rus-tuzem maktabida o'qib, "a'lo" bahoga imtihon topshiradi. Maktabda ikkita muallim dars bergan. Biri Alifjon domla bo'lib, diniy ilmlar, fors tili va husni xatdan saboq bergan. Ikkinchisi rus maktabiga mansub Leonid Dmitrievich Pudovkin rus tili grammatikasi, chiroyli so'zlash, husni xat va hisob (arifmetika)dan dars bergan. Rus-tuzem maktabini faqat ikki o'quvchi – Abdulla Qodiriy va Akmal Aramov bitirish imtihoni topshirish uchun Xadradagi "1-son rus-tuzem maktabi"ga boradilar. Imtihon chog'ida Turkiston general-gubernatori Samsonov ishtirok etadi. Ular imtihonni muvaffaqiyatli topshirganlari uchun kumush qo'l soati bilan taqdirlanadilar[6].

Bu maktabning vazifasi erli aholi yoshlaridan ruscha yozish, o'qishni biladigan, chiroyli so'zlasha oladigan, prikazchik (boylar do'konida savdo qiluvchi) va tarjimon idora xodimlarini tayyorlash edi. Bu vaqtda Qodirmuhammad bobo 90 yoshda bo'lib, Abdullaning istqboli haqida qayg'urmaydi. Qodiriy ma'lum muddat ishsiz qolgach, Josiyat momo paranjisi yopinib, hammahallasi Mulla Zayniddindan o'g'li Abdullaga ish topish uchun yordam berishini so'raydi. U Abdullani o'zining qadrtoni Rasulmuhammad bilan tanishtiradi. Chunki unga rus tilini biladigan, savdo ishida yordamlashadigan yigit kerak edi. Rasulmuhammad o'ziga to'q savdogar boylardan biri bo'lib, SHayxantaxur dahasidagi SHirinquduq mahallasida yashar edi. Abdulla uning tashqi mehmonxonasida yashab, uning xizmatini qila boshlaydi. Taqdir taqozos bilan Abdulla Qodiriy hayotida katta o'zgarish ro'y beradi: u Rasulmuhammadning qiziga uylanadi. Biroq oradan 3-4 yil o'tib, 1915 yili Rasulmuhammadning savdo-sotiq ishlari yurishmay, do'koniga pechat tushadi. Abdulla Qodiriy akasi bilan eski toqichilik kasbini davom ettiradi. 1917 yil fevral inqilobi Rossiya va Turkiston xalqlari tarixida tub burilish yasaydi. A.Qodiriy ana shu tarixiy voqeaga bag'ishlab "Shodmarg" hajviy asarini chop ettiradi.

A.Qodiriy o'z tarjimai holida "shu choqqacha men o'zimdagi birorta siyosiy firqa (partiya – Q.K.)ga mansubiyat yoki yaqinlik his etmas edim. Bu ersa menda asoslik ma'lumot yo'qligidan, yana to'g'risi savodsiz avomligimdan kelar edi. Nekalayning taxtdan yiqilib hurriyat bo'lg'anig'a xursandchiligim, albatta, dunyoga sig'imas edi", - deb yozadi[7].

O'sha yillarda Turkiston xalqlari bolsheviklar partiyasining g'oyasi, maqsadi haqida aniq bir tushunchaga ega bo'lmaganlar. Sotsializm maslagi haqida deyarli hech narsa ma'lum emas edi. A.Qodiriy bu haqda: "Men ham ul vaqtlarda bir ongsiz ishchi yoki dehqon va bir mutaassib mulla yohud imomdan ortiq baho bera olmas edim", - deydi [8].

Oktyabr inqilobidan so'ng A.Qodiriyning Ismoil Obidov bilan yaqinlashuvi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. I.Obidov shahar o'zbek ishchi-mehnatkashlarini uyushtirishga rahbarlik qilgan ilg'or ziyolilardan biri edi. A.Qodiriy Ismoil Obidov bilan tanishganidan so'ng bolshevik va boshqa siyosiy partiyalarning maslagi, g'oyalari bilan yaqindan tanishadi va mas'uliyatli lavozimlarda ishlab, shahar ishchilari hukumatida 1919 yili "Oziq ishlari" gazetasining muharriri, 1920 yili kasabalar sho'rosida sarkotib etib tayinlandi. Eski shahar kasaba uyushmalarining faoliyatiga doir maqola, habarlar yozdi. "Ishtirokiyun" ("Kommunist") va "Qizil bayroq" gazetalarida xodim, "Inqilob"

va "Kommunist yo'ldoshi" gazetalarida sarkotib va xodim, 1923 yildan "Mushtum" jurnalining asoschisi va tahririyat a'zosi bo'lib ishladi. O'zining etti yillik jo'shqin faoliyati haqida A.Qodiriy "Xulosa, boshqalarning xizmati daftar bilan sohib bo'lsa, manim xizmatlarim matbuot bilan ravshandir", - deb yozadi [9].

Ana shu yillarda u ijodkor shaxs sifatida tanildi. "Ishechi-dehqonlar yozg'anlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozg'uchilar qatoriga kirgizdilar, - deb yozdi A.Qodiriy. – Chunki men ularning o'z ichlaridan chiqqan, ularning dard va tilaklarini yaqindan bilguchi, buning ustiga ulug' O'ktabr inqilobidan so'ng uning sharoitida, tarbiyasida etishkan bir xodimlari edim" [10].

Ibrohim G'afurovning yozishicha, "Sadoi Turkiston" gazetasining noshiri va muharriri Ubaydulla Asadullaxo'jaev (Xo'jaev) Turkiston ziyolilarining etakchisi Munavvarqori Abdurashidxonovga yaqin maslakdosh edi. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev A.Qodiriy Turkistonning kelajagi ulug', eng iste'dodli yoshlaridan biri sifatida tanirdi, e'zozlardir. U mamlakat istiqbolini shunday yoshlarning qo'lida deb qattiq ishonar va iloji boricha ularni jamiyatning turli ishlariga tortib, yuzaga chiqarishga jiddiy harakat qilardi" [11].

Abdulla Qodiriy "Rus-tuzem" maktabida o'qigan yillarida domlasi Pudovkin unga Gogol, Pushkin, Lev Tolstoy, Krilov singari ruslarning ulug' adiblari haqida so'ylagan. A.Qodiriy 1912 yili graf Tolstoyning "Kavkaz asiri" va "Xojimurod" asarlarini ham rus tilini chuqurroq o'rganish, ham ulug' adibdan tushuncha olish, ham istibod siyosatiga adiblar qanday munosabatda bo'lganliklarini bilish maqsadida o'qigan. Ehtimol, ana shunday mutolaa tufayli Qodiriy bilan Lev Tolstoy o'rtasida ma'naviy-ruhiy yaqinlik vujudga kelgan. Habibulla Qodiriyning xotirlashicha, Abdulla Qodiriy oila davrasida Lev Tolstoy tushiga ko'p marta kirganligini so'ylagan.

Abdulla Qodiriy 1910-20 yillarda matbuotda faol qatnashib, tanilgan vaqtlarda Toshkentda she'rlari hofizlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan Tavallo, Kamiy, Miskin, Xislat singari shoirlar davrasida ko'p bo'lgan. Miskin Abdulla Qodiriyga xolavachcha, yaqin qarindosh edi. Ana shu ijodkorlar Qodirmuhammad bobo suhbatida ko'p bo'lar, tez-tez uning suhbatiga intilar edilar.

Abdulla Qodiriy 1925 yili "Bir yil" nomli maqolasida "Biz haqiqatni hayotdan oldiq. Hammadan ilgari shaxs o'zini tanisin, so'ngra boshqani!" – deb yozganida, albatta, shaxsga xos barcha sifatlar unda to'la shakllangan edi.[12].Josiyat bining aytishlariga qaraganda, yosh Abdullaning qo'lidan qog'oz-qalam tushmas, kichkina bo'laturib katta-katta kitoblarni qo'ltiqlab yurar, ko'chalarning devorlari, eshik-darvozalariga yozib-chizib mashq qilaverardi [13].

XX asr boshlarida jadidchilar mustamlaka zulmidan ozod bo'lish uchun, avvalo, milliy birdamlik zarurligini, ijtimoiy taraqqiyotga xalaqit berayotgan zararli illatlar va jaholatga qarshi kurashda badiiy adabiyotning, ayniqsa kattalar uchun ibratxona bo'lgan xalq teatri, kulgilik kuchidan foydalanishga, sarmoyadorlarni maktab ochishga undadilar. "Sarbozning o'g'li (Abdulla Qodiriy – Q.K.)da g'ayrat va shijoat tug'ma edi. Qisqa vaqt ichida metropoliya (Rossiya)da 1905, 1917 yil fevral, oktyabr inqiloblari ro'y berdi, shu davr ichida Birinchi jahon urushi boshlanibketdi. Bu Qodiriyning o'n ikki-yigirma uch yoshlari: mahalla-guzar maktabi, rus-tuzem maktabi, madrasa ta'limi; rus, arab, fors, turk, qadimgi turkiy tilni qunt bilan o'rganish va har tomonlama o'rganish davri edi. U Rossiya, Turkiya, Qrim, Ozarbayjon, Eron, Hindistonda chop etilgan gazetalarini muntazam o'qish bilan kifoyalaniq qolmay, Eski shahar kitob do'konlarini ko'zdan kechirish, do'stlar orttirishga intilgan yillar edi. Uning shaxsi ana shunday ilmiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy muhitda shakllana boshladi.

Yosh Abdulla Qodiriyning 1914 yili yozda "Sadoyi Turkiston" gazetasining muharriri va noshiri Ubaydulla Xo'jaev (Asadullaxo'jaev) bilan uchrashuvi uning taqdirida muhim burilish yasadi. "Ubaydulla o'sha vaqtlar Saratov universitetida o'limi, advokat bo'lgan, fikr-mulohazasi keng, xalqparvar va taraqqiyparvar ziyoli sifatida Munavvarqori Abdurashidxonovning nazariga tushgan edi. Ubaydulla Xo'jaev Abdulla Qodiriyga Lev Tolstoyga 1909 yili maktub yozib, bir oy o'tmasdan javob xati olganini va unda: "Sayyoh uchun kompas ko'rsatgan mutlaq to'g'ri yo'nalishga mumkin qadar yaqinroq

yurishga intilish – birdan bir rahnamo bo'lganidek A.Qodiriyning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi shakllanishida tasavvufiy adabiyotlar, madrasa ilmi, Turkiston jadidchilik harakatining “otasi” Behbudiyning asarlari, ayniqsa, “Padarkush” dramasi, “Sayohat xotiralari”, Fitrating “Sayha” (“Na'ra”), “Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg'an munozarasi”, “Hind sayyohi bayonoti”, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jaevning asarlari juda muhim rol o'ynadi. “1917 yil fevral inqilobi voqealari yosh Qodiriyning hayotini mutlaqo tezlashtirib yubordi. Uning atrofidagi butun olamda “Hurriyat” degan chaqmoqdek sadolar yangradi. ...Qismat shunday tub burilish chog'larida uni eng kerakli odamlarga duch qildi: u Ismoil Obidiy, Sulxonxo'ja Qosimxo'jaev singari jamoat va siyosat ishlarida faol, obro'-e'tiborli ishchilar, masterovoylar, hunarmandlar... va o'sha davr boshboshdoqliklarida xalq ommasiga yaxshi maslahat bera oladigan, adolatli, to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan... kishilar bilan yaqindan tanishdi.”[14].

A.Qodiriy “Mushtum” satirik jurnalining tashkil etilishi haqida shunday deb yozadi: “1923 yil fevralida “Turkiston” gazetasiga O'rtoq Abdulhay Toji muharrir belgilandi va shu o'rtoq “bir kulki jurnali chiqaringiz” deb, men bilan G'oz (YUnus)ni chaqirdi. Biz ikov ishka kirishdik-da, natijada sakkiz soncha “Mushtum” chiqdi. SHu o'rtada Abdulhay (Toji) ishdan ketdi, uning ketishi bilan (tahririyat)ning oqchasizlig'idan bo'lsa kerak) men ham ishdan ozod qilindim.

Jurnalga chetdan yordam berguchi, ya'ni ozod (erkin) yozishg'uchi sifatida kirdim. ...Ba'zi idoralardan ish olib, ertadan kechkacha ishlay boshladim, ammo shunda ham “Mushtum”ni unutmadi. Masalan, G'oz (YUnus) bo'lmag'an vaqtlarda ba'zi sonlarni o'zim chiqardim va birinchi yil (1923 yil)ning 15-sonidan boshlab to 35-sonigacha davom etkan “Kalvak maxdum xotirasi” va boshqalar... mahzi samimiyat (sof yurakdan) to'lg'inidir” [13].

Abdulla Qodiriy 1924 yili Moskvada jurnalistika institutida tahsil ko'rib, ilg'or Evropa adabiyotiga xos adabiy oqimlar, badiiy ijod metodlari, xilma xil falsafiy oqimlar haqida puxta bilim olganidan so'ng, shubhasiz, uning falsafiy, ilmiy, badiiy-estetik qarashlarida tub ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Ana shu o'zgarishlarning ilk mahsuli “Mushtum” jurnalida 1926 yili chop etilgan va ijodkor taqdirida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan “Yig'indi gaplar” feletonidir.

Abdulla Qodiriy ustidan jinoiy ish qo'zg'alishi, uning sud qilinishi jarayonida so'zlangan nutq, birinchidan, Abdulla Qodiriyning shaxs sifatida mavjud hukumat, siyosat bilan shaxs erkinligi masalasidagi ilk to'qnashuvi jarayonida totalitar va mustabid tuzumning shaxsga, erkin fikrga va hurriyatga qarshi ekanligi yaqqol ko'zga tashlandi. Istibod tufayli yaqin ijodkor hamkasblari (“Mushtum”ning bosh muharriri Akram Oripov, Ziyo Said va boshqalar) unga xiyonat qildilar. Ikkinchidan, eng yaqin do'stlari unga vaqtincha o'zga yurtlarga ketish va ommaviy qatag'ondan omon qolish haqidagi takliflarini rad etdi: Qodiriy o'zining mutlaqo aybdor emasligini isbotlamoqchi va bu bilan qattol tuzumning adolatsizligi, zolimligini isbotlamoqchi bo'ldi. Zero, shaxslar hamisha iymon-e'tiqodli, rostgo'y va samimiy (boshqalarga yaxshilikni ravo ko'ruvchi) bo'ladilar. Abdulla Qodiriy ana shunday shaxs edi.

**Xulosa.** Arnold Toynbining ta'lim berishicha, shaxslar shakllanishi bilanoq tevarak-atrofidagi kishilarga o'xshamay qoladilar: ular uchun voqelikka tanqidiy yondashish, shaxsiy manfaat emas, balki xalq, jamiyat manfaatlari va xalqni qullik, mutelik, jaholatdan qutqarish uchun kurash hayotiy maslakka aylanadi. Shaxsni zamondoshlari inkor etadilar; shaxs va uni voyaga etkazgan ijtimoiy muhit, xalq, jamiyat va shaxs o'rtasida begonalashuv ro'y beradi.

Buyuk shaxslar ana shu “begonalashuv”ni bartaraf etish uchun o'zi mansub bo'lgan xalqning ma'naviy, ruhiy, estetik olamiga, o'tmishning “eng kir va chirkin” voqealariga murojaat qilishga, tarixiy fakt va dalillar vositasida yo'ldan adashgan xalq, sotsiumga eng to'g'ri va adolatli yo'lni ko'rsatishga, milliy rivojlanish uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan barcha ijobiy sifat va fazilatlarini ulug'lashga, zamondoshlari ko'z o'ngida nodonlik, jaholat, zulm va istibdodning badbin basharasini fosh etishga intiladi. O'zining ilg'or qarashlari bilan boshqalarga o'xshamay qolgan ijodkor shaxs o'z g'oyalari, qarashlari bilan vaqtincha jamiyat va xalqdan ketadi. Biroq u o'z xalqi bag'riga yangicha sifat va fazilatlar bilan qaytadi. Boshqacha qilib aytganda, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon singari buyuk ijodkor shaxslarning o'z xalqidan “begonalashuv”i va o'z xalqiga “qaytish” qonuniyati umumsotsiologik qonun ekanligi yangi O'zbekistonda mustahkam qaror topayotgan yangicha falsafiy dunyoqarashning mahsulidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Choriev A. Inson falsafasi. Ikkinchi kitob. Mustaqil shaxs. – T.: “Chinor ENK”, 2002.
2. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: 2017., 125-126-betlar.
3. Abdulla Qodiriy. V. Adibni xotirlab. – T.: “Info Capital Group”, 2017. 35-bet.
4. Abdulla Qodiriy. V. Adibni xotirlab. – T.: “Info Capital Group”, 2017. 94-bet.
5. Abdulla Qodiriy. V. Adibni xotirlab. – T.: “Info Capital Group”, 2017. 97-bet.
6. Ibrohim G'afurov. Qodiriy siyosati // Qodiriy, Abdulla. So'zboshi muallifi Ibrohim G'afurov. – T.: “Info Capital Group”, 2017. 15 bet.
7. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: 2017., 282-bet.
8. A.Qodiriy. O'tkan kunlar.I. – T.: 2017. 18-bet.
9. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: 2017., 297-bet.
10. Abdulla Qodiriy. V. Adibni xotirlab. – T.: “Info Capital Group”, 2017. 314-bet.
11. K.Qosimov. “Ijodkor shaxs falsafasi yohud “O'tkan kunlar”ning falsafiy mohiyati”. “Markaziy Osiyo renessansi” jurnali. 4 tom. №1. 2023 y.
12. K.Qosimov. “Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi”. Farg'ona davlat universiteti. Ilmiy habarlar. №1. 2023 y.
13. K.Qosimov. “Abdulla Qodiriyning diniy va tasavvufiy qarashlari”. “Science and Innovation” jurnali. 2022 y. 1-tom. № 5.



**Shukrillo QO'RG'ONBOYEV,**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida assistenti*

*E-mail: @shukrillohqorgonboyev@gmail.com*

*ADU dotsenti, falsafa fanlar doktori (PhD) Sh.Q.Amirxo'jayev taqrizi asosida*

## THE CONCEPT AND ESSENCE OF DEMOCRATIC VALUES IN THE SYSTEM OF PHILOSOPHY OF VALUES

Annotation

This article describes the concept, structure of legal consciousness and its concept; the concept, system and essence of democratic values; the concept, essence and forms of democracy; the role of legal education in the formation of legal consciousness; the influence of legal values in the scientific-theoretical study of legal consciousness; further increasing the role of democratic values in the construction of a legal.

**Key words:** Philosophy, axiology, value, democracy, consciousness, legal consciousness, thinking, elevation, democratic value, national value, legal education.

## ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СИСТЕМЕ ФИЛОСОФИИ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается правосознание и его понятие, структура; понятие, система и сущность демократических ценностей; понятие, сущность и формы демократии; роль правового воспитания в формировании правосознания; влияние правовых ценностей на научно-теоретическое изучение правосознания; дальнейшее повышение роли демократических ценностей в построении правового государства в Узбекистане - как основа формирования высшего правосознания; Изложены проблемы повышения правосознания в Узбекистане и вопросы их преодоления.

**Ключевые слова:** Философия, аксиология, ценность, демократия, сознание, правосознание, мышление, возвышение, демократическая ценность, национальная ценность, правовое воспитание.

## QADRIYATLAR FALSAFASI TIZIMIDA DEMOKRATIK QADRIYATLAR TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada huquqiy ong va uning tushunchasi, tuzilishi; demokratik qadriyatlar tushunchasi, tizimi va mohiyati; demokratiya tushunchasi, mohiyati va shakllari; huquqiy ongning shakllanishida huquqiy tarbiyaning roli; huquqiy ongni ilmiy-nazariy o'rganishida huquqiy qadriyatlarning ta'siri; O'zbekistonda huquqiy davlat qurishda demokratik qadriyatlarning rolini yanada oshirish - yuksak huquqiy ongni shakllantirish asosi sifatida ekanligi; O'zbekistonda huquqiy ongni yuksaltirish muammolari va ularni bartaraf etish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Falsafa, aksiologiya, qadriyat, demokratiya, ong, huquqiy ong, tafakkur, yuksaklik, demokratik qadriyat, milliy qadriyat, huquqiy tarbiya.

**Kirish.** Jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan ushbu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Xalqaro hamjamiyatning teng va to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish qat'iy harakatlanib rivojlanib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyatining huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini barpo etishda jiddiy yutuqlarga erishildi. Ta'kidlash joizki, inson sivilizatsiyasining ko'p asrlik tarixi jamiyatni yangilashning eng nozik va qiyin sohasi - bu insonlarning ongi, tafakkuri sohasi ekanligidan dalolat beradi. Jamiyatda tub iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar yuz berishi barobarida insonlarning ongi, tafakkuriga monand o'zgarishlarni shakllantirish o'zgacha tarzda kechadi.

Jamiyat rivojlanishi demokratik qadriyatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Ta'kidlash lozimki, qadriyatlarning jamiyat, davlat va shaxs hayotida tutgan o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, fanda, xususan, falsafa fani doirasida qadriyatlar nazariyasi - aksiologiya[1] shakllangan.

Garchi aksiologiyaning dastlabki kurtaklari qadimda shakllangan bo'lsa-da, biroq nazariy fikrning mustaqil bir yo'nalishi sifatida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida uzil-kesil shakllangan. Aksiologiya o'zida o'zaro yaqin bir necha fanlarni birlashtiradi, chunki bu fanlarning barchasi qadriyatli normativ hodisalarni o'rganadi va shu bois metodologik xarakterga ega bo'ladi.

Aksiologik nazariyaning asosiy tushunchasi bu "qadriyat" tushunchasidir. Ushbu atama hanuzgacha turli fan vakillari o'rtasida munozara ob'yekti bo'lib kelmoqda.

Ilmiy doiralarda "Qadriyatlar -inson ehtiyojlarini qondiruvchi narsa va hodisa hamda ularning xususiyatlaridir" degan qarash ancha keng tarqalgan. Shu o'rinda narsa va hodisalar o'z-o'zicha qadriyat bo'la olmasligini, ular insonga qaratilgandagina, inson bilan o'zaro munosabatdagina muayyan qadrga ega bo'lishini ta'kidlash zarur. Demak, qadriyat bu insonga yo'naltirilgan narsa va hodisalardir. Qadriyat biron-bir narsa, hodisaning inson uchun qanchalik zarur va qadrliligi ekanligidir[2].

Ayni paytda hodisalar ijobiy yoki salbiy jihatdan ahamiyatli bo'lishi mumkin. Narsa-hodisaning insonga bog'liq va zarur ijobiy ahamiyati qadriyatni anglatadi. Masalan, huquqqa hurmat hissi jamiyat, davlat va shaxslar uchun foydali va zarur. Bu holda huquqning ijobiy xususiyatlari, uning inson bilan ijobiy o'zaro aloqadorligi qadriyatlidir. Biroq huquqqa juda ham ortiqcha baho berish, uning real imkoniyatlaridan ortib ketadigan natijalarni kutish, ya'ni huquqiy idealizm qadriyat bo'la olmaydi.

Narsa va hodisaning ahamiyatligi ijobiy va salbiy xarakterda bo'lishi mumkin. Masalan, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, huquqiy ong pastligi o'z oqibatiga ko'ra ahamiyatga ega, e'tibor qaratishni taqozo etuvchi hodisalar, biroq bu ahamiyat mazmunan salbiydir, shu bois u qadriyat bo'la olmaydi. Demak, qadriyatlar bu huquq subyekti tomonidan ijobiy baholangan, rivojlanish uchun zarur, foydali va qadrliligi bo'lgan narsa va hodisalardir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bir tuzumdan o'tib, yangi demokratik davlat barpo etish jarayoni nihoya murakkab. Murakkab o'tish davrida insonlar ruhiyatida, ongida jiddiy

o'zgarishlar sodir bo'lib, unda eski qadriyatlardan voz kechish va yangilarini qabul qilish jarayoni yuz beradi va u og'riqli, o'tkir palladir. Taniqli huquqshunos olim V.S.Nersesyans ta'kidlaganidek, bu davrda, bir tomondan, odamlarda tezgina huquqiy ijtimoiy davlat qurish, insonlarni byurokratlashgan amaldorlarning hamda jinoiy tuzilmalarning o'zboshimchaligi va qonunni mensimasligidan himoya qila oladigan chinakam huquqiy tizimni yaratish imkoniyatiga nisbatan bo'lgan ishonch kamaya bormoqda.

Huquqiy ongga manbalarda berilgan ta'riflarga e'tibor qaratamiz: Prof. Z.M.Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin"[3]. Bu ta'rifda huquqiy ong nimalar, ya'ni fandan omillar asosida shakllanishi masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Professor Yu.A.Dmitriyevning ta'rificha, "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari, hislari yig'indisidir"[4]. Ushbu ta'rifda huquqiy ongni muhim funksiyasi bo'lgan, Z.Islomov ta'kidlab ketgan baholash faoliyati e'tibordan chetda qolgan.

Rossiyalik huquqshunos olim A.N.Golovistikovning huquqiy ongga bergan ta'rifi Yu.A.Dmitriyevning ta'rifi bilan bir xil, ya'ni "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari, hislari yig'indisidir"[5]. Bu ikki muallifning ta'rifi tasodifan aynan bir xil bo'lib, unda insonlarning kutilayotgan, xohlanayotgan, Z.M.Islomov ta'bir bilan aytganda, "Orzu qilinayotgan huquqqa" nisbatan munosabatlari hamda huquqiy ong shakllanishining omillari nazardan chetda qolgan.

R.A.Romashov va A.G.Indiklarning ta'rificha, "huquqiy ong insonlarning ijtimoiy hayotning yuridik ahamiyatli hodisalariga (amaldagi qonunchilikka, yuridik amaliyotga, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklariga) nisbatan baholovchi ruhiy munosabatini ifodalovchi huquqiy tasavvurlari, qarashlari, g'oyalari, hislari, hayajonlari majmuidir"[6]. Bu ta'rifda ham insonlarning kutilayotgan huquqqa munosabati hamda huquqiy ongni shakllantirish omillari e'tibordan chetda qolgan.

Akademik V.S.Nersesyans mas'ul muharrirligida chop etilgan "Problemi obshey teorii prava i gosudarstva" nomli kitobda huquqiy ongga quyidagicha ta'rif berilgan: "Huquqiy ong bu insonlarning huquqqa va davlat-huquqiy hodisalarga nisbatan tasavvurlari, qarashlari, ichki ishonchlari, baholari, hislari va tuyg'ulari yig'indisidir"[7]. Bu ta'rifda ham insonlarning huquqiy ongi kutilayotgan huquqqa nisbatan bo'lgan munosabatni ham o'z ichiga olishi tushib qolgan.

Ayni paytda, yuqoridagi ta'riflarning barchasida jiddiy yaqinlik mavjudligini e'tirof etish zarur. Shunday bo'lishiga qaramay, ushbu bayon etilgan ta'riflar ichida Z.Islomovning ta'rifi ushbu ijtimoiy hodisaning muayyan jihatlarini batafsil qamrab olgan. Unda insonlarning nafaqat amaldagi huquq balki, istalayotgan, "orzu qilinayotgan" huquqqa nisbatan munosabati ta'kidlangan.

Shu o'rinda demokratik jamiyatning umume'tirof etilgan tamoyillari ayni paytda demokratik qadriyatlar ham ekanligini ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, huquqiy davlatning muhim zamini erkin fuqarolik jamiyati hisoblanadi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati qadriyatlari ham ajratiladi. Masalan, professor X.T.Odilqoriyev bu masalada shunday deb yozadi: "Fuqarolik jamiyati an'anaviy jamiyatdan o'z ma'naviy rivoji va qadriyatlar tizimi bilan farqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, fuqarolik jamiyatining mazmunini bir qancha siyosiy, ma'naviy axloqiy va huquqiy qadriyatlar tashkil etadi"[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida avvalo tarixiylik va o'zaro aloqadorlik tamoyillaridan foydalanilgan. Ma'lum fikr va mulohazalardan kelib chiqib, induktiv va deduktiv xulosalar qilindi. Har bir boshqichda asosiy adabiyotlardan argument va tezislari keltirilib, ular jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti

davomidagi, ijtimoiy hayotdagi misollar bilan mustahkamlanib, abstraktlikdan konkretlikka o'tish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlaridan keng foydalanilgan. Tadqiqotning uslubiy asosi dialektik-materialistik nazariyasi qoidalari va tamoyillari hisoblanadi. Tadqiqotda qo'yilgan muammolarni hal qilish fundamental tadqiqot yondashuvlari - ontologik, epistemologik, tizimli, tarkibiy-funksional, aksiologik, praksiologik, shuningdek bilishning umumiy ilmiy usullari va shakllari - tahlil va sintez, idealizatsiya, mantiqiy ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.

Demokratik qadriyatlar tadqiqotimiz mavzusi uchun bosh masalalardan biri bo'lganligi bois, dastavval, "Demokratik qadriyatlar deganda nimani tushunamiz?" degan savolga javob berishimiz zarur bo'ladi. Ayni paytda demokratik qadriyatlar haqida mushohada boshlashdan oldin umuman "qadriyat" tushunchasiga e'tibor qaratishimiz zarur. Qadriyat tushunchasi bilan biz oddiy kundalik hayotda, ommaviy-axborot vositalari sahifalarida, ilmiy manbalar, suhbatlarda ko'p duch kelamiz. Qadriyat so'zining o'zagidan ko'rinib turibdiki, qadriyat deganda biron-bir qadrlil narsa yoki hodisa haqida gap ketadi. Qadr deganda odatiy ma'noda aziz, qimmatli narsa va hodisalar tushuniladi.

"Qadriyat" tushunchasi bilan "baholash", "baho berish" tushunchasi uzviy bog'liqdir. Qadriyat baholashga nisbatan ob'ektiv xarakterga ega, zero bu holda ham sub'yektning faol roli e'tiborga olinadi. Aksiologiyaning muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan baholash inson ongining sub'ektiv aktidir, mavjud qadriyatlarining sub'ektiv ifodasidir. Inson u yoki bu hodisani baho berish yo'li bilan qadriyat yoki qadriyat emasga ajratadi. Masalan, sub'ekt jinoyatchilik hodisasiga o'z bahosini berib, uni salbiy hodisa sifatida baholaydi, chunki u doimo kinningdir huquqlari, sog'lig'i, hayoti va sha'niga tahdid soladi. Qonuniylikka esa ijobiy baho beradi, chunki qonuniylilik jamiyatda adolat va tinchlik, inson huquqlarining amalga oshishiga xizmat qiladi.

Odatda, aksiologiya ma'naviy qadriyatlarni g'oyalar, maqsadlar, normalar va ideallarni o'rganadi. Ular insonlarning eng oliy ehtiyojlarini ifodalaydi va moddiy qiymatliklardan farq qilgan holda raqam ko'rsatkichlari bilan bog'lanmagan.

Qadriyatlar nazariyasi yurisprudensiya sohasida ham qo'llaniladi. Chunki huquqiy tartibga solish mexanizmi o'z ichiga turli ahamiyatli huquqiy vositalarni oladi. Huquqiy qadriyatlar va baholashlar o'z navbatida tartibga soluvchilik ahamiyatiga ega. Ayni paytda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar qadriyatlarga aylana boradi va baholash ob'yekti sifatida maydonga chiqadi.

Shu tariqa, huquq va amalga oshirish jarayoni baholash ob'yekti hisoblanadi. Shunga ko'ra huquq nazariyasi predmeti doirasida huquqiy qadriyatlarni o'rganadigan yo'nalish mavjud bo'lib, u huquqni qadriyat sifatida, huquqiy normalarning qadriyatli jihatlarini, huquq sohasida baholash mezonlarini o'rganishga o'z e'tiborini qaratadi. Huquqiy aksiologiya falsafiy-huquqiy aksiologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki huquq aksiologiyasida umumiy aksiologiya tushuncha va kategoriyalaridan foydalanadi[9].

Huquqni aksiologik o'rganish ilmiy, amaliy va g'oyaviy ahamiyatga ega. U huquqning ma'naviy qirralarini chuqur o'rganishga imkon beradi. Qadriyatli yondoshuv huquqning, insoniyatning umumadaniy, umumijtimoiy rivojida rolini, huquq rivojida vorisiylikni, huquqning boshqa ijtimoiy normalar bilan o'zaro aloqadorligini ko'rsatish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot asosan aksiologiya yani qadriyatlar falsafasi tizimida demokratik qadriyatlarining orni, tasnifi, mazmun va mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Qadriyat deganda jamiyat tomondan e'tirof etilgan insoniyatga xizmat qiluvchi, uning ma'lum maqsadlari zamirida shakllangan e'tiqod, hayotiy ehtiyoji va manfaatlarini qondiruvchi jamiki moddiy hamda ma'naviy ne'matlar tushuniladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra uni quyidagicha guruhlariga ajratdik.

birinchidan, voqelikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlaridir;

- ikkinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish yoki kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi;

uchinchidan, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarining qadriyatlar turkumiga kiritilishining asosiy sababi kishilar ularni



qadrlaydi, avaylab-asraydi, chunki bu qadriyat ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatining qadriyatlari hisoblangan mazkur qadriyatlar ayni paytda huquqiy davlat belgilari hamdir. Bu hol tabiiy, zero fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq, biri ikkinchisini taqozo etuvchi ijtimoiy-siyosiy hodisalardir.

Professor A.A.Azizxo'jayev o'zining "Erkinlashtirish - davr talabi" maqolasida umuminsoniy demokratik tamoyillar deganda quyidagilar ko'zda tutilishini ko'rsatib o'tgan: tegishli davlat organlarining saylov asosida vujudga kelishi; teng huquqlilik; fikr erkinligi; ko'ppartiyaviylik; o'z-o'zini boshqarish; hokimiyatning bo'linishi[10].

Bu boradagi yuridik adabiyotlarni tahlil qilish barobarida demokratik qadriyatlar tizimida muhimlari bo'lib quyidagilar hisoblanishini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Xalq suvereniteti qadriyati. Xalq davlatda hokimiyatning birdan-bir va yagona manbai. Xalq suvereniteti jamiyat siyosiy tizimining kundalik faoliyati orqali o'zining ifodasini topadi.

2. Hokimiyatni cheklash qadriyati. Har qanday davlatda saylab qo'yiladigan va tayinlab qo'yiladigan hokimiyat vakillarining vakolati chegarasiz bo'lmay, ular muayyan doirada amal qiladi, ya'ni qonun bilan chegaralab qo'yilgan.

3. Siyosiy erkinliklar qadriyati. Bunda fuqarolar suverenitetlarini amalga oshirish uchun o'zlarini siyosiy hayotda namoyon etadilar, unda faol ishtirok qiladilar, har qanday qonunda yo'l qo'yilgan ma'lumotlarni tarqatish, nashr ettirish huquqiga ega bo'ladilar. garchi ushbu ma'lumotlarda hokimiyatga nisbatan tanqidiy fikrlar bo'lsa-da, har qanday ma'lumotlarni olish erkinligiga ega bo'lish, turli birlashmalarga birlashishi, jumladan, siyosiy partiyalarga yoki hokimiyatga muxolif bo'lgan birlashmalarga birlashishi, erkin va adolatli saylovlarda qatnashishi va davlat organlari lavozimlariga saylanish kabi erkinliklar nazarda tutiladi.

4. Adolatlilik qadriyati. Fuqarolar ijtimoiy boyliklarni taqsim-lashda adolatli asoslarda ishtirok etishi, zararni qoplash va adolatni tiklash, tegishli ma'lumotlarni to'plash va ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lishlari kerak.

**Xulosa va takliflar.** Demak, qadriyatlarini sohalari bo'yicha hamda sub'ektlariga qarab tasniflash mumkin. Qadriyatlarini amal qiladigan sohalari bo'yicha quyidagicha

tasniflash mumkin: siyosiy qadriyatlar; ijtimoiy qadriyatlar; ma'naviy qadriyatlar; axloqiy qadriyatlar; diniy qadriyatlar; mafkuraviy qadriyatlar; huquqiy qadriyatlar. Qadriyatlarini yana subyektlariga qarab ham tasniflash mumkin: umumbashariy qadriyatlar; umummilliy qadriyatlar; jamoaviy qadriyatlar; oilaviy qadriyatlar; shaxsiy qadriyatlar.

Qadriyatlar to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, endi bevosita demokratik qadriyatlarini mushohada qilishimiz kerak bo'ladi. Shu o'rinda bir holatni ta'kidlash zarur. Demokratik qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarining bir tarkibiy qismi hisoblanib, u siyosiy, huquqiy qadriyatlar tizimiga mansubdir.

Biroq yuridik adabiyotlarda demokratik qadriyatlar, ularning tushunchasi va tizimi haqida fikrlar kam yoki yo'qligi kuzatiladi. Demokratik qadriyatlar atamasi yuridik adabiyotlarda har doim qo'llanib kelinishi barobarida, ayni paytda u haqida aynan fikrlar kam. Shu bois demokratik qadriyatlariga o'z ta'rifimizni berishga harakat qilamiz. "Demokratik qadriyatlar bu demokratik rivojlanish tarixi davomida ijtimoiy zarurat natijasida shakllangan va hayot sinovlaridan o'tgan, jamiyatda erkinlik, adolat va tenglik o'rnatilishiga xizmat qiladigan, jahon xalqlari tomonidan umume'tirof etilgan, hayotiy ehtiyoj va manfaatlarni qondiruvchi o'ta ahamiyatli narsa, hodisalardir".

Demokratik qadriyatlarining yuridik adabiyotda maqbul ta'rifi bo'lmaganidek, uning tizimi haqida ham aniq-tiniq fikrlar kam. Boshqacha qilib aytganda, demokratik qadriyatlarining ro'yxati turlicha tarzda e'tirof etiladi. Biroq bir narsa aniqki, demokratiyaning umuminsoniy tamoyillari va talablari mavjudki, ular ayni paytda qanday demokratik qadriyatlar mavjudligini aniqlashda yo'llovchi rolini o'tishi tabiiy.

Shu o'rinda demokratik jamiyatning umume'tirof etilgan tamoyillari ayni paytda demokratik qadriyatlar ham ekanligini ta'kidlash zarur.

Aytish mumkinki, qonunda mustahkamlangan normalarning siyosiy hayotga tadbiiq etilishi jamiyatni demokratlashtirish, davlat boshqaruvini yangilash va bu jarayonda siyosiy partiyalarning rolini ko'tarishda yangi qadam bo'lishi shubhasiz.

Demokratik qadriyatlarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi beqiyos o'rni va rolini chuqur tushunib yetgan jamiyatimiz o'z rivojining dastlabki pallalaridan boshlab, demokratik qadriyatlarini jamiyatimiz ongi va qalbga singdirish, ularni harakat dasturiga aylantirish yo'lini tutdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Назаров Қ.Н. Аксиология қадриятлар фалсафаси. -Т.: "Маънавият", 1998.-121 б.;
2. Уо. S.Sadikova. Huquqiy ongni shakllantirishda demokratik qadriyatlarining o'rni. (Monografiya). T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi», 2021. - 128 b.
3. Ислотов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. — Г.: "Адолат", 2007. —Б.537.
4. Дмитриев О.А.. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под. ред. Пиголкина. -Москва: Юрайт-Издат, 2006. -С.547.
Глобализация создает условия для формирования идеи глобального гражданства, основанного на универсальных человеческих ценностях. Далай-лама XIV часто обращается к этой теме, подчеркивая важность универсальных этических принципов, таких как сострадание, справедливость и уважение к природе, которые могут стать основой для новой духовности в глобализованном мире. Наряду с позитивными аспектами, в глобализации видят и источники проблем, такие как неравенство и разрушение традиционных культур. Критики глобализации, включая Ноама Хомского, говорят о том, что она способствует консолидации экономической власти в руках небольшого числа корпораций и элит, в то время как миллионы людей лишаются возможностей для самореализации. Это вызывает потребность в духовных движениях, призванных объединять и помогать тем, кто чувствует себя отчужденным в этом процессе [11].

Таким образом, духовность в контексте глобализации-это сложный и многогранный процесс, где сталкиваются различные идеи и влияния. Это создает уникальную возможность для духовного роста и обогащения, если подойти к этому вопросу осознанно, с пониманием всех вызовов и потенциала.

Размышляя далее о развитии духовности в глобализованном мире, можно обратить внимание на некоторые дополнительные направления и вопросы, которые стоит учитывать в этом контексте.

Одной из важнейших задач современного общества является формирование нового подхода к образованию, где духовное развитие сочетается с академическим. Педагоги и философы, такие как Говард Гарднер и Мария Монтессори, подчеркивают важность целостного подхода к обучению, включающего в себя эмоциональное, социальное и духовное воспитание, позволяя развивать ценности, необходимые для ответственного глобального гражданства.

В условиях глобализации наблюдается рост интереса к этнической и местной культуре. Для многих это попытка сохранить свою идентичность, корни и духовное наследие. Такие авторы, как Вандана Шива, пишут о важности поддержания культурного разнообразия, которое обеспечивает устойчивость мирового сообщества и позволяет людям находить баланс между глобальным и локальным [12].

Экологическая катастрофа и изменение климата стали глобальными проблемами, требующими нового духовного осмысления. Многочисленные экологические активисты, включая Грету Тунберг и организацию «Экологическое Движение Интерфейта», призывают к экологической духовности, объединяющей религиозные и светские ценности в стремлении защитить природу и создать гармоничные отношения между человечеством и окружающей средой.

Глобализация подталкивает людей к объединению в разнообразные духовные сообщества, основанные на общих

ценностях и интересах. Эти сообщества могут быть как религиозными, так и секулярными, способствуя созданию взаимной поддержки и солидарности. Автор Шейла Фелан описывает в своей книге «Духовные сообщества в эпоху глобализации», как такие объединения способствуют улучшению психического здоровья и социального благополучия.

Виртуальная реальность и цифровые технологии способствуют появлению новых форм духовного опыта. Современные средства коммуникации позволяют проводить виртуальные религиозные службы, медитации и обучение, создавая глобальные сообщества верующих. При этом появляются и новые вопросы, связанные с балансом между виртуальной и физической духовностью, как отмечают исследователи вроде Эммы Томлин.

Таким образом, духовность в эпоху глобализации является всеобъемлющим и динамичным процессом, требующим внимательного осмысления и адаптации. Важнейшим вызовом становится поиск баланса между традицией и современностью, локальным и глобальным, технологическим и естественным, чтобы сформировать обогащенную духовную жизнь в нашем быстро меняющемся мире.

Глобализация способствует взаимопроникновению различных религий, приводя к увеличению религиозного разнообразия в обществе. Кеннет Крейг в своей книге «Религии мира в эпоху глобализации» отмечает, что это расширяет перспективы для межрелигиозного сотрудничества, но также создает проблемы для религиозной идентичности. Духовные лидеры сталкиваются с необходимостью искать пути к диалогу и взаимопониманию в этом новом, более сложном контексте.

В условиях роста экономического неравенства усиливается движение за экономическую справедливость, часто поддерживаемое религиозными и духовными лидерами. Папа Франциск в своих обращениях и энцикликах подчеркивал важность справедливого распределения ресурсов, уважения к труду и преодоления бедности. Подобные принципы объединяют различные религии, формируя универсальную духовную этику экономической справедливости.

Многие современные духовные движения принимают форму активизма, борясь за социальную справедливость, права человека и экологическую устойчивость. Активисты, такие как Вангари Маатаи, которая основала «Зеленый пояс» в Кении, и Мартин Лютер Кинг, внесли свой вклад в борьбу за равенство и права человека. Их подходы сочетают духовные ценности с конкретными действиями в обществе.

В быстро меняющемся мире глобализации и информационных перегрузок повышается необходимость в развитии психологической устойчивости. Духовные практики, такие как медитация, осознанность и саморефлексия, становятся популярными не только среди религиозных, но и среди светских людей. Это подтверждают исследования Джона Кабат-Зинна и других ученых в области психологии, отмечающих благотворное влияние духовных практик на психическое здоровье.

В эпоху глобализации вопрос этического и ответственного лидерства приобретает особую актуальность. Духовные ценности становятся основой для формирования лидеров, стремящихся к позитивным изменениям в обществе. Стивен Кови в своей книге «7 навыков высокоэффективных людей» и Далай-лама XIV в «Книге радости» подчеркивают важность внутренней устойчивости и нравственных принципов в этом процессе.

Глобализация ведет к росту светского мировоззрения, однако это не означает отказ от духовного поиска. Многие люди находят смысл в секулярной духовности, которая опирается на гуманистические ценности, науку и осознанность. Сэм Харрис в своих работах, таких как «Пробуждение: руководство к духовности без религии», предлагает практики, основанные на науке и рационализме.

Таким образом, духовное развитие в условиях глобализации требует рассмотрения новых моделей и форм,

способных адаптироваться к разнообразию современных мировоззрений и культур. Оно отражает динамичные изменения, происходящие в мире, и открывает возможности для новых идей и подходов к духовному поиску.

В условиях глобализации растет спрос на лидеров, способных сочетать духовные ценности с практическими действиями для социальной трансформации. Гуру Садхгуру и Архиепископ Дезмонд Туту, например, призывают к укреплению духовного лидерства, которое ведет к улучшению общества через активное служение, развитие образования и продвижение мира.

В современных условиях важным элементом духовного развития становится инклюзивность. Это подразумевает принятие многообразия духовных и религиозных традиций, что помогает преодолеть разногласия и противоречия. Примером этого служит «Парламент мировых религий», где лидеры различных конфессий и культур обсуждают актуальные вопросы мира и толерантности.

Цифровизация создала новую сферу для духовного поиска и практик, где люди могут обращаться к виртуальным церквям, медитациям онлайн и лекциям духовных учителей. Хотя цифровая духовность часто критикуется за поверхностность, она также предоставляет возможность

объединения людей на глобальном уровне и устранения барьеров для тех, кто иначе не смог бы присоединиться к таким практикам.

Духовные лидеры и философы, такие как Ганс Кюнг, в рамках концепции глобальной этики подчеркивают необходимость поиска общих ценностей между религиями и культурами. Кюнг утверждает, что подобная этика способствует укреплению мира и разрешению конфликтов, развивая в людях понимание ответственности перед всеми живыми существами.

**Выводы.** Современная духовность также направлена на развитие личной осознанности и раскрытие потенциала каждого человека. Эта тенденция прослеживается в работах Экхарта Толле, чьи книги, такие как «Сила момента сейчас», учат людей жить более осознанно, концентрируясь на текущем моменте и преодолевая негативное влияние прошлого и будущего.

Таким образом, глобализация способствует формированию разнообразных направлений в духовности, объединяя религиозные традиции и создавая новые формы духовного самовыражения. Это отражает потребности современного общества в поиске смысла и духовного пути в условиях постоянно меняющегося глобального мира.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Berger P. The desecularization of the world: resurgent religion and world politics. Washington. 1999.
2. Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества / Пер. с англ. - М.: Издательство «Весь Мир», 2004. - 188 с.
3. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма-ответы на глобализацию. Москва: Прогресс-Традиция. 2001. 304 с.
4. Карр Н.Дж. Пустышка. Что интернет делает с нашими мозгами / пер. с англ. Павел Миронов. М.: Best Business Books, 2012. 256 с.
5. Кюнг Г. Мировая этика для политики и экономики. Мюнхен: Piper Verlag. 1998.
6. Кюнг Г. Нет мира между народами без мира между религиями. Мюнхен: Piper Verlag. 2004.
7. Морен, Э. Введение в комплексность. Москва: Прогресс-Традиция. 1999.
8. XIV Далай Лама. Этика для нового тысячелетия. Лондон: Little, Brown and Company. 1999.
9. Уилбер К. Теория всего: интегральная визия для бизнеса, политики, науки и духовности. Москва: Академический Проект. 2001.
10. Франциск Папа. Laudato Si': О заботе о нашем общем доме. Ватикан: Libreria Editrice Vaticana. 2015.
11. Хомский Н. Гегемония или выживание: американские стремления к глобальному доминированию. Москва: Европа. 2006.
12. Шива В. Земля, женщина и возрождение культуры: сохранение мира в мире глобализации. Москва: Колibri. 2005.



UDK:371:378 (575.1)

**Zulxumor MIRZAYEVA,**  
*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*  
E-mail: [zulxumorm.1990@gmail.com](mailto:zulxumorm.1990@gmail.com)

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori B.S.Abdullayeva taqrizi asosida*

### TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONING TIL O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonida nazariy jihatdan o‘rganilgan ta‘riflar va amaliyatda holatlari ifodalangan va mustaqil ishlash jarayonini tushunib etish, bajarish bosqichlari haqida ma‘lumotlar faktlar bilan beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiyalar, metod, mustaqil ta‘lim, motivatsiya, layoqat, syllabus, CEFR.

### THE THEORETICAL IMPORTANCE OF THE PROCESS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMING STUDENTS' INDEPENDENT WORK COMPETENCIES IN LANGUAGE LEARNING

Annotation

In this article, in the process of improving the methodology of developing students' independent work competencies, theoretically studied definitions and practical situations are expressed, and information about the stages of understanding and implementation of the independent work process is given with facts.

**Key words:** Competencies, method, independent education, motivation, ability, program, CEFR.

### ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПРОЦЕССА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретически изученные определения и практические ситуации в процессе совершенствования методики формирования компетенций самостоятельной работы студентов, а также приведены факты об этапах понимания и реализации процесса самостоятельной работы.

**Ключевые слова:** Компетенции, метод, самостоятельное обучение, мотивация, способности, программа, CEFR.

**Kirish.** Hozirgi zamonaviy kredit-modul ta‘lim tizimida mustaqil ta‘lim kompetensiyalarini yanada rivojlantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta‘lim kompetensiya so‘zidagi “kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma‘nolarni anglatadi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. Kompetensiya O‘zbekiston milliy ensiklopediyasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: lotincha: competo - erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma‘nolarni berib, muayyan davlat organi (mahalliy O‘zini O‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ta‘rif berilgan[1].

“Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad – talabalarni kredit-modul tizimida mustaqil ta‘lim kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta‘limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o‘qitish jarayoni va tarbiyalashda mustaqil kompetentlikka nisbatan pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Kompetensiya so‘zi ingliz tilida umumiy tarjimada quyidagicha ta‘rif berilgan: “the ability to do something well”- biror narsani yaxshi qilish, bajarish qobiliyati”[2].

Bugungi kundagi ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarimush-taqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarnishakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. O‘zbekistonRespublikasining oliy ta‘lim muassasalarida bu vazifalarni amalgaoshirishgabosqichmabosqich o‘tish rejalashtirilgan.Talabalarda mustaqil ta‘limolish,tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizim- li tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarinishakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishgaqaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliyko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada “Kompetensiya va kompetentlik” tushunchalarining tavsifi.

o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik textnologiyalarni joriy etish asosiy o‘rinni egallaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kredit-modul sharoitida ta‘lim va tarbiya berish jarayonida asosiy kompetensiyalar unsurlarini bilish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy qismlaridan biridir. Kompetensiya va kompetentlik bo‘yicha izlanishlar 1960-yillarda Qo‘shma Shtatlarda a paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘limning rivojlanishi R. White, N. Chomskiy asarlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda kompetensiya shaxsiy komponentlar, jumladan motivatsiya, fikrlash va nutq bilan to‘ldirilgan. Pedagogikadan tashqari psixolog olimlardan N.V.Grishina ham ushbu masalaga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, kompetentlikni “qarama-qarshiliklar tabiatini tushunish, muammolarga nisbatan konstruktiv qarashni shakllanishi, yuzaga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni boshqarishda” [3] deb tariflaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Umumiy kompetensiya masalasida jahon olimlari tajribasini o‘rganish yoki an‘anaviy o‘zbek pedagogikasi me‘yorlaridan asos bo‘lgan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar, ta‘riflar xilma-xildir va hali yechilmagan masalalar mustaqil ta‘lim kompetensiyasida muammolar ko‘pligi ko‘rindi. Sharq olimlaridan L.T.Xurvaliyevaning kompetensiyalarga doir fikrlarini, ilmiy ishlarini taxlil qilish uchun ta‘riflarini ko‘rib chiqish mumkin. Unga ko‘ra “Kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatleri, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatidir” deb ta‘rif keltirgan. Shuningdek yana bir o‘zbek olimlardan Ermirzayev Abbas Vaxobjonovichning ilmiy ishlarida kompetensiya haqida ilmiy izlanishlar olib borildi va kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta‘rif keltirib o‘tgan.

| №  | Kompetentsiya  | Kompetentlik   |
|----|--|--|
| 1. | “kompetentsiya” lotincha compete so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman” degan ma'nolarni ifodalab, u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikka ega ekanligini bildiradi                                | kompetentlik atamasi ham lotincha “compete” so'zi bilan o'zakkdosh bo'lib, “erishayapman”, munosibman” degan ma'nolarini anglatadi hamda muayyan sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi   |
| 2. | muayyan davlat organi (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjati bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi, u yoki bu sohadagi bilimlari, tajribalari | “ijtimoiy –amaliy vazifalarga moslik, shaxs bilim va malakalarining amaliy nuqtai nazardan bajarilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarga loyqliqi, shuningdek, iqtidor va qobiliyatning o'ziga xos mosligidan iboratdir” |
| 3. | insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi   | shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetentsiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir  |

Kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish nafaqat pedagog olimlar bilan birga lingvist va metodist olimlar tomonidan ham uning turli jihatlarini o'rganilgan. Jumladan, kommunikativ kompetentsiyaning nazariy va amaliy masalalari N.N.Dolovova, Ya.V.Taraskina, O.I.Xalupo, I.V.Alexina, R.S.Arefyev, T.P.Popova, S.A.Strokhova ilmiy tadqiqotlarida yoritib bergan.

“Yevropa Kengashining CEFR malaka talablarida kompetentsiya – insonga xatti-harakatlarini bajarishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va xususiyatlar yig'indisi sifatida ta'riflangan. Pedagog olim M.A.Choshanov fikriga ko'ra, kompetentsiya – mutaxassisning muayyan malaka va kasbiy darajasi bo'lib, bilimlarni doimiy yangilab borishni, egallashni o'z ichiga oladi A.A.Leontyev esa, kompetentsiya bilim, ko'nikma va umumiy malakalarni mutaxassis ish faoliyatiga safarbar qila olish layoqati deya ta'riflaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadqiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarining tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim. Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lami ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim muassasalarida mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi amalga oshiradi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi. Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar,

o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida talabalarini tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi.

Ushbu bilimlarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlar, shart-sharoitlar, ya'ni operativ va mobil bilimlarni egallash hamda bu bilimlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga salohiyatli tayyorlikdir. K.J.Risqulova kompetentsiya va kompetentlik terminlariga shunday ta'rif bergan. Uning fikricha, kompetentsiya tushunchasi u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiologik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa – shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetentsiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentsiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik harakteriga egadir. Kompetentlikning asosiy mezon mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi[5].

**Xulosa.** Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy –siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi. Mustaqil ish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sifatli muloqot, talabalar mustaqil ish jarayonida o'qituvchining roli va ahamiyati, boshqaruv funksiyalari, axborot kommunikativ texnologiyalaridan, mobil texnologiyalaridan foydalanib talabalarining mustaqil ishlarini zamonaviy shakllari - pedagogik muammo sifatida yoritilishini taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/competence>
3. Grishina .N.V. Психология конфликта. Хрестоматия. 2 изд. - СПб.: Питер, 2009
4. Ermirzayev. A.V “Yuqori sinf o'q'uvchilarining sotsiologik kompetentsiyasini mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'q'ish orqali rivojlantirish texnologiyasi”/ diss. ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. –2021-30b
5. Sarimsakova D. M Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining ingliz tilida sotsiologik kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyasi/ diss. ped.fan. bo'yicha falsafa doktori. 2022-16b
6. Ziyodullayeva, G. (2020). O'QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH, MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH ORQALI BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. Science and Education, 1(2), 475-479





UDK:378.57.371.4

**Nodira MIRZAEVA,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD*

*E-mail: nodirabegim.2018@mail.ru*

*Pedagogika fanlari doktori, professor T.Ismoilov taqrizi asosida*

## PEDAGOGICAL-PSIXOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY

Annotation

The article analyzes the psychological characteristics of 21st century students when using STEAM educational technologies in the process of teaching biology, analyzes their implementation in the organization of high-quality education based on a separate approach in accordance with the specifics of each branch of science and cluster direction.

**Key words:** Biology teaching process, cluster approach, innovative cluster of pedagogical education, generation of quiet people, Baby boomer generation, Generation X, generation Y, generation Z, Alpha generation, quality education.

## БИОЛОГИЯ О'QITISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Maqolada biologiya o'qitish jarayonida STEAM ta'lim texnologiyalarni qo'llashda 21 - asr o'quvchilarining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib sifatli ta'limni tashkil etishda uning amaliyotga tatbiq etilishi, har bir fan tarmog'i va Klaster hududining o'ziga xosligiga mos ravishda alohida yondashuv asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Biologiya o'qitish jarayoni, Klaster yondashuv, pedagogik ta'lim innovasion klasteri, Sokin insonlar avlodi, Baby Bumers avlodi, X Avlod, Y Avlod, Z Avlod, Alfa avlod, sifatli ta'lim.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM В ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация

В статье анализируются психологические особенности учащихся 21 века при применении образовательных технологий STEAM в процессе преподавания биологии, анализируется их внедрение в организацию качественного образования, основанного на отдельном подходе в соответствии со спецификой каждой отрасли науки и кластерного направления.

**Ключевые слова:** Процесс преподавания биологии, кластерный подход, инновационный кластер педагогического образования, поколение тихих людей, поколение Бэби-бумеров, Поколение X, поколение Y, поколение Z, поколение Альфа, качественное образование.

**Kirish.** Jahon mamlakatlarida bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning asosi ta'lim sohasida amalga oshirilmoqda. BMT ning "barqaror rivojlanish kun tartibi"da insonning intellektual tarbiyasiga oid chora-tadbirlarning belgilanishi ham avvalo kelajak avlod kamoloti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining sifat masalasiga bog'liq holda ta'lim-tarbiya tizimini nazorat qilish, pedagogik jarayonlarni sifatini baholash texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatib kelmoqda.

Dunyo hamjamiyatining globallashtirish sari borayotgan hozirgi davrida ta'limning barcha bo'g'inlarini integratsiyalashda ta'lim uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda davlatlarning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi vazifalarni hal etishda uzluksiz ta'limning quyi bo'g'inlaridan boshlab, integratsiyalashgan ta'lim metodlari va texnologiyalarini tatbiq etish, kelajak avlodni har tomonlama barkamol 21 - asr ko'nikmalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi "umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEM ta'limi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 274-son buyrug'ida[1] , umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini ko'tarishda STEM ta'limini joriy etish uchun eng avvalo ijalimiyotchi o'qituvchilar uning afzalliklari haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur ekanligi belgilandi.

**Adabiyotlar tahlili.** AQSh da 2011 yildan beri Chikagoda "kelajak olimlari" nomli loyiha (Scientists for tomorrow — SFT) tashabbusi qo'llab-quvvatlanmoqda. SFT tashabbusi asosan STEAM yondashuviga asoslangan o'quv dasturi va oliy ta'lim muassasalarining maktabdan tashqari

tashkilotlar va norasmiy ta'lim markazlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bu loyiha asosida yoshlar bo'sh vaqtlarida asosiy o'qish mentori yoki ish ustasidan "muqobil energiya", "tovushlar fizikasi va musiqiy matematika" kabi turli xil o'quv modullari ", "odamlar va o'simliklar", "robototexnika" va "Astronomiya" kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borib, ilmiy tajribalarni qo'yishni o'rganadilar.

Davlatlarda yuz berayotgan iqtisodiy inqirozning oldini olishda ilm-fan, texnologiyalar va fanlararo integratsiyani ta'minlash asosida vujudga keladigan "ijod makonlari"ni yaratish, fanlararo samarali va ustuvor loyiha ishlarini yaratishda maktab o'quvchilari, talabalar va ilmiy tadqiqotchilarning Klaster yondashuviga binoan haraktalarini ta'minlash, xorijiy davlatlarda keng yo'lga qo'yilgan. Misol tariqasida bunday o'z hududidagi turli sohalaridagi bilim va tajribani integratsiyalaydigan va platformalar ilmiy, ta'lim, biznes va sanoat muhitini yaratadigan "ijod makonlari", Finlandiyada Aalto University - Design Factory "FabLab" misolida tarqiy etib kelmoqda.

Singapur kabi Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotni rivojlantirishda ijodkorlik va tadqiqotchilikni etakchi omilga aylantirgani sabab katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. 2002 yilda Singapurni dunyo ta'lim tizimida global ijodkorlik, innovatsiya va dizayn markaziga aylantirishga qaratilgan Remaking Singapur tashabbusi boshlandi. Yangi funktsiyalar iqtisodiyotning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirgan bo'lib, asosiy kuch ta'limni rivojlantirish orqali amalga oshirishga qaratildi. Yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini rag'batlantirish uchun Singapur hukumati ta'lim tizimini isloh qilmoqda hamda xalqaro baholash dasturlariga ustuvorlikni berish asosida tabiiy – ilmiy savodxonlikni, o'quvchi-talabalarning metakompetentligini rivojlantirishda STEAM yondashuvdan keng foydalanmoqda.



Rossiya Federasiyasidagi zamonaviy ta'lim tizimlari STEAM deb nomlanmasligi va hozirda ilmiy va muhandislik ta'limiga ustuvor berilishi bilan G'arb olami STEAM ta'limidan keskin farq qiladi. Rossiya Federasiyasidagi texnik savodxonligi, Amerika Qo'shma Shtatlar tajribasi va ta'limni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishni yaratib bergan bo'lib, fan-texnikaning ilg'or tendentsiyalarni hisobga olgan holda, ijodkorlik masalalarni hal qilishda ham etakchi sanalardi. Rossiyada 2014 yilda Moskva shahrida Moskva viloyati va Volga federal okrugini 155 ta STEAM markazlari ochilgan. Bunday ilm-fan va texnik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ijod markazlari 2015 yildan loyiha tashkilotchilarining rejalariga muvofiq dasturga 7 tagacha yangi mintaqalarni o'z ichiga qamrab olishi rejalashtirilgan edi.

2021 yil 3-18 iyun oylarida A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi istiqbollarini aniqlash va muammolarni o'rganish milliy tadqiqot instituti, Xalq ta'limi vazirligi va Shimoliy Jorjiya universiteti (AQSh) Steam trener-pedagoglari bilan birgalikda 25 maktab direktorlari uchun Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 158-sonli umumta'lim maktabida [2] "O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta'lim, tarbiya va fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmoni ijrosi doirasida Respublika STEAM uslubiy seminari tashkil etilgan. Bu seminar-trening davomida o'zbekistonlik maktab direktor uchun STEAM yondashuvini amaliyotga tadbiq etishdagi mahorat darslari uyushtirilgani, kelajakda har bir viloyat maktab rahbari tomonidan ijodkorlikni va tadqiqotchilikni rivojlantirishga moslashgan innovasion darslar va ular uslubiyoti amaliyotga tadbiq etiladi. STEAM fanining predmeti fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani yaxlit va umumiy shaklda o'rganishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu bilim va ko'nikmalarni turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda qo'llashni, kelajak hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'qituvchilarga STEAM sohasidagi yeng yangi axborot va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini berish muhimdir. Bunga STEAM yondashuvi sohasida ishlaydigan mutaxassislar va tadqiqotchilarni jalb qilish, o'quv dasturlari va darsliklarni so'nggi ilmiy va texnologik yutuqlarga muvofiq yangilash kiradi. Shunday qilib, biologiya o'qitishda STEAM yondashuvini amalga oshira oladigan o'qituvchilarini tayyorlash tizimini yaratish ushbu sohani rivojlantirishni jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda tabiiy fanlar fakul'tetida bo'lajak biologiya o'qituvchilariga steam ta'lim texnologiyalarini joriy qilish orqali erishish mumkin.

"STEAM" atamasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani anglatadi. Bu beshta fanni yaxlit va fanlararo asosga birlashtirgan ta'limiy yondashuv. STEAM yondashuvi ushbu sohalarining o'zaro bog'liqligini tan oladi va murakkab muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va texnik ko'nikmalarni birlashtirish muhimligini ta'kidlaydi [5]. So'nggi yillarda STEAM ta'lim XXI-asrda talab qilinadigan tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'rganishga yaxlit yondashuvni taklif yetadi. Ushbu hisobotda keltirilgan qoidalarga rioya qilish STEAM ta'limida samarali o'qitish va muvaffaqiyatli ta'lim natijalariga olib keladi. 1991 yilda amerikalik olimlar Nil Xov va Uilyam Strauss dunyoda har 20 yilda qayta tug'iladigan yangi avlod nazariyasini taqdim etdilar. Bu nazariyaga ko'ra bir avlod odamlari bir xil xususiyatlarga, ba'zi odatlarga va ko'p hollarda bir hil dunyoqarashga ega edilar. Ularni bir hildagi filmlar, qo'shiqlar, reklama roliklari umumlashtirib turadi.

Bugungi kun insonlari quyidagi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan turli bosqich avlodlari sifatida faoliyat yuritadi:

Sokin insonlar

Baby Bumers

X Avlod

Y Avlod

Z Avlod

Alfa avlod

Sokin - Jim avlod (1920 yildan 1940 yilgacha tug'ilgan) ularning xususiyatlarini bobo va buvilarda ko'rish mumkin. Ular 20-asrning eng dahshatli voqeasi-ikkinchi jahon urushini, vayronagarchilik va ocharchilik ko'rgan insonlar boshlandi. Shu sabab ular: sabrli, bardoshli va sokindirilar. Zaxira to'plash va

tejash xarakterlidir. Ular nazdida yaxshi bola – qorni to'q farzand sanaladi. Bu avlod qonunga bo'ysunuvchan, hamma narsada konservativ:tish pastasidan tortib siyosiy qarashlargacha va mehnatsevar sanaladi.

Baby Bumers (1940 yildan 1960 yilgacha tug'ilgan). Uning xususiyatlarini ota-onalarda ko'rish mumkin. "Baby Boomers" o'z nomini "be-bi-bum" tushunchasidan olgan bo'lib, tug'ilish darajasi keskin ko'tarilib, urush davrida halokatidan keyin dunyoni qamrab olgan mehnatkashlar, kollektivistlar, optimistlar, faollar kiradi. Ular g'oliblar psixologiyasiga ega avlod bo'lib, ular sog'liqni saqlash, to'g'ri ovqatlanish va sport bilan shug'ullanadilar. Bu avlodda yaxshi bola - faol bola sanaladi. Ular porloq kelajakka ishonishadi. Hamma narsada jamoaviy ruhiyat bilan harakat qiladilar, sportda ham (voleybol, basketbol, futbol).

X avlod (1960 yildan 1980 yilgacha tug'ilgan). "Bo'ynidagi kalit bor bolalar" deb nomlangan. Ularning ota-onalari (mehnatsevar "Bumerlar") ko'p ishladilar va ko'pincha uyda bo'lmas edilar. Shuning uchun, x avlod bolaligidan mustaqil tarzda bo'lib: ular o'zlari maktabga borishardi, uy vazifalarini bajarishdi, tushlik qilishardi va ularning bo'yniga kvartiraning kaliti osilgan bo'lar edi. Ular individual va hatto ekstremal sport turlarini yaxshi ko'radilar. Ular vaqt va resurslarni qadrlashadi, qulaylik va tezlik uchun pul to'lashga tayyor. Faqat o'zlariga ishonadilar. Ular uchun yaxshi bola bu - mustaqil bola sanalgan. O'zgarishga va butun umr o'rganishga tayyor bo'lib gender tenglik tarafdori sanaladi.

Y avlodi (1980 yildan 2000 yilgacha tug'ilgan). Pessimizm o'rmini ijtimoiy tarmoqlar yoki ming yillik avlodning pushti ko'zoynaklari egallaydi. Ular konfort va qulayliklar dunyosida tug'ilgan va o'zining soddaligi va go'zallikka bo'lgan ishonchi bilan oldingi avlodlarni hayratda qoldirgan. Ular hayotdan zavqlanishni biladilar, erkinlikni sevadiganlar. Ammo itoat qilishni bilishmaydi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarga yo'naltirilgan bo'lib, oson moslashadi, doimiy ravishda yangi bilim va rivojlanishga intilishadi. Ular uchun yaxshi bola aqli bola. Faol, o'z qadriyatlarini uchun kurashadilar. Adolat va axloqning tug'ma tuyg'usi ularda kuchli rivojlangan. Gipermarketlar, savdo markazlari x avlod uchun katta hovli kabi bo'lib, ular u erda aylanadi, ovqatlanadilar, do'stlari bilan uchrashadilar.

Z avlodi (2000 yildan 2010 yilgacha tug'ilgan). Yangi avlod shakllanmoqda, ammo sotsiologlar bu qanday bo'lishini allaqachon taxmin qilishmoqda. z avlodi bizning o'yinchoqlarimizga muhtoj emas, ular o'zlari yaratishni xohlashadi. Z avlodi besh yoshga kelib soddalik chegarasini yoyishdi va endi hech narsadan hayron bo'lishmadi. Ular hamma narsaning mantiqiy izohi borligini bilishadi. Z avlod bolalari tabiatan olimlar, kasb bo'yicha muhandislar, huquq bo'yicha daholar sanaladi.

Alfa avlod – 2010 yildan keyin tavallud topgan farzandlar sanaladi. Bu kelajak avlodlari smartfon avlodlari yoki google baby, ayrim hollarda esa djen avlod bolalari deb ataladi. Ushbu avlod bolalari yin-kulgilarida elektron texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va dars o'tish xizmatlari ko'proq ustunlik qilmoqda va an'anaviy televideniya qiziqish bir vaqtning o'zida pasaymoqda. Sinflarda va hayotning boshqa jabhalarida texnologiyadan foydalanishdagi o'zgarishlar bu avlod oldingi avlodlarga nisbatan erta o'rganishni qanday boshdan kechirganiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shunday ekan, kelajak farzandlarini tarbiya qilishda ko'nikma va qay darajada bilimlar zarur ekanligi har bir davr farzandlar hususiyatlaridan kelib chiqib, pedagogik va psixologik yondashish, biologik bilimlarni fanlararo sintez holatida etkazish bo'lajak XXI asr pedagogidan talab qilinadigan zaruriy metodik talab sanaladi. STEAM ta'limini o'rganish zarurati kelajakka tayyorgarlik strategiyasi ostida rivojlantirilishi kerak. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) innovatsiyalarni rivojlantirayotgan va turli sohalarini shakllantirayotgan bugungi tez rivojlanayotgan dunyoda STEAM ta'limini o'rganish zaruratga aylandi. Ushbu hisobot STEAM ta'limini o'rganishning ahamiyati va o'quvchilarga taqdim yetadigan afzalliklarini yoritishga qaratilgan [6]. STEAM ta'limi ko'pincha o'quvchilar umumiy maqsadlarga yerishish uchun jamoalarda birgalikda ishlaydigan hamkorlikdagi loyihalarni o'z

ichiga oladi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv professional dunyoda juda talab qilinadigan samarali muloqot, jamoaviy ish va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantiradi. Turli jamoalarda ishlashni o'rganish o'quvchilarni hamkorlik qilish, muzokaralar olib borish va birgalikda yechimlarni topish qobiliyatiga yega bo'lib, ular duch kelishi mumkin bo'lgan haqiqiy dunyo ssenariylarini aks ettiradi.

STEAM ta'lim bir nechta fanlarni birlashtiradi, bu o'quvchilarga turli mavzular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga imkon beradi. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning integratsiyasi ularning o'zaro bog'liqligini yaxlit tushunishni rivojlantiradi, har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalaydi. Ushbu intizomiy yondashuv o'quvchilarni tor siloslardan tashqarida o'ylashga va muammolar va yechimlarni kengroq nuqtai nazardan qabul qilishga undaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4805-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.04.2021 yildagi 213-son Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori.
3. Muhamedov, G.I, Xodjamqulov.U.N "pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ta'rif, tavsif va tasnif. Ilmiy risola."T.:, Universitet (2019).
4. Raximov.A.K. Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish zamon talabi // Academic research in educational sciences. Chirchik state pedagogical institute Tashkent region, Uzbekistan problems and solutions, June 25-26, 2021. Building 2a, istikbol street, pp. 210-214.
5. Klaudiya, K., & Mirzaeva. N. A. (2022). O'zbekistonda tabiiy fanlarni o'qitishning Steam metodikasiga asoslangan o'quv darslarni tashkil etishda "eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili. Innovative Development in Educational Activities, 1(5), 51-69.
6. Mirzaeva N. A. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovasion klasteri (Chirchiq modeli) "eshitdim – ko'rdim bajardim" tamoyili metodologiyasi // ReFocus. 2022. №1.



УДК:81'36: 811.512.133"715"

**Gulchiroy MUHIDDINOVA,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [gulchiroy.mukhitdinova@bk.ru](mailto:gulchiroy.mukhitdinova@bk.ru)

*Renessans ta'limi universiteti dots., Q.Eshboyev taqrizi asosida*

#### TEACHING STUDENTS TO GRAMMATICAL ANALYSIS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES

Annotation

The main purpose of mother tongue education is described in the article. There are ways to explain grammatical concepts to students in simple and effective ways based on assignments. Children's speech is formed under the influence of parents, relatives and the environment from birth to school. Even a person who is completely ignorant of the theoretical aspects of grammatical construction in his native language can form a sentence completely grammatically correctly. Even a child who has not yet learned to read and write. The main task of the school and educational processes is to further expand, improve and develop these skills and qualifications of children. Teaching the mother tongue at school requires more work from the teacher than other subjects.

**Key words:** mother tongue education, grammar, aids, speaking, skills and competence.

#### ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ГРАММАТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ НА КЛАССАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье описана основная цель обучения родному языку. Существуют способы объяснить учащимся грамматические понятия простыми и эффективными способами на основе заданий. Речь детей формируется под влиянием родителей, родственников и окружающей среды от рождения до школы. Даже человек, совершенно несведущий в теоретических аспектах грамматического построения родного языка, может совершенно грамматически правильно составить предложение. Даже ребенок, который еще не научился читать и писать. Основная задача школы и образовательного процесса – дальнейшее расширение, совершенствование и развитие этих навыков и квалификации детей. Преподавание родного языка в школе требует от учителя большего труда, чем преподавание других предметов.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, грамматика, вспомогательные средства, говорение, навыки и компетенции.

#### ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA GAPNI GRAMMATIK JIHATDAN TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

Annotatsiya

Maqolada ona tili ta'limining asosiy maqsadi nimadan iborat ekanligi bayon qilingan. O'quvchilarga grammatik tushunchalarni topshiriqlar asosida oddiy va samarali usullarda tushuntirish yo'llari keltirilgan. Nutq bolalarda tug'ilganidan toki maktabga chiqquncha ota - onasi, yaqinlari va atrof - muhit ta'sirida shakllanadi. Ona tilidagi grammatik qurilishning nazariy jihatlaridan tamomila bexabar kishi ham gapni grammatik jihatdan mutlaqo to'g'ri shakllantira oladi. Hatto hali yozish va o'qishni maxsus o'rganmagan bola ham. Maktabning, ta'lim-tarbiya jarayonlarining asosiy vazifasi bolalardagi mazkur ko'nikma va malakalarni yanada kengaytirish, takomillashtirish va rivojlantirishdan iboratdir. Maktabda ona tili o'qitish o'qituvchidan boshqa fanlarga qaraganda ko'p mehnat talab etadi.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, grammatika, tayanch vositalar, og'zaki nutq, ko'nikma va malaka.

**Kirish.** Ona tili ta'limining asosiy maqsadi nutqiy jihatdan o'quvchilarda mukammallikni ta'minlash va ularning imlo savodxonligi bo'yicha yuqori darajasiga erishishdir. Demak, o'qituvchi asosiy e'tiborini o'quvchining so'z boyligini oshirish, go'zal, ixcham va ravon jumlar tuzish, matn yaratish va uni mustaqil tahlil qila bilish masalalariga qaratmog'i lozim.

Ona tili ta'limini oldiga qo'yilgan muhim vazifa o'quvchilarning to'g'ri fikrlashga, o'zgalar fikrini tinglab tushunib shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil hamda tanqidiy fikrlay oladigan, nutqiy va mulqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsini kamol toptira olish maqsadi qo'yiladi.

Ona tili fanida o'qituvchining eng asosiy maqsadi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri ifodalash, fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga erishish lozim. Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr natijasini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shaklda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili mashg'ulotlari adabiy tilni egallash yo'llarini ko'rsatib beradi, til unsurlarining, vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi, ulardan foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi. Bir qarashda oddiy va tabiiy tuyuladigan so'zlashuv madaniyati – muloqot jarayoni juda ko'plab bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashni taqazo etadi. Bunga leksik-grammatik tushunchalar, ularning mazmun va mohiyati, so'zlarning ma'nosi, ularning o'zaro birikish imkoniyatlari, so'z, so'z birikmasi, gaplarning shakl va mazmun xususiyatlari va boshqalar daxldor bo'ladi. Albatta, har bir mulolqotning o'z maqsadi, mazmuni, ko'zda tutgan natijalari bo'ladi. Mana shulardan kelib chiqqan holda har bir inson o'z aytiladigan (yoki yoziladigan) mulohazalarining mazmunini o'ylab ko'radi. Albatta, bu nutq yo'naltirilgan bo'ladi. Har bir nutqning o'z ob'yekti bo'ladi. Buning ustiga nutqiy jarayon mavhum va abstrakt tarzda amalga oshmaydi. U tegishli makon va zamon bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Vaziyat taqazosiga ko'ra so'zlovchi o'z mulohazalarining bildirilish shaklini ham tanlaydi. Demak, nutq egasi o'z nutqining kimga, nimani, qachon, qayerda va qanday etkazish lozimligiga jiddiy e'tibor beradi. Agar bu unsurlardan biortasi o'z o'rnida qo'llanmasa, notiq o'z maqsadiga erisha olmaydi. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, notiqning tegishli maqsadlarga to'la va mukammal erishishi uning ona tilidagi nutqiy jarayonlarni, ya'ni til hodisalarini nechog'li to'g'ri va to'la o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar ona tilining qurilishi, uning tayanch vositalaridan muloqot jarayonida bemalol foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lib boraveradi. Ona tilidagi grammatik qurilishning nazariy jihatlaridan tamomila bexabar kishi ham gapni grammatik jihatdan mutlaqo to'g'ri shakllantira oladi. Hatto hali yozish va o'qishni maxsus o'rganmagan bola ham "Men yonimizdagi bog'chaga boraman" gapini "Men yonimizdagi bog'chani (yoki bog'chada) boraman" demaydi. Maktabning, ta'lim-tarbiya jarayonlarining asosiy vazifasi bolalardagi mazkur



ko'nikma va malakalarni yanada kengaytirish, takomillashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar ayrim nazariy grammatik ma'lumotlar bilan

2.1 rasm

Mazkur darslikning afzallik tomoni o'quvchilarning mavjud bilimlari integratsiyasiga tayanilganligidadir. 1-mashqdagi rasmlarni ko'rish orqali kasblar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlay oldi. Ushbu mashqni bajartirgandan so'ng, rasmlarga qarang, ularning faoliyati haqida gapirib bering, yoki og'zaki suhbat shaklidagi topshiriq mavzuni yanada mustahkamlash imkonini yaratib beradi.


Hozirgi paytda ona tili mashg'ulotlarida gap ustida ishlashning yo'llari juda rang-barang. Ilg'or tajriba egalarida esa ular yanada xilma-xildir. Biz ularning ayrim ko'rinishlari ustida to'xtalib o'tamiz:

I. Gapni ixchamlashtirish. Ixcham fikr - ta'sirchan fikrdir. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlariga qo'yiladigan eng asosiy talabalardan biri fikrni ixcham shaklda bayon qilishga o'rgatishdir. O'quvchi gap qurishda birorta ortiqcha so'z ishlatmasligi, maqsadni ifodalovchi so'zni topib qo'llashi, so'z va so'z birikmalarini to'g'ri aloqaga kiritish, gap bo'laklarining oddiy va o'zgarigan tartibiga qat'iy amal qilishi lozim. Mehmon yaxshi odamga o'xshaydi. - Mehmon yaxshiga o'xshaydi, kabi.

II. Gapni kengaytirish va toraytirish. Gapning kengaytirishning eng qulay usuli kesimdan savol berish orqali uning egasi va ikkinchi darajali bo'laklarini topib qo'yishdir. Masalan, O'quvchilarga «Boraman», «Uchishdi», «Ko'rganmisiz?» singari bir bo'lakli gaplarni berib, ularni avval ikki bo'lakliga (Men boraman. Qushlar uchishdi. Siz ko'rganmisiz? kabi), so'ngra ko'p bo'lakliga (Qushlar qayerga?)

elementar tarzda tanishib borishadi. Ular orasida gap bo'laklari (ega va kesim), gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq va undov gaplar), gapning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda va qo'shma gaplar) kabi tayanch tushunchalar mavjud. Ona tilining izchil kursi (5-9-sinflar)ni o'rganishda o'quvchilardagi mavjud malaka va ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ular gap orqali fikrni ixcham, to'g'ri va ta'sirchan ifodalashning turli yo'llari, usullari bilan tanishadilar.

Ona tili darslarida atamalarini taqdim etishning uch xil



shakli mavjud. Aktiv leksika, passiv leksika va neytral leksika 1 mavzu uchun mo'ljallangan 3 ta darsda mazkur shakldagi lug'atlarning barchasi turli xildagi mashqlar va matnlar orqali singdirilishi zarur.

uchishdi - Qushlar issiq o'lkalarga uchishdi. - Qushlar (qachon?) issiq o'lkalarga uchishdi. - Qushlar kuzda issiq o'lkalarga uchishdi va h.k.) aylantirish mumkin.

Ayni vaqtda sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga aylantirib, gapni toraytirish ham mumkin.

III. Gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish. Mustaqil ishning bu turidan 5-7-sinflarda ham, 8-9-sinflarda ham unumli foydalansa bo'ladi. Fonetika, leksikologiya va morfologiyani o'rganishda (5-7-sinlar) bu ish ko'proq berilgan gaplarda so'zlarni ularning ma'nodoshlari va uyadoshlari bilan almashtirish orqali, sintaksisning izchil kursini o'rganish jarayonida esa (8-9-sinlar) gap bilan ifodalangan kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchilarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish, sodda gaplardan qo'shma gaplar va aksincha, qo'shma gaplardan sodda gaplar hosil qilish, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga va o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirish kabi usullar bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqotlarga ko'ra ushbu konsepsiyani amalga oshirishda O'zbekistonning Boysun, Chust, Kitob, Zomin, Forish, Baxmal, Nurota tumanlari ham qulay hududlar bo'lib, bu yerlarning tabiati, flora va faunasi, tarixiy madaniy yodgorliklari, ziyoratgohlari, gastronomik turizmi, tarixiy-madaniy qadriyatlar ham alohida e'tiborga molikdir. Shu boisdan keyingi 3 yil ichida ushbu hududlarda ham mehmon uylari ommalasha boshladi. Bu borada Jizzax viloyatidagi "Zomin turistik zonasi"ning va Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi "Sintob Turizm qishlog'i"ning tashkil etilishi ham muhim voqea bo'ldi.

SH.Shomurodova, Sh.Sharipov, J.Mashrapovlarning yozisharicha, ayniqsa Toshkent viloyatining Parkent tumanining markaziy va sharqiy qismida joylashgan Kumushkon, So'qoq dam olish maskanlarida ham mehmon uylarini tashkil qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Turistlarga yaratiladigan sharoitlardan asosiy maqsad 162 ta "Mehmon uylari"ni tashkil etish orqali mavsumda 3,5-5 ming rasmiy ish o'rinlarini yaratish hamda xorijiy sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini 1,5-2 barabarga oshirishdan iborat. Mehmon uylariga tashrif buyurgan sayyohlarga taklif etiladigan namunaviy turistik xizmatlar quyidagicha yo'lga qo'yilgan [3. b. 162-165].

Bizningcha, "Mehmon uylari" konsepsiyasi negizida madaniy va rekreatsion turizm sohalari boshqa turizm turlaridan farqli o'laroq turistlarga quyidagi yo'nalishlarda qulay motivatsiyalarni beradi:

- dam olish, o'yin-kulgu qilish, madaniy yodgorliklarga sayohatlar uyushtirish;
- tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirish, qo'riqxonalar, zakazniklar, ekopraklar bilan tanishish;
- hudud va mintaqalarning gastronomik turizm imkoniyatlarini ko'zdan kechirish, milliy taomlar va masalliqlardan bahramand bo'lish;
- ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, turistning ijtimoiy mavqei saqlab qolish va oshirish;
- madaniy tadbirlarda - festivallarda, bayramlarda va hokazolarda qatnashishi, odamlar bilan uchrashish va muloqot qilish;
- turizm g'oyasini targ'ib qilish, shaxslararo muloqotlarga kirishish kabilardir.

Xo'sh, mahalliy va xorijiy turistlarning oilaviy mehmon uylariga tashrif buyurishlarining ahamiyati qanday? Birinchidan, bunday imkoniyat tufayli turistlar an'anaviy tarzda xordiq chiqarish imoniyatiga ega bo'ladilar, Ikkinchidan, bunday tashrif orqali turistlarda davlat va mintaqalar madaniyati bilan tanishish imkoniyati tug'iladi; Uchinchidan, tashrif buyuruvchilarda ma'naviy va moddiy merosni saqlab qolish g'oyasi tug'iladi, fuqarolarda madaniy merosni tashkil etuvchi yodgorliklar, san'at asarlari, moddiy obyektlar va boshqalarga hurmat shakllanadi. Bu esa shubhasiz madaniy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik turizmning eng muhim fenomenlaridir. Shuningdek, madaniy va ijtimoiy turizm muqotlararo aloqa vazifasini bajaradi. Xorijiy turistlar uchun mintaqaning turizm imkoniyatlari bilan tanishish imkoniyatlari yuzaga keladi, dunyo mamlakatlarida sodir bo'layotgan turizm, madaniyat sohasi va turizm faoliyati o'rtasidagi hamkorlik shakllanadi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotlarga ko'ra oilaviy mehmon uylari tizimi turizmni rivojlantirishning o'ziga xos fenomeni sifatida bir qator omillar va resurslarga, shu jumladan, geografik omillar va mintaqalar xususiyatlariga bog'liq ekanligini qayd etish lozim. Shuning uchun ham yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan O'zbekistonda "Mehmon uylari" konsepsiyasini amalga oshirishda mintaqaviy, ya'ni etnohududiy omillarni inobatga olish, lokal xususiyatlar jihatidan yondashish lozim bo'ladi. Jumladan O'zbekistonning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirish uchun salohiyat va imkoniyatlar ham turlichadir.

Endi nomoddiy madaniy meros namunalari haqida so'z yuritilgan ekanmiz, bu borada dunyo xalqlari hayotidagi muhim voqea sifatida 2003 yil 17 oktabrda YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan nomoddiy madaniy merosning quyidagi asosiy toifalari taqdim etilgan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi muhim voqea bo'ldi. Unga ko'ra insoniyatning quyidagi nomoddiy madaniy merosi turlari YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

- Og'zaki nutq an'analari va ifoda shakllari, shu jumladan til; - Sahna san'ati; - Urf-odatlar, marosimlar va bayramlar; - Tabiat va olamga oid bilim va urf-odatlar; - Xalq hunarmandchiligiga oid bilim va malakalar [4. <https://refdb.ru/look/2581499-pall.html>].

O'zbekistonning ushbu ro'yxatga kiritilgan nomoddiy madaniy meros namunalari esa quyidagilardir:

1. «Shashmaqom» (2008 y)
2. «Boysun tumanining madaniy makoni» (2008 y)
3. «Katta ashula» (2009 y)
4. «Askiya» (2014 y)
5. «Palov madaniyati va an'analari» (2016 y)
6. «Navro'z» (2016 y)
7. Xorazm «Lazgi» raqsi (2019 y)
8. Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi – Adras va Atlas to'g'ish san'ati (2017 y).
9. "Baxshichilik san'ati" (2022 y) kiritilgan.

Shu ma'noda nomoddiy madaniy meros namunalari asrab qolish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2009-yil 9-aprelda "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonun Prezident tomonidan imzolandi. Mazkur Qonunga muvofiq "Nomoddiy madaniy meros obektlari" tushunchasiga quyidagilar kiradi: urf-odatlar, xalq amaliy san'ati (so'z san'ati, raqs, musiqa, tomoshalar), shuningdek, bilim, ko'nikma, mehnat qurollari, ashyolari, ular bilan bog'liq madaniy makonlar, xalq san'at va amaliy san'at abilar. Natijada "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun normalari YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyasiga muvofiq lashtirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros namunalari asrab qolish maqsadida 2023 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-405 sonli "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori e'lon qilindi. Qarorga ko'ra quyidagilar O'zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalari aniqlash, ro'yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash;
- maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilishni yanada rivojlantirish;
- nomoddiy madaniy merosning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan namunalarning, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro'yxatlarga kiritilishiga erishish;
- nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o'rganishni yo'lga qo'yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini

qo'llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta'minlash;

- nomoddiy madaniy meros ta'limning barcha bosqichlarida o'rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash kabilar [1. 07/23/405/0979-son].

Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida respublikada turizmning davlat va jamiyat hayotidagi o'rini oshirish, turistik obyektlarning transport infratuzilmasini, servis xizmatlar ko'rsatish, u yerlarda yangi ish o'rinlari yaratish va aholini band qilgan holda ularning daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turistlar, ziyoratchilar va sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanish yuzasidan O'zbekistonda turizm salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [6. № 22 (544)].

Tadqiqotlarga ko'ra bizningcha mamlakatda va mahalliy va xalqaro doirada turizm rivojlanishi uchun ushbu soha loyihalarini tashkil etish va amalga oshirishga metodik yondashuvlar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Buning uchun NMMN (Nomoddiy madaniy meros namunalari) larni asrab avaylashda va uni targ'ib qilishda taxminan hisobga olinishi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan 3 ta asosiy omilni inobatga olish muhim:

1. Nomoddiy madaniy meros namunalari asrab qolish uchun mahalliy va xalqaro doirada o'zaro hamkorlikni ta'minlash. Turizmni rejalashtirish va rivojlantirishda NMMN larni sohasida barcha manfaatdor tomonlar turizm va NMMN ni yaxshi tushinishlari va ular o'rtasidagi aloqalarni to'liq bilishlari zarur. Bunda nomoddiy madaniy meros namunalari saqlab qolishda turizm menejmentini yaratish, mahsulotlarni ishlab chiqish, marketing va biznes strategiyasida fikr-mulohazalar almashish;

2. Turizmni rivojlantirish bilan bog'liq jihatlarni. Maxsus turistik mahsulotlarni yaratish, bunday mahsulotlar qatorida NMMN ni namoyish qilish uchun madaniy platformalar uyushtirish, turizm bozori uchun yanada jozibadorligini oshirish, festivallar va ommaviy tadbirlarni kengaytirish;

3. Nomoddiy madaniy meros namunalari an'anaviyligini saqlab qolish, ya'ni turizm sohasi rivoji, turistlar faoliyati, ularning yashash tarziga salbiy ta'sir qilmassligi kerak. YA'ni, turistlarni mavjud mahalliy qonun-qoidalar va tartiblarga amal qilishlarini ta'minlash, mahsulotlarni yaratish va targ'ib qilishda maqbul muvozanatni saqlash, nomoddiy madaniy meros namunalari faqat tijoriy maqsadlarda emas, balki ko'ngilochar soha va turmaxsulot sifatida qadrlash kabilar kiradi.

Ammo shu o'rinda madaniy turizm fenomenida nomoddiy va moddiy madaniy meros yodgorliklarni asrab-avaylash sohasidagi davlat siyosati va strategiyasi ham ularni yanada rivojlantirish uchun madaniy va nomoddiy madaniy meros obyektlariga xavf soluvchi quyidagi omillarni keltirish mumkin. Bunda shu jumladan ekologik omillarning salbiy oqibatlarini ham sanab o'tish muhim:

- tarixiy-madaniy ahamiyatga ega turistik sohalarda obyektlar bilan barcha turdagi mahalliy hokimiyatlar, davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ishlarini muvofiqlashtirish;

- turistik himoya zonalarini loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- turistik obyektlarga yaqin hududlarda yangi qurilishni nazorat qilish;

- tarixiy-madaniy yodgorliklarni sug'urtalash;

- yodgorliklar hududida va tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hududlardagi ekologik zararli ishlab chiqarish korxonalarini barpo etmaslik;

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, yodgorliklarni saqlash;

- muhandislik va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish (tabiiy ofatlardan himoya qilish choralarini ko'rish, shahar transport sxemalarini ko'kalamzorlashtirish, er osti suvlari sathini pasaytirish, yomg'irli kanalizatsiya tarmoqlarini o'rnatish, tarixiy hududlarni vertikal rejalashtirish va obodonlashtirish, qirg'oqlarni himoya qilish ishlari);

- madaniy meros obyektlari holatini tizimli monitoring qilish, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash va moliyalashtirish kabilar.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turizmni yanada rivojlantirish, uning obro'-e'tiborini yanada oshirish, tashrif buyuruvchilarga qulayliklar yaratish maqsadida "Mehmon uylari" konsepsiyasi ishlab chiqilgani, turistlar uchun an'anaviy tarzda xordiq chiqarish imoniyati paydo bo'lishiga, bunday imkoniyat orqali turistlarda davlat va mintaqalar madaniyati bilan tanishish imkoniyati tug'ilishiga, tashrif buyuruvchilarda ma'naviy va moddiy merosga, madaniy merosni tashkil etuvchi yodgorliklar, san'at asarlari, moddiy obyektlar va boshqalarga hurmat shakllanishiga guvoh bo'ldik. Bu esa shubhasiz madaniy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik turizmning rivojlanishiga imkoniyat yaratib, ijtimoiy turizm taraqqiy etishiga xorijiy turistlar uchun esa mintaqaning turizm imkoniyatlari bilan tanishish imkoniyatlari yuzaga kelishiga guvoh bo'lish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи газетаси. 2020. 25 январ.
2. [https://uz.uz/uz/posts/turizm-eksportining-osishi-mamlakatimiz-iqtisodiyotining-barqaror-osish-manbalaridan-biri-hisoblanadi\\_530911](https://uz.uz/uz/posts/turizm-eksportining-osishi-mamlakatimiz-iqtisodiyotining-barqaror-osish-manbalaridan-biri-hisoblanadi_530911)
3. Шомуродова Ш.Ф., Шарипов Ш.М., Машрапов Ж. Чимён-Чорвоқ курорт-рекреация зонасида экотуризмни ривожлантиришда меҳмон уйларининг роли. // Орол минтақаси ва қўшни ҳудудларда комплекс географик тадқиқотларнинг муаммо ва истиқболлари/ Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари Нукус шаҳри, 15-16 май 2018 йил.-Б. 162-165
4. <https://refdb.ru/look/2581499-pall.html>
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.12.2023 й. 07/23/405/0979-сон)
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Фармони. // Янги Ўзбекистон. 2022 йил, 1 феврал, № 22 (544) .



**Dilnoza PARDABOYEVA,**  
*Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi*  
E-mail: [dilnozopardaboyevad@gmail.com](mailto:dilnozopardaboyevad@gmail.com)

*Pedagogika fanlari doktori, professor T.Ismoilov taqrizi asosida*

#### METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR INTELLECTUAL ACTIVITY AND CRITICAL THINKING

Annotation

In this article, the scientific-theoretical basis of preparing future primary school teachers for intellectual activity and the use of pedagogical ideas of Eastern thinkers in the preparation of future primary school teachers for intellectual activity, future thinking in the educational process the issues of developing the intellectual potential of teachers are described.

**Key words:** Intellectual activity, intellectual potential, intellectual consciousness, intelligence, intellectualization of education.

#### МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

Аннотация

В данной статье рассмотрены научно-теоретические основы подготовки будущих учителей начальных классов к интеллектуальной деятельности и использование педагогических идей восточных мыслителей при подготовке будущих учителей начальных классов к интеллектуальной деятельности, мышлению будущего в образовательном процессе, рассмотрены вопросы развития описан интеллектуальный потенциал учителей.

**Ключевые слова:** Интеллектуальная деятельность, интеллектуальный потенциал, интеллектуальное сознание, интеллект, интеллектуализация образования.

#### TALABALARNI INTELEKTUAL FAOLIYATGA, TANQIDIY FIKRLASHGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlash hamda tanqidiy fikrlashga o'rgatishda Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalaridan foydalanish, ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Intellektual faoliyat, intellektual salohiyat, intellektual ong, aql-idrok, ta'limni intellektuallashtirish.

**Kirish.** Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodik jarayon bo'lib, uni amalga oshirish kasbiy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual faoliyatga metodik tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorlashning asosiy omili dars mashg'uloti hisoblanadi va ta'lim sifatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonini metodik intellektuallashtirish qaralayotgan jarayon yoki hodisani o'rganishga nisbatan mediatexnologik yondashuvni talab etadi. Bunday metodik yondashuvlar manbalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularga mos axborotlar va bilimlar banki negizidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishning optimal variantlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Ular negizida shakllantiriladigan boshlang'ich ta'limga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'ziga xos pedagogik tadqiqot hisoblanib, bo'lajak o'qituvchilarni metodik intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim metodik asos bo'ladi. Ushbu sohada olib borilgan izlanishlar natijalarining ko'rsatishicha, rejalashtirilayotgan intellektuallashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mediatexnologik yondashuvlar talab qilinadi va ular ushbu jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Intellektual faoliyat - insonning fan, texnologiya, adabiyot, badiiy va badiiy dizayn sohasidagi aqliy (aqliy, ma'naviy, ijodiy) faoliyati. Intellektual faoliyat insonning ratsional bilim qobiliyatidan foydalanishini aks ettiradi. O'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak ajdodlarimiz ham yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e'tibor berib kelgan va ularning doimiy amaldagi orzusi bo'lgan. Bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmandlari-ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo'lgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning "Fozillar jamiyati", Yusuf Xos Hojibning "Saodatga eltuvchi bilim", shuningdek, At-Termiziy,

Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahrori Valiy, Al-Marg'ironiy, An-Nasafiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Abdulholiq G'ijdivoniy va boshqalarning ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari, Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug'bekning koinot haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni («Xatti Boburiy») isloh qilish sohasidagi, Alisher Navoiyning adolatli jamiyati va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiasining ta'limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o'tmish merosimizga ega bo'lgan ajdodlarimiz orzusiga mustaqillik tufayli erishildi va respublikamiz ahlini turli jabhalarida tub burilishlarga, islohotlar qilishga ilhomlantirdi. Jumladan, ta'lim tizimida qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinish, bulardan maqsad - ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, uni o'tmishdan qolgan zararli sarqitlardan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va ahloqiy sifatleri, karakteri, dini, urf-odatleri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va



hodisalarning faqat tashqi sifati hamda hususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi". Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbollig'ga bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi".

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi".

Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi metodik vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Alomaning fikricha, bilimni bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida inson aqliy kamoloti xususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilar, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Deydi.A. Avloniy bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali usuli ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilar. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va ohiiratimiz ilm yo'lga bog'liqdur.

E.P. Torrens aqlning metodik modelini taklif qildi, unda og'zaki tushunish usuli, fazoviy tasvirlar usuli, induktiv fikrlash usuli, hisoblash qobiliyati usuli, hamda xotira, sezish tezligi, nutq ravonligi kabi bilish jarayonlari ta'kidlangan. Shuningdek, Torrens aql-idrok tuzilishida quyidagi usullarni ta'kidlaydi:

-konvergent fikrlash usuli (lat. Convergere - konvergatsiya) - muayyan muammoni hal qilish uchun oldindan o'rganilgan algoritmlardan to'g'ri foydalanish strategiyasiga asoslangan fikrlash usuli.

- divergent fikrlash usuli (lat. Divergere - diverge) - fikrlash shakli, bitta vazifaga bir nechta yechimlarni ishlab chiqarish strategiyasiga asoslangan metodik yondashuv.

Endi "intellektual faoliyat" tushunchasini mualliflar odatda ishlab chiqarish, usuli, xizmat ko'rsatish va intellektual usul deb ataladigan uchta metodik faoliyat turini ajratib ko'rsatishadi. Ularning orasidagi farqlarni tahlil qilib, ular intellektual faoliyat usulini o'ziga xos xususiyatlarga ega

(ma'lumot bilan ishlashga e'tibor berish usuli, insonning intellektual qobiliyatlaridan foydalanish usuli, malakalar) va quyidagi ta'riflarga javob berishini ta'kidlaydilar: intellektual faoliyat usuli- bu iqtisodiy faoliyat usuli har qanday sohasda, shaxsning intellektual qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladigan va axborot bilan ishlashga qaratilgan metodik mehnat faoliyati turli usullaridir. Inson aqli - bu juda ko'p qirrali miqdor. Bu insonning ijtimoiy foydali tomonini ham, uning individual xususiyatlarini ham belgilaydi, ongning asosiy namoyon bo'lishi bo'lishiga xizmat qiladi. Aslida, aql - bu bizni hayvonot dunyosidan ajratib turadigan narsa, bu inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga atrofda dunyoni dinamik ravishda o'zgartirish, o'zi uchun atrof-muhitni qayta qurish va tez o'zgaruvchan voqelik sharoitlariga moslashmaslik imkonini beradi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarning bir qator metodik yondashuvlarida intellektual rivojlanish usullari i alohida o'rin egallaydi. Hayot davomida ruhiy holat va intellektual qobiliyat bevosita ikkita omilga bog'liq: ta'lim va kasbiy malaka darajasi. Yoshlikda inson olgan bilim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qarilikkda shunchalik yaxshi aql saqlanib qoladi. Yoshlik yillarda olingan yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan insonlar o'zlarining bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirib boradi, ya'ni, butun umri davomida intellektual mashg'ulotlar bilan andragogik ta'lim olishga ehtiyoji oshib boradi. Shundan kelib chiqib, agar inson intellektual ish bilan shug'ullanadigan bo'lsa, u butun umri davomida o'qiydi, o'zini takomillashtirishga intiladi, metodik yondashuvlar orqali yangi bilimlarni kashf etad. Intellektual metodik faoliyat natijalari insoniyatning eng qimmatli mahsulotlaridir, ular mamlakatlar va ularda yashaydigan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblanadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakli, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni metodik yaratish asosida shaxsni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi. Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida talabalarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, ushbu jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda metodik ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi. Shunday qilib, intellektual faoliyatning o'ziga xos metodik xususiyatlari har bir insonning ichki, shaxsiy fazilatlariga va tashqi pedagogic omillariga bog'liq uzluksiz bilish jarayonidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.E. Nurmatova Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlari O'ZMU xabarlar. Toshkent 2020 .
2. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2005. – 140 b.
3. Xoliqov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogic mahoratini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) olish uchun yozilgan diss. Toshkent 2018
4. Сергеева Б.В., Оганесян В.А. Теоретические основы развития критического мышления младших школьников // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017. – № 2. – С. 97-106.



*Obid PARDAYEV,*  
*Jizzax Politehnika instituti dotsenti, PhD*  
*E-mail: obidpardayev@mail.ru*

*Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida*

## RESEARCH OF COMMUNICATION-LEADERSHIP SKILLS BY WORLD SCIENTISTS

Annotation

Leadership and communication are fundamental competencies that significantly impact organizational success. The ability to effectively communicate is integral to leadership, enabling leaders to inspire, influence, and guide teams toward achieving common goals. This article reviews the research conducted by world scientists on communication-leadership skills, exploring the key findings, theoretical frameworks, and practical implications of these studies. The synthesis of existing literature provides insights into the relationship between communication and leadership, the development of these skills, and their influence on organizational outcomes.

**Key words:** Communication-leadership skills, Effective communication, Leadership effectiveness, Transformational Leadership Theory, Situational Leadership, Emotional intelligence, Active listening.

## ИССЛЕДОВАНИЕ КОММУНИКАЦИОННО-ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ МИРОВЫМИ УЧЕНЫМИ

Аннотация

Лидерство и коммуникация являются фундаментальными компетенциями, которые существенно влияют на успех организации. Способность эффективно общаться является неотъемлемой частью лидерства, позволяя лидерам вдохновлять, влиять и направлять команды к достижению общих целей. В этой статье рассматривается исследование навыков коммуникативного лидерства, проведенное мировыми учеными, изучаются ключевые выводы, теоретические основы и практические последствия этих исследований. Синтез существующей литературы дает представление о взаимосвязи между коммуникацией и лидерством, развитии этих навыков и их влиянии на организационные результаты.

**Ключевые слова:** Навыки коммуникативного лидерства, Эффективное общение, Эффективность лидерства, Теория трансформационного лидерства, Ситуационное лидерство, Эмоциональный интеллект, Активное слушание.

## KOMMUNIKATIV-LIDERLIK QOBILIYATLARINING JAHON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ QILINISHI

Аннотация

Yetakchilik va aloqa - bu tashkilot muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy vakolatlar. Samarali muloqot qilish qobiliyati yetakchilikning ajralmas qismi bo'lib, rahbarlarga jamoalarni umumiy maqsadlarga erishish yo'lida ilhomlantirish, ta'sir qilish va yo'naltirish imkonini beradi. Ushbu maqolada dunyo olimlari tomonidan o'tkazilgan muloqot va yetakchilik qobiliyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi, bu tadqiqotlarning asosiy topilmalari, nazariy asoslari va amaliy natijalari o'rganiladi. Mavjud adabiyotlarning sintezi muloqot va yetakchilik o'rtasidagi munosabatlar, bu ko'nikmalarni rivojlantirish va ularning tashkilot natijalariga ta'siri haqida tushuncha beradi.

**Kalit so'zlar:** Muloqot-yetakchilik ko'nikmalari, samarali muloqot, yetakchilik samaradorligi, transformatsion liderlik nazariyasi, vaziyatli yetakchilik, hissiy intellekt, faol tinglash.

**Kirish.** Zamonaviy tashkiliy landshaftda samarali yetakchilik qobiliyati murakkab muammolarni hal qilish va strategik maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Yetakchilik shunchaki qarorlar qabul qilish yoki yo'nalishlarni belgilash emas; u asosan samarali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Muloqot va yetakchilik qobiliyatlarini rahbarlar uchun qarashlarni ifodalash, jamoalarni ilhomlantirish, hamkorlikni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish uchun zarurdir. Ushbu ko'nikmalar bir qator kompetensiyalarni o'z ichiga oladi, jumladan, xabarlarini etkazishda aniqlik, hissiy aql, faol tinglash va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish.

Rahbariyatda muloqotning ahamiyati barcha fanlar va sohalarida keng e'tirof etilgan. Samarali muloqot rahbarlarga ishonchni mustahkamlash, nizolarni boshqarish va ijobiy tashkilot madaniyatini yaratish imkonini beradi. Aksincha, yomon muloqot tushunmovchiliklarga, ruhiy holatning pasayishiga va suboptimal ishlashga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, muloqot va yetakchilik qobiliyatlarini dinamikasini va ularning tashkilot muvaffaqiyatiga ta'sirini tushunish butun dunyo bo'ylab olimlar uchun tadqiqotning asosiy nuqtasiga aylandi.

Ushbu maqola global miqyosda olimlar tomonidan olib borilgan muloqot va yetakchilik qobiliyatlarini bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni sintez qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarning nazariy asoslarini, asosiy topilmalarini va amaliy natijalarini o'rganib chiqib, biz samarali muloqotning yetakchilik qobiliyatini qanday oshirishi haqida to'liq ma'lumot berishga intilamiz. Bundan tashqari, ushbu sharh ushbu ko'nikmalarni

rivojlantirish va ularning tashkilot sharoitida amaliy qo'llanilishini o'rganadi.

Maqola quyidagicha tuzilgan: birinchi bo'limda Transformatsion yetakchilik nazariyasi va vaziyatli yetakchilikning asosiy tamoyillari yoritilib, muloqot-yetakchilik ko'nikmalarini o'rganishga asos bo'lgan nazariy asoslar ko'rib chiqiladi. Ikkinchi bo'lim tadqiqotning asosiy natijalarini taqdim etadi, ular aloqa kompetensiyasi, hissiy aql, faol tinglash, qayta aloqa mexanizmlari va madaniy sezgirlikka qaratilgan. Uchinchi bo'limda yetakchilikni rivojlantirish dasturlari, murabbiylik va o'z-o'zini baholash orqali muloqot-yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish muhokama qilinadi. Nihoyat, ushbu topilmalarning tashkilotlar uchun amaliy ahamiyati o'rganilib, kompaniyalar muloqotni yaxshilash orqali o'zlarining yetakchilik samaradorligini qanday oshirishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.

Muloqot-yetakchilik qobiliyatlarini bo'yicha global tadqiqotlardan olingan fikrlarni sintez qilish orqali ushbu maqola rahbarlar o'z jamoalari bilan qanday qilib yaxshiroq bog'lanishi, ijobiy ish muhitini yaratishi va tashkilot muvaffaqiyatiga erishishi mumkinligini tushunishga hissa qo'shishga qaratilgan.

Bir nechta nazariy asoslar muloqot va yetakchilik qobiliyatlarini o'rganishga asoslanadi. Eng ko'zga ko'ringanlari orasida transformatsion yetakchilik nazariyasi va vaziyatli yetakchilik. Ushbu ramkalar yetakchilikning turli jihatlarini ta'kidlaydi, lekin muloqotning muhimligini umumiy e'tirof etadi.

Transformatsion liderlik nazariyasi shuni ta'kidlaydiki, jozibali qarashlarni bildiradigan, yuqori axloqiy me'yorlarni

namoyish etadigan va individual yordam ko'rsatadigan liderlar izdoshlar orasida katta majburiyat va samaradorlikni oshiradi. Vaziyatli yetakchilik samarali muloqot o'z uslubini jamoa a'zolarining etukligi va malaka darajasiga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Muloqot va yetakchilik qobiliyatlari bo'yicha tadqiqotlar bir nechta muhim topilmalarni ta'kidlaydi:

Muloqot kompetensiyasi: Tadqiqotlar izchillik bilan shuni ko'rsatadiki, yuqori muloqot qobiliyatiga ega (aniqlik, izchillik va ishonirish qobiliyati bilan ajralib turadigan) rahbarlar o'z jamoalarini ilhomlantirish va boshqarishda samaraliroqdir.

Hissiy intellekt: Goleman (1995) va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori hissiy intellektga ega bo'lgan liderlar yanada samarali muloqot qilishadi, chunki ular ijtimoiy murakkabliklarni boshqarish, munosabatlarni boshqarish va o'zlarini aniq ifoda etishlari mumkin[2].

Faol tinglash: Samarali etakchilar nafaqat yaxshi ma'ruzachilar, balki faol tinglovchilar hamdir. Bu ko'nikma ularga jamoa a'zolarining nuqtai nazarini tushunish, ishonchini mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi[4].

Qayta aloqa mexanizmlari: Konstruktiv fikr-mulohazalar rahbariyat bilan muloqotning muhim tarkibiy qismidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam, aniq va amaliy fikr-mulohazalarni taqdim etadigan rahbarlar jamoaning ishlashi va rivojlanishini oshiradi.

Madaniy sezgirlik: Ko'p madaniyatli muhitda rahbarlar tushunmovchiliklarning oldini olish va inklyuziv muhitni rivojlantirish uchun madaniy sezgirlik bilan muloqot qilishlari kerak. Adler (2002) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar global liderlikda madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari muhimligini ta'kidlaydi[1].

Muloqot-yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish

Muloqot-yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, o'z-o'zini anglash, o'qitish va amaliyotni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni oshirish uchun mo'ljallangan dasturlar ko'pincha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yetakchilikni rivojlantirish dasturlari: Ushbu dasturlar seminarlar, simulyatsiyalar va murabbiylik orqali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mentorlik va murabbiylik: Tajribali rahbarlar yo'l-yo'riq va fikr-mulohazalarni taqdim etib, rivojlanayotgan rahbarlarga o'zlarining muloqot strategiyalarini takomillashtirishda yordam berishadi[3].

O'z-o'zini aks ettirish va baholash: 360 graduslik fikr-mulohaza va o'z-o'zini baholash so'rovnomalari kabi vositalar rahbarlarga o'zlarining aloqa amaliyotlarida kuchli tomonlarini va yaxshilash sohalarni aniqlashga imkon beradi.

Amaliy natijalar

Muloqot va yetakchilik qobiliyatlari bo'yicha tadqiqotlarning amaliy natijalari chuqurdir. Tashkilotlar yetakchilik samaradorligini oshirishi mumkin:

Aloqa treningiga sarmoya kiritish: Rahbarlarga muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun trening imkoniyatlarini taqdim etish.

Ochiq muloqot madaniyatini targ'ib qilish: tashkilot ichida shaffoflik va muloqotni rag'batlantirish.

Texnologiyadan foydalanish: Samarali o'zaro aloqalarni osonlashtirish uchun aloqa texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa uzoq va gibrid ish muhitlarida.

Fikr-mulohaza tizimlarini joriy etish: rahbariyat bilan muloqotda doimiy takomillashtirishni ta'minlash uchun muntazam ravishda qayta aloqa mexanizmlarini yaratish.

**Xulosa.** Jahon olimlarining muloqot-yetakchilik ko'nikmalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari samarali yetakchilik va tashkilotchilik muvaffaqiyatiga erishishda ushbu kompetensiyalarning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Muloqotda zo'r bo'lgan rahbarlar o'z jamoalarini ilhomlantirish, ta'sir qilish va ularga rahbarlik qilish, ishonch, hamkorlik va yuqori samaradorlik muhitini yaratish uchun ko'proq jihozlangan.

Yetakchilikdagi samarali muloqot bir qancha asosiy elementlarni o'z ichiga oladi, jumladan ravshanlik, hissiy aql, faol tinglash, konstruktiv fikr-mulohazalar va madaniy sezgirlik. Ushbu ko'nikmalarni egallagan rahbarlar jozibali tasavvurlarni ifodalashlari, ijtimoiy murakkabliklarni boshqarishlari, turli nuqtai nazarlarni tushunishlari va amaliy fikr-mulohazalarni taqdim etishlari mumkin. Bu qobiliyatlar tug'ma emas, balki uzluksiz o'rganish, mashq qilish va fikr-mulohazalar orqali rivojlanishi mumkin.

Transformatsion yetakchilik va vaziyatga asoslangan yetakchilik kabi nazariy asoslar yetakchilikdagi muloqotning roli haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ushbu ramkalar turli xil yetakchilik uslublari izdoshlarni rag'batlantirish va jalb qilish, turli vaziyatlarga moslashish va jamoa a'zolarining ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yish uchun muloqotdan qanday foydalanishini ta'kidlaydi.

Amalda, tashkilotlar kommunikativ ta'limga sarmoya kiritish, ochiq muloqot madaniyatini targ'ib qilish, o'zaro aloqalarni osonlashtirish uchun texnologiyadan foydalanish va mustahkam qayta aloqa tizimlarini joriy etish orqali yetakchilik samaradorligini oshirishi mumkin. Shunday qilib, ular o'z rahbarlarining zamonaviy ish joyining dinamik muammolarini hal qilish uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, muloqot va yetakchilik qobiliyatlari bo'yicha global tadqiqotlarning sintezi samarali muloqotning yetakchilik va tashkilot natijalariga chuqur ta'sirini ta'kidlaydi. Muloqot ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantiradigan va takomillashtirib boruvchi rahbarlar ijobiy va samarali ish muhitini ta'minlab, o'z tashkilotlarini muvaffaqiyatga olib borish uchun yaxshiroq joylashadilar. Kelajakdagi tadqiqotlar, ayniqsa, rivojlanayotgan texnologiyalar va o'zgaruvchan tashkiliy tuzilmalar kontekstida yetakchilikdagi muloqotning rivojlanayotgan dinamikasini o'rganishni davom ettirishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Adler, N. J. (2002). *International Dimensions of Organizational Behavior*. Cengage Learning.
2. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
3. Bass, B. M., & Avolio, B. J. (1994). *Improving Organizational Effectiveness through Transformational Leadership*. Sage Publications.
4. Greenleaf, R. K. (1977). *Servant Leadership: A Journey into the Nature of Legitimate Power and Greatness*. Paulist Press.
5. Hersey, P., Blanchard, K. H., & Johnson, D. E. (2008). *Management of Organizational Behavior: Leading Human Resources*. Pearson.



Umida PARPIYEVA,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Ingliz tili kafedrasida o‘qituvchisi

TDU dotsenti Sh.Adilova taqrizi asosida

### TRAINING ENGLISH TERMS ON AUTOMOTIVE ENGINEERING

Annotation

This article discusses a model of a terminological thesaurus for the subject area of the automotive industry. The necessity of creating such a publication is substantiated and its didactic potential is emphasized: an educational thesaurus on the automotive industry provides a presentation of the terminology of this industry in a formalized form, with clear definitions of the main terms and visual semantic relationships, which is a necessary condition for the successful study of automotive terminology in English. The language system as a whole and the system of specific sublanguages, for example, the subject area of the automotive industry, are understood as a repository of linguistic signs that reflect in the minds of people generalized concepts about the objects of the surrounding reality and the relationships between them.

**Key words:** lexicography of terminology, lexical units, linguists-translators, formation of professional translation competence, metalanguage, intension of the term.

### ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКИМ ТЕРМИНАМ ПО АВТОМОБИЛЬНОЙ ТЕХНИКЕ

Аннотация

В статье рассматривается модель терминологического тезауруса для предметной области автомобилестроения. Обосновывается необходимость создания такого издания и подчеркивается его дидактический потенциал: учебный тезаурус по автомобильной промышленности обеспечивает представление терминологии этой отрасли в формализованном виде, с четкими определениями основных терминов и наглядными семантическими связями, что является необходимым условием для успешного изучения автомобильной терминологии на английском языке. Система языка в целом и система конкретных подязыков, например, предметной области автомобильной промышленности, понимается как хранилище языковых знаков, отражающих в сознании людей обобщенные представления об объектах окружающей действительности и отношениях между ними.

**Ключевые слова:** лексикография терминов, лексические единицы, лингвисты-переводчики, формирование профессиональной переводческой компетенции, метаязык, интенция термина.

### AVTOMOBIL MUHANDISLIGI BO‘YICHA INGLIZCHA ATAMALARNI O‘RGATISH

Аннотация

Maqolada avtomobilsozlik sohasiga tegishli bo‘lgan atamalar va ularning inglizchadan o‘zbekchada berilgan va qo‘llaniladigan ma‘nolari, atamalarning til o‘rganishdagi muhim ahamiyati haqida so‘z boradi. Atamalarning didaktik salohiyati ta‘kidlanadi: avtomobilsozlik sohasidagi o‘quv terminlari ushbu sohaning terminologiyasini rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etishni ta‘minlaydi, asosiy atamalarning aniq ta‘riflari va vizual semantik aloqalari bu avtomobil terminologiyasini ingliz tilida muvaffaqiyatli o‘rganish uchun zarurdir. Umuman til tizimi va o‘ziga xos sublingual tizim, masalan, avtomobilsozlik sanoatining predmeti, odamlar ongida atrofda voqelik ob‘ektlari va ular o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi umumlashtirilgan g‘oyalarni aks ettiruvchi til belgilarining ombori sifatida tushuniladi.

**Kalit so‘zlar:** atamalar leksikografiyasi, leksik birliklar, tilshunos tarjimonlar, kasbiy tarjima kompetensiyasini shakllantirish, meta-til, atamaning maqsadi.

**Introduction.** The idea of creating a thesaurus for the subject area of the automotive industry is based on the principles of construction that we identified during the study of the necessary tools for translating terminology, as well as those identified in the process of lexicographic analysis. Turning to works that highlight the problem of teaching technical translation, we can list various non-standard teaching methods. Yu.V. Sapozhnikov suggested looking for existing constructions in the proposed list of templates and using them when translating, taking into account the discourse [1]. N.V. Vladimov eliminated translation difficulties by using electronic text corpora [2]. But often it is the correct selection of translation of a term that is a real obstacle for a student, which is emphasized by N.N. Gavrilenko in the monograph “Theory and Methods of Teaching Translation in the Field of Professional Communication” [3]. In her integrative model of the formation of professional competence of a translator, among the numerous tasks of a translator we also find terminological search.

Materials and methods. In other words, according to the author, a translator must be able to compare general scientific and special vocabulary in two languages and correctly select equivalents, know the methods of term formation and be able to find the meaning of neologism terms, know terminological search

tools, use external resources for terminological search and create your own terminological index.

In this regard, the relevance of the study becomes obvious. It should be added that it is also determined by the need to study the information-semiotic nature of English and Uzbek automotive terminology, which involves developing a technology for compiling a terminological thesaurus that reflects the language of the automotive industry, and revealing the semantic relationships of the terms of this language. In the current English and Uzbek lexicography, there is no such publication as a training translation thesaurus on the automotive industry, and the principles of its organization have not been developed, which prompts us to turn to the study of English automotive terminology in order to systematize, classify and study its information-semiotic nature using thesaurus modeling.

**Results and discussion.** To achieve the goals and objectives of the study, a comprehensive methodology is used, which includes the following methods:

- comparison of the structure and content of dictionary entries of lexicographic publications on automotive terminology;
- method of component analysis of dictionary definitions of English automobile terms;
- method of thesaurus modeling of the subject area under study.



As has been repeatedly stated above, mastering the conceptual apparatus of the subject area "automotive industry" by Uzbek users is associated with special difficulties. Being in most cases an abstract concept, the term has a meaning that, due to borrowing from the subject area itself, remains unfamiliar to the user.

The results of the survey showed that in addition to interpretation, the Uzbek-speaking addressee will also need information of an extralinguistic nature. Additional information on the input unit should be aimed at reducing communication failures. Thus, the relevance and novelty of the thesaurus model we propose lies in the fact that, in addition to the lexicographic information itself (transcription, functional marking, illustrative example, possible synonyms), the microstructure of a dictionary entry is represented by various information about the subject or phenomenon itself expressed in words. This function is intended to be performed by the Comments and information provided in the "Note" section.

The choice of the electronic thesaurus format is determined, first of all, by the ability to combine a large amount of information with operational speed and various strategies for searching for help. In our opinion, for a translated explanatory dictionary this characteristic is the most relevant, since it allows us to provide a systematic approach to the study of paradigmatic connections within the conceptual field of the specialty.

Moreover, the electronic format of the reference book allows you to take into account any level of English language proficiency among readers - the program makes it possible to search for an input unit even if it is spelled incorrectly. Replacing one alphabetic character with a conventional asterisk (\*) will lead to a positive search result. A lexical unit can be entered into the command line in Uzbek or English. If necessary, the user can supplement the thesaurus corpus with a new term that is not fixed in it, or create his own monolingual or bilingual glossary based on the thesaurus. Thus, the thesaurus will contribute to the development of creative thinking among readers and increase their interest in applied lexicography. So, the electronic format satisfies the needs of the user, the thesaurus becomes more adapted to the requirements of the modern addressee, open to timely updating.

The megastructure of the thesaurus assumes a semantic matrix with four potential inputs: an introductory part, an alphabetical index, dictionary entries in alphabetical order, graphical representations of complex components, assemblies of vehicle systems indicating the names of parts, classification diagrams-graphs. For an electronic thesaurus, the degree of elaboration of the introductory part is of particular importance, since it is there that the rules for working with the directory are explained and the metalanguage of the lexicographic publication is explained (ignorance of which makes the use of the directory ineffective). The introductory part includes an introduction; section "How to use the thesaurus"; lists of functional lists; the international phonetic alphabet, taken as the basis for transcription; a brief description of the subject area "automotive industry".

uchinchi farzandlarning tug'ilishi bilan boshlanishi va bu an'nana ekanligiga e'tibor qaratadi. Ularga bundan tashqari, ota-onalari hamda oilaning boshqa a'zolari bilan bir qatorda, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilariga nisbatan ham mehr-muhabbat tuyg'ulari ham singdirib borilishi qayd qilinadi. Bu omillar natijasida, hamjihatlik, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, xabardolik his-tuyg'ularini o'zida jamlagan o'ziga xos qadriyatlar tizimi yuzaga kelishi ta'kidlanadi[9].

Xalqimizning ona tabiatga, yer-suvga, havoga, olov kabi to'rt unsurga e'tiqodi va ularni ulug'lash bilan bog'liq turli xil urf-odat va marosimlari, an'analar, kasb-hunar udumlari, turli diniy va siyosiy bosimlarga qaramasdan xalq turmush tarzi, urf-odatlarida saqlanib qolgan ko'hna mifologik unsurlarda ifodalangan. Taniqli etnolog olim A.Ashirovning fikricha, tarixdan rivojlanib kelgan shaharsozlik va me'morchilik an'analari, folklor na'munalari, yozma meros, adabiyot, san'atga bo'lgan kishilardagi muhabbat urf-odatlarining saqlanishiga zamin yaratgan. Yovuzlik va ezgulik to'g'risida tarannum etuvchi rivoyatlarimiz ham xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida bizgacha yetib kelgan. Qadimgi ikki daryo oralig'ida, asosan, o'troq turmush tarzi madaniyati egalari taalluqli bo'lgan Navro'z, Mehrjon, Sada, Gul sayli kabi bayram va sayllarining asrlar davomida o'tkazilib kelishi bilan bir qatorda, kishilarning qayg'uli motam marosimlarini kutilmaganda yuzaga kelishi, uni tashkil etilish, o'tkazish bilan bog'liq marosimlar, ularni tashkil qiluvchi maxsus kasb vakillarining ishtiroki bilan bog'liq diniy rasm-rusmlar, udumlarimizning saqlanib qolgan[6]. Bu omillar esa, o'z navbatida, asrlar davomida kishilarning etnoestetik tarbiyasining rivojlanib borishiga xizmat qilgan.

Yoshlar estetik tarbiyasida moddiy-ma'naviy meros, xalq amaliy san'ati namunalari, xalq xo'jalik mashg'uloti an'analari kabi omillar etnografik muhit orqali o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. "Qadimgi e'tiqodlarni odamlarning tabiat sirlarini tushunish uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri, deyish mumkin. Shu omillar natijasida, tushuncha va e'tiqodlar, jumladan, tabiiy hodisalarning sehriga ishonish kabi fetishistik qarashlar, o'simlik va hayvonlar ilohiy kuchiga sig'inish kabi totemistik odatlar, jon va ruh obrazidagi kuchlarga ishonish singari animistik e'tiqodlar, tabiat unsurlari – quyosh, olov, yer, suv kabilarga sig'inish kabi politeistik an'analar, suv, shamol va boshqa tabiiy hodisalarga ta'sir etish kabi magik harakatlar vujudga keldi"[13]. Bu omillar o'z navbatida, insonlarga dastlabki estetik tarbiya elementlarini shakllanishiga ham xizmat qilgan.

Bu o'ziga xoslikka ega bo'lgan shu kabi etnomadaniy muhit insonlarning har taraflama aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan barkamol bo'lishiga, jamiyatda faollik ko'ifsetining oshishiga, tashqi ta'sirlardan himoyalab borishiga, og'ir turmush jarayonlarida yashovchanlik tuyg'ularining boyishiga, ong faoliyatining kengayib borishiga, estetik tarbiyasining shakllanishida muhim vazifalarni o'tagan. Bu kabi etnografik muhitda milliy etnik madaniyat, ma'naviy qadriyatlarining rivoj topib borishi asnosida, yoshlarda estetik tarbiya hamda etnoestetik madaniyatning barcha ko'rinishlari ham rivojlanib, o'zining namoyon bo'lishiga ko'ra quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

birinchidan, etnomadaniy omillar yosh avlod etnoestetik ongi va tafakkuriga konstruktiv ta'sir ko'rsatib, etnografik dunyoqarashlarini shakllanishigan, kishilar o'rtasida sog'lom, zavqiy munosabatlarni shakllanishini ta'minlab kelgan;

ikkinchidan, etnosning sog'lomlashtirishga doir an'ana va qadriyatlarining muayyan hududda, fasliy, kasbiy ahamiyati yuqori bo'lib, ma'lum hududda istiqomat qilib kelayotgan bir qator elat va xalqlarning birlashish jarayonlariga, etnoestetik madaniyatini takomillashib borishiga xizmat qilgan;

uchinchidan, hozirgi kunda davlat tomonidan qonuniy kafolatlangan har qanday etnomadaniy an'ana va udumlar o'zbek xalqini mulki va undan to'laqonli foydalanish huquqiga ega;

to'rtinchidan, umumta'lim maktablarida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka talablari doirasida estetik tarbiyaga doir bilimlarni kiritish, ularda vatanni sevish, ota-onaga sodiqlik, aqlan va jismonan sog'lom ulg'ayishi, qalban poklash, forig'lantirishga qaratilgan faoliyatni turlarini yo'lga qo'yish, jamiyat hayotida millatlararo munosabatlarda tinch-totuvlikni, mehnatsevarlik kabi munosabatlarni rivojlantirishdan iborat;

beshinchidan, "ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarining negizi bo'lib jamiyatda xizmat qiluvchi ana'ana, udum va marosimlar xalq ma'naviyatining muhim qismi sifatida barchani ezgulik sari yetaklab, komil insonni shakllantirishga xizmat qiladi"[12].

Ta'lim muassasalarida fan dasturlariga qo'shimcha ravishda o'quvchi tarbiyasi muhim omil sifatida qaralib, uni ta'minlashda estetik madaniyat va tafakkur vositalaridan dars mashg'ulotlari davomida usluksiz foydalanish, o'quvchida dunyoni rangbarang tasavvur etishlariga xizmat qiladi. "Chunki, yoshlar tabiat va jamiyatni nafaqat aqliy imkoniyatlari doirasida bilib, anglab boradi, balki, shu bilan bir qatorda, estetik tafakkuri orqali ham his qiladi va idrok etadi. Shu bilan birga bunday ijtimoiy-psixologik jarayon bevosita erkin, ozod, hech qanday tazyiqsiz, ko'rsatmasiz, buyruqsiz bo'lishni ham taqozo qiladi"[3].

O'quvchi-yoshlar o'zlarining estetik bilimlarini ongli ravishda jamiyatga tatbiq etishda quyidagilarga munosabat bildiradi:

1) estetik tarbiya va bilimlari orqali borliqni hissiy idrok etadi va o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda olamdagi narsalarning go'zal va xunuk tomonlarini falsafiy mushohadalaydi;

2) yoshlar borliqdagi go'zallik sirlarini o'zlashtirishi natijasida tabiat va jamiyatning bir-biridan farqli tomonlarini xissiy idrok etadi va estetik bilimlarini boyitgan holda ijtimoiy muhit bilan chambarchas holda yangi bosqichga olib chiqadi;

3) yoshlar tarbiyasida estetik kategoriyalar muayyan funksiyalarni ham amalga oshiradi. Unda kognitiv xususiyat ham mavjud bo'lib, voqeyelikdagi narsalarni ijobiy tomonini o'zlashtirish asosida estetik bilimlari doirasini kengaytiradi;

4) har bir xalqning tarixan shakllangan milliy mentaliteti bevosita estetik tarbiyasi orqali ijtimoiy hayotda aks etadi. Bunday ko'rinish bevosita yoshlarda tashqi muhit bilan munosabatga kirishishda, jamiyatning faol a'zosiga aylanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Milliy mentalitet shuningdek, yoshlarning atrof-muhitga estetik munosabatini va uning jamiyat an'analari, amaliy faoliyati asosida baholashi kabi barcha harakatlarining umumiylikni anglatadi. "Bugungi kun yoshlarining qiziqish doiralari, faoliyati, dunyoqarashida shakllangan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligi masalalari, ulardan kelib chiqib shakllanadigan tolerantligi va ijtimoiy faolligi nafaqat ularning o'z taqdirini, balki butun bir millat yoki mana shu millat taqdiri bilan bog'liq davlat kelajagini belgilab beradi"[8]. Bunday faoliyat yoshlar ma'naviyati bilan parallel ravishda jamiyatning estetik tafakkurini shakllanishiga, odamlardagi ruhiyatni oshirishga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqsak, etnografik bilimlarning boyib borishi va rivojlanishi mavkuraviy hamda diniy dunyoqarashlar tizimini ham boyitib, estetik ahamiyatini oshishiga o'z hissasini qo'shgan. Bu esa o'z navbatida, estetik tarbiya tizimini boyib borishiga asos bo'lgan. "Etnografiklarning markaziy vazifalaridan biri barcha xalqlarga xos yangi turmush tarzining umumiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Ijtimoiy va oilaviy turmushdagi yangi progressiv formalarni tadqiq qilish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi"[11].

Estetik tarbiyaning barcha yo'nalishlari yosh avlodni ijtimoiy mavqeni oshirib, ularning etnografik muhitda komil inson bo'lib voyaga yetishiga o'z ta'siri ko'rsatib, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1) xalqlar o'rtasida bag'rikenglik, etnografik muhitda ahillik;

2) tarbiyaning ijobiy jihatlari, bag'rikenglik, muomalasi, sog'lom turmush an'analariga e'tibor qaratish, jamiyatda o'z "men"ligini isbotlash;

3) integratsiya jarayonlarida xalqlar do'stligiga e'tibor qaratish, boshqa din vakillariga hurmat va to'g'ri munosabatda bo'lish jihatlari;

4) dunyo to'g'risidagi bilimlarini mustaqil o'rganishiga, ularga baho berishiga, intellektual salohiyatini oshirishga, badiiy va erkin ijod kompetensiyalarini shakllanishiga;

5) shaxsiy bilish faoliyatida etnoestetik bilimlarga intilish, ularga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'la boshlashi bilan;



6) o'z taqdiriga befarq bo'lmalik, o'z-o'zini boshqarish madaniyatini rivojlantirib borishga qaratilgan intilish;

7) mavjud bilim va ko'nikmalari ta'sirida globallashtirilgan dunyo, mojaroli davlatlar, jamiyatning dominantligi, hozirgi davlat tarixi, an'analari, bashariyatga daxldor madaniy yodgorliklarni asrashga bo'lgan intilishlar;

8) o'z-o'zini asrashga bo'lgan harakat, ijtimoiy masalalarda boshqa kishilar, xalqlarning tinch osuda turmush tarzi uchun ijtimoiy daxldorlik hislatlarini, faol fuqarolik pozitsiyalarini yuzaga keltirishdan iborat.

Oila muhitida turmush estetikasi rivojlanar ekan, "bolalar mehnat qilishga o'rganadi, o'zi yaratgan narsaning qadriga yetadi,... Qizlar uchun qo'g'irchoq yasash, bolalar uchun varrak yasash orqali ana shunday ko'nikmalar paydo bo'ladi"[4:87]. Bunda asosan, yosh avlodning yashash muhitidagi etnoestetik ideallar, jamiyatni his qilib, unga munosabat bildirish, shu asosda o'zlarining aqliy tafakkurlarini rivojlantirib borish kabi omillar sabab bo'lib, o'zlarning turmush tarzidagi go'zallikni oshirib borishga doimo intiladilar. Oddiygina uy-ro'zg'or anjomlari ham oilaviy turmushga bezak berishini inobatga olib, har xil rangda, naqshdagi tovoq, lagan, ko'za, kosa, choynak, piyola, qoshiq va hokazolarni xonadonlarda avaylab saqlanadi. Bu omillar nafaqat kishilarning estetik ehtiyojini qondirib borishida, balki turmush tarzi madaniyatini go'zal va chiroyli, estetik madaniyatini ko'rkamligini ta'minlovchi vositalar sifatida qaraladi. Natijada, ularda etnografik atamalar bilan etnografik dunyoqarash tushunchalari ham shakllanib borishini kuzatish mumkin bo'ladi.

Har bir xalqning madaniyati va ma'naviyati umuminsoniy qadriyatlar bilan naqadar bog'liq bo'lgani, uning jahon sivilizatsiyasi tarixiga qo'shgan hissasi va tutgan o'rni bilan belgilanadi. Jahondagi barcha elat va xalqlar ancha murakkab

etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida turli elatlar bilan aloqada, ba'zan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o'ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib kelgan[7]. Mazkur omillar xalq pedagogikasi orqali yoshlar estetik tarbiyasida ham sezilarli ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Yoshlarni milliy estetik ruhda tarbiyalashda muhim jihatlari e'tibor berish zarur va ular quyidagilardir:

har bir o'sib kelayotgan yosh avlodda estetik idrokni individual tarzda rivojlantirish orqali jamiyatga nisbatan go'zallik va xunuklik tuyg'ularini oshirish;

yuksak estetik dunyoqarashli yoshlarni tarbiyalashda did va ideal masalalariga alohida e'tibor qaratish;

yoshlarda badiiy tanqidchilik san'atini kuchaytirish orqali xilma-xil innovatsiyalarga jalb etish;

ijod namunalarini yaratishda milliy identlikni aks ettirish, kundalik hayotni, ijtimoiy munosabatlarni, odamlar xatti-harakatlarini chiroyli amallar bilan boyishi kerak.

**Xulosa.** Yoshlarning estetik tarbiyasida etnografik muhit ahamiyatga ega jarayon sifatida o'timish va hozirgi zamon ta'sirida mafkuraviy xurujlar, g'oyaviy ta'sirlarni sezish orqali transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Buning ta'sirida ayrim jamiyatning bugungi islohot jarayonidan qochishga intilayotgan kuchlarning milliylikka tahdidi, kelajak avlod ma'naviyatini turli g'arazli kuchlar ta'siridan saqlash dolzarblashmoqda. Bunda yurtimizda keng targ'ibot jarayoniga aylangan "Besh muhim tashabbus"ning mohiyatini chuqur anglash, xalq og'zaki va yozma ijodini innovatsion yo'llardan foydalangan holda yoshlarga yetkazish, ularning estetik tarbiyasida etnografik elementlarni singdirib borish bugungi kunda tarbiyaviy ishlarning asosini tashkil etishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришни тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016.
2. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. – Т.: 2007.
3. Аббосхўжаев О., Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишув. – Тошкент: Академиа, 2007.
4. Абдуллаева Н. Дизайн ва бадий-эстетик маданият. –Т.: Turon-iqbol, 2016.
5. Аширов А. Этнология. Ўқув қўлланма. -Т.: Янги нашр, 2014.
6. Аширов А. Ўзбек миллий менталитети ҳақида баъзи мулоҳазаоар. Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих мавзусида Республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2001.
7. Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). -Т.: Шарқ, 2008.
8. Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2009.
9. Убайдуллаева Б. Сурхондарёда оилавий тарбиянинг этник хусусиятлари // “Бойсун-бахори” очик фольклор фестивалини “Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. Т.: “Янги нашр”, 2019. 52-бет.
10. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
11. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. (Ўлкани ўрганишнинг асосий манбалари). – Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
12. Ғайбуллаев О. Эстетик маданият. Тошкент, “Наврўз”, 2020.
13. Яздонов З. Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019.



**Shakhista TADJIBAYEVA,**

*Tashkent international university of financial management and technologiesseniior teacher of the department of pedagogy and psychology*

*E-mail:shohista02.07@mail.ru*

*TIFT universiteti dotsenti, Sots. Fan. Nom. S.Axrorov taqrizi asosida*

## INTERCORRELATION ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING AGGRESSIVE BEHAVIOR IN MARTIAL ARTS

Annotation

In this article, the intercorrelation analysis of the psychological factor affecting aggressive behavior is analyzed in detail. Through correlational analysis of the problem of aggressive behavior in sports activities, the positive and negative relationship between the scales of the methods used for the problem is revealed in detail.

**Key words:** Physical aggression, verbal aggression, indirect aggression, negativism, jealousy, suspicion, hurt, guilt, feeling, frustration, constructive aggression, destructive aggression.

## ИНТЕРКОРРЕЛЯЦИОННИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ В ЕДИНОБОРСТВАХ

Аннотация

В данной статье подробно анализируется интеркорреляционный анализ психологического фактора, влияющего на агрессивное поведение. Посредством корреляционного анализа проблемы агрессивного поведения в спортивной деятельности детально выявляется положительная и отрицательная связь между шкалами методов, используемых для решения проблемы.

**Ключевые слова:** физическая агрессия, вербальная агрессия, косвенная агрессия, негативизм, ревность, подозрительность, обида, вина, чувство, фрустрация, конструктивная агрессия, деструктивная агрессия.

## YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA AGRESSIV XULQ-ATVORGA TA'SIR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK OMILLANING INTERKORRELATSION TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada agressiv xulq-atvorga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillaning interkorrelatsion tahlili batafsil tahlil qilingan. Sport faoliyatida agressiv xulq-atvor muammosining korrelyatsion tahlili orqali muammoga doir qo'llanilgan metodikalar shkalalari o'rtasida musbat va manfiy aloqadorlik batafsil ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy agressiya, verbal agressiya, bilvosita agressiya, negativizm, jizzakilik, sergumonlik, ranj, aybdorlik, hissi, frustratsiya, konstruktiv agressiya, destruktiv agressiya.

**Introduction.** The problem of aggression is interpreted by different researchers as an unacceptable form of behavior that requires the correction of human behavior. There are different forms of aggression: from direct use of force, verbal insults and threats to the opponent, to covert control of another person, and indirect reprimands that hint at future unpleasantness. Forms of aggression that do not obey socialization are also observed at the level of pain. There are also such behaviors that are recognized as aggression by some of the participants of group conflicts, and analyzed by other participants as determination, activity, and consistency in achieving the goal. B. Klein, while not denying the negative aspects of aggressiveness, emphasizes that there are "some healthy aspects" of aggression that can be used to lead an active life. It is determined by determination, initiative, intensity, success, and overcoming obstacles.

The theory of correlational studies based on the concept of correlation measurements was developed by K. Pearson, which is described in detail in textbooks on mathematical statistics. Only the methodological aspects of correlational psychological research will be considered here. The strategy for conducting a correlational study is similar to a quasi-experiment. The only difference from a quasi-experiment is that there is no controlled effect on the subject. The design of a correlation study is simple.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** When defining the term aggression, it is derived from the Latin language and means "agredi" - "to attack". There are different approaches to the term "aggression" in modern psychology, aggression is negatively evaluated by H. Delgado, A.A. Bass, L.M. Semenyuk, G. Parens, A. Bandura, R. Walters, Yu. Mozhginsky [1]. But at the same time, it can be said that there are positive approaches to "aggression". In particular, L. Bender states that aggression is a human's desire for self-expression. Because explaining the

concept of aggression itself causes a number of difficulties, because this term covers many forms of behavior. When people describe someone as aggressive, they mean that they are abusive, or mean, want to do things their way, or are stubbornly protective of their own ideas, and get lost in a whirlwind of unsolvable problems. they can say human.

**Tadqiqot metodologiyasi.** The theory of correlational studies based on the concept of correlation measurements was developed by K. Pearson, which is described in detail in textbooks on mathematical statistics. Only the methodological aspects of correlational psychological research will be considered here. The strategy for conducting a correlational study is similar to a quasi-experiment. The only difference from a quasi-experiment is that there is no controlled effect on the subject. The design of a correlation study is simple. The researcher puts forward the hypothesis that there is a statistical relationship between several mental characteristics of a person or between certain external levels and mental states. At the same time, assumptions about causality are not discussed. A correlational study is a study conducted to confirm or reject a hypothesis about a statistical relationship between several (two or more) variables. In psychology, mental properties, processes, states, etc. can play a changing role.

**Tahlil va natijalar.** The researcher puts forward the hypothesis that there is a statistical relationship between several mental characteristics of a person or between certain external levels and mental states. At the same time, assumptions about causality are not discussed. A correlational study is a study conducted to confirm or reject a hypothesis about a statistical relationship between several (two or more) variables. In psychology, mental properties, processes, states, etc. can play a changing role.

Table 1.

Correlation between the aggression scales of A. Bass and E. Dark and the scales of G. Amon's I-structural (ISTA) methodology (according to Sperman's criterion, n=240)

|                              | Physical Aggression | Verbal Aggression | Indirect Aggression | Negativism | Angry     | suspicion | complaint | Guilt     |
|------------------------------|---------------------|-------------------|---------------------|------------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Neuroticism                  | 0,765(**)           | 0,428(**)         | -0,012              | 0,474(**)  | 0,169(**) | -0,057    | -0,005    | -0,158(*) |
| Spontaneous aggression       | 0,401(**)           | 0,722(**)         | 0,014               | 0,302(**)  | 0,051     | -0,106    | 0,004     | -0,088    |
| Equilibrium                  | -0,467(**)          | -0,183(**)        | -0,074              | -0,277(**) | -0,03     | -0,063    | 0,144(*)  | 0,05      |
| Reactive aggression          | 0,808(**)           | 0,338(**)         | 0,097               | 0,373(**)  | 0,005     | -0,147(*) | -0,117    | -0,046    |
| Extraversion-introversion    | 0,416(**)           | 0,323(**)         | 0,069               | 0,299(**)  | 0,042     | -0,112    | 0,078     | -0,116    |
| Emotional lability           | 0,427(**)           | 0,289(**)         | -0,015              | 0,279(**)  | 0,045     | -0,063    | 0,042     | -0,138(*) |
| Your masculinity is feminism | 0,338(**)           | 0,288(**)         | 0,021               | 0,206(**)  | -0,007    | -0,063    | 0,099     | -0,099    |

Note: \*-p<0.05; \*\*-p<0.01.

A positive correlation was found between neuroticism and physical aggression scales ( $r=0.765$ ;  $p<0.01$ ). We can say that athletes with neuroticism, which indicates the instability of their emotional state, are prone to physical aggression. At the same time, a positive correlation was found between neuroticism and the scales of verbal aggression, negativism, and anger ( $r=0.428$ ,  $p<0.01$ .  $r=0.474$ ,  $p<0.01$ .  $r=0.169$ ;  $p<0.01$ ). It is self-evident that our neurotic people, in addition to showing verbal aggression, can deny everything in the state of negativism, do what they are told, and show all forms of cynicism. A negative correlation was found between the scale of neuroticism and the feeling of guilt ( $r=0.158$ ;  $p<0.05$ ). From this we can see that neurotic persons do not have feelings of guilt such as self-blame. A positive correlation was found between spontaneous aggressiveness and scales of physical aggression, verbal aggression, negativism  $r=0.401$ ;  $p<0.01$ . ( $r=0.722$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.302$ ;  $p<0.01$ ). (spontaneous aggression) allows to identify and assess the psychopathic state of the introverted type. High scores indicate traits characteristic of people with involuntary behavior. Spontaneous (spontaneous) aggression means aggressive, involuntary, unable to get out, uncompromising. We can see that spontaneous aggressive people dominate physical aggression, verbal aggression, and negativism.

A negative correlation was found between balance and physical aggression scales ( $r=-0.467$ ;  $p<0.01$ ). Equilibrium means resistance to mental shock. High grades show confidence and activity in the future; self-confidence means that it is well protected from the impact of shock factors in normal life situations. Temperance means good mood, stability, fortitude, calmness, self-confidence, trustworthiness, activity. From this we can see that physical aggression is low in balanced individuals. A negative correlation was also found between the balance scale and the scales of verbal aggression and negativism ( $r=-0.183$ ;  $p<0.01$ .  $r=-0.277$ ;  $p<0.01$ ). Therefore, neither verbal aggression nor negativism occurs in our well-balanced athletes. A positive correlation was found between balance and pain scales ( $r=0.144$ ;  $p<0.05$ ). In the lives and activities of our well-balanced athletes, even a small amount of pain - grief from someone or the whole world, imaginary or real suffering, anger, hatred towards others, jealousy can be seen. Reactive aggression (reactive aggression) - extratensive type determines the manifestation of psychopathic symptoms. High scores indicate a desire for superiority and an aggressive attitude to the social environment. Reactive aggression means aggressively defending one's views, defending one's opinion, selfishness, arrogance, striving for prestige, superiority, superiority. A positive correlation was found between the scale of reactive aggression and scales of physical aggression, verbal aggression, negativism ( $r=0.808$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.338$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.373$ ;  $p<0.01$ ). We can see that our reactive aggressive

individuals, while showing physical and verbal aggression on their own, are also stable in the state of negativity. A negative correlation was found between the scale of reactive aggression and the scale of suspicion ( $r=-0.147$ ;  $p<0.05$ ). We can see that a person prone to reactive aggression does not have suspicion - that is, a tendency to mistrust, to approach people cautiously, to live with the thought that people around them can cause harm. A positive correlation was found between extraversion-introversion and scales of physical aggression, verbal aggression, negativism ( $r=0.416$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.323$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.299$ ;  $p<0.01$ ). The remarkable aspect of this scale is that high scores correspond to extroversion, and low scores correspond to introversion. Extraversion - talkativeness, activity in public affairs or vice versa, introversion - avoidance of contact with people, passivity, emotional instability. In many cases, physical aggression, verbal aggression and negativism are more likely to occur in extroverted people.

Emotional lability (emotional lability, changeability) high scores indicate the incorrectness of the emotional state, which is manifested in insufficient self-awareness, irritability, high excitability, frequent mood swings. Lower scores indicate not only high stability of emotional state, but also self-awareness. Emotional volatility-stability is expressed in features such as emotional stability or instability, mood swings, cheerfulness, enthusiasm, sadness or confidence in the future, joy. A positive correlation was found between emotional lability and scales of physical aggression, verbal aggression, negativism ( $r=0.427$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.289$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.279$ ;  $p<0.01$ ). Therefore, individuals with physical aggression, verbal aggression and negativism are considered emotionally unstable individuals in any activity. A negative correlation was found between emotional lability and guilt scales ( $r=-0.138$ ;  $p<0.05$ ). The feeling of guilt is also called autoaggression - the feeling of guilt observed in the relationship between oneself and the environment, behavior directed against oneself, i.e. self-blame, thinking that I am the one, I am the one means to eat the flesh. We can say that the feeling of guilt is very rare in emotionally unstable persons. A positive correlation was found between the scale of masculinity-feminism and the scale of physical aggression, verbal aggression and negativism ( $r=0.338$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.288$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.206$ ;  $p<0.01$ ). (masculinism-feminism) - high scores testify to mental activity, in particular, masculine, while lower scores indicate feminine. Courage-femininity-activity, knowledge of all, understanding is ingenuity. We can see that masculinity-feminism is high in people who are prone to physical aggression, verbal aggression and negativism, that is, it is impossible to try to bring out the characteristic of men, as mentioned above.

Table 2.

Correlation between the aggression scales of A. Bass and E. Dark and the scales of V. Boyko's method of "Determining the state of frustration" (according to Sperman's criterion, n= 240)

|             | Physical Aggression | Verbal Aggression | Indirect Aggression | Negativism | Angry  | suspicion | complaint | Guilt  |
|-------------|---------------------|-------------------|---------------------|------------|--------|-----------|-----------|--------|
| Frustration | 0,392(**)           | 0,316(**)         | 0,132(*)            | 0,236(**)  | -0,005 | -0,097    | 0,067     | -0,115 |

Note: \*-p<0.05; \*\*-p<0.01.

A positive correlation was found between the level of frustration and the scales of physical aggression, verbal aggression, indirect aggression and negativism ( $r=0.392$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.316$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.132$ ;  $p<0, 01$ .  $r=0.236$ ;  $p<0.01$ ). How to behave in a situation of frustration depends on the personality of

the athlete. Athletes with a weak nervous system show more anxiety and depression, and athletes with a strong nervous system show aggression.

Frustration can affect an athlete's performance in different ways. In some cases, it directs the athlete to achieve the goal,

increases motivation. However, it is observed that the behavior is impulsive and irrational. In some cases, frustration stops an athlete from moving. Frequent occurrence of frustration forms aggressiveness, guilt, self-doubt as a personal characteristic. In

general, we can see that physical aggression, verbal aggression, indirect aggression and negativism are always present in athletes with a high level of frustration.

Table 3.

Aggression scales of A.Bass and E.Dark and Ye.P. Ilin, P.A. Correlation between the scales of the Kovalev method of aggressive behavior (according to Sperman's criterion, n=240)

|                              | Physical Aggression | Verbal Aggression | Indirect Aggression | Negativism | Angry  | suspicion | complaint | Guilt  |
|------------------------------|---------------------|-------------------|---------------------|------------|--------|-----------|-----------|--------|
| Direct verbal aggression     | 0,329(**)           | 0,295(**)         | 0,114               | 0,225(**)  | 0,063  | -0,138(*) | 0,092     | -0,074 |
| Indirect verbal aggression   | 0,351(**)           | 0,291(**)         | 0,081               | 0,204(**)  | -0,023 | -0,087    | 0,037     | -0,081 |
| Indirect physical aggression | 0,349(**)           | 0,287(**)         | 0,059               | 0,183(**)  | 0,025  | -0,147(*) | 0,134(*)  | -0,089 |
| Direct physical aggression   | 0,346(**)           | 0,293(**)         | 0,116               | 0,229(**)  | 0,068  | -0,1      | 0,08      | -0,056 |

Note: \*-p<0.05; \*\*-p<0.01.

When the results were carefully studied, a number of positive and negative correlations emerged. A positive correlation was found between direct verbal aggression and physical aggression scales ( $r=0.329$ ;  $p<0.01$ ). In people with direct verbal aggression, physical aggression is also absent together, because people who commit any physical aggression do not automatically observe, even without thinking about it. Verbal expression of negative emotions (quarrels, scolding, cursing, threatening, cursing, etc.) was determined with a very high level of reliability. At the same time, a positive correlation was found with direct verbal aggression and verbal aggression, negativism scales ( $r=0.295$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.225$ ;  $p<0.01$ ). We can observe a negative correlation between the suspicion scale and the direct verbal

aggression scale ( $r=-0.138$ ;  $p<0.05$ ). Direct verbal aggression is rarely encountered in people prone to mistrust.

Among the general correlations, if we analyze the relationship of our last scale with the main selected methodological scales, it can be clearly said that direct physical aggression has a positive correlation between the scales of physical aggression, verbal aggression, and negativism ( $r=0.346$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.293$ ;  $p<0.01$ .  $r=0.229$ ;  $p<0.01$ ). In particular, it was found that our athletes, who are in a state of physical aggression, verbal aggression, and negativism, make direct physical aggression invisible not only in sports activities, but also in interpersonal relationships.

#### REFERENCES

1. Gottsdanker R. Osnovi psixologicheskogo eksperimenta: Ucheb. posobie. Per. s angl. - M.: Izd-vo Mosk. un-ta. 1982.-464 s.
2. Beron R., Richardson D. Agressiya.- SPb.: Piter, 2001.- 352 s.
3. Chaldini R., Kenrik D., Neyberg S. Sotsial'naya psixologiya. Poymi sebya, chtobi ponyaty drugix! (seriya "Glavniy uchebnik").- SPb.: Praym- YeVROZNAK, 2002.- 336 s.
4. Spravochnik prakticheskogo psixologa: Psixoterapiya/ sost. S.L.Solov'yova.- M.: AST.SPb.: Sova, 2005.- 575 s.
5. Eliseev O.P. Praktikum po psixologii lichnosti. 2-e izd., ispr. i pererab.- SPb.: Piter, 2002.- 512 s.
6. Martin D. Psixologicheskie eksperimenti. Sekreti mexanizmov psixiki.- SPb.: praym - YeVROZNAK, 2004.- 480 s.
7. Ross A., Nisbett R. Chelovek i situatsiya: Uroki sotsial'noy psixologii/ per. s angl.- M.: Aspekt Press, 2001.- 429 s.
8. Sapogova Ye.E. Psixologiya razvitiya cheloveka: Uchebnoe posobie.- M.: Aspekt Press, 2001.- 460 s.





Go'zal TOXIROVA,

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

E-mayl: go'zaloytoxirova96@list.ru

Andijon davlat pedagogika instituti prof. M.Xalimova

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S PROFESSIONAL CAREERS

Annotation

In this article, Career is achieving success, career, promotion. In other words, it is the result of a person's specific behavior and attitude in work related to professional growth, and explains its structure. An individual career is a sequence of individual development of behavior patterns and work experience, both conscious and independent, to move up the career ladder. It also embodies the stages of a person's professional life and individuality in entrepreneurial activity.

**Key words:** Professional career, individual professional career, professional self-sufficiency, authoritative decision.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-СЛУЖЕБНОЙ КАРЬЕРЫ У ЖЕНЩИН

Аннотация

В данной статье Карьера – это достижение успеха, карьера, продвижение по службе. Другими словами, это результат конкретного поведения и позиции человека в работе, связанной с профессиональным ростом, и объясняется его структура. Индивидуальная карьера – это последовательность индивидуального развития моделей поведения и опыта работы, как сознательного, так и самостоятельного, для повышения по служебной лестнице. Оно также воплощает этапы профессиональной жизни человека и индивидуальность в предпринимательской деятельности.

**Ключевые слова:** Профессиональная карьера, индивидуальная профессиональная карьера, профессиональная карьера, профессиональная самостоятельность, авторитетное решение.

## XOTIN-QIZLARDA PROFESSIONAL-XIZMAT KARYERASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada, Karyera – bu muvaffaqiyatga erishish, martaba, lavozimga ko'tarilishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu shaxsning kasbiy o'sishi bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyatidagi muayyan xatti-harakati va pozitsiyasining natijasi ekanligi va uning tuzilishi yoritilgan. Individual karyera – xizmat pillapoyalarida ko'tarilishning ham o'ngli, ham o'z-o'zidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar uslubi va ish tajribasini individual ravishda rivojlantirish ketma-ketligidir. Shuningdek, u shaxsning kasbiy hayot yo'li bosqichlari va tadbirkorlik faoliyatidagi individuallikni ham o'zida mujassamlashtirgan.

**Kalit so'zlar:** Professional karyera, shaxs kasbiy karyera, kasbiy o'zini o'zi ta'minlash, nufuzili qaror.

**Kirish.** Respublikamizda, so'nggi yillarda sodir bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jamiyatning barcha sohalariga, ijtimoiy munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatdi, turli ijtimoiy guruhlarining hayoti va kasbiy strategiyalarida o'zgarishlarga olib keladi. Ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi, yuqori malaka talab qiladigan yangi nufuzli kasblar paydo bo'ldi, shaxsning o'z taqdirini erkin belgilashi va o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratilmoqda. Kasbiy karyera hozirgi vaqtda mehnat qilish huquqining davlat kafolatlariga emas, balki mehnat bozorida individual texnologiyalarga, ishchilarning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligiga, ularning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishning boshlanishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ayollar kasbiy sohada ishga joylashish va oliy ma'lumot olishga e'tibor qaratmoqda, bu ko'p jihatdan oilaning moddiy farovonligini oshirish zarurati, o'zini o'zi tasdiqlash, o'zini o'zi qadrlash zarurati bilan bog'liq.

Jamiyatdagi bu jarayonlarning murakkabligi bir qator ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Ayollarning kasbiy karyeralarining o'ziga xosligi ijtimoiy va madaniy integratsiyaga va jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ta'lim, ishga joylashish va karyerada ko'tarilish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadigan to'siqlarning mavjudligidir. Gender omili ayollarning kasbiy martaba yo'lida institutsional va ijtimoiy-madaniy to'siqlar mavjudligida, umuman ayollar mehnatiga erkaklarnikiga nisbatan pastroq jamoatchilik tomonidan baholanishida, mehnat bozorida gender assimetriyasida va jins bo'yicha kasbiy segregatsiyada namoyon bo'ladi: erkaklar asosan buni amalga oshiradilar. O'zlari yuqori maqomga ega bo'lgan sohalarida (moliya, kredit, qurilish, davlat), ayollar eng kam daromadli sohalarida (ta'lim, madaniyat, san'at, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, norasmiy sektor) band.

Ayollarning o'z muammolari ham mavjud (oilaviy mas'uliyat, birlamchi sotsializatsiyaning gender xususiyatlari, jamoada ajralib turish va o'z kasbiyligini isbotlay olmaslik va istamaslik, xavfdan qo'rqish, erkaklarnikiga nisbatan kuch va ambitsiyalarga kamroq intilish) mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asrning oxiri XXI asr boshiga kelib, karyera so'zi ilmiy tadqiqotlarda (masalan, A.Derkach, Ye.Dyachkova, F.Lyutens, Ye.Oxotskiy va boshq.) anchayin keng ma'noda qo'llanila boshlandi. Xususan, karyera –

- kasbiy harakatlanish, kasbiy o'sish, professionallikning bir darajasidan boshqasiga o'tish;
- hayotning asosiy sohalarida (ish, oila, bo'sh vaqt) inson taraqqiyoti bosqichlarining dinamikasi va umumiy ketma-ketligi;
- ijtimoiy-iqtisodiy va maqom-rol pozitsiyalari;
- shaxsning ijtimoiy faolligi shakli;
- shaxs butun hayotining muvaffaqiyati;
- shaxsning o'z ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga imkon beradigan mavqega erishish istagi;
- shaxsning o'z hayot tarzini rivojlantirishi va takomillashtirishida, ijtimoiy hayot oqimida barqarorlikni ta'minlashda faol harakatlanishi;
- hayotiy maqsadlar muvaffaqiyatining garovi;
- shaxsning muvaffaqiyat va mag'lubiyatlariga bo'lgan subyektiv mulohazasi;
- shaxsiy va kasbiy rivojlanishning o'zaro aloqadorligi sifatida baholanmoqda[1]

20-asrning birinchi yarmida ayollarning mehnat bozoriga kirishi munosabati bilan. ishlab chiqarish sohasidagi ien-yadro muammolari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. 1950-yillarning boshidan beri. G'arb mualliflari (T.Parsons, G.Bekker,

X.Xartman, S.Pulasek, P.Angliya, X.Zellner, R.Barron) ayollarning iqtisodiyotdagi ishtirokining turli jihatlarini va ayollar tengsizligining takror ishlab chiqarish sabablarini o'rgandilar.[1] Kasbiy faoliyatning gender tadqiqotlarida quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ayollarning ijtimoiy harakatchanligi va iqtisodiy xulq-atvoridagi o'zgarishlar (G.G.Sillaste, J.I.A.Shatrova, J.I.B.Babayeva, L.D.Elson, A.A.Temkina, E.S.Balabanova); Tashkiliy tuzilmada ayollarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi gender stereotiplari (O.V.Mitina, V.F.Petrenko, A.A.Moekovskaya, K.V.Fofanova); Ayollarning kasbiy o'sishida oilaning roli (O.A.Rakovskaya, N.V.Goncharova, G.V.Turetskaya, I.N.Tartakovskaya); Ijtimoiy fanlar nomzodi dissertatsiyasini tugatgan - Saratov, 2004, V.H.Yatsenko karerlarini shakllantirish va boshqarish Ijtimoiy fanlar nomzodi dissertatsiyasi - Ufa, 2003 y.[2]

Ye. Komarov tadqiqotlarida karyeraning 2 turga ajratib, «vaziyatli karyera» va «o'z qo'llari bilan yaratilgan karyera», deb nomlagan [3].

S.I. Sotnikov esa izlanishlarida karyerani shartli ravishda: «maqsadli karyera», «bir maromli karyera», «spiral karyera», «bir zumlik karyera», «barqaror karyera» va «so'nib boruvchi karyera» kabi 6 ta ko'rinishini asoslagan[7].

P. Shtomka karyeraga erishish jarayonini 2 xil holatda baholab, o'sib borish xususiyatiga ko'ra «progressiv karyera» va so'nib borish jihatiga asoslanib «regressiv karyera» turlariga ajratgan[8].

**Tadqiqot metodologiyasi. G'arbliklar hayotidagi Kasb karyerasi bosqichlari**

| №  | Karyera bosqichlari | Yosh,-yil    | Maqsadga erishish ehtiyojlari  |
|----|---------------------|--------------|--|
| 1. | Dastlabki           | 25 gacha     | Ta'lim, turli ishlarda sinab ko'rish   |
| 2. | Tiklanish           | 30 gacha     | Ishni o'zlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, malakali mutaxassis yoki rahbarning shakllanishi                |
| 3. | O'sish              | 45 gacha     | Xizmat pillapoyalardan ko'tarilish, yangi ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lish, malakaning o'sishi                 |
| 4. | Barqarorlik         | 60 gacha     | Mutaxassis yoki rahbar malakasining cho'qqisi. O'z malakasini oshirish. Yoshlarga murabbiylik qilish               |
| 5. | Yakunlash           | 60 dan keyin | Nafaqaga chiqishga, o'ziga voris tayyorlashga, nafaqada faoliyatning yangi turi bilan shug'ullanishga tayyorgarlik |
| 6. | Pensiyadan so'ng    | 65 dan keyin | Faoliyatning yangi turi bilan shug'ullanish  |

Kasb karyerasining bosqichlari umumiylik xususiyatiga ko'ra (1.2-jadvalga qarang), «dastlabki → tiklanish → o'sish → barqarorlik → yakunlash → nafaqadan so'ngi» karyera ko'rinishidagi 6 bosqichni tashkil etib, u 25 yoshgacha, 25 yoshdan 65 yoshgacha va 65 yoshdan keyingi yosh davrlariga xos maqsadga erishish ehtiyojlarini namoyon bo'lishida xususiylik jihatlarini ifodalaydi.

Demak, professional karyerani rejalashtirishda u yoki bu mutaxassis o'z yoshini hisobga olish lozim. Chunki ko'p hollarda yosh mutaxassisning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi o'ziga xos bosqichlarini belgilashda asosiy omil vazifasini bajaradi.

Shu o'rinda karyerani rivojlanish bosqichlariga to'xtaladigan bo'lsak, vertikal va (yoki) gorizontol karyera yo'nalishlarini bir-biridan farqlab tushuntirishga to'g'ri keladi.

1. Vertikal karyeragi erishish yoki professional-xizmat martabasiga ko'tarilishda bosqichlar ketma-ketligini aniqlashning imkoniyati mavjud. Mutaxassislar, qoida tariqasida, vertikal karyeraga erishish yo'lini quyidagi darajalarga ajratishgan va bu darajalar muayyan kasbiy sohaga qarab bir-biridan farqlanishi ham mumkin:

- boshlang'ich mutaxassis (1-yilgacha ish stajiga ega mutaxassis);

an'anaviy «karyera» tushunchasi sharqliklar nazdida «hayotda o'z o'rnini topish» iborasiga anchayin yaqin hisoblanadi. Kasb tanlash jarayoni esa kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishdan farqli ravishda, faqatgina shaxsning istiqboliga qaratilgan qaror sifatida baholanishi mumkin.

V.A. Tolochek tahliliga ko'ra, XIX asrda, karyera «yo'l, yurish, hayot taqazosi, xizmat, muvaffaqiyat va uning hosilasi» yoki bo'lmasa «jamiyatdagi muvaffaqiyat, martaba va darajalarga tez erishish» deya ta'riflangan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib, unga shaxsning tashqi muvaffaqiyati, foydasi, shon-sharafi, shon-shuhrati, shuningdek, shaxsiy farovonlikka erishish yo'li va taraqqiyoti, istiqboli va taqdiri sifatida qarala boshlangan. XX asr oxirida. karyera «fenomen» sifatida gumanitar fanlarning turli darajadagi tadqiqotlari obyektiga aylandi. Nafaqat, uning mazmuni kengaytirilib, tipologiyalari tahlil qilindi, balki karyeraga erishish jarayonining bir qator haqiqiy va (yoki) yashirin determinantlari ham tadqiq qilindi[7].

**Taxlil va natijalar.** Umuman olganda yuqoridagi mulohazalarimiz asosida, kasb karyerasi deganda mutaxassisning bilim, ko'nikma, mahorat darajasining o'sishi tushuniladi, deb xulosalash mumkin. Kasb karyerasi ixtisoslik (kasb faoliyati boshida tanlangan ixtisoslikni chuqurlashtirish) yoki keng ixtisoslashtirish (yangi va turdosh kasblarni egallash) yo'nalishida ham bo'lar ekan. Shuningdek, karyerani tanlashga ta'sir ko'rsatadigan omillar ichida «professional karyera bosqichlari», «shaxs professional orientatsiyasi», «shaxsning ko'nikma va qobiliyatlari yoki kompetensiyalari» ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ana omillarni tizimli ravishda tahlil etamiz.


- tajribali mutaxassis (2-3-yillik ish stajiga ega mutaxassis);

- katta mutaxassis (3-yildan ortiq ish stajiga ega mutaxassis);

- menejer (5-yildan ortiq ish stajiga ega mutaxassis).

2. Gorizontol karyerani rejalashtirgan shaxsning martaba o'sishida muayyan bir xodim bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar ketma-ketligini aniqlab bo'lmaydi. Sababi, bosqichlar har doim individual xususiyatlarga va professional manfaatlariga bog'liqdir.

Umuman olganda har qanday ko'rinishdagi karyera rivojlanishida bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Karyera muvaffaqiyatli bo'lishida, birinchidan, uni rejalashtirayotgan shaxs ko'p jihatdan u uchun harakat qilishni xohlashi ham zarur. Aks holda, harakat qilish istagi va (yoki) tayyorgarliksiz hech qanday martabaga erishib bo'lmaydi. Ikkinchidan, tashkilot ham u yoki bu xodimni professional o'sishi uchun ma'lum shart-sharoitlarni tayyorlagan bo'lishi kerak. Xususan, ish beruvchi o'z jamoasini davomli o'qitish (malakasini oshirish) uchun ma'lum darajada mablag' sarflashi va hatto tashabbusini rag'batlantirishi lozim.



**Rahbar karyerasining an'anaviy tasavvurlari chizmasi (F.S. Ismagilova bo'yicha)**

Karyeraning (A) «shakllanish» bosqichi, taxminan, 24 yoshdan 44 yoshgacha davom etib, uning o'zi uchta kichik bosqichga bo'linadi. (a) «Sinov» bosqichi – 25 yoshdan 30 yoshgacha davom etadi. Bu muddat ichida xodim o'zi tanlagan

ish unga to'g'ri kelishi yoki kelmasligini hal qiladi. Agar to'g'ri kelmasa ishini o'zgartirish uchun harakat qiladi. (b) 30 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan davrda xodim «stabilshuv» bosqichidan o'tadi. Bunda xodimning professional maqsadlari to'liq

shakllanib, ulardan asosiylari ko'tarilishi uchun kurash, faollik, ishni rivojlantirish uchun turli o'quv dasturlari va boshqalar. (v) Va, nihoyat 35-45 yoshlar mobaynida «karyera inqirozi» bosqichi boshlanishi mumkin. Bu davr mobaynida xodimlar o'z muvaffaqiyati, siljishida birlamchi maqsadlarga qaraganda yuqori baho berib yuboradilar. Shuningdek bu davrda inson o'z hayoti mehnat va karyeraning qanday o'rin tutishini aniqlab olishi kerak.

(B) «Saqlanish» bosqichi – 45-65 yoshlar davomida ro'yi beradi. Bu bosqichda xodim odatda o'z o'rnini topib, endi barcha harakatlari erishilgan yutuqlarini saqlab turishga ketadi.

(V) «Faollik pasayishi» bosqichi nafaqa davri yaqinlasha boshlanishi bilan yuzaga keladi. Bunda xodimlar javobgarlik, hokimiyat, quvvat va shijoatdagi cheklanganligi bilan murosqa qilib, yangi amplua, ya'ni yoshlar uchun maslahatchi sifatida namoyon etishni boshlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ustuvor ijtimoiy-madaniy vazifalardan biri bu shaxsning kasbiy sohada samarali o'zini o'zi anglashi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, kamsitishning barcha turlarini, shu jumladan. qavat bo'yicha. Ayollarning kasbiy karyerani qurish muammosi murakkab va ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik fanlar chorrahasida joylashgan.

Kasbiy karyerani qurishning gender xususiyatlarini sotsiologik o'rganish natijasida quyidagilar aniqlandi:

- gender omili erkaklar va ayollarning ijtimoiy

funksiyalarini, ularning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini (shu jumladan, kasbi bo'yicha) va karyerani ko'tarilishini, bo'sh vaqt resurslarini, siyosiy va jamoat hayotida ishtirok etishini, ishchilarning o'zini o'zi identifikatsiya qilishini oldindan belgilaydi;

- ushbu sotsiologik muammolar G'arb mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan, shu bilan birga ilmiy bilimlarning ushbu sohasidagi mahalliy tadqiqotlar etarli emas;

thinking decreased - 12.5%, in contrast to the data obtained as a result of input diagnostics - 43.75%; the differences are significant ( $\square = 2.045$  at  $p \leq 0.05$ ). This means that after the implementation of the art therapy program, low levels of thinking development became less common in this group.

**Conclusion.** Art therapy classes for the development of mental cognitive processes in preschoolers contributed to significant improvements in the acquisition of educational material in English lessons. As a result of the lessons, the indicators of volume, distribution and switching of attention, short-term and operative memory, thinking: the ability to classify concepts according to a general characteristic changed. With all the variety of existing art therapy methods, the effectiveness of their use will depend on the correct structure of the entire lesson and the competence of the teacher.

**REFERENCES**

1. Alekseeva M.Yu. Development of creative thinking of junior preschoolers using art therapy (based on the material of teaching a foreign language): Diss. Ph.D. ped. Sci. 2017. 244 p.
2. Vachkov I.V. Fairy tale therapy: development of self-awareness through a psychological fairy tale. M.: Os-89, 2011. 288 p.
3. Karelin A. Great encyclopedia of psychological tests. M.: Eksmo, 2017. 416 p.
4. Kiseleva M.V. Art therapy in working with children: a guide for child psychologists, teachers, doctors and specialists working with children. St. Petersburg: Rech, 2018. 160 p.
5. Lebedeva L.D. Art therapy practice. Approaches, diagnostics, training system. St. Petersburg: Rech, 2013. 260 p.
6. Israilova Dildora Atxamovna, Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna. (2022). IMPROVING METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN THROUGH FAIRY TALES (ON THE EXAMPLE OF PREPARATORY GROUPS). Current Research Journal of Pedagogics, 3(04), 28–32. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-04-07>



*Dilfuza URINBAYEVA,*  
*mustaqil tadqiqotchi*  
*E-mail: mutallibjonov1985@mail.ru*

*Jamoat havfsizligi universiteti dotsenti, PhD X.D. Xaqnazarov taqrizi asosida*

## THE NATURE AND CONTENT OF THE MILITARY PATRIOTIC SYSTEM

Annotation

This article provides information about the patriotic factors of attracting young people to the military field in military educational institutions. The purpose of the article is to create a sense of patriotism among citizens, to involve them in strengthening the country's defense capabilities, and to develop military skills necessary for the defense of the homeland.

**Key words:** patriotism, military education, homeland defense, military profession, military security, patriotic education.

## СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В данной статье представлена информация о патриотических факторах привлечения молодежи на военную службу в военно-учебных заведениях. Цель статьи – сформировать у граждан чувство патриотизма, вовлечь их в укрепление обороноспособности страны, развить военные навыки, необходимые для защиты Родины.

**Ключевые слова:** патриотизм, военное образование, оборона Родины, военная профессия, военная безопасность, патриотическое воспитание.

## HARBIY VATANPARVARLIK TIZIMINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Аннотация

Mazkur maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik tizimining mohiyati va mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan. Fuqarolarda vatanparvarlik hisini shakllantirish, ularni mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga jalb qilish va vatan himoyasi uchun zarur bo'lgan harbiy ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, harbiy ta'lim, vatan himoyasi, harbiy kasb, harbiy xavfsizlik, vatanparvarlik tarbiyasi.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatida tinchlikparvarlik yo'lini tutgan holda, bir vaqtda o'z fuqarolarining xavfsizligi, tinchlik va barqarorligini ta'minlash mas'uliyatini zimmasiga oladi. Bu borada mamlakatimiz, o'zining boy tarixiy va harbiy merosidan ilhomlanib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning jangovar an'alarini munosib ravishda davom ettirishga intiladi.

O'zbekistonning harbiy xizmatchilari, o'z vazifalariga sadoqat bilan yondashib, el-yurt himoyasi yo'lida mard va jasur bo'lish bilan birga, metin qalqon vazifasini o'taydi. Ular, O'zbekistonning chinakam vatanparvar bahodirlari sifatida tan olinishi va bu borada xalqimiz ularga cheksiz hurmat va ehtirom bilan qaraydi. Shuning uchun, har bir O'zbekiston fuqarosi, Vatan posbonlari bo'lgan bu botir va dovyurak harbiylarimiz bilan haqli ravishda faxrlanadi va ularning jasorati va qahramonligi har doim yuksak qadrlanadi.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik yillarida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish va harbiy kasblarni egallash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida[1], A. Bo'tayev. "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi" o'quv-uslubiy qo'llanma[2], A.R. Mirzayev. "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari"[3], K.R. Abdullayev "Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish" (Axborot ta'lim muhitida) Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatida[4] harbiy vatanparvarlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-soni Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-

yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 28-iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4375-son qarori, 2019-yil 12-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-sonli qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bo'yicha o'rganilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlari olingan. Harbiy akademik litseylar, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mafkuraviy va uslubiy-metodologik xususiyatlari o'rganilgan.

### Tadqiqot ilmiy yangiligi.

Mustaqillik yillarida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tarixiy tahlillar olib borish, harbiy sohaga o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini kengaytirish;

Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va harbiy qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish.

harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish.

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarini shakllantirish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ruhiy va ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan muhim jarayondir. Bu jarayon yoshlarda zarur hayotiy bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlar hamda mustahkam iroda va yuksak ma'naviy-axloqiy



qadriyatlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tarbiya usullari yoshlarning ongiga, ruhiyatiga va amaliy faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lib, ularni jangovar ruhda va fuqarolik fazilatlarini bilan boyitadi. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi: ishonitirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'rnak ko'rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

**Tahlillar va natijalar.** Tadqiqotimiz natijasida biz harbiy vatanparvarlik tizimining mohiyati va mazmuni quyidagi asosiy komponentlarga bo'lishimiz mumkin:

Harbiy vatanparvarlik, avvalo, fuqarolarda vataniga muhabbat va sadoqat, tarix va madaniyatga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon, ta'lim tizimi orqali, jumladan maktablar, kollejlari va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Vatanparvarlik darslari, tarixiy sanalar va milliy bayramlar nishonlanishi bu jarayonning ajralmas qismidir.

Harbiy-targ'ibot ishlari: Harbiy vatanparvarlik tadbirlari, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Bular yoshlarga harbiy hayotni yaqindan tanishtirishga yordam beradi va ularda harbiy kasbga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi.

Harbiy o'quv yurtlari va kurslar: Maxsus harbiy o'quv yurtlari va tayyorgarlik kurslari yoshlarga harbiy bilimlar va ko'nikmalarni o'rgatish bilan bir qatorda, ularni jismoniy va psixologik jihatdan harbiy kasbga tayyorlaydi. Bunday ta'lim yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Harbiy-sport musobaqalari va mashqlar: Jismoniy chiniqtirish va sport musobaqalarida ishtirok etish yoshlarni nafaqat jismonan, balki ma'nan ham mustahkamlaydi. Bular orqali ular jamoada ishlash, o'zaro hamkorlik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa harbiy kasb uchun zarur xislatlardir.

Qahramonlar va namunali shaxslar bilan uchrashuvlar: Tarixiy va zamonaviy qahramonlar, jangchi-veteranlar bilan uchrashuvlar tashkil etish yoshlarga ularning tajribalaridan o'rganish imkonini beradi. Bu tadbirlar yoshlarda vatanparvarlik hisi va harbiy kasbga hurmat tuyg'usini oshiradi.

Media va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot: Televizion dasturlar, film va hujjatli filmlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik va harbiy mavzularni yoritish orqali yoshlar orasida harbiy kasbga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish mumkin.

Bu kabi tashabbuslar yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi va ularda vatanparvarlik hisi bilan bir qatorda, harbiy kasbga bo'lgan intilish va tayyorgarlikni ham rivojlantiradi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirish muhim vazifalardan biridir, chunki bu yoshlar orasida milliy g'urur, mamlakatga sodiqlik va himoya qilishga tayyor bo'lish tuyg'ularini rivojlantiradi. Bu jarayon quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:



1-rasm. Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning usullari.

Bu usullar yordamida yoshlar o'z vataniga bo'lgan muhabbat va mas'uliyat hisini chuqurroq his qilishadi va zarur vaziyatlarda uni himoya qilishga tayyor bo'ladilar. Xalqning tinch hayoti va mamlakat xavfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ygan yosh mamlakat mustaqilligini qo'riqlaydigan Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida yozilgan: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston har bir fuqarosining burchidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatni himoya qilish nafaqat davlatning, balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Bu prinsip, O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida fuqarolarning faol ishtirokini anglatadi. Fuqarolarning bu burchi, ularning Vatanga bo'lgan sadoqati, mamlakatning kelajagi uchun mas'uliyat hisi va milliy g'ururni o'zida mujassam etadi.

Bu burch turli shakllarda namoyon bo'ladi: harbiy xizmat, fuqarolik himoyasi, ekologik muhofaza va ijtimoiy himoyaga qo'shilish kabi. Harbiy xizmat, fuqarolarni mamlakat chegaralarini himoya qilishga tayyorlashni o'z ichiga oladi, bu esa O'zbekistonning mustaqilligini va xavfsizligini kuchaytiradi. Fuqarolik himoyasi, favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish va zarar ko'rishini kamaytirish choralarini ko'rishni talab etadi. Ekologik muhofaza, atrof-muhitni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy himoya esa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatda

barqarorlik va adolatni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, fuqarolar o'z burchlarini turli ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar orqali, masalan, soliqlarni vaqtida to'lash, qonunlarni hurmat qilish, jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi turish kabi ko'rinishlarda ham bajarishlari mumkin. Bu harakatlar O'zbekistonning kelajagini yanada yorqin va barqaror qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchi bo'lib, bu ularning Vatanga, uning qonunlari va qadriyatlariga bo'lgan hurmatining ifodasidir. Har bir fuqaro o'z burchini anglagan holda, mamlakatning ravnaqiga hissa qo'shishi lozim. Bu esa, nafaqat jamiyatning, balki har bir shaxsning farovonligiga olib keladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish kabi Mard o'g'lon haqida Mahmud Zamaxshariy yozadi: "Mard kishi mag'lub bo'lgani bilan uning martabasi past bo'lmas, mashaqqatu tashvishga giriftor bo'lsa-da, xor bo'lmas"[5]. O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson, vatanparvar jonkuyar sifatida tarbiyalash juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunday tarbiya jarayonida mustaqillikning olib kelgan imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, boy tarixiy va ma'naviy merosimizdan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish uchun tayyorlash Davlat miqyosidagi vazifa sanaladi. Shu vazifani hal qilishda "Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida chaquiruvga qadar tayyorgarlik

o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi"[6].

Yoshlarga beriladigan harbiy ta'lim, ularga harbiy qismlarda o'tkaziladigan o'quv-jangovar mashqlar, harakatlar va amallarni muntazam takrorlash orqali o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon natijasida yoshlar zarur harbiy bilimlar va kasbiy ko'nikmalarni egallaydi, bu esa ularning harbiy sohadagi mahoratlarini mustahkamlab, vatan himoyasiga tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, chuqur fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash ham dolzarb ahamiyatga ega. Vatanparvarlik, yuksak insoniy fazilatlaridan biri sifatida, Hadisi Sharifda ham "Vatanni sevmoq – iymondandur" deb ulug'lanadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarda milliy g'urur va ruhiy barkamollikni rivojlantirishga, shuningdek, ularning milliy o'zlikni chuqurroq anglashga intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqimizning bugungi avlodlari o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan tan olinishini qadrlashi kerak, chunki bu meros ularni milliy o'zlikni anglashga va o'zlarini dunyoda munosib o'rin egallashga undaydi.

Umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni, shu jumladan oliy ta'lim dargohlarida ta'lim olayotgan talaba – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi[7]: yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish; milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

Darhaqiqat, Vatanga bo'lgan chinakam sadoqatli himoya qilishga qodir bo'lishni ham talab qiladi. Shunday ekan, o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon har tomonlama ya'ni nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga olishi kerak.

**Xulosa va takliflar.** Darslarni takomillashtirish: "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fanini yanada rivojlantirish, uning o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish. Bu fan doirasida o'quvchilarga Vatanni himoya qilishning ahamiyati va usullari shuningdek, milliy qahramonlik tarixi haqida bilim berish muhimdir.

Amaliy mashg'ulotlar: Nazariy ta'lim bilan birga, amaliy mashg'ulotlarni ham joriy etish. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarga nafaqat asosiy harbiy ko'nikmalarni, balki jamoaviy ishlash, rahbarlik qilish va strategik fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishi mumkin.

O'quvchilarning daxldorligini oshirish: Ta'lim muassasalari o'quvchilarning vatanparvarlik hisini kuchaytirish maqsadida turli tadbirlar, muloqotlar va majlislar tashkil etishi mumkin. Bu tadbirlar orqali o'quvchilar Vatan tarixi va madaniyatiga yanada chuqurroq sho'ng'ishi mumkin.

O'zaro Hamkorlik va aloqalarni mustahkamlash: Turli ta'lim muassasalari orasida harbiy tanlov va mashg'ulotlar olib borish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha masalalar boslang'ich harbiy tayyorgarlik fanni maktabning quyi bosqichidan o'rganish asosida harbiy sohaga yanada qiziqishlari ortib boradi. Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida "Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, unga uch narsa bilan imtiyoz bersinlar: faxrli xitob, tug' va nog'ora topshirib, uni «bahodir» deb atasinlar; uni davlat va saltanat sherigi (deb) bilib, kengash majlisiga kirgizsinlar; unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga bo'ysunsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to'rani (xon o'g'lini) yengsa yoki biron amirzodaga shikast yetkazsa, yo biror o'lka xonini mag'lub etsa, uni yuqoridagi tartibda mukofotlasinlar"[8].

Hulosa qilib, yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasining modernizatsiyalashuvini yildan yilga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, bu esa yurtimiz tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashning garovidir. Ulamolardan biri: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidir"[9], – deb aytgan. "Alxosil, Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"[10] deb bejizga aytilmagan. U jamiyatni rivojlantiruvchi, shaxsni faol fuqaro maqomida o'z Vatanga fidoyi bo'lib xizmat qilishga safarbar etuvchi ichki kuch sifatida xizmat qiladi va ijtimoiy hodisa sifatida har qanday millat va davlatning yashashi va rivojlanishini mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. T.: O'zbekiston nashriyoti. 2003 yil.
2. A. Bo'tayev. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'quv-uslubiy qo'llanma.
3. A.R. Mirzayev. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari. Toshkent O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti 2023 yil
4. K.R. Abdullayev. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish (Axborot ta'lim muhitida) Pedagogika fanlari falsafa doktori ... (PhD) dis. Avtoreferati. 2023 yil
5. Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov. – T.: Kamalak, 1992. – 55-b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-sentabrdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-718-sonli Qonuni 13-moddaning birinchi qismi, 30.09.2021-y., 03/21/718/0920-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son qarori.
8. Temur tuzuklari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. - 64-b.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.4-bet.
10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.5-bet.



UDK:46; 341; 36;

*Muhayyoxon USMONOVA,*  
*Qo'qon DPI biologiya kafedrası dotsenti, PhD*  
*Mashhuraxon ISABAYEVA,*  
*Qo'qon DPI biologiya kafedrası dotsenti, PhD*  
*E-mail: usmonovamuxayyoxon@gmail.com*

*Qo'qon DPI dotsenti M.Axmadjonova taqrizi asosida*

### BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING ILMYI-METODIK JIHATLARI

Аннотация

Maqolada biologiya o'qitish metodikasi o'quv kursida o'quvchilarning ham maktabdagi biologiya fanida, ham kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasida biologiyaga bo'lgan qiziqishlarining rivojlanishiga, boshlang'ich kasbiy mahoratini shakllantirishga, amaliy ko'nikmalarni egallash yo'llari asoslab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy faoliyat, individual xususiyat, kasbiy xususiyat, kasb-hunarga yo'naltirish, kasbiy pedagogik faoliyat, o'qituvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, kasb tanlashga tayyorlash.

### НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация

В статье рассматривается развитие интереса студентов к биологии, формирование основных профессиональных навыков, а также пути приобретения практических навыков на курсе методики преподавания биологии.

**Ключевые слова:** Профессиональная деятельность, индивидуальные особенности, профессиональные характеристики, профориентация, профессионально-педагогическая деятельность, саморазвитие педагога как личности, подготовка к выбору профессии.

### SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL ORIENTATION OF STUDENTS IN TEACHING BIOLOGY

Annotation

The article discusses the development of students' interest in biology, the formation of basic professional skills, as well as ways to acquire practical skills in the biology teaching methodology course.

**Key words:** Professional activity, individual characteristics, professional characteristics, career guidance, professional pedagogical activity, self-development of a teacher as an individual, preparation for choosing a profession.

**Kirish.** Respublikamizda yosh avlodning har tomonlama barkamol ulg'ayishi, zamonaviy kasbiy bilimlarni puxta egallashi, iste'dod va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. "Zero, o'g'il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqur o'qitish hududlarida yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi".

Umumta'lim maktablaridan boshlab, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'ini tashkil etish vazifasi qo'yildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, kasbga qiziqishini oshirishning psixologik-pedagogik asoslari D.Arziqulov, R.Asamova, U.Inoyatov, Sh.Ne'matov, X.Rashidov, Sh.Sharipov, biologiya

o'qitish metodikasini takomillashtirish va biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning tashkiliy-metodik asoslari I.Azimov, O.Mavlonov, S.Najimova, A.Raximov, J.Tolipova, N.Toshmanov, Sh.Xasanova, G.Ergashevalar. Olimlar tomonidan maktabda kasbga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadlari, vazifalari, tarkibiy komponentlari, psixologiya sohasida kasbiy o'z-o'zini aniqlash, psixologik, psixologo-fiziologik metodikalar, kasbga yo'naltirishning asosiy shakl va metodlari tadqiq etilgan bo'lsa-da biologiya darslarida kasbga yo'naltirish metodikasi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida asoslanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari zamonaviy yondashuvlarini maqsadi, mazmuni, tashkiliy tasnifiga muvofiq holda ilmiy asoslanganligi, tizimli-funksional, kompleks, tabaqalashtirilgan yondashuvlarni kasb tanlashga doir "Men xohlayman", "Men qila olishim kerak", "Men qilaman" klassik uchlik tizimni biologik ta'lim mazmuni bilan dialektik uyg'unlashuviga erishish imkoniyatining kengaytirilganligi, integrativ yondashuv asosida biologiya fanini kasbga yo'naltirib o'qitishning metodik tuzilmasining aniqlashtirilganligi, tsitologik, genetik, evolyutsion, ekologik soha bilan aloqador "odam-tabiat" turiga mansub kasblarni dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarga o'rgatib borish yo'llarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiya fanini kasbga yo'naltirib o'qitishning didaktik modelining ishlab chiqilganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning amaliy imkoniyatlari aniqlashtirilganligi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish, moyilligi va qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbiy qobiliyatini diagnostika qilish metodikalari modifikatsiyalangan variantlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Kasbga yo'naltirish— bu turli sohadagi bilimlarga ta'sir qiladigan murakkab muammo.

Kasbga yo'naltirish - bu yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlash va kasbiy sohalarga yo'naltirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik va tibbiy-fiziologik vazifalarni hal qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat muassasalarining har bir shaxs individual xususiyatlariga mos keladigan ilmiy va amaliy faoliyatini ko'p o'lchovli, ajralmas tizimi, jamiyatning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini yoritadi.

O'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash uzoq va ko'p qirrali jarayondir. A.Ye.Izmailov kasbni to'g'ri tanlash axloqiy fazilatlarini shakllantirish va fan asoslari bo'yicha o'quvchilar bilimlarini rivojlantirish darajasini oshirishning zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan tushuncha mohiyatini aniqlashda asosiy e'tibor, avvalo, ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida shaxsning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Kasbiy yo'naltirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni nafaqat ma'lum bir kasbiy tanlovni qo'llab-quvvatlash sifatida, balki bir qator o'ziga xos kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus ta'lim faoliyati yo'nalishi sifatida ko'rib chiqishga ham e'tibor qaratish lozim.

Kasbiy qobiliyatlar— bu faoliyat samaradorligini ta'minlaydigan aqliy jarayonlarning xususiyatlari (idrok, xotira, diqqat va hk.) va psixomotor funksiyalar. Kasbiy qobiliyatlarni shakllantirishning 4 ta bosqichi mavjud:

1. Faoliyatga kirish (o'quvchi faoliyatni ko'rsatmalarga muvofiq o'z tajribasiga ega bo'lmagan holda o'zlashtiradi, kasbiy qobiliyatlar tizimi hali shakllanmagan. Asosiy kasbiy muhim sifati uzoq muddatli xotiradir)

2. Birlamchi kasbiylashtirish (asosiy kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishning birinchi bosqichi. Axborotni qabul qilishga mas'ul bo'lgan kasbiy fazilatlarining roli ortadi).

3. Barkarorlashtirish (axborotni qabul qilish va qayta ishlash uchun mas'ul bo'lgan kasbiy qobiliyatlar birinchi o'ringa chiqadi. Faoliyat individual usulida amalga oshirila boshlaydi. Sub'yekt kasbiy qobiliyatlar tizimidan shaxsiy tajribaga asoslangan kasbiy tajriba to'plash faoliyatini amalga oshirishga o'tadi.

Kasbiy faoliyat motivatsiyasini shakllantirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: shaxsning umumiy motivlarini kasbiyga aylantirishda va kasbiylik darajasining o'zgarishi munosabati bilan kasbiy motivlar tizimini o'zgartirishda. Birinchi yo'nalishni amalga oshirish shundan iboratki, kasbiy rivojlanish jarayonida inson ehtiyojlari kasbiy faoliyatda o'z o'rnini topadi. Shaxsning umumiy motivatsiyasi kasbiy tarkib bilan to'ldiriladi. Shaxs motivlar tizimi uchun kasb talablarini sinab ko'radi va kasbni unga bo'lgan ehtiyojining ortib borayotgan sonini qondirish imkoniyati nuqtai nazaridan baholaydi. Kasb insonning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun qanchalik ko'p imkoniyatlar yaratsa, uning kasbiy faoliyatga jalb qilinishi shunchalik yuqori bo'ladi. Kasb shaxs uchun mazmun kasb etganda, inson mehnat faoliyatida eng yuqori samaradorlikka erishadi. Mazmuni inson uchun kasblarning shaxsiy ahamiyati, mehnatga xolisona, shaxsan vositachilik munosabati bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun inson o'zi uchun kasbning barcha yangi ma'nolarini ko'ra olishi kerak.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kasbning ijtimoiy ahamiyati va qiziqtirishi tanlash uchun eng muhim

sababdir, maxsus qobiliyatlar, amaliy tajriba, moddiy sabablar tanlovning muhim sabablaridan biri. Bizning fikrimizcha, to'g'ri kasbni tanlashda yuqoridagi sabablarni yetakchi deb atash mumkin. Boshqa barcha sabablar, shubhasiz, muhim, ammo asosiy bo'lmasligi kerak.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy o'zini o'zi aniqlash muammosi hamma uchun, ayniqsa, maktabni bitirish arafasida nihoyatda dolzarbdir. Yoshlar o'z kelajagini, kar'yerasini qurish uchun kasb tanlashga harakat qiladi. Kasbiy o'zini o'zi aniqlash - bu shaxsning shakllanish tomonidan hisoblanadi.

Insonning bo'lajak kasbini aniqlashi bolalikdan boshlanadi, o'yin chog'ida bola turli xil kasbiy rollarni bajaradi va ular bilan bog'liq xatti-harakatlarni bajaradi. Kasbiy o'z-o'zini aniqlash erta o'spirinlik davrida kelajakdagi butun hayotga ta'sir qiladigan qaror qabul qilish zarur bo'lganda muxim urin tutadi.

Yuqori sinflar orasidagi davrda o'quvchilar kasblarni yoki ish sohasini boshlang'ich elementar tahlilini o'tkazish uchun foydalanishi kerak, ular bilan o'quvchilar maxsus kasbiy rahbarlik faoliyati davomida tanishadi, ular ikkita asosiy narsani aniqlashlari zarur: kasb mazmuni va zarur qobiliyat va ko'nikmalar.

Yuqori sinflarda ushbu stereotipni har xil kasbiy materiallarda paydo bo'lgan kasbiy manfaatlarga muvofiq ravishda o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi tarbiyalashni kasbiy qiziqishlar bilan birlashtirish kerak. Shuni ta'kidlash joizki, 10-11-sinflarda yetakchi motivlarni rivojlantirish juda muhim, o'z qiziqishlari doirasida o'z kuchini amaliy sinab ko'rish, kasb talablari va o'quvchining qobiliyatlari o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlash bo'yicha ish olib borish va shu bilan birga, barqaror tanlash pozitsiyasini shakllantirish juda muhimdir, chunki aynan shu davrda kasbiy o'zini o'zi aniqlash jarayoni yakunlanadi.

Kasb tanlashda har bir o'quvchiga shaxsiy yondashuv biologiya bilan bog'liq holda kasbga yo'naltirish metodikasining uchinchi sharti hisoblanadi. Mazkur sharoit tajriba-sinov ishlarida kasbiy maslahat mazmun komponenti sifatida kiritiladi. Maslahat jarayonida, asosiy, darsdan tashqari ishlarda bir qancha vazifalarni bajarish: kasbiy muhim xususiyatlarini diagnostikalash, kasbiy moyilliklarning berilishi va o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashda psixologik metodikalardan foydalanish; maxsus topshiriqlarni bajarish orqali turli kasblar tanishtirishni amalga oshirish; individual suhbatlar orqali zarur kasbiy sifatlarini amalga oshirishda o'zini o'zi tarbiyalashga yo'naltirish. Ushbu sharoitlar individuallashtirish va kasbga bo'lgan individual xususiyatlarni, talablarni, tarbiyalash orqali kasbga yo'naltirish ishlari samaradorligini belgilaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, kasbiy yo'naltirish sohasidagi pedagogik, psixologik va metodik tadqiqotlar tahlili ushbu sohaning uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Diagnostik kontseptsiyaga muvofiq kasbga yo'naltirish ishlari maktab o'quvchilarining qobiliyati, kasbiy moyilligi, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan bog'liq holda shaxsiy qiziqishlarining o'zaro moslashishini taqozo etadi.

Kasbni ongli ravishda tanlash - inson shaxsi rivojining muhim shartlaridan biridir. To'g'ri tanlangan kasb jamiyatda o'z o'rnini topishga imkon beradi. Hozirgi davrda o'quvchilar o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasbni tanlashlarida aynan maktab ko'makchi bo'ladi. Shunday ekan, maktabda biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiyaviy jarayonning bir qismi hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25 yanvar 2018 yildagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53133-son Farmoni.// <http://uza.uz/oz/documents/umumiy-rta-rta-makhsus-va-kasb-unar-talimi-tizimini-tubdan-t-25-01-2018>.
2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psix. fan. nomz... diss. avtoref. -T.: 2002. - 22 b.
3. Karimova N.A., Ergasheva G.S. O'quvchilarning o'zlashtirish sifatini ta'minlashga psixologik va genetik yondashuv// Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. 6 son -2016 103-107 b.b.
4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. - T.: O'qituvchi, 2002. - 126 b.
5. Sharipov Sh.S. va boshq. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2007. 146 b.
6. Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. P.f.d. diss. O'zMU-2018 y., - T.:



- 
7. Ergasheva G.S. Biologiyani o'qitishda kasbga yo'naltirish tarbiya va ijtimoiylashtirish yo'nalishi sifatida. // "Tabiiy fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar, ekologik havfsizlik, ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TDPU, Toshkent-2020 y. 14. 04.



**Baxrombek XAITBAYEV,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*  
E-mail: [khaitbaevbakhrombek@gmail.com](mailto:khaitbaevbakhrombek@gmail.com)

*Ped.f.b.f.d (DSc) N.Kushiyeva taqrizi asosida*

## COMPARATIVE METHODS FOR STUDYING SOCIOLINGUISTIC INFLUENCES ON LANGUAGE DEVELOPMENT

Annotation

This article examines the effectiveness of different methodologies in studying the impact of sociolinguistic factors on language development. Addressing a significant research gap highlights the importance of diverse analytical approaches to understand how variables such as age, gender, and social stratification influence linguistic changes. The study employs qualitative methods, such as ethnographic observations and interviews, and quantitative techniques, including corpus linguistics and statistical modelling, to provide a comprehensive overview of sociolinguistic dynamics. Results indicate variances in the suitability of each method depending on the specific sociolinguistic context being analysed. The article contributes to academic discourse by offering a detailed comparative analysis of methodologies, suggesting best practices for future research in sociolinguistics.

**Key words:** Sociolinguistic factors, language development, methodological approaches, comparative analysis, qualitative methods, quantitative techniques, linguistic change, social stratification.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ВЛИЯНИЙ НА РАЗВИТИЕ ЯЗЫКА

Аннотация

В этой статье рассматривается эффективность различных методологий при изучении влияния социолингвистических факторов на развитие языка. Устранение значительного пробела в исследованиях подчеркивает важность различных аналитических подходов для понимания того, как такие переменные, как возраст, пол и социальная стратификация, влияют на языковые изменения. В исследовании используются качественные методы, такие как этнографические наблюдения и интервью, и количественные методы, включая корпусную лингвистику и статистическое моделирование, чтобы дать всесторонний обзор социолингвистической динамики. Результаты указывают на различия в применимости каждого метода в зависимости от конкретного социолингвистического контекста, в котором проводится анализ. Статья вносит свой вклад в академический дискурс, предлагая подробный сравнительный анализ методологий и предлагая лучшие практики для будущих исследований в области социолингвистики.

**Ключевые слова:** Социолингвистические факторы, развитие языка, методологические подходы, сравнительный анализ, качественные методы, количественные методы, языковые изменения, социальная стратификация.

## TIL RIVOJLANISHIGA SOTSIOLINGVISTIK TA'SIRLARNI O'RGANISHNING QIYOSIY USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola sotsiolingvistik omillarning til rivojlanishiga ta'sirini o'rganishda turli metodologiyalarning samaradorligini o'rganadi. Tadqiqotdagi muhim bo'shliqni hal qilish yosh, jins va ijtimoiy tabaqalanish kabi o'zgaruvchilar lingvistik o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun turli xil analitik yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda etnografik kuzatuvlar va intervyular kabi sifatli usullar va miqdoriy texnikalar, shu jumladan korpus tilshunosligi va statistik modellashtirish, sotsiolingvistik dinamikani har tomonlama ko'rib chiqish uchun. Natijalar tahlil qilinyotgan o'ziga xos sotsiolingvistik kontekstga qarab har bir usulning yaroqliligidagi farqlarni ko'rsatadi. Maqola metodologiyalarning batafsil qiyosiy tahlilini taklif qilib, sotsiolingvistika bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlar uchun eng yaxshi tajribalarni taklif qilib, akademik nutqqa hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** Sotsiolingvistik omillar, tilni rivojlantirish, uslubiy yondashuvlar, qiyosiy tahlil, sifat usullari, miqdoriy metodlar, lingvistik o'zgarish, ijtimoiy tabaqalanish.

**Introduction.** The study of sociolinguistic influences on language development is a critical area of research that sheds light on how social variables such as age, gender, ethnicity, and social status contribute to linguistic evolution. This research aims to explore and compare various methodological approaches used to analyze these influences, offering insights into their effectiveness and applicability in different sociolinguistic contexts. The relevance and importance of this research are underscored by the rapid social and linguistic changes occurring globally and within Uzbekistan.

President Shavkat Mirziyoyev has emphasized the significance of understanding and preserving our linguistic heritage while embracing the dynamic nature of language. In his numerous works and lectures, President Mirziyoyev has highlighted the need for comprehensive research into language development as a means of fostering national identity and cultural continuity. The primary goals of this study are to identify the most effective methodologies for studying sociolinguistic factors and to provide a comparative analysis of these methods.

The objectives include examining qualitative methods such as ethnographic observations and interviews, as well as quantitative techniques like corpus linguistics and statistical

modelling. By doing so, this research aims to contribute to the academic discourse on sociolinguistics and offer practical recommendations for future studies. Understanding how sociolinguistic factors influence language development is essential for preserving linguistic diversity and fostering effective communication within multicultural societies. This research not only aligns with the scientific priorities set forth by President Mirziyoyev but also addresses a vital need in the field of linguistics, providing a robust framework for analyzing the intricate relationship between society and language.

**A literature review.** The study of sociolinguistic influences on language development has garnered significant attention over the past few decades, resulting in a substantial body of literature that explores various methodologies for analyzing this complex relationship. This literature review aims to provide a critical evaluation of existing research, highlighting key studies and their contributions, and identifying gaps that this article seeks to address. One of the foundational works in this field is William Labov's seminal study on language variation and change, which established the importance of social factors in linguistic research. Labov's ethnographic approach, which involved detailed

fieldwork and sociolinguistic interviews, set a precedent for qualitative methods in the study of language development[5].

Subsequent studies have built on this foundation, employing ethnographic methods to explore how factors such as social class, age, and gender influence language use in different communities. Quantitative approaches have also played a crucial role in sociolinguistic research. The advent of corpus linguistics has enabled researchers to analyze large datasets of spoken and written language, providing robust statistical evidence of linguistic patterns and trends. [1] Corpus-based studies have revealed insights into how sociolinguistic variables shape language at a macro level, offering a complementary perspective to qualitative methods. In recent years, computational methods have gained prominence, driven by advances in technology and the availability of digital data[3]. Tools such as natural language processing (NLP) and machine learning have been employed to analyze social media data, revealing contemporary language use patterns and their sociolinguistic correlates. These methods offer the potential for real-time analysis and scalability, making them invaluable in modern sociolinguistic research.

**Research Methodology.** The research methodology for this study is designed to provide a comprehensive comparative analysis of different methodological approaches used to study the impact of sociolinguistic factors on language development. This section outlines the research philosophy, design, data collection methods, sampling, and ethical considerations. This study adopts a pragmatic research philosophy, recognizing the value of both qualitative and quantitative approaches in addressing the research problem. A mixed-methods approach is employed, combining elements of both deduction and induction. This allows for a thorough examination of sociolinguistic influences through various lenses, ensuring a well-rounded analysis[6]. The research design involves a sequential exploratory strategy, where qualitative data is collected and analyzed first, followed by quantitative data collection and analysis. This approach enables the initial qualitative insights to inform the subsequent quantitative phase, ensuring that the study captures the complexity of sociolinguistic factors and their impact on language development.

#### 1. Qualitative Methods:

**Ethnographic Observations:** Fieldwork is conducted in diverse linguistic communities to observe language use in natural settings. This method provides an in-depth contextual understanding of sociolinguistic dynamics.

**Interviews:** Semi-structured interviews with individuals from different social backgrounds are conducted to gather detailed information on their language use and sociolinguistic experiences.

#### 2. Quantitative Methods:

**Corpus Linguistics:** Large datasets of spoken and written language are analyzed using corpus linguistics techniques to identify patterns and trends related to sociolinguistic variables.

**Statistical Modeling:** Quantitative data is subjected to statistical analysis to examine the relationships between sociolinguistic factors and language development outcomes[7].

This research methodology provides a clear and structured path for investigating the impact of sociolinguistic factors on language development. By employing a mixed-methods approach, the study leverages the strengths of both qualitative and quantitative techniques, ensuring a comprehensive analysis. The rigorous ethical standards and methodological rigour contribute to the reliability and accuracy of the research findings, ultimately advancing our understanding of sociolinguistic influences on the language.

**Analysis and results.** The analysis of the data collected through qualitative and quantitative methods yielded significant insights into the influence of sociolinguistic factors on language development. The results are presented for both qualitative and quantitative phases. Observations revealed distinct patterns of language use in different sociolinguistic groups. Communities with strong social cohesion had pronounced local dialects and slang, while diverse communities exhibited more linguistic variability. Younger individuals, especially adolescents, showed greater linguistic innovation, incorporating new slang and internet language. Women were more likely than men to adopt new linguistic trends.

Interviews highlighted the impact of peer groups, media exposure, and education on language choices. Participants mentioned pressure to conform to dominant social group norms, leading to code-switching and language borrowing. A generational gap was evident, with older individuals concerned about the erosion of traditional language practices among the youth. Analysis of language corpora showed significant correlations between sociolinguistic variables and linguistic features. Informal language and internet slang were more prevalent among younger age groups. Gender differences were evident, with women using more emotive language. Ethnic background influenced lexical choices, reflecting cultural heritage.

O'zbekistonda oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetkazishga erishildi [5]. Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliygohlarda tahsil olayotgan talabalarining 990 ming 983 nafari davlat oliygohlarida, 317 ming 269 nafari nodavlat oliygohlarida, 35 ming nafardan ko'proq qismi xorijiy oliygohlarda ta'lim olmoqda[9]. (2-diagramma)




Qisqa davr mobaynida nodavlat ta'lim sektori zamonaviy mehnat bozorini o'rganib, ta'limning innovatsion shakllari va usullarini sinovdan o'tkazgan holda, o'zining mobilligini ko'rsatmoqda. Xususiy ta'lim boshqaruvining bozor qoidalariga asoslanishi nodavlat OTMlarining mobilligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi ma'lum. Jamiyatimizda nodavlat oliy ta'limining mavqei jihatdan davlat oliy ta'limiga nisbatan quyidaligi, bu turdagi ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish mehnat bozorida har qanday o'zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Nodavlat OTMlar o'zlarining ta'lim yo'nalishini shakllantirishda faqatgina davlat va fuqarolarning ehtiyojlarini inobatga olmasdan, balki ta'lim makonidagi eng kichik innovatsion o'zgarishlarni ham hisobga oladi. Bu borada muayyan mintaqada joylashgan ma'lum bir korxonada ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitiladigan mutaxassislar qiziqishi bor ish beruvchilarning talablari ham muhim rol o'ynaydi.

Konsepsiyalar va "yo'l xaritalarida" Nodavlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlarini, 1. Nodavlat, shu jumladan davlat xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan shaxslarga huquqiy va uslubiy yordam ko'rsatish; 2. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari[3] asosida amalga oshirish ko'rsatilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, nodavlat OTMlari, davlat OTMlariga qaraganda, ish haqini belgilashda hamda o'z xodimlariga ijtimoiy kafolatlar berishda ko'p jihatdan mustaqildir. Bugungi kunda ham davlat, ham xususiy oliy ta'lim uchun xos bo'lgan ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilar tarkibining yetishmasligi [9] sharoitida nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ushbu defitsitni to'ldirishning o'ziga xos strategiyasi tanlandi. Bu



quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, nodavlat OTMlarda professor-o'qituvchilarga o'quv kurslarining mazmunini belgilashda ko'proq erkinlik berilmoqda; ikkinchidan, ularga ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishning qulay (3-diagramma)



**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda nodavlat oliy ta'lim taraqqiyoti tendensiyalarini belgilashda asosiy vazifalaridan biri nodavlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardosh ustunliklarga erishish yo'llarini asoslash hisoblanadi. Nodavlat OTMning raqobatbardoshligi bu – ta'lim bozorida ma'lum bir davr mobaynida oliy maktabning murakkab xarakteristikasi bo'lib, uning moliyaviy-iqtisodiy, marketing, logistika, kadrlar kabi yana boshqa bir qancha ko'rsatkichlarda raqobatчилardan ustunligini aks ettiradi. Bugungi kunda nodavlat oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- oliy kasbiy ta'lim berishda mobillik. Ko'pgina xususiy OTMlar o'quv dasturlarini bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarning birinchi va ikkinchi mutaxassislik olishlari uchun tuzadilar;

- qo'shimcha oliy ma'lumot berish. Mamlakatimizda ushbu sohada nodavlat sektorni yana-da faol rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud;

- zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarni joriy etish. Bu boradanodavlat OTMlaridan peshqadamlilik talab etiladi;

- masofaviy ta'limda o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Davlat tashkilotlari hamda xususiy sektorga qanday bilim, ko'nikma va malakaga ega kadrlar kerakligini tahlil qilib, ushbu tahlil natijalari asosida masofaviy ta'limda o'quv dasturlarini

imkoniyatlari yaratilmoqda; uchinchidan, ish haqining yuqori darajasi bilan ta'minlash orqali ta'lim jarayoniga katta pedagogik tajribaga ega bo'lgan yirik olimlar jamoasi jalb qilinmoqda.

ishlab chiqish zarur. Xususan, o'quv dasturlarini AQSHdagi kabi konsorsium va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilish maqsadga muvofiq bo'ladi [10].

- nodavlat ta'lim muassasalari qoshida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish. Nodavlat OTMlar o'z kollejlari va maktablariga ega bo'lishi ularga zamonaviy ishlanmalarni amalga oshirishlari uchun o'rta ta'limda kuchli bazaviy asosga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi;

- xorijiy universitetlar, institutlar bilan samarali hamkorlik va integratsiya. Obro'li xorijiy oliy ta'lim muassasalarining mamlakatimizdagi nodavlat OTMlar bilan hamkorlikda filiallarini tashkil etish hamda bu borada davlatning qo'llab-quvvatlashi raqobatbardosh ta'limni yo'lga qo'yishning real yechimlaridan biri hisoblanadi.

- oliy ta'lim muassasalari konsorsiumi, xoldinglarini yaratish. Oliy ta'lim muassasalari konsorsiumi – fan va ta'lim sohasida samarali hamkorlik qilish uchun OTMlarning ixtiyoriy, teng huquqli birlashmasi [11] bo'lib, bugungi kunda raqobatbardosh ta'lim tashkilotlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, nodavlat ta'lim sektori davlat ta'lim muassasalarining mintaqaviy hamda dunyo miqyosida raqobatbardoshlikni mustahkamlash, rivojlantirish tendensiyasiga amal qilishi lozim, shunda nodavlat oliygohlar postindustrial iqtisodiyotning klasterlariga aylanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son qonuni // <https://lex.uz/docs/5013007> ( Murojaat qilingan sana:29. 04.2024)
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.10.2022 yildagi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063> ( Murojaat qilingan sana:15.04.2024)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4545884>. (Murojaat qilingan sana:10.04.2024)
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 440 bet.
5. Shavkat Mirziyoyev. 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha xodimlariga yuborgan tabrigi. 30.09.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6702> (Murojaat qilingan sana 24.04.2024)
6. Valiyev Sh.E., Xayrutdinov S.T., Muminov T.K. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish tendensiyalari va omillari tahlili // Zamonaviy ta'lim / sovremennoye obrazovaniye 2022, 6 (115)
7. Hakimov N.H., Zulfikarov Sh.X., Kadirov N.N. O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida. - Toshkent, "Iqtisodiyot", 2022. -351 bet.
8. Serobov A. Ta'limga tikilgan sarmoya. – Toshkent: "Akademnashr", 2022. – 192 bet.
9. <https://stat.edu.uz/> ( Murojaat qilingan sana:22.04.2024)
10. Mamataliyev T. Masofaviy ta'lim: ta'limning yangi imkoniyatlari // – T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024 y. – 28 b.
11. Максимова Е.А. Структура и задачи образовательного холдинга // Образование и наука. 2013. № 2 (101)
12. Abdujabbarovna E. N., Zoyirovna Y. F. Phenomena Of Happiness In Philosophy And The Meaning Of Life //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. – 2023. – T. 10. – №. 1. – С. 3944-3948.
13. Эшонкулова Н.А. Социально-философский анализ феномена счастья //Кыргыз Республикасындагы илимий изилдөөлөр. – 2019. – №. 1. – С. 35-42.



UDC:373.1

*Temur-Malik YAXSHIBOYEV,*

*Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

*E-mail: temurbek5777@gmail.com*

*GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida*

### CAREFUL EDUCATION IN THE FORMATION OF STUDENTS' CREATIVITY SKILLS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGY EDUCATION

Annotation

This article talks about careful education and its use and history in the formation of creativity skills of students in the process of technology education.

**Key words:** Creativity, creativity, critical, individual, collective, development, thoroughness, education, advanced, indifferent, person, human, analytical, goal, task, technical, lesson.

### БЕРЕЖНОЕ ВОСПИТАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ, УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о бережном воспитании и его использовании и истории в формировании творческих способностей, учащихся в процессе технологического образования.

**Ключевые слова:** Творчество, творчество, критическое, индивидуальное, коллективное, развитие, основательность, воспитание, передовой, индифферентный, человек, человеческий, аналитический, цель, задача, технический, урок.

### TEXNOLOGIYA TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SINCHKOVLIK TARBIIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda sinchkovlik tarbiyasi va uning qo'llanilish, tarixi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy, ijodkorlik, tanqidiy, individual, jamoaviy, rivojlantirish, sinchkovlik, ta'lim-tarbiya, ilg'or, loqayd, shaxs, inson, analitik, maqsad, vazifa, texnik, dars.

**Kirish.** Ta'lim tizimining maqsadi nafaqat bilim tizimini o'zlashtirish, balki o'quvchi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosini tashkil etuvchi ko'nikma va malakalar egallash orqali tajriba va ijtimoiy kompetensiyaga ega shaxsni shakllantirish hisoblanadi. Hozirgi kunda ijodkor, tashabbuskor, hamda serqirra shaxsni tarbiyalash, uni kamol toptirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitishda ularning kasbiy yo'nalganligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu ishni amalga oshirishda o'quvchilarning maqsad va vazifalari e'tiborga olinishi lozim. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda kasbiy ko'nikma, kasbiy tajribani egallash uchun zarur bo'lgan qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu muammolar hamdo'stlik davlatlari olimlaridan T.N.Aleshina, A.P.Belyaeva, T.D.Kolpakova, M.I.Maxmutov, A.M.Novikovlarning hamda vatanimiz olimlaridan SH.S.SHaripov, A.N.Xudoyberganov, O'.Q.Tolipov, T.J.Ismoilov, K.Zayirov va boshqalarning ishlarida qaralgan. Mualliflar kasbga yo'nalganlikni umumta'lim va umumkasbiy fanlar o'rtasidagi fanlararo aloqadorlikning bir shakli yoki shaxsni kasbga yo'naltiruvchi shaxsiy sifatlardan biri sifatida qaragan. Chunki, ana shunday sifatlarga ega bo'lgan kichik mutaxassisgina ishlab chiqarish uchun juda foydali hisoblanadi. Buning uchun esa, o'quvchi ijodkorlikka, shu jumladan, texnik ijodkorlikka qobiliyatli ekanligiga har doim ishonch hosil qilishi zarur va u har kuni o'z hayoti va ish faoliyati mobaynida uchratadigan ob'ektlar mukammal emasligini va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda topilgan echimlardan amaliyotda foydalanish zarurligini bilishi lozim. Bunday oddiy haqiqat esa o'quvchilarda nazariy ta'lim olishlari va o'quv ustaxonalarida, so'ngra ishlab chiqarishda duch keladigan ishlab chiqarish vositalari (moslamalar, asbob-uskunalar, jixozlar) ga nisbatan tanqidiy munosabatlar paydo bo'lishga olib kelish mumkin.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashga oid turli metodik materiallarni tahlil etish asosida, bu jarayonda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilish zarurligi aniqlandi.

1. O'quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishni tarbiyalashni o'qishning birinchi kundan boshlanishi lozim. Buning uchun esa, ularga har xil ishchi amallarda bajarish mumkin bo'lgan ijodiy tomonlarni ochib berish zarur.

2. O'qitish jarayonida guruhdagi o'quvchilarni "kuchli", "kuchsiz" va "o'rta" guruhlarga ajratmaslik. Chunki, bu o'quvchida o'zining qobiliyati va ijodiy faolligi rivojlanishida "kuchsizlik" tomoni mavjudligini aniqlashga imkon bermaydi.

3. O'qituvchi o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonida, agar ko'pchilik o'quvchilarda faollik va tajriba etishmasa, u holda qo'yilgan muammoni hal qilishga jamoaviy tajribani jalb etish.

4. O'quvchilarning mehnatga ongli munosabatini, aniq bilim va ko'nikmalarni egallash hamda texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonidagi ijodiy faolligini doimiy rag'batlantirib borish.

5. Ishlab chiqarish amaliyoti paytida o'quvchilarga texnologik operatsiyalarni bajarishning yangi usullarini ko'rsatish bilan birga, ularga bu usullar mukammal emasligini hamda bundan ham takomillashgan usullar mavjudligini tushuntirish.

6. O'quvchilarning individual faolligini murakkab bo'lmagan texnologik operatsiyalarni takomillashtirishga shaxsiy imkoniyatlarini yo'naltirish yo'li bilan rivojlantirish.

7. O'zida ijodkorlikni namoyon qila olmagan o'quvchilarga bajarayotgan

ishni osonlashtiruvchi, mehnati sifati va samaradorligini oshiruvchi oddiy moslamalar yaratishga yo'naltirilgan texnik topshiriqlar berish.

8. Ijodiy faoliyatni faollashtirishga ishlab chiqarish sharoitlaridagi topshiriqlarga yangilik elementlarini kiritish bilan bog'liq o'ziga xos "qiyinchilik holati" yaratish yo'li bilan erishish.

9. O'quvchilarni o'zlarining ijodiy faolligini rivojlantiruvchi faoliyatga o'rgatish.

O'quvchilarda ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi shartlarga javob beruvchi topshiriqlar ishlab chiqarish zarur:

1) avval o'zlashtirilgan bilim va tajribalarni qo'llash uchun sharoit yaratish kerak;

2) topshiriqlar muammoli, ya'ni mos texnik yoki texnologik masala sifatida hal etilishi talab qilinadigan texnik muammoli vaziyatni saqlashi kerak. Bu shartlarning barchasini amaliy mashg'ulotlarda, uy ishlarini bajarishda va boshqalarda qo'llash mumkin.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy tashkiliy shakli dars bo'lib, bu jarayonda aniq o'quv-tarbiyaviy masala hal etiladi. Dars o'quvchiga bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ularda bilimga qiziqish, faollik, mustaqillikni shakllantiradi. Darslarda ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun esa quyidagi bir qator omillarni e'tiborga olish zarur.

1. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish. Busiz maqsad va unga erishish motiv va vositalari o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lmaydi. Ayniqsa, bunda faoliyat motivlari asosiy diqqatni talab etadi. Chunki, ular ishga qiziqishni, muammoli vaziyat yuzaga kelishini va maqsadga erishishni aniqlaydi.

2. Taklif etiladigan texnik topshiriqlarning tushunarligi. Topshiriqning murakkabligi o'quvchi ijodkorlik faoliyati jarayonining har bir bosqichi bilan qat'iy muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

3. O'quvchilarning individual va jamoaviy ijodkorlik faoliyatlarini birga qo'shib olib borish. U bunday faoliyat nafaqat umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarda, balki darsdan tashqari tashkil etiladigan ishlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu individual ishlarni jamoaviy ishlar bilan optimal ravishda birga qo'shib olib borish imkonini beradi.

4. Ijodkorlik jarayoni uzluksizligi. Amaliyot ko'rsatishicha, epizodik ijodkorlik faoliyatining samarasi juda kam. U aniq bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqish uyg'otish, ishni bajarish jarayonida bilish faoliyatini faollashtirish, hatto muammoli vaziyatning yuzaga kelishiga imkon berishi mumkin. Ammo, epizodiklik hech vaqt mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantirishga, ijodkorlikka intilishga, ya'ni shaxsning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga olib kelmaydi.

5. Ijodiy faoliyat natijaviyligi. O'quvchilar uchun mashg'ulotlarda bajariladigan ishning yakuniy natijasi ancha ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga intilishi, o'z mehnatining natijalariga shodlanmog'i lozim. Ijodiy faoliyat natijaviyligini nafaqat yakuniy natijaga munosabat, balki ijodiy topshiriqlarni bajarishning har bir bosqichiga xos munosabat sifatida qarash lozim.

Bu fikrlarni inobatga olgan holda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning asosiy masalalari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, qobiliyatni rivojlantirish; texnik dunyoqarashni rivojlantirish va kengaytirish, keng tarqalgan mehnat qurollari bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish va malakalarini shakllantirish; konstruktiv fikrlash va o'z ijodiy fikrni rasm, chizma, maket va boshqalar orqali ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirish; texnik ob'ekt qurilmalariga havas va qiziqishni rivojlantirish, qurilmalarni tahlil etishga intilish va takomillashtirishga hohish paydo qilish, yangi qurilmalar yaratish; takomillashtirilgan ob'ektlarni mustaqil ravishda aniqlash ko'nikmasini shakllantirish, oddiy texnik qurilmalar tayyorlash; texnikani takomillashtirish sohasida o'quvchilarning izlanuvchanlik faoliyatiga qiziqishini rivojlantirish.

Afsuski, ana shunday ko'z ilg'amas, oddiy "ikrichikirlarda gap ko'p fikrimizni isbotlash uchun Nyutonning "olmasi"ni eslaylik. Nyutongacha ham qanchadan-qancha kishilar mevalarning daraxtdan uzilib erga tushishini necha bor ko'rishgan, lekin nega shunday degan savol bilan bu hodisaning sababiga qiziqishmagan. Nyutonning sinchkovligi tufayligina ana shu oddiy tuyulgan hodisadan buyuk kashfiyot "Butun olam tortishish qonun" yaratildi. Deyarli barcha kashfiyotlar zamirida buyuk kishilarning sinchkovligiyu, jonini jabborga berib qilgan

mehnatlari yotgani ularning hayot yo'li sahifalaridan ma'lum. Jumladan, Eynshteyndan talanti haqida so'rganlarida "Menda hech qanaqa talant yo'q, bori-o'ta sinchkovli-gu xachirday o'jarlik xolos" degan edi.

Ilm fanning beqiyos rivojida muhim hisoblangan kashfiyotlar zamirida yuqorida ta'kidlanganidek alohida kishilarning sinchkovligi yotar ekan, hozirgi ta'lim tarbiya tizimida va ilg'or pedagogik texnologiyalarda iqtidorli yoshlarni va umuman yosh avlodni sinchkovlik ruhida tarbiyalashga nima uchun etarli e'tibor berilmaydi?

Sinchkovlikni bizningcha "Kishining tevarak-atrofidagi voqea-hodisa va narsalarning o'zi uchun (ba'zan hatto fan uchun ham) no'malum jihatlaridan ta'sirlanib, nega shunday deya e'tiroz bildirish"-deb ta'riflash mumkin. Kishida sinchkovlik tuyg'usi va e'tiroz o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi va shuningdek ilm fan taraqqiyotida faqat sinchkovlikning o'zi ham etarli emas, noxush yoki chiroyli narsalar va hodisalar sababini to'g'ri ilmiy asosda baholash, noxushlarini bartaraf qilishga kirishish kishidan har tomonlama chuqur bilim, iqtidor va ijodkorlik mehnati talab qiladi. Shu ma'noda, sinchkovlikni hali iqtidorlikning nurli cho'qqisi tomon qo'yilgan birinchi va zaruriy qadam deyish mumkin xolos. Cho'qqini zabt etishdagi qiyinchilikni, insonlar yaratuvchilik mehnatini, ilm-fanning buyuk qudratini qadrlaydilar, jonkuyar, xullas har tomonlama barkamol chinakam iqtidorli kishilarni voyaga etkazish kabi muhim vazifani amalga oshirishda esa sinchkovlik tarbiyasi alohida o'rin tutishini qayta-qayta ta'kidlash joiz.

Sinchkovlik tarbiyasi shaxs rivojlanishini ta'minlashning ilmiy-asosi hisoblanishi bilan birga, sinchkovlik tushunchasining o'zi ham keng ma'noga ega. Uni narsa, voqea va hodisalarni jo'n kuzatish va ular haqida yuzaki umumiy xulosaviy tushunchaga ega bo'lishdangina iborat deb, tor ma'noda tushunmaslik kerak. Biz hayotda uncha-muncha narsalarning sababini ko'r-ko'rona biladigan, uning ilmiy asosini bilishdan esa ancha yiroq bo'lgan, so'zi boshqa, dili boshqa kishilarni ko'p uchratamiz. Ilg'or sinchkovlik qarashga moyillik bilan yuksak ilmiy dunyoqarash, kishi ruhiy dunyosining ajralmas bir xususiyatiga aylansagina hamda ular insonning har bir hatti-harakatida, fe'l-atrofidida, mehnatga, atrof-voqea va hodisalarga ilmiy-ijodiy yondoshuvda, aks etib tursagina, haqiqiy sinchkovlik tarbiyasi haqida gap bo'lishi mumkin. Sinchkovlik ijodkorlikdan mahrum bo'lgan ta'lim, quruq hayot uslubiga moslashuvchi loqaydlikni keltirib chiqarishdan tashqari, yoshlarning qimmatli sifati-bilimga ishtiyoqini ham so'ndiradi.

Shu ma'noda sinchkovlik tarbiyasining asosiy vazifasini o'quvchilarda tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni, badiiy kitob, darslik va boshqa manbalarda, narsa va buyumlarda uchraydigan xush-noxush holatlarni payqash, qadrlash kabi xislatlarni shakllantirish va tarbiyalashdangina iborat bo'lmasdan, balki bunday holatlar salbiy oqibatlariga murosasiz munosabatda bo'lib uni bartaraf qilishda faol ishtirok etuvchi buyuk kelajagimiz ongli va jonkuyar quruvchilarni voyaga etkazishdan ham iboratdir.

Sinchkovlik tarbiyasi insonda e'tiroz tuyg'usini uyg'otish hissi bilan bog'liq bo'lib, bu tug'yonni, o'z navbatida, har bir shaxsning ehtirosli ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi qudratli vositani ko'zda tutadi. Demak, sinchkovlik tarbiyasining markazida buyuk harakatlantiruvchi kuch - ilmiy e'tiroz va extiros tuyg'ulari yotadi. Borki kashfiyot va ixtirolarning nega shunday degan ilmiy e'tirozga nima qilmoq kerak degan jo'shqin ilmiy extirosli javob izlash bilan yaratilganligi kashfiyotlar tarixidan ma'lum.

Ta'limda sinchkovlik tarbiyasining ahamiyati - uning voqea va hodisalar noxushligi sababini chuqur idrok etishga yordam berishidan tashqari, uni bartaraf qilish uchun, shaxsni noma'lumliklar bo'yab yurishga da'vat etishi bilan ham g'oyat bebahodir.

Kishi tashqi ko'rinishidan qanchalik kelishgan bo'lmasin, agar u loqayd bilimsiz bo'lsa, ijodiy mehnatdan qochsa, u tekinko'rlikka moyil bo'lib, fikrlashining bachkanaligi ham shundoqqina ko'rinib turadi, bundaylardan hech qachon buyuk kishilar chiqmaydi.

Buyuk ilmiy kishilari yo'q mamlakat esa jonsiz jasadning o'zginasidir. Bu haqda buyuk Fransuz faylasuvi Sen Simonning "Agar Fransiya iqtidorli olimlar 50 nafardan kam bo'lganda u

jonsiz jasadga aylanib qolar edi”, degan soʻzi gʻoyat ibratlidir. Shunday ekan, yoshlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashda loqaydlikdan shunchaki maʼnaviy nafratlanish tuygʻularini emas, balki hissiy nafratlanish tuygʻularini ham singdira borish juda muxim. Zero ular, dangasa, bachkana, landovur loqaydlarni, hushyor va iqtidorli kishilar orasida sanqib yurgan buyuk kelajagimiz oydin yoʻlidagi xira dogʻlar, koʻzga koʻrinmas toʻsiqlar deb biladigan boʻlishsin.

Sinchkovlik tarbiyasi - faqatgina tabiat hodisalari yoki boshqa holatlar sir-asrorlarini bilishda emas, balki odamzod ruhiyati va aql zakovati, goʻzalligi sirlarida ham yaqqol namoyon boʻlishidir. Sinchkov tarbiyasi kishilar koʻchada, teatrdan, avtobusda, jamoa joylarida hamisha oʻzining ilgʻor xulqi, did bilan kiyinishi, oʻzini tuta bilishi, muomala madaniyati va harakatlaridagi aniqligi, sezgirligi bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Ular loqayd kishilar uzoq yillar davomida qiynalib, arang bajarishi mumkin boʻlgan yoki umuman, hech qachon eplay olmaydigan ishlarni mutlaqo qiynalmasdan, tez va puxta uddalay olishi bilan fan, texnika va madaniyat rivoji uchun beqiyos hissa qoʻshishga qodir kishilardir.

Shunday ekan, hatto sinchkovlik tarbiyasini bolalar bogʻchasida bolaning yoshligidan boshlash kerak. Chunki oila va bogʻcha dunyoqarashni shakllantirishning birinchi maktabidir. Ayniqsa bolalarning hadeb hodisalar sababini soʻrayverishiga jiddiy eʼtibor berish kerak, chunki ular juda sinchkov boʻlib, har bir narsaning sababini bilishga qiziqadilar. Maktabda esa ularning ilmiy eʼtiroz va ehtirosi, bilimlar olamiga kirishi, undan bahramand boʻlishi uchun barcha sharoitlar boʻlishi zarur.

Qachonki, shaxsning oʻzligini anglashi va bagʻishlashi zarurati haqida soʻz yuritganimizda, avvalo kishidagi jamiyat uchun oʻta muhim jihat-sinchkovlikning ahamiyatini baʼzan nazardan chetiroqda qoldiramiz.

Oʻquvchida, unday boʻlsa energiya saqlanishining umumjahon qonuni buzilmaydimi degan savol tugʻilishi tabiiy. Bunga javob tariqasida aytish mumkinki, yuqoridagi inson baxti taʼrifi (formulasi)da, soʻz xususan kishining ichki imkoniyati (potensial) va umuman butun insoniyatning ichki sinchkovligi, aynan uning zahiradagi mudrab yotgan imkoniyatlarini uygʻotib, bilimga chanqoqlik va “qaynash” holatiga oʻtkazishning psixologik va pedagogik jihatlarini ochib berish orqali olganidan koʻra koʻproq bera olishiga erishish koʻzda tutilmoqda.

Ana shu savolga javob yoki biz taʼriflagan olganidan koʻra koʻproq berish qonunini hech bir ikkilanmasdan insoniyat evolyusiyasining bitmas tuganmas oltin xazinasini deyishimiz mumkin, aynan ana shunday sinchkov ijodkor kishilar hisobigagina jamiyat har doim olgʻa harakatlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. - Toshkent. 2013. - B. 64.
2. Abduquddusov O.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005. - 160 b.
3. Toʻraev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. boʻy. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. OʻzMU, 2018. -B. 27.
4. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.
5. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко.- (<http://pedsovet.su/publ/26-1-0-841>). 05.04.2010.
6. Boymatov, N. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE CONTENT OF CORPORATE CULTURE IN THE PROCESS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION. Science and Innovation, 1(8), 538-542.
7. ABDUFATAYEV, S. (2024). FANLARARO INTEGRATSIYA-TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING ASOSIY OMILI. News of UzMU journal, 1(1.1. 1), 31-35.

Oldin soʻz yuritilgan Nyutonning “olmasi”ga qoʻshimcha yana Arximedning “vannasi” Nils Finzen (nobel mukofoti egasi) ning “mushugi” yoki “tilla qoʻngʻizi”ni sinchkovlikning yorqin mahsuli sifatida misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Nils Finzen oftobda yotgan mushukning ustiga soya tushganda yana oftob tushib turgan joyga borib yotganini sinchkovlik bilan kuzatadi. Xuddi shu hodisaning davomini bahor kunlarida koʻprik ustida xayol surib turganda kuzatadi, loyqa suvdagi xas-xashak ustida jon saqlab kelayotgan tilla qoʻngʻiz hadeb jon holatda quyosh tomonga burilar, suv oqimi esa yana uni oʻzgartirib oqizar edi.

Ana shu hodisalarga sinchkovlik orqali yoshdoshib u kishilarni quyosh nuri bilan davolash usuliga ilk bor asos solgan edi. Olganidan koʻra koʻproq berish qonuni mohiyatini ochib berishga yuqoridagi misol etarli deb oʻylaymiz. Chunki unga maktabda bu haqida hech bir bilim berilmagan.

Aytilganlarni taʼlim tizimiga joriy etadigan boʻlsak, uni obrazli qilib quyidagi holatlarga qiyoslash mumkin.

Birinchi holat. Sinchkovlik ruhida tarbiyalashni oʻquvchining baland choʻqqi sari oʻnqir-choʻnqir, soʻqmoqli, tikonli, egri-bugri yoʻllar orqali borishga undashning pedagogik va psixologik jihatlarini ochib berishdan izlamoq zarur.

Ikkinchi holat. Bu holatni hozirgi oʻquvchi va ilmiy ishlar tizimida koʻproq kuzatilmoqda, yaʼni yuqori choʻqqiga osma yoʻl orqali osongina borishga qiyoslash mumkin.

Taʼlim tizimida oʻquv reja va dasturlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashni eʼtiborga olmasdan boshqarish nafaqat yoshlarning va hatto yosh mutaxassislarning sifatli boʻlishidagi jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

**Xulosa va takliflar.** Bir soʻz bilan aytganda loqayd kishilar (ayniqsa taʼlim tizimida) uning oʻrnida boʻlgan sinchkovlarga nisbatan jamiyatga oʻrtacha uchdan bir hissa kam foyda keltiradi, buni davlat miqyosidagi masshtabga koʻpaytirilsa, uzluksiz taʼlim tizimida yoshlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashning naqadar dolzarb muammo ekanligi ayon boʻladi.

Shuni taʼkidlashni istar edikki, insonlarning barchasiga koʻz, quloq, tafakkur ato etib, uning olam goʻzalliklaridan bahramand boʻlishiga imkon berdi. Ammo inson koʻzi, qulogʻi va miyasi qancha murakkab tuzilgan boʻlmasin, ularni mukammal, bekamu-koʻst deb boʻlmaydi. Koʻzimiz oʻtmaydigan, qulogʻimiz eshitmaydigan, qoʻlimiz etmaydigan, tafakkurimiz oqizlik qiladigan voqea, hodisa va narsalar shu qadar koʻpki, ularni sanab sanogʻiga etish qiyin ularni faqat oʻta sinchkovlik va chuqur ilmiy izlanishlar orqali idrok qila olamiz.





**Sojida YAXYAYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD*  
*E-mail:sojida@gmail.com*

*Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Sh. Olimov taqrizi asosida*

## GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURLIGI XUSUSIDA

Аннотация

Ushbu maqolada genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender, jins, pedagogika, psixika, pedagogic texnologiyalar, innovatsiya.

## О НЕОБХОДИМОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОРГАНИЗАЦИИ ГЕНДЕРНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье представлена информация о совершенствовании современных технологий организации гендерно-ориентированного образования. Также описаны теория и практика развития социальной активности студенток в системе высшего образования на основе гендерного подхода, философско-социальных особенностей и педагогико-психологических особенностей.

**Ключевые слова:** Гендер, пол, педагогика, психика, педагогические технологии, инновации.

## ON THE NEED TO IMPROVE MODERN TECHNOLOGIES OF ORGANIZING GENDER-ORIENTED EDUCATION

Annotation

This article provides information on the improvement of modern technologies for the organization of gender-oriented education. Also, the theory and practice of developing the social activity of female students in the higher education system based on the gender approach, philosophical-social features and pedagogical-psychological peculiarities are described.

**Key words:** Gender, sex, pedagogy, psyche, pedagogical technologies, innovation.

**Kirish.** MDH mintaqasining ayrim davlatlarida, xususan, O'zbekistonda umuminsoniy huquqlarga, jumladan, xotin-qizlar huquqlariga daxldor yangi mexanizm yaratildi va ayni paytda bunday institutlarning vakolatlarini kengaytirish va ularning samaradorligini ta'minlash davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda o'quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayonning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi.

Shu nuqtai nazardan, gender tengligi muammosini hal qilish nafaqat dolzarb, balki alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek: "So'ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi".

**Maizuga oid adabiyotlar tahlili.** Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish pedagogika tarixida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalarimizning ilmiy yo'nalishlari asosini tashkil etgan [4].

Zamonaviy sharoitda jamiyat xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, ijtimoiy, psixologik yo'nalishlarda amalga oshirilayotganligi ko'zga tashlanadi. Ularning falsafiy metodologik jihatlari Simonade Buvuar, R.Xov, J.Lorber, K.UestvaD.Zimmermann, E.Kuchkina, V.Fesenko, ijtimoiy yo'nalishda V.M.Xvostov, O.Voronina, B.Fridan, E.Zdravomislova, gumanitar yondashuv asosida N.Vulf, K.Mishar-Marshal, K.Riberi, G.Mur kabi

olimlarning ilmiy ishlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida chuqur tahlil etilgan. Pedagog olimlardan M.Quronov, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, E.Turdiqulov, A.Zunnunov, S.Ochil, J.Hasanboev, U.Mahkamov, R.Safyullayevalarning ilmiy izlanishlarida jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy o'rnini shakllantirishga doir xususiyatlarga e'tibor qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** So'nggi yillarda gender tenglikni joriy qilish nuqtai nazaridan ta'lim sohasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi O'RB-562-sonli Qonunining 26-moddasida quyidagilar belgilab qo'yilgan.

Davlat ta'lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

xotin-qizlar va erkaklarning ta'lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta'lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini;

turli ta'lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid ma'rifatini oshirishga ko'maklashishni;

jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan xoli o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni;

o'quv dasturlari va darsliklarni jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipiga muvofiqlik yuzasidan muntazam ravishda monitoring qilishni;

gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma'rifiy tadbirlarni rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni.

Ta'lim sohasidagi vakolatli organ ta'lim dasturlarini, ta'lim muassasalarining dasturlarini hamda rejaralarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar



kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha kursni o'z ichiga olishi kerak[5].

Shundan ko'rinib turibdiki, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli buniyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Rivojlanish davrida izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchaning ijtimoiy tahlili ham amalga oshirilib kelinmoqda. «Gender» atamasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar me'yor tizimi vujudga keladi, tegishli tarzda ushbu jamiyatda «erkaklarga oid» va «ayollarga oid» bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi.

«Gender» so'zi inglizcha «gender», lotincha «genus» so'zlaridan olingan bo'lib, «zot, jins, kelib chiqish» ma'nosini anglatadi. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Gender jamiyatda belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. [2]. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir.

Hozirgi davrda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini belgilash, aniqlash va rivojlantirish gender yondashuv asosidagi ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy, gumanitar munosabatlar asosida o'rganiladi. Oliy ta'lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti falsafiy-ijtimoiy xususiyatlar hamda pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari bilan yoritib beriladi.

XXI asrda uzluksiz ta'lim strategic ahamiyat kasb etib, shaxs va jamiyat hayotida asosiy mavqeni egalladi. Inson faqatgina gender tenglik va o'ziga hoslik hisobga olinib tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida olingan bilim yordamida uzluksiz texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishi mumkin. Bu esa nafaqat mehnat qurollarining mukammalashuvini, balki yangi bilimlarni egallash qobiliyati va kasbiy faoliyatni puxta o'zlashtirishni talab qiladi. [3].

Gender tenglik – «Men» hamda boshqalar o'zaro hamkorligi jarayoni natijasida yuzaga kelgan holda erkaklarga va ayollarga xos xususiyatlarning psixologik-pedagogik adaptatsiyasiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy fanlarning oliy ta'lim tizimida talabalar tomonidan o'rganilishi gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ko'mak beradi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika tarixi, dinshunoslik kabi fanlar talabalarning ijtimoiy-pedagogik faolligini jadal oshishiga imkoniyat yaratib, jamiyatga adaptatsiya jarayonini mukammallashtiradi. Bugungi kunda oila, ta'lim, din, madaniyat kabi ijtimoiy institutlarning talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati mazkur jarayon faolligini oshiradi. Oliy ta'lim tizimida gender tafovutlar va gender stratifikatsiyasi ijtimoiy va pedagogik nuqtai nazardan o'zini oqlaydi.

YUNESKO ning 1998 yil 9 oktyabrdagi anjumanida, oliy ta'lim tizimining maqsadi-zo'rvonlik va zulmdan holi bo'lgan

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 02.09.2019 йилдаги ЎРҚ-562-сон.
2. Boboeva Z., Usmonova Z. Gender tadqiqotiasoslari kursi xrestomatiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003.
3. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: / Rus tilidan qisqar. tarj. Oliy o'quv yurtlari uchun. T.: «O'zbekiston», 2003.
4. Pedagogika tamalar lug'ati. T.: «Fan», 2008.
5. Haydarova X.R. Farzandlarning o'z jinsini anglashi. «Xalq ta'limi» jurnali. T.: 2003. №2.
6. Умаров, Бахриддин «Онлави тарбия сабоқлари» (Оилада фарзандлар тарбиясига оид психологик чизгилар) Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: «Tasvir nashriyot uyi», 2019, 52 б.

jamiyatni barpo etish ekanligi e'tirof etildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullarni qo'llagan holda o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan.

Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil respublikamizda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta'lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limning yuqori bosqichlarigacha bo'lgan bo'g'inlar zimmasiga yuklatilgan[4].

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida gender yondashuv amal qilinishing afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida o'g'il va qiz bolalar manfaatlari hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmasligini yodda tutmog'imiz lozim.

Bunday ta'lim tizimi o'g'il va qiz bolalarning manfaatlari ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan innovatsion ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida gender yondashuv amal qilinishining afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida o'g'il va qiz bolalar manfaatlari hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmasligini yodda tutmog'imiz lozim. Bunday ta'lim tizimi o'g'il va qiz bolalarning manfaatlari ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan innovatsion ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Xususan tadqiqotlar asosida oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish oliy ta'lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish va tahlil qilish yordamida talaba-yoshlar gender farqlarining ta'minlash modelini yaratish zarur.